

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 4



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
4-son
sentabr, 2025

September 2025
Volume 3
Number 4

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидоров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi,iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Инновационная экономика

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Учредитель:

Каршинский инженерно-экономический институт

Главный редактор:

О.Ш.Базаров, кандидат технических наук, доцент,
ректор Каршинского инженерно-экономического
института

Заместитель редактора:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук,
профессор, Каршинский инженерно-экономический
институт

Ответственный редактор:

Г.Т.Самиева, PhD, доцент
Каршинский инженерно-экономический институт

Технический редактор:

Ф.Ф.Хаккулов
Каршинский инженерно-экономический
институт Журнал издается 4 раза в год в
электронном виде через официальный сайт
журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225.

Тел.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» зарегистрирован
Агентством информации и массовых
коммуникаций при Администрации Президента
Республики Узбекистан 10 марта 2023 года за
номером 068055.

Статьи публикуются в журнале на основе следующих рубрик:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика региона и отрасли
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - доктор экономических наук,
профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - доктор экономических наук,
профессор (Белорусский национальный технический университет)

Шевченко Игорь Викторович - доктор экономических наук,
профессор (Кубанский государственный университет, Россия)

Кусаинов Халел Хаймуллаевич - доктор экономических наук,
профессор (Казахстанский государственный технологический
университет)

Самандарзода Искандар Ҳаким - доктор экономических наук,
профессор (Таджикистанский аграрный университет им.
Ш.Шотемура)

Дмитрий Дема - доктор экономических наук, профессор
(Национальный университет Украины, г. Житомир)

Члены Совета редколлегии:

Абдурахмонов Қаландар Ходжаевич - доктор экономических наук,
профессор, академик

Гулямов Саидахор Саидахмедович - доктор экономических наук,
профессор, академик

Юсупов Аҳмадбек Таджиевич - доктор экономических наук,
профессор

Пардаев Мамаюнус Қаршибоевич - доктор экономических наук,
профессор

Вахабов Абдурахим Васикович - доктор экономических наук,
профессор

Махмудов Носир Махмудович - доктор экономических наук,
профессор

Назарова Фатима Хакимовна - доктор экономических наук,
профессор

Муртазаев Олим - доктор экономических наук, профессор

Наврӯз-зода Бахтиёр Неъматович - доктор экономических наук,
профессор

Хатамов Очилди Қурбонович - доктор экономических наук,
профессор

Хамраева Сайёра Насимовна - доктор экономических наук,
профессор

Салимов Бахтиёр Таджиевич - доктор экономических наук,
профессор.

Рустамова Ирода Бахрамжановна - доктор экономических наук,
профессор.

Хуррамов Азамат Файзуллаевич - доктор экономических наук,
профессор.

Хайриддинов Азамат Ботирович - кандидат экономических наук,
доцент.

Бердиев Абдумалик Ҳакимович - кандидат экономических наук,
доцент.

Файзиева Шириш Шодмоновна - кандидат экономических наук,
доцент.

Муҳиддинов Худоёр Суюнович - доктор экономических наук,
профессор.

Омонов Рустам Фармонович - кандидат экономических наук,
доцент.

Эгамбердиева Салима Раимбердиевна - кандидат экономических
наук, доцент.

Равшанов Абдисалом Дусиёрович - кандидат экономических наук,
доцент.

Қурбонов Алишер Бобоқулович - кандидат экономических наук,
доцент.

Турсунов Имомназар Эгамбердиевич - кандидат экономических
наук, доцент.

Алиқулов Азамат Туйғунович - кандидат экономических наук,
доцент.

Эркаева Гулбаҳор Панжиевна - кандидат экономических наук,
доцент.

Аминов Фазлитдин Бахадирович - кандидат экономических наук,
доцент.

Очилова Наргиза Акрамовна - кандидат экономических наук

Панжиев Самижон Алиқулович - PhD, доцент.

Mundarija

Nazariya va metodologiya	11
Agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari	12
<i>Berdiyev Abdumalik Hakimovich</i>	
Raqamli iqtisodiyot	20
Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida masofaviy ta'lim xizmatlarining nazariy jihatlar	21
<i>Yusupov Nurbekjon Xasan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida innovatsion infratuzilmaning shakllanishi va rivojlanishi	29
<i>Xamrayeva Sayyora Nasimovna, Mardonova Go'zal Mamatqul qizi</i>	
Barqaror rivojlanish maqsadlari va xalqaro kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyati	34
<i>Shukurov Sherzod Xolmo'min o'g'li</i>	
Mintaqada raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish istiqbollari	38
<i>Amirkulov Olimjon Adham o'g'li</i>	38
Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti	46
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirish yo'llarining nazariy-uslubiy asoslari	47
<i>Abdirashidov Temurbek Abdirashid o'g'li</i>	
Mintaqa temir yo'l transporti xizmatlari iqtisodiy samaradorligi tahlili	52
<i>Xatamov Ochildi Qurbonovich</i>	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" asosidagi istiqbollar	61
<i>Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li</i>	
Qishloq xo'jaligi mehnat bozori tarkibi va bozordagi resurslardan samarali foydalanish (Qashqadaryo viloyati misolida)	70
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i>	
Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiy rivojlanishidagi tarkibiy o'zgarishlar tahlili	76
<i>Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li</i>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	85
Kichik biznesning raqobatbardoshlik konsepsiyasi	86
<i>Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna</i>	
Chakana savdo korxonalari faoliyati va rivojlanishining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	95
<i>Toshpulatov Bobur Rasul o'g'li</i>	
Kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes subyektlari faoliyatini takomillashtirish	100
<i>Djalilova Shaxlo Ismoiljon qizi</i>	
Inson kapitali iqtisodiyoti	104
Aholini ijtimoiy himoyalashda chet el davlatlari tajribasi. MDH davlatlarida nafaqa islohotlari	105
<i>Samiyeva Gulnoza Toxirovna, Abdiyeva Dilshoda Oybek qizi</i>	
Menejment va marketing	114
Hududlarda to'qimachilik sanoati korxonalari innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmi	115
<i>Xosilov Shavkat Bekmurodovich</i>	
Mehnat resurslarining iqtisodiy mazmuni va ularni samarali boshqarishning nazariy asoslari	120
<i>Haydarova Dinora Atamurot qizi</i>	
Oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	125
<i>Xakimov Temur To'ra o'g'li</i>	
AIM lean (adaptive-innovative-management lean) O'zbekistonda korxonalarining innovatsion rivojlanishining drayveri sifatida	128
<i>Aliqulov Mirjaxon</i>	

Mahalliy boshqaruvning o'rta korxonalarga ta'siri: O'zbekiston va xorijiy tajriba	137
<i>Bekchanov Davron Masharipovich</i>	
Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit	142
Surxondaryo viloyati sanoati tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari iqtisodiy-statistik tahlili ..	143
<i>Xursanov Sherzod Ulaboyevich</i>	
Qishloq xo'jalik samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlili	150
<i>Xatamov Ochildi Qurbonovich, Xaitova Rushana O'ktamovna</i>	
Moliya, kredit va investitsiya	158
Hududlarni innovatsion rivojlantirishda jalb etilgan investitsiyalardan samarali foydalanish tahlili	159
<i>Xatamova Manzura Ochidiyevna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li</i>	
Transformatsiya jarayonida bank aktivlari samaradorligini oshirish usullari	166
<i>Sharipova Dilfuza Jumaniozovna</i>	
Ekonometrika va statistika	172
Қишлоқ хўжалигини оптимал ривожлантиришда эконометрик моделлар: регрессион таҳлил	173
<i>Ибрагимов Нодир Нусриддинович</i>	
Xizmatlar va turizm sohasi	178
Mintaqa xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatning davlat tomonidan	
qo'llab-quvvatlanishining yo'nalishlari	179
<i>Fayziyeva Shirin Shodmonovna</i>	
Turizmni tashkil etishning klaster vositalari	189
<i>Navruz-zoda Zebiniso Baxtiyorovna</i>	
Zamonaviy innovatsion shakllar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	196
<i>Uzaqov Jamshid Norboyevich</i>	
Ziyorat turizmi rivojida davlat ishtirokining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir omillari	203
<i>Uzaqov Norboy, Uzaqov Jamshid Norboyevich</i>	
Avtotransport xizmatlarini baholash xususiyatlari	210
<i>Norqobilov Jahongir</i>	

Содержание

Теория и методология	11
Теоретические и практические основы организации и развития деятельности агрокластеров	12
<i>Бердиев Абдумалик Хакимович</i>	
Цифровая экономика	20
Теоретические аспекты услуг образования и дистанционного образования в условиях перехода к цифровой экономике	21
<i>Юсупов Нурбекжон Хасан угли</i>	
Формирование и развитие инновационной инфраструктуры в системе высшего образования	29
<i>Хамраева Сайёра Насимовна, Мардонова Гузал Маматкул кизи</i>	
Цели устойчивого развития и корпоративная социальная ответственность	34
<i>Шукуров Шерзод Холмомин оглы</i>	
Перспективы устойчивого развития цифровой экономики в регионе	38
<i>Амиркулов Олимжон Адхам угли</i>	
Экономика региона и отрасли	46
Теоретико-методологические основы путей повышения эффективности производства сельскохозяйственной продукции	47
<i>Абдирашидов Темурбек Абдирашид угли</i>	
Анализ экономической эффективности услуг регионального железнодорожного транспорта	52
<i>Хатамов Очилди Курбанович</i>	
Перспективы, основанные на «зеленой экономике» в обеспечении устойчивого экономического роста	61
<i>Аликулов Хумаюн Тохир оглу</i>	
Состав сельскохозяйственного рынка труда и эффективное использование ресурсов на рынке (на примере Кашкадарьинской области)	70
<i>Амонов Наврузхон Салохиддинович</i>	
Анализ структурных изменений в экономическом развитии районов Сурхандарьинской области	76
<i>Хурамов Сухроб</i>	
Малый бизнес и частное предпринимательство	85
Концепция конкурентоспособности малого бизнеса	86
<i>Навруз-зода Лайли Бахтиёровна</i>	
Сущность и особенности деятельности и развития предприятий розничной торговли	95
<i>Тошпулатов Бабура Расула оглы</i>	
Оптимизация деятельности малых предприятий в контексте снижения уровня бедности	100
<i>Джалилова Шахло Исмоилджон кызы</i>	
Экономика человеческого капитала	104
Опыт зарубежных стран социальной защиты населения. Пенсионные реформы в странах СНГ	105
<i>Самиева Гульноза Тохировна, Абдиева Дилишода Ойбек кызы</i>	
Менеджмент и маркетинг	114
Механизм управления инновационным потенциалом предприятий текстильной промышленности регионов	115
<i>Хосилов Шавкат Бекмуродович</i>	
Экономическое содержание трудовых ресурсов и теоретические основы их эффективного управления	120
<i>Хайдарова Динора Атамурот кизи</i>	
Совершенствование организационно-экономического механизма государственно-частного партнерства в сфере высшего образования	125
<i>Хакимов Темур Тора оглы</i>	

AIM lean (adaptive–innovative–management lean) как драйвер инновационного развития предприятий Узбекистана	128
<i>Аликулов Миржахон</i>	
Влияние местного самоуправления на средние предприятия: Узбекистанский и зарубежный опыт	137
<i>Бекчанов Даврон Машарипович</i>	
Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит	142
Соискатель Термезского государственного университета Экономико-статистический анализ процессов производства пищевых продуктов в промышленности Сурхандарьинской области	143
<i>Хурсанов Шерзод Улабоевич</i>	
Анализ внутренних и внешних факторов, влияющих на производительность сельского хозяйства	150
<i>Хатамов Очилди Курбанович, Хаитова Рушана Уктамовна</i>	
Финансы, кредит и инвестиции	158
Анализ эффективности использования инвестиций, привлекаемых в инновационное развитие регионов ...	159
<i>Хатамова Манзура Очильдиевна, Нормуродов Аслиддин Алиджон оглы</i>	
Методы повышения эффективности банковских активов в процессе трансформации	166
<i>Шарипова Дилфуза Джуманиязовна</i>	
Эконометрика и статистика	172
Эконометрические модели оптимального развития сельского хозяйства: регрессионный анализ	173
<i>Ибрагимов Нодир Нусриддинович</i>	
Сфера услуг и туризма	178
Направления государственной поддержки инновационной деятельности в сфере региональных услуг	179
<i>Файзиева Ширин Шодмоновна</i>	
Кластерные инструменты организации туризма	189
<i>Навруз-зода Зебинисо Бахтиёровна</i>	
Возможности развития паломнического туризма на основе современных инновационных форм	196
<i>Узаков Джамшид Норбоевич</i>	
Экономические и социальные факторы влияния государственного участия в развитии паломнического туризма	203
<i>Узаков Норбой, Узаков Джамшид Норбоевич</i>	
Особенности оценки автотранспортных услуг	210
<i>Норкобилов Жахонгир</i>	

Contents

Theory and methodology	11
Heoretical and practical foundations of organizing and developing agro-cluster activities	12
<i>Berdiyev Abdumalik Hakimovich</i>	
Digital economy	20
Theoretical aspects of educational services and distance education in the context of transition to the digital economy	21
<i>Yusupov Nurbekjon Hasan ugli</i>	
Formation and development of innovative infrastructure in the higher education system	29
<i>Khamraeva Sayyora Nasimovna, Mardonova Guzal Mamatkul kizi</i>	
Sustainable development goals and corporate social responsibility	34
<i>Shukurov Sherzod Kholmomin ogly</i>	
Prospects for sustainable development of the digital economy in the region	38
<i>Amirkulov Olimjon Adham ugli</i>	
Economy of the region and industry	46
The oretical and methodological basis of ways to increase the efficiency of agricultural production	47
<i>Abdirashidov Temurbek Abdirashid ugli</i>	
Economic efficiency analysis of regional rail transport services	52
<i>Khatamov Ochildi Kurbanovich</i>	
Green economy-based perspectives for sustainable economic growth	61
<i>Alikulov Humayun Tohir ogly</i>	
Structure of the agricultural labor market and effective use of resources in the market (case of Kashkadarya region)	70
<i>Navro`zhon Salokhiddinovich Amonov</i>	
Analysis of structural changes in the economic development of the districts of the Surkhandarya region	76
<i>Khuramov Sukhrob</i>	
Small business and private entrepreneurship	85
Concept of competitiveness in small business	86
<i>Navruz-zoda Layli Bakhtiyorovna</i>	
The nature and characteristics of the activities and development of retail trade enterprises	95
<i>Toshpulatov Babur Rasul ogly</i>	
Enhancing the activities of small business enterprises for poverty alleviation	100
<i>Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi</i>	
Economics of human capital	104
Experience of foreign countries in social protection of the population. Pension reforms in the cis countries	105
<i>Samieva Gulnoza Tokhirovna, Abdieva Dilshoda Oybek kyzy</i>	
Management and Marketing	114
Mechanism for managing innovative potential at textile industry enterprises in the regions	115
<i>Xosilov Shavkat Bekturodovich</i>	
The economic essence of labor resources and theoretical foundations of their effective management	120
<i>Dinora Atamurot qizi Haydarova</i>	
Improvement of the organizational and economic mechanism of public-private partnership in the sphere of higher education	125
<i>Khakimov Temur Tora ogly</i>	

AIM lean (adaptive–innovative–management lean) as a driver of innovative development of enterprises in Uzbekistan	128
<i>Alikulov Mirzhakhon</i>	
Influence of local government on medium-sized enterprises: Uzbekistan and foreign experience	137
<i>Bekchanov Davron Masharipovich</i>	
Accounting, economic analysis and audit	142
Economic and statistical analysis of food production processes in the Surkhandarya region industry	143
<i>Khursanov Sherzod Ulaboyevich</i>	
Analysis of internal and external factors affecting agricultural productivity	150
<i>Khatamov Ochildi Kurbanovich, Khaitova Rushana Uktamovna</i>	
Finance, credit and investment	158
Analysis of the effective use of attracted investments in the innovative development of regions	159
<i>Khatamova Manzura Ochildievna, Normurodov Asliddin Alijon oglu</i>	
Methods of increasing the efficiency of bank assets in the process of transformation	166
<i>Sharipova Dilfuza Jumaniyazovna</i>	
Econometrics and statistics	172
Econometric model of optimal development of agriculture: regression analysis	173
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i>	
Service and tourism sector	178
Directions of state support for innovative activities in the sphere of regional services	179
<i>Fayzieva Shirin Shodmonovna</i>	
Cluster tools for organizing tourism	189
<i>Navruz-zoda Zebiniso Bakhtiyorovna</i>	
Opportunities for the development of pilgrimage tourism based on modern innovative forms	196
<i>Uzakov Dzhamshid Norboevich</i>	
Economic and social factors of the state participation impact on the development of pilgrimage tourism	203
<i>Uzakov Norboy, Uzakov Dzhamshid Norboevich</i>	
Characteristics of evaluation of auto transport services	210
<i>Norkobilov Jakhongir</i>	

Nazariya va
metodologiya

Теория и
методология

Theory and
methodology

Agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari

Berdiyev Abdumalik Hakimovich

Теоретические и практические основы организации и развития деятельности агрокластеров

Бердиев Абдумалик Хакимович

Theoretical and practical foundations of organizing and developing agro-cluster activities

Berdiyev Abdumalik Hakimovich

Received: August 14, 2025 Revised: August 17, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan. Agroklasterlarning iqtisodiy mohiyati, ularning qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kooperatsiya va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, agrobiznes sub'ektlari, qayta ishlash korxonalari, logistika va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini uyg'unlashtirish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Amaliy jihatdan esa agroklasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, mahalliy va xalqaro tajribalar asosida agrosanoat klasterlarini samarali rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** Agroklaster, klasterli rivojlanish, qishloq xo'jaligi, agrobiznes, integratsiya, kooperatsiya, innovatsiya, qo'shilgan qiymat zanjiri, agrosanoat kompleksi, raqobatbardoshlik, infratuzilma, logistika, klaster boshqaruvi, barqaror rivojlanish, eksport salohiyati, raqamli texnologiyalar, investitsiya, kadrlar salohiyati.
- **Аннотация:** В данной статье проанализированы теоретические и практические основы организации и развития агрокластеров. Раскрыта экономическая сущность агрокластеров, их роль в усилении процессов кооперации и интеграции в сельском хозяйстве. Также показаны возможности формирования цепочки добавленной стоимости посредством объединения субъектов агробизнеса, перерабатывающих предприятий, логистической и сервисной инфраструктуры. С практической точки зрения в качестве приоритетных направлений развития агрокластеров рассмотрены внедрение инновационных технологий, расширение цифровых систем управления, повышение экспортного потенциала и совершенствование системы подготовки кадров. На основе отечественного и международного опыта разработаны научные выводы и практические рекомендации по эффективному развитию агропромышленных кластеров.
- **Ключевые слова:** агрокластер, кластерное развитие, сельскохозяйственное хозяйство, агробизнес, интеграция, кооперация, инновация, цепочка добавленной стоимости, агропромышленный комплекс, конкурентоспособность, инфраструктура, логистика, управление кластером, устойчивое развитие, экспортный потенциал, цифровые технологии, инвестиции, кадровый потенциал.
- **Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical foundations of organizing and developing agro-clusters.

The economic essence of agro-clusters and their role in strengthening cooperation and integration processes in agriculture are revealed. The opportunities for creating a value-added chain through the integration of agribusiness entities, processing enterprises, logistics, and service infrastructure are also highlighted. From a practical perspective, the priority directions for the development of agro-clusters include the introduction of innovative technologies, the expansion of digital management systems, the enhancement of export potential, and the improvement of the training system for specialists. Based on domestic and international experience, scientific conclusions and practical recommendations for the effective development of agro-industrial clusters have been developed.

- **Keywords:** agro-cluster, cluster development, agriculture, agribusiness, integration, cooperation, innovation, value-added chain, agro-industrial complex, competitiveness, infrastructure, logistics, cluster management, sustainable development, export potential, digital technologies, investment, human capital.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirish ustuvor strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida muhim ijobiy o'zgarishlar kuzatildi, milliy iqtisodiyotda barqaror o'sishga erishildi hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, sanoat tarmoqlarini xom ashyo bilan barqaror ta'minlash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Biroq, yer va suv resurslarining tabiiy cheklanganligi, aholi sonining keskin ortib borishi hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ichki va tashqi talabning uzluksiz o'sib borishi mavjud agrar resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashni, ulardan kompleks va innovatsion yondashuvlar asosida unumli foydalanish mexanizmlarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Mamlakat aholisini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, agrosanoat mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda zamonaviy agrosanoat integratsiyasini shakllantirish qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor strategik vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish, eng avvalo, takrorlanmaydigan tabiiy resurslardan biri bo'lgan yerdan oqilona va samarali foydalanish hamda uning agroiqtsodiy unumdorligini uzluksiz ravishda oshirib borishni taqozo etadi.

Amaliyotda yer hosildorligini sun'iy ravishda oshirish maqsadida turli xil mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalardan foydalanish keng qo'llanildi. Ushbu yondashuv qisqa muddatda yuqori hosil olish imkonini yaratgan bo'lsa-da, uzoq muddatli davrda yerning tabiiy-mexanik tarkibini buzdi, tuproqning eroziyalanish jarayonlarini kuchaytirdi va agrobiologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, mineral va kimyoviy vositalar qo'llanilishi mahsulot hajmi va tashqi ko'rinishida ijobiy natija bergan holda, iste'molchilar salomatligiga ta'sir etuvchi xavfomillari

ham vujudga keltirdi. Shu bois, qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishga erishish uchun biologik va ekologik talablarga mos agrotexnologiyalarni joriy etish, yer resurslaridan foydalanishda ekologik barqarorlikni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi global jarayonlarda fan va texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi, shuningdek, ekologik muammolarning kuchayib borishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va yetkazib berish sohalarida zamonaviy texnologik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, turli kimyoviy moddalardan xoli, inson salomatligi uchun xavfsiz va ekologik jihatdan toza mahsulotlarga nisbatan iste'molchilar talabi ortib bormoqda. Bu tendensiya jahon mamlakatlari qatorida O'zbekistonda ham dolzarblik kasb etmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish, yervasuv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifalarimizdan biridir" [1] deb, ta'kidlab o'tganlar.

Shu munosabat bilan, agrosanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar oldidagi ustuvor vazifa — ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish, ekologik xavfsizlik mezonlariga mos, inson sog'lig'iga salbiy ta'sir etmaydigan tabiiy va barqaror mahsulotlar yetishtirishni ta'minlash hisoblanadi. Bu esa zamonaviy agrobiotexnologiyalar, organik yetishtirish usullari va resurs tejamkor ishlab chiqarish modellarini joriy etishni taqozo etadi.

Bugungi kunning dolzarb talablaridan biri — qishloq xo'jaligi tarmog'ini jadal sur'atlarda rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi bo'lib, bu jarayonda klasterli boshqaruv tizimi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligi klasterlari yaqin istiqbolda agrar sohaning lokomotiviga aylanishi kutilmoqda. Chunki qishloq xo'jaligi, xususan,

paxtachilikning sanoatlashuvi darajasi ortishi mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash, aholi turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Klaster tushunchasi, iqtisodiy nuqtai nazardan, texnologik jihatdan o'zaro bog'liq va bir-biriga yaqin joylashgan korxonalarning muayyan hududda birlashgan holda yagona maqsad — raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatini anglatadi. Bunday korxonalarning geografik yaqinligi, resurslarni birgalikda va samarali foydalanish imkonini yaratib, ular o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlaydi va klaster samaradorligini oshiradi.

Shubhasiz, klasterlar va ularga bog'liq konsepsiyalarning shakllanishi va nazariy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy yondashuvlardan biri XIX asr oxirida ingliz iqtisodchisi A.Marshall tomonidan ilgari surilgan. U o'zining mashhur "Iqtisodiyot fanining asoslari" asarida A.Smitning mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv orqali yuzaga keladigan iqtisodiy afzalliklar nazariyasiga tayanadi va ixtisoslashgan ishlab chiqarish faoliyatlarining ma'lum hududlarda konsentratsiyalashuvi masalasini alohida tahlil qiladi.

A.Marshallning ushbu yondashuvi keyinchalik aglomeratsiyalar iqtisodiyoti, hududiy innovatsion tizimlar va klaster modellari nazariyasiga mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

A.Marshallning xulosalariga ko'ra, firmalarning geografik yaqinligi va muayyan hududda guruhlashuvi ularning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Chunki bunday hududiy konsentratsiya orqali korxonalar o'zaro hamkorlik, tajriba va bilim almashinuvi, bozor kon'yunkturasi va texnologiyalarga yaqinlik kabi ijobiy tashqi iqtisodiy ta'sirlardan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. Bularning barchasi yuqori raqobatbardoshlik va innovatsion salohiyatni ta'minlovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

20-asr o'rtalariga kelib, hududiy rivojlanish, iqtisodiy makon va innovatsion jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi iqtisodiy nazariyada alohida dolzarblik kasb eta boshladi. Bu yo'nalishda fransuz iqtisodchisi Fransua Perru tomonidan 1950 yili nashr etilgan "Iqtisodiy makon: nazariya va qo'llanish" nomli asar muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, mintaqaviy rivojlanishning yangi nazariy yo'nalishini boshlab berdi. Ushbu asarda F.Perru "o'sish qutblari" konsepsiyasini ilgari surdi.

F.Perruning nazariy yondashuviga ko'ra, iqtisodiy o'sish hudud makonida bir xil va mutanosib tarzda emas, balki muayyan tarmoqlar yoki iqtisodiy sub'ektlar atrofida klasterlashgan holda jamlanib namoyon bo'ladi. U bunday

jarayonni "dominantlik effekti" orqali izohlaydi, ya'ni ayrim yetakchi tarmoqlar o'zining keng bozor salohiyati, yuqori ishlab chiqarish quvvati yoki innovatsion yetakchiligi orqali boshqa tarmoq va hududlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladi [2].

Klaster konsepsiyasining ilmiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishiga Maykl Porterning tadqiqotlari hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Uning fundamental asarlarida klasterlar fenomeni milliy iqtisodiyot va firma darajasidagi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida keng tahlil qilingan.

M.Porter ta'riflagancha, klaster — bu muayyan hududda joylashgan, o'zaro bog'liq va bir-biri bilan raqobatlashuvchi korxonalar, sohaviy ixtisoslashuvga ega ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ilmiy-ta'lim muassasalari hamda davlat boshqaruv organlarining jipslashgan va o'zaro hamkorlikka asoslangan tizimidir. Ushbu tizim ishtirokchilari o'rtasidagi funksional aloqalar va yaqin kooperatsiya axborot almashinuvi, innovatsiyalarning tarqalishi va texnologik taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratadi.

M.Porterning ta'kidlashicha, iqtisodiy rivojlanishda diversifikatsiya emas, balki ixtisoslashuv strategiyasi samaraliroqdir. U AQSh tajribasini misol qilib keltirib, sohaga yo'naltirilgan mutaxassislashgan klasterlar raqobatbardoshlikni mustahkamlashini ta'kidlaydi. M.Porter nazariyasiga ko'ra, ta'lim tizimi, infratuzilma, kadrlar tayyorlash tizimi, ta'minotchilar tarmog'i kabi tashqi muhit omillari firmalarning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va klaster doirasida bu omillar o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritadi.

Klaster tushunchasining zamonaviy nazariy asoslarini belgilashda Maykl Porterning ta'rifi alohida ahamiyatga egadir. Uning ta'kidlashicha, klaster — bu "bir-biri bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, turdosh tarmoqlardagi firmalar va tegishli tashkilotlar (masalan, universitetlar, standartlar agentliklari, savdo uyushmalari) ning raqobatbardosh, biroq bir vaqtning o'zida hamkorlik qiluvchi, muayyan sohalaridagi jug'rofiy jihatdan jamlangan guruhi"dir [2].

M.Porter tomonidan taqdim etilgan ushbu ta'rif klasterlarni faqat ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatiga oid struktura sifatida emas, balki ilm-fan, ta'lim, standartlashtirish, davlat siyosati va bozor mexanizmlari kabi turli institutlarning o'zaro hamkorligi asosida shakllanadigan integral iqtisodiy tizim sifatida tasvirlaydi. Bu esa klasterlarni kompleks va ko'p o'lchovli tuzilmalar sifatida qarash zarurligini anglatadi. Ularning samaradorligi, birinchi navbatda, tarkibiy sub'ektlar o'rtasidagi institutsional va funksional integratsiya darajasi bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligida kechayotgan transformatsiya jarayonlari, jahon bozorida oziq-ovqat xavfsizligiga oid muammolarning avj olishi, global iqlim o'zgarishlari va resurs tanqisligi kabi ichki va tashqi omillar bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sohasida

shakllangan milliy tajriba asosida, global ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini tatbiq etgan holda tarmoqni barqaror rivojlantirish zarurati tug'ilmoqda. Bu esa innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurs tejamkorlikni ta'minlash, hamda bozor mexanizmiga asoslangan samarali klaster modellarini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

I-bosqich (1991–1997 yy.) — Mustaqillikka o'tish va davlat mulkining parchalanishi

• **Mustaqillikka erishilgandan so'ng, qishloq xo'jaligidagi xo'jalik yuritish tizimi asosan davlat va kolxoz-sovхоз shakllariga asoslangan edi. Bu davrda:**

- Yer va qishloq xo'jaligi aktivlari davlat mulki hisoblandi.
- Mulkchilik munosabatlarini isloh qilish maqsadida **dekollektivizatsiya** jarayonlari boshlandi.
- Davlat mulkini xususiy lashtirish dasturlari ishlab chiqildi, lekin amaliy jihatdan hali keng ko'lamda amalga oshmadi.
- Yerga nisbatan faqat foydalanish huquqi berildi, xususiy mulk sifatida rasman tan olinmadi.

II-bosqich (1998–2005 yy.) — Xo'jalik yuritishning diversifikatsiyasi va fermerchilikka o'tish

• **Bu bosqichda qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllari ko'p turga ega bo'la boshladi:**

- Kolxoz va sovxozlar bosqichma-bosqich tugatilib, ularning asosida fermer xo'jaliklari tashkil etildi.
- Dehqon xo'jaliklari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar rivojlandi.
- Mulkchilik shakllari diversifikatsiyasiga qadam qo'yilib, fermer va dehqonlarga texnika, binolar, ishlab chiqarish vositalari xususiy mulk sifatida berildi.
- Davlat hali ham paxta va g'alla kabi strategik mahsulotlar yetishtirishni qat'iy kvotalar orqali boshqardi.

III-bosqich (2006–2016 yy.) — Institutsional rivojlanish va bozor mexanizmlariga o'tish

• **Bu davrda qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos institutsional islohotlar amalga oshirildi:**

- Yerdan foydalanish huquqi uzoq muddatli (49 yilgacha) ijara shartnomalari orqali fermerlarga berildi.
- Fermer xo'jaliklarining huquqiy maqomi mustahkamlandi.
- Qishloq xo'jaligi korxonalari orasida kooperatsiya shakllari (mashina-tractor parklari, servis markazlari) paydo bo'ldi.
- Davlat xarid narxlarini va subsidiyalari tizimi mavjud bo'lib qoldi, ammo tadbirkorlik erkinligi kengaydi

IV-bosqich (2017–2025 yy.) — Agroklasterlar va integratsiyalangan xo'jalik yuritish tizimiga o'tish

• **So'nggi bosqichda qishloq xo'jaligida mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari yanada kompleks va integratsiyalashgan ko'rinish oldi:**

- Paxta-to'qimachilik klasterlari va agrosanoat integratsiyasi tizimi joriy etildi.
- Yerdan foydalanish huquqi saqlangan holda, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlari (etishtirish, qayta ishlash, eksport) yagona boshqaruv tizimiga birlashtirildi.
- Davlat tomonidan fermerlarni qo'llab-quvvatlash, kreditlar, subsidiyalari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlik oshirildi.
- Mulkchilik shakllari aralash holatga keldi: yer — davlatniki, ishlab chiqarish vositalari va mahsulot — xususiy mulk.
- 2020-yillar oxiriga kelib, raqamli agronomiya, resurs tejovchi texnologiyalar va eksport yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimi ustuvor ahamiyat kasb etdi.

1-Rasm. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllari va mulkchilik munosabatlarining rivojlanishi bosqichlari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bir qator salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Jumladan, ekin maydonlarining degradatsiyaga uchrashi — ya'ni qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorlik va sifat darajasining pasayishi, ularning samarali ishlab chiqarish salohiyatini yo'qotishi, shuningdek, suv resurslarining cheklanganligi agrar sektor barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu holatlar qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mavjud strategik yondashuvlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish va ularni ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston agrosanoat kompleksini isloh qilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda muayyan strategik vazifalar belgilab berilgan. Mazkur bosqichlar agrosanoat sohasida modernizatsiya va integratsiya jarayonlarini izchil amalga oshirish hamda tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni qamrab olgan.

I-bosqich (1991–2000 yy.) — Bozor munosabatlariga o'tish va fermer xo'jaliklarini tashkil etish

Bu davrda davlat mulkini isloh qilish, fermer xo'jaliklari va xususiy sektorni rivojlantirishga yo'l ochildi. Asosiy maqsad — qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini joriy etish va mulkchilikning turli shakllarini shakllantirishdan iborat bo'ldi.

II-bosqich (2001–2010 yy.) — Agrobiznes va kooperatsiya asoslarini shakllantirish

Ikkinchi bosqichda agrobiznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish, fermerlarni uyushmalarga birlashtirish, qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirishga e'tibor qaratildi. Bu davrda qishloqda bozor infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllandi.

III-bosqich (2011–2016 yy.) — Klasterli yondashuvga o'tish
Ushbu bosqichda agrosanoatda ilk bor klasterli tizim elementlari joriy etila boshlandi. Ishlab chiqarish, qayta ishlash va logistika tarmoqlarini uyg'unlashtirishga

qaratilgan dasturlar amalga oshirildi. Klasterli yondashuv raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sifatini yaxshilashda muhim qadam bo'ldi.

IV-bosqich (2017–2025 yy.) — Agroklastlarlar va integratsiyalangan xo'jalik yuritish tizimiga o'tish

Bu bosqichda agrosanoat sohasini chuqur integratsiya va klasterlashtirish jarayonlari amalga oshirildi. Agroklastlarlar tarkibida fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika markazlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va moliya tashkilotlari yagona tizimda faoliyat ko'rsatishga o'tdi. Integratsiyalangan xo'jalik yuritish tizimi doirasida xomashyo yetishtirishdan to tayyor mahsulotni ichki va tashqi bozorga yetkazib berishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjiri to'liq qamrab olindi.

Agrosanoat sohasini rivojlantirishning mazkur bosqichli tizimi qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini yo'lga qo'yishdan tortib, agroklastlarlar va integratsiyalangan boshqaruv modelini joriy etishga qadar izchil jarayonni qamrab oladi. Bu esa mamlakatda qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda klasterlar iqtisodiyotning strategik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan strukturalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, ular sanoat dunyosi va ilmiy-tadqiqot hamda qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yuqori samara beradi. Bu, ayniqsa, mustaqil ravishda yetarli resurslarga ega bo'lmagan kichik kompaniyalar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki klasterlar ularga innovatsion muhitda ishtirok etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini beradi.

Agroklastlarlar mavzusi ham zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng muhokama qilinmoqda, zero bu tuzilmalar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmoqlarini barqaror va samarali rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Turli iqtisodiy va ilmiy manbalarda agrobiznes klasterlariga berilgan ta'riflar xilma-xil va ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

Birinchidan, agroklastlarlar — bu qiymat zanjirlarini yaratishga xizmat qiluvchi, umumiy muammolarni hal qilish va imkoniyatlardan foydalanishda rasmiy yoki norasmiy aloqalarga ega bo'lgan, oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yurituvchi ishlab chiqaruvchilar va muassasalarning muayyan geografik hududda joylashgan va konsentratsiyalashgan tuzilmalaridir.

Ikkinchidan, agroklastlarlar — bu qishloq xo'jaligi faoliyatiga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan sub'ektlarni qamrab oladigan, xususan fermerlar, mahalliy tadbirkorlar, ta'minot zanjiri ishtirokchilari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar, moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi banklar, tadqiqot

institutlari va biznesni rivojlantirish markazlari kabi ishtirokchilardan iborat, yagona hududda joylashgan hamkor tashkilotlar yig'indisidir.

Uchinchidan, agroklastlarlar — bu fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq yordamchi tarmoqlar, agrobiznes tuzilmalari va boshqa hamkorlarning iqtisodiy va tashkiliy integratsiyasidan tashkil topgan, rasmiy yoki norasmiy tarzda shakllangan hamkorlik tuzilmasidir.

Ushbu ta'riflar agrobiznes klasterlarining ko'p qirrali va kompleks tusga egaligini ko'rsatadi. Ular nafaqat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish, balki ta'minot, qayta ishlash, moliya, xizmat ko'rsatish, innovatsiya va marketing kabi qiymat zanjirining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi. Shu bois, agrobiznes klasterlari hozirgi kunda qishloq joylarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda sohani barqarorligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan ko'plab chora-tadbirlar, tarkibiy islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. O'tgan yil davomida, jiddiy muammolarga qaramay, bizning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tizimlarimiz mustahkam va barqaror bo'lib qolmoqda. Bu esa shakllangan sektor tajribasi hamda ta'minot zanjiri tuzilmalarining ishonchiligidan dalolat beradi. Pirovardida, iste'molchilarimiz uchun keng turdagi yuqori sifatli, arzon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlaridan muntazam foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xususan, hozirgi kungacha qishloq xo'jaligi sohasiga doir 331 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Birgina 2023-yilda agrar islohotlarni takomillashtirish bo'yicha 14 ta qonun loyihasi, 17 ta Prezident Farmoni loyihasi, 22 ta Prezident Qarori loyihasi, 91 ta Hukumat Qarori loyihalari ishlab chiqilib, ulardan 55 tasi, jumladan 4 ta Qonun, 8 ta Prezident Farmoni, 16 ta Prezident Qarori, 26 ta Hukumat qarori normativ hujjatlar qabul qilindi.

Yurtimizda qishloq xo'jaligining rivoji, uni diversifikatsiyalash bugungi kundagi oldimizda turgan dolzarb vazifalardandir. Zero, o'zaro mahsulot yetkazib berishda "yashil yo'laklar"ni yanada keng joriy etish qishloq xo'jaligidagi samarali hamkorlikka yordam beradi.

So'nggi yillar aynan qishloq xo'jaligida sinovli davrlarni boshdan kechirayotganiga qaramay, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga erishilib kelinmoqda.

Natijada, respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining navlarini yaxshilash, yuqori hosildor ekin maydonlarini kengaytirish, xom ashyo bazasini mustahkamlash,

shuningdek, qayta ishlash sohasini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zamonaviy qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish hamda ularni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash ishlari izchillik bilan olib borilmoqda. Bu esa nafaqat ichki bozorda talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulotlarni yetishtirish, balki tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Xususan, meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini tashkil etish orqali mazkur sohada yangi tashkiliy-iqtisodiy tizim shakllantirildi. Mavjud bog' va uzumzorlarning kimoshdi savdosi orqali xususiy mulkka o'tkazilishi va bog'lar joylashgan yer maydonlarining uzoq muddatli ijara shartlari asosida fermerlarga birlashtirilishi, bog'dorchilik sohasida fermer xo'jaliklarining keng miqyosda rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Bunday tashkiliy-iqtisodiy choralar, jumladan, bog'dorchilik yo'nalishida yangidan tashkil etilgan fermer xo'jaliklarini besh yillik muddatda yagona yer solig'ini to'lashdan ozod etish, shuningdek, fermer xo'jaliklari, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari ishtirokida tuzilgan agrosanoat firmalarini uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i, yer solig'i, mulk solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (import bo'yicha hisoblanadigan qismi mustasno) hamda yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod qilish kabi soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlandi. Bu esa sohada samarali kooperatsiyani ta'minlash, ilg'or agrosanoat integratsiyasini shakllantirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ayni paytda, bo'shaydigan mablag'larni maqsadli ravishda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish, yangi bog' va uzumzorlar yaratish hamda ularni kengaytirishga yo'naltirish qat'iy tarzda belgilab berildi. Ushbu chora-tadbirlar yangi bog' va uzumzorlarni tashkil etish, mavjudlarining hosildorligini oshirish va agrosanoat firmalarini shakllantirishga rag'bat beruvchi muhim iqtisodiy omil vazifasini bajarmoqda.

Shu bilan birga, joriy etilgan keng qamrovli chora-tadbirlarga qaramay, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini yangi holda zarur miqdor va sifatda aholiga yetkazib berish tizimida bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- qayta ishlash korxonalari uchun yetarli xom ashyo zaxiralarining mavjud emasligi va ularning o'z vaqtida yetkazib berilishi bo'yicha tizimli ta'minot yo'lga qo'yilmaganligi (qoplanganlik darajasi 7-35% atrofida);
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qayta ishlovchi sub'ektlar tomonidan past narxlarda xarid qilinishi natijasida fermer va ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorlik darajasining pastligi;
- xom ashyoni yig'ish jarayonida to'liq yetib

ulgurmagan yoki haddan tashqari yetilgan mahsulotlarni yig'ish, texnologik talablarga rioya qilmaslik, ezilgan va sifatsiz mahsulotlarni yig'ib olish amaliyoti oqibatida mahsulot sifatining pasayishi;

- mahsulotlarni tashish uchun maxsus transport vositalarining yetarli emasligi tufayli mahsulot sifatining buzilishi va yo'qotishlar sodir bo'lishi;
- maxsus sovutkich va omborxonalar infratuzilmasining yetishmasligi tufayli mahsulotlarni uzoq muddat saqlash imkoniyatlarining cheklanganligi;
- qayta ishlash va yetishtirish jarayonlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar, xususan, qisqa va uzoq muddatli imtiyozli kreditlar mexanizmining yetarlicha rivojlanmaganligi;
- qayta ishlash korxonalarining mavjud xom ashyo manbalaridan kelib chiqib geografik jihatdan optimal joylashmaganligi;
- qayta ishlash sub'ektlarini suv, gaz va elektr energiyasi bilan muntazam va barqaror ta'minlashdagi uzilishlar oqibatida mahsulotlar sifatining yomonlashuvi, korxonalarning to'liq quvvatda ishlay olmasligi;
- qayta ishlash jarayonlari uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularni boshqarishda malakali mutaxassislar yetishmasligi, shuningdek, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida sohaga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi;
- qayta ishlangan mahsulotlarni qadoqlash, turli hajm va dizayndagi shisha idishlar ishlab chiqarish sanoatining yetarlicha rivojlanmaganligi va ularning bozordagi tanqisligi;
- qayta ishlash jarayonlari va mahsulotlari uchun samarali reklama va marketing faoliyatining yo'lga qo'yilmaganligi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, qishloq xo'jaligi sohasidagi rivojlanish jarayonlarini ma'lum bir davr kesimida kompleks tahlil etish, vujudga kelayotgan muammolarning asl sabablarini ilmiy jihatdan o'rganish va mavjud imkoniyatlarni to'liq aniqlash kelgusida tarmoq samaradorligini oshirish hamda ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bunday sharoitda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga erishishning asosiy shartlaridan biri uni modernizatsiya qilish hisoblanadi. Modernizatsiya jarayoni qishloq xo'jaligida bozor mexanizmlariga to'liq moslashgan, samarali va raqobatbardosh tashkiliy-iqtisodiy modellarni yaratishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, sohaning maqbul ijtimoiy-iqtisodiy tarkibini shakllantirish, qishloq xo'jaligi sub'ektlari faoliyatini bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq ravishda qayta qurishni nazarda tutadi.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish tizimida faoliyat yurituvchi barcha

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda davlatning bu jarayonlardagi roli va ishtirokini institutsional jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada agrosanoat klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda strategik ahamiyatga ega bo'lib, sohaning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Agroklastlar to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlarning to'liq shakllanmagani, xususan, ularning iqtisodiy mohiyati, tashkil etish va rivojlantirishga doir tamoyillar, zarur shart-sharoitlar, bosqichlar hamda samaradorlik mezonlarini aniq belgilashdagi murakkabliklar, amaliyotda turli xil yondashuvlarning mavjudligiga olib kelmoqda. Shu sababli, agroklastlar bilan bog'liq nazariy qarashlarni ilmiy jihatdan tizimlashtirish, mavjud ilmiy-nazariy konsepsiyalarni tahlil qilish va umumlashtirish muhim hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, agrosanoat kompleksi holatini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyoti hozirgi bosqichda milliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, uni yangiglobal tahdid va muammolar sharoitida raqobatbardosh holatga keltirish uchun davlat va jamiyatning samarali hamkorligini talab etmoqda. Bunda, ayniqsa, birinchi jabr ko'ruvchi tarmoq sifatida agrar sektorni ko'rsatish mumkin. U mamlakat oziq-ovqat ta'minotining 96–98 foizini, sanoat uchun xom ashyoning 50–55 foizini ta'minlashi hamda yalpi milliy daromadda 30 foizga yaqin ulushga egaligi bilan muhim strategik tarmoq hisoblanadi.

Ushbu holat, o'z navbatida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yangi yondashuvlarni talab etadi. Xususan, klasterlash usuli, ya'ni muayyan hududda ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini o'zaro bog'lab, ularning samarali hamkorligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Bu esa mintaqaviy rivojlanish dasturlari asosini tashkil qiluvchi tizimli yondashuv sifatida klasterlash texnologiyalarining alohida o'rnini belgilaydi. Shu bois, agroklastlarning nazariy asoslarini mustahkamlash, ularni joriy etish shartlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda nazariy jihatdan — lokal sharoitlarga mos konsepsiyalar, indikatorlar va barqaror rivojlanish asoslari ishlab chiqilishi lozim. Amaliy jihatdan esa — innovatsiyalarni joriy etish, kooperatsiyani kuchaytirish, eksport salohiyatini oshirish va kadrlar tayyorlash orqali ularning samaradorligi ta'minlanadi.

1. Klasterning rivojlanish salohiyatini baholash uchun ishlab chiqarish hajmi, hududiy ixtisoslashuv darajasi, innovatsiya joriy etish ko'rsatkichlari va resurs samaradorligiga

asoslangan kompleks indikatorlar metodologiyasi yaratilishi lozim.

2. Agrosanoat klasterlari faqat ishlab chiqarish tarmoqlari emas, balki ilm-fan, xizmat ko'rsatish, infratuzilma va logistika sohalarini qamrab olishi nazariy jihatdan asoslab berilishi kerak.

3. Agroklastlar rivojlanishida ekologik muvozanat, suv resurslaridan samarali foydalanish va organik mahsulot ishlab chiqarish kabi barqaror rivojlanish elementlari nazariy asos sifatida kiritilishi zarur.

4. Klaster tarkibida "aqlli qishloq xo'jaligi" (smart agriculture), raqamli monitoring, dronlar yordamida sug'orish va hosildorlikni baholash tizimlarini keng qo'llash.

5. Fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika markazlari va ilmiy muassasalarni yagona boshqaruv mexanizmidagi birlashtirish. Moliya institutlari va klaster ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik kredit liniyalari va subsidiya mexanizmlarini rivojlantirish.

6. Klaster doirasida xalqaro standartlarga (ISO, GlobalGAP, Halal va boshqalar) mos mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish. Tashqi bozorlarga chiqish uchun logistika markazlari va savdo uyalarini tashkil etish.

7. Boshqaruv kompaniyalariga klaster ishtirokchilarini muvofiqlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va marketing strategiyasini ishlab chiqish vazifalarini yuklash. Iqtisodiy diplomatiya vositalari orqali xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish.

8. Agrosanoat klasterlari uchun ixtisoslashtirilgan kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yish. Ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarning klaster faoliyatida bevosita ishtirokini ta'minlash.

9. Sug'orish tizimlari, saqlash omborlari, logistika markazlari va transport tarmoqlarini rivojlantirish. Yashil energiya manbalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish borish lozim.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Berdiyev Abdumalik Hakimovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, dotsent
// Бердиев Абдумалик Хакимович Университет информационных технологий и менеджмента, доцент
// Berdiyev Abdumalik Hakimovich University of Information Technologies and Management, Associate Professor

► a.berdiyev197501@gmail.com

■ 0009-0003-2842-9802

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 29 dekabrda Oliy Majlis

Qonunchilik palatasi va Senatiga Murojaatnomasi.

- [2]. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo'jaligida yangi zaxiralarni ishga solish hamda 2024 yilgi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi. 2024 yil 13 ferval

- [3]. Perroux F. Economic space: theory and applications // Quarterly Journal of Economics. – 1950. – Vol.64. – pp. 89–104.
- [4]. Porter M. E. Konkurensiya. – M.: Izdatelskiy dom Vilyams, 2005. – 608 s.

Raqamli
iqtisodiyot

Цифровая
экономика

Digital economy

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida masofaviy ta'lim xizmatlarining nazariy jihatlari

Yusupov Nurbekjon Xasan o'g'li

Теоретические аспекты услуг образования и дистанционного образования в условиях перехода к цифровой экономике

Юсупов Нурбекжон Хасан угли

Theoretical aspects of educational services and distance education in the context of transition to the digital economy

Yusupov Nurbekjon Hasan ugli

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida ta'lim tizimida yuz berayotgan transformatsiyalar, xususan, masofaviy ta'lim xizmatlarining mazmuni, zarurati va rivojlanish tendensiyalari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Muallif masofaviy ta'lim xizmatlarining tashkiliy-iqtisodiy mohiyatini aniqlash, ularning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va imkoniyatlarini baholashga urg'u bergan.
- **Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, masofaviy ta'lim, raqamli xizmatlar, ta'lim transformatsiyasi, iqtisodiy samaradorlik.
- **Аннотация:** В данной статье теоретически проанализированы трансформации, происходящие в системе образования в условиях перехода к цифровой экономике, в частности, содержание, необходимость и тенденции развития услуг дистанционного обучения. Автор акцентирует внимание на определении организационно-экономической сущности услуг дистанционного образования, оценке их роли и возможностей в цифровой экономике. Ключевые слова: электронная коммерция, цифровая экономика, электронная торговля, торговая площадка, интернет-магазин.
- **Ключевые слова:** цифровая экономика, дистанционное образование, цифровые услуги, трансформация образования, экономическая эффективность.
- **Abstract:** The article examines the main economic and social factors influencing the growth of the e-commerce market in Uzbekistan. Economic, social and technological aspects contributing to the growth of the online market

based on existing e-commerce facilities in the country were analyzed. The activities of popular trading platforms in Uzbekistan were also analyzed and proposals for their further development were developed.

■ **Keywords:** digital economy, distance education, digital services, education transformation, economic efficiency.

KIRISH

Hozirgi davrda dunyo miqyosida iqtisodiyotning raqamli modeliga o'tish jarayoni keskin sur'atda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar "Big data" va bulut texnologiyalari kabi ilg'or vositalar deyarli barcha iqtisodiy sohalarga chuqur singib bormoqda. Bu jarayondan ta'lim sohasi ham chetda qolmayapti, chunki, raqamli iqtisodiyotda inson resurslari, zamonaviy bilim va ko'nikmalar, shuningdek, uzluksiz o'rganish muhim omillar qatoriga kirishi bois ham zaruratini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda masofaviy ta'lim xizmatlari faqatgina zaruriy choradan iborat bo'lib qolmay, balki strategik ta'lim shakli sifatida shakllanmoqda. COVID-19 pandemiyasi jarayonida an'anaviy o'qitish metodlarining zaif tomonlari yaqqol namoyon bo'ldi, shu bilan birga masofaviy ta'limning afzalliklari — qulaylik, xarajat jihatdan samaradorlik va keng ijtimoiy qatlamlar uchun ochiqlik — keng e'tirof etildi.

Dunyoda masofaviy ta'lim xizmatlarining qamrov darajasi yildan-yilga oshib bormoqda. Jahonda rivojlangan mamlakatlar masofaviy ta'limni rivojlantirishga doir islohotlar keng miqyosda amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, 2024-yilda masofaviy ta'lim xizmatlarini jahon ta'lim bozorida global hajmi 250 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2028-yilga kelib nu ko'rsatkich 475 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, 2019-yilda "Coursera", "edX", "Udemy", "Khan Academy" kabi mashhur masofaviy ta'lim platformalarida 45-million talabalar tahsil olgan bo'lsa, pandemiyadan so'ng 2023-yilga kelib 129 milliondan ortiq talabalar tahsil olmoqda [1].

Respublikamizda esa raqamli transformatsiya milliy taraqqiyotning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tamonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni 45-maqсадida "ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati yanada kengaytirish, bunda bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish" [2] deb ustuvor maqsad qo'yilganligidan kelib chiqib, respublikada masofaviy ta'lim xizmatlarini tizimli va samarali yo'lga qo'yish, ularning iqtisodiy natijadorligini oshirish va ijtimoiy inklyuzivlikni

ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Biroq, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida masofaviy ta'lim xizmatlari holati shuni ko'rsatadiki, mamlakatning barcha hududlarida bir xil darajada rivojlanmayapti. Buning asosiy faktorlari sifatida sohada raqamli infratuzilma yetarlicha rivojlanmaganligi, ta'lim kontentining sifati pastligi, malakali mutaxassislarini yetishmasligi bilan bog'lash mumkin. Shu sababli, masofaviy ta'lim xizmatlarining tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida ta'lim va masofaviy ta'lim xizmatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shuningdek, respublikada ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish asosida ta'lim darajasi qamrovini oshirishga alohida e'tibor berilmagan.

Xususan, xorij olimlardan Venera-Mihaela Cojocariu, Iulia Lazar, Valentin Nedeff, Gabriel Lazarlar tamonidan "SWOT analysis of e-learning educational services from the perspective of their beneficiaries" nomli ilmiy maqolasida SWOT tahlili asosida "elektron ta'lim" xizmatlariga xos bo'lgan kuchli, zaif, imkoniyat va tahdidlarni aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, mazkur tahlilning maqsadlarini "ko'zgu" tizimida kuchli va zaif tomonlarini, mos ravishda imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash, tizimlashtirish va ustuvorlik berish, kelgusida loyihani ishlab chiqishda reprezentativ ta'sirga ega bo'lgan jihatlarni aniqlash maqsadida natijalarni taqqoslashga bag'ishlangan. Shuningdek, mualliflar yakuniy natija sifatida "elektron ta'lim" xizmatlari muammosini optimallashtirish nuqtayi nazaridan OTMlarning strategik boshqaruvi uchun refleksiya va hisobot asosi sifatida zaif tomonlar va tahdidlarni sintez qilishgan [3].

Batey, Anne; Cowell, Richard N.lar tamonidan "Distance Education: An Overview" nomli texnologiya dasturida mualliflar "Masofaviy ta'lim" - bu ta'lim oluvchi ta'lim muassasasi bilan bog'langan va rasman ro'yxatdan o'tgan, ammo o'qitish maktabning rasmiy saytiga yoki undan olib borilishi shart bo'lmagan har qanday ta'lim shakli uchun "hamma narsani ushlab turish" iborasi sifatida qarashgan. Mualliflar Masofaviy ta'lim tenglikni ta'minlashi va ta'lim imkoniyatlari sifatini oshirishi mumkin; shuningdek, u mahalliy hamjamiyatda mavjud bo'lmagan fanlardan

foydalanish imkoniyatini, boshqa maktablardagi o'quvchilar bilan o'zaro ta'sir va birgalikdagi faoliyatni, axborot-o'quv resurslaridan foydalanish imkoniyatini oshirishni, xodimlarni rivojlantirish va malakasini oshirish imkoniyatlarini va maktab-jamiat aloqalarini kuchaytirishni ta'minlashi mumkin degan fikrlarga kelishgan [4].

MDH olimlaridan Ibragimova Olga Vasilevna, Kuznesova Nina Vladimirovnalar tamonidan "Дистанционные образовательные технологии в дополнительном профессиональном образовании" nomli ilmiy maqolasida mualliflar masofaviy ta'limda aloqa vositalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqqan. Shu bilan birgalikda mualliflar masofaviy ta'lim tizimida ta'lim texnologiyalari professional darajada qo'llash, unga ta'sir qiladigan omillar tahlili, masofaviy ta'lim shaklini tashkil etishdagi moliyalash manbaalari, ta'lim jarayonini tashkil etishda "Moodle" platformasidan foydalanish yo'llari kabi yo'nalishlarga alohida urg'u berishgan. Shuningdek, olingan natijalar bo'yicha mualliflar taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [5].

Mahalliy olimlardan B.A.Axmedova tamonidan "Ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning nazariy-ilmiy asoslari" nomli ilmiy maqolasida olima tamonidan ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning nazariy va ilmiy asoslari tizimli tahlil qilingan bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida sifat tushunchasining mazmuni, unga ta'sir etuvchi omillar, sifatni boshqarish va baholashning ilg'or yondashuvlarini yoritib bergan. Olima tamonidan ta'lim xizmatlarini iqtisodiy kategoriya sifatida baholash bilan birga, uning pedagogik, ijtimoiy va innovatsion jihatlariga ham alohida e'tibor bergan. Shu bilan birgalikda olima tamonidan jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini tadqiq etgan holda, O'zbekistonda ta'lim xizmatlari sifati bo'yicha mavjud muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilgan. Xulosa qismida esa, ta'lim xizmatlarini barqaror rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar bergan [6].

N.Sh.Agzamova tamonidan "O'zbekistonda aralash va masofaviy ta'lim tendensiyalari" nomli ilmiy maqolasida muallif tamonidan masofaviy ta'lim tushunchasiga turli olimlar tamonidan bildirilgan ta'riflarni tahlil qilgan. Olim tamonida "Masofaviy talim" va "masofaviy o'qitish" atamalarini tadqiq etgan bo'lib, terminlarga o'z qarashlarini bayon etgan. "Masofaviy talim" va "masofaviy o'qitish" atamalarini tadqiq etishi jarayonida o'tgan asrning 90-yillaridan, ya'ni masofaviy ta'lim tizimi shakllangan vaqtdan boshlab, muntazam qo'llanilishini tahlilini bayon qilgan. Shuningdek, maqolada masofaviy ta'lim tizimi takomillashgan bo'lishiga qaramay, "masofaviy ta'lim" va "masofaviy o'qitish" kabi atamalarining mohiyati borasida turlicha ilmiy qarashlar mavjudligini ko'rsatib bergan. So'ngi vaqtlarda respublikada "masofaviy ta'lim" xizmatlari holatini tahlil qilib fikr va xulosalar bergan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o'rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, induksiya, deduksiya, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o'rganilib, xorijiy olimlarning "ta'lim" va "masofaviy" ta'lim xizmatlariga ilmiy qarashlari o'rganilgan holda, mamlakatimiz uchun masofaviy ta'limni shakllantirishda jarayonida ustuvor maqsadlar ishlab chiqishida muhim ahamiyat kasb etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlatimizni qisqa vaqt ichida rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish uchun asosiy qilinishi lozim bo'lgan strategik ishlardan biri sifatida ta'lim tizimini isloh qilish maqsadga muvofiqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tamonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan Taraqqiyot Strategiyasi 46-maqсадida "oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish orqali yoshlarni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyatini yanada kengaytirish" [2] deb belgilab berilgani respublikamizda ta'lim tizimini yangi bosqich olib chiqish, oliy ma'lumotlilar darjasini yanada ko'paytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda faoliyat ko'rsatayotgan yoshlarni bilim olish uchun imkoniyatlar yaratib berishga alohida ahamiyat berish ekanligini ko'rsatmoqda. Demak, respublikani rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash maqsadida ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlarni bilimli, iqqidorli va inson kapitali sifatida shakllantirishimiz uchun ta'lim tizimini raqamlashtirish orqali uning samaradorligi yanada oshirishimiz mumkin bo'aladi. Bu esa o'z navbati kelajakda natijasini berishi bilan ahamiyatlidir. Bu islohotlarni natijadorligi albatta masofaviy ta'lim tizimini ahamiyati, uni rivojlantirish zarurligi va nazariy jihatdan puxta bilishimizni ko'rsatib bermoqda.

Masofaviy ta'limning shakllanishi 1840-yilga borib taqaladi. Aynan shu davrda ingliz stenografi Isaak Pitman Buyuk Britaniyada pochta xizmatidan foydalangan holda stenografiyani o'rgatishni boshlagan edi. 1873-yilda Anna Eliot Ticknor tomonidan ingliz tilidagi "Uyda o'qishni qo'llab-quvvatlash jamiyati" dasturi asosida tashkil etilgan va "Ticknor's Society" deb nom olgan loyihasi orqali AQShda ayollar uchun pochta orqali ta'lim tizimi yo'lga qo'yildi. 1911-yilga kelib, Avstraliyaning Brisben shahrida joylashgan Kvinslend universiteti oliy ta'lim darajasidagi kurslarni masofadan o'qitishni boshladi [8]. 1914-yilda maktablardan

uzoqda istiqomat qiluvchi bolalar uchun boshlang'ich ta'lim dasturi asosida pochta orqali o'qitish yo'lga qo'yildi. Oradan ko'p o'tmay, maktab yoshidagi o'quvchilar uchun shunga o'xshash ta'lim tizimlari Kanada va Yangi Zelandiyada ham amaliyotga joriy etildi. 1939-yilda Fransiyada maktabga qatnash imkoniga ega bo'lmagan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan "Centre National d'Enseignement à Distance" (CNED) - bugungi kunda mavjud bo'lgan va Yevropadagi eng yirik masofaviy ta'lim muassasasi sifatida tanilgan - davlat ta'lim markazi sifatida faoliyat boshladi. 1946-yil esa Janubiy Afrika Respublikasidagi Unisa universiteti masofaviy o'qitish shakliga rasmiy ravishda o'tdi.

XX-asr boshlarida telegraf va telefon kabi aloqa vositalarining mavjudligi fonida texnologik taraqqiyot jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Biroq, bu vositalardan ta'lim jarayonida foydalanilganiga doir aniq va ishonchli dalillar mavjud emas. Shu davrda korrespondensiya ta'limi keng qo'llanilayotgan bo'lib, dunyoning turli hududlaridagi ko'plab universitetlar bu tizim asosida ta'lim faoliyatini olib borgan. Radio va televizorning paydo bo'lishi esa masofaviy ta'lim shakllariga sezilarli yangilik olib kirib, o'quvchilarning sonini keskin oshirdi. Ko'pchilik 1950-yillardan boshlab uzatilgan o'quv teleko'rsatuvlarini hanuz eslab qolgan. Shunga qaramay, radio va televidenie orqali ta'lim berishda muhim cheklov mavjud edi: talabalarda o'rganilgan material yuzasidan fikr bildirish yoki savol berish imkoniyati yo'q edi.

1969-yilda Buyuk Britaniyada dunyodagi ilk masofaviy ta'lim universiteti - Buyuk Britaniya Ochiq Universiteti (Open University) tashkil etildi. Bu oliy ta'lim muassasasi ayniqsa o'zining nisbatan arzonligi hamda an'anaviy dars mashg'ulotlarida qatnashish zaruratining yo'qligi bilan ajralib turgan. Masofaviy ta'lim dasturlarini taklif qiluvchi taniqli xorijiy oliy ta'lim muassasalari qatoriga quyidagilar kiradi: 1946-yilda masofaviy ta'limga o'tgan Janubiy Afrika universiteti (UNISA), 1974-yilda Germaniyada tashkil etilgan Hagen shahridagi FernUniversität, 1984-yilda AQShda muhandislik yo'nalishida masofaviy o'qitishni yo'lga qo'ygan Milliy Texnologiya Universiteti, Germaniyadagi Xagen Ochiq Universiteti, Janubiy Afrikadagi INTEC-Keyptaun kolleji, Ispaniya Milliy Masofaviy Ta'lim Universiteti (UNED), Britaniya Ochiq Universiteti qoshidagi Ochiq Biznes Maktabi hamda Avstraliya Hududiy Axborot Tarmog'i. 1980-yillarning oxirida shaxsiy kompyuterlarning ommalashuvi ta'lim jarayonini soddalashtirish va avtomatlashtirish borasida yangi imkoniyatlar yaratdi. Dastlabki kompyuterlar uchun yaratilgan o'quv dasturlari ko'pincha o'yin ko'rinishida taqdim etilgan. 1988-yilda esa Sovet-Amerika hamkorligida "Maktab elektron pochta" nomli loyihaning amalga oshirilishi masofaviy aloqani rivojlantirishda muhim qadam

bo'ldi. 1990-yillarga kelib, sun'iy yo'ldosh texnologiyalaridan foydalangan holda masofaviy ta'limni ilgari surgan tashkilotlar orasida Xalqaro Bilimlar Assotsiatsiyasi va uning a'zosi hisoblangan Zamonaviy Gumanitar Akademiya yetakchi o'rin egalladi.

XXI asrga kelib masofaviy ta'lim keskin suratlarda rivojlana boshladi. Ayniqsa koronavirus pandemiyasini yuzaga kelishi natijasida dunyoda masofaviy ta'limga bo'lgan ehtiyojni keskin suratlarda oshishiga olim keldi. Masofaviy ta'lim, uning xizmat ko'rsatish jarayoni, samaradorligi haqida ko'plab olimlar izlanishlar olib borgan bo'lib, o'zlarining bir qator qarashlari bilan uning rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelishmoqda.

Xususan, xorijlik olimlardan Passerini K., Granger, M.J.lar "Masofaviy ta'limga bir asrdan oshdi. Dastlab aloqa bosma ommaviy axborot vositalari va pochta tizimi orqali amalga oshirilib, "sirtqi ta'lim" vujudga keldi. Bugungi kunda masofaviy ta'lim dasturlaridagi deyarli barcha aloqa shakllari ma'lum darajadagi elektron aloqani o'z ichiga oladi" [9]. deb fikr yuritgan. Ushbu olimlarning qarashlari bir tamonlama masofaviy ta'lim xizmatlarini xususiyatlarini ochib berishi mumkin, ammo, masofaviy ta'lim xizmat ko'rsatishda elektron aloqaga borib taqalmasligi mumkin. Chunki, televideniya, maxsus kurslar, pochta xizmatlaridan foydalanilgan holda ham ta'limni tashkil etishimiz mumkin. Shuningdek, ta'lim berish, turli kurslar, malaka oshirish va boholash jarayonlarida hamsezilarli farqlar ham vujudga kelmoqda. shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida masofaviy ta'lim xizmat ko'rsatishda internet texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy olimlardan Botirova X.T. "masofaviy o'qitish-o'qituvchi va talabalarning masofadan turib o'zaro ta'siri, o'quv jarayoniga xos bo'lgan barcha tarkibiy qismlarni (maqsadlar, mazmun, usullar, tashkiliy shakllar, o'quv vositalari) aks ettiradi va Internet texnologiyalarining o'ziga xos vositalari yoki interaktivlikni ta'minlaydigan boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi" [10]. deb o'z fikrini keltirib o'tgan. Ushbu qarash ham masofaviy ta'lim xizmatlarini ma'lum jabhada ochib berishi mumkin. Ammo, shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi bevosita qatnashmasligi va interaktivlik to'laqonli amalga oshmasligi mumkin. Boisi masofaviy ta'lim olishda media kurslar ham mavjud bo'lib, uni tinglovchilar o'zlari mustaqil o'zlashtirishlari ham mumkin.

Mirzaev K.J., Boboqulov S.B., Janzakov B.K.lar "Raqamli iqtisodiyot" nomli darsligida "masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa

va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar" [11] deb fikr berishgan. Fikrimizcha, ushbu olimlar tamonidan keltirilgan fikrlar ham yuqorida keltirilgan fikrlarga mos keladi va bu yerdada ham biz masofaviy ta'lim berishni mustaqil amalga oshirish jihatlariga e'tibor bermaganligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo'lishi va ularni "ta'lim texnologiyalari bilan birlashtirilishi" ta'lim sohasida tub o'zgarishlarga olib keldi:


Birinchidan, ta'limda axborot texnologiyalarini jalb qilish asosida o'qitish vositalari: Blackboard, onlayn-kurslar, simulyatorlar, trenajerlar, onlayn-olamlar va boshqalar qo'llana boshladi.

Ikkinchidan, axborot texnologiyalari talimni individuallashtirdi, bunda o'qish jarayoni va mazmuni o'quvchilar so'rovlariga va ularning individual xususiyatlariga (o'qish tezligi, o'qish shaklini afzal ko'rish v.b.) ommashtiriladi. Uchinchidan, ta'limda o'rganilayotgan fanlarni samarali va har tomonlama o'zlashtirishga imkon beradigan o'qitishning o'yin shakllari faol joriy qilina boshladi.

To'rtinchidan, ta'lim, ayniqsa, OTM talabalari va katta yoshdagilar uchun yanada predmetli va amaliyotga

yo'naltirilgan bo'lib bormoqda; ta'lim markaziga startap, biznes-loyiha, biznes-reja kabi loyihalar qo'yilmoqda [11].

Bizningcha, hozirgi vaqtda masofaviy ta'lim xizmatlarini xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari, olimlarni qarashlarini tahlil qilishimiz va uning avfzalliklari-kamchiliklarini to'laqonli anglagan holda unga aniq bir tavsif berishimiz mumkin bo'ladi. Masofaviy ta'lim XVIII asrda vujudga kelgan bo'lishiga qaramay uning rivojlanishini ko'plab olimlar uch bosqichga bo'lishadi. Bu bosqichlarda masofaviy ta'lim xizmat ko'rsatish jarayoni rivojida yangi texnologiyalarga tayangan holda amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, birinchi bosqichda asosan individual ta'lim olishga alohida e'tibor berishgan va buni amalga oshirishda CD-romlar, fleshkalar, diskarga yozgan holatda amalga oshirishgan. Rivojlanishning ikkinchi bosqichida masofadan turib o'qitish dasturlari vujudga kelgan, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi masofadan turib o'qitishni amalga oshirishgan. Uchinchi bosqichda maxsus interfaol dasturlar, topshiriqlarga asoslangan kurslarga, audio, video kurslarni o'zida jamlagan hamda nazorat qilish "online" baholash imkoniyatiga ega bo'lgan platformalar va elektron kitoblarni vujudga kelishi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlanish bosqichlari

Yuqorida keltirilgan rasmdan masofaviy ta'limni rivojlanish bosqichlarini ko'rishimiz mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, masofaviy ta'lim xizmatlarini to'laqonli anglab olishimiz uchun uning avfzalliklari va kamchiliklarini ham to'laqonli anglab olishimiz kerak. Buning uchun uning avfzalliklari va kamchiliklarini bir-biriga taqqoslash orqali tahlil qilishimiz lozim (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki masofaviy ta'lim xizmatlarini avfzalliklari bilan birgalikda kamchiliklari ham mavjuddir. Misol tariqasida o'qish jarayonida tinglochlilar uchun xizmat ko'rsatish narxini pasayishi natijasida ko'plab insonlar ta'lim olishi mumkin. Bu o'z navbatida ta'lim

beruvchi subyekt uchun ham daromadli hisoblanadi. Chunki, ko'plab talab etiladigan kommunal to'lovlar, konstovar mahsulotlari, o'quv qurollari, zamonaviy texnologiyalar, bino amorzizatsiyasi, o'qituvchilarga beriladigan maosh kabi xarajatlarni keskin qisqarishiga olib keladi. Shu ham alohida ta'kidlash kerakki o'z navbatida amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi, ayniqsa, fizika, kimyo, biologiya kabi yo'nalishlarda buktulgan samarani bermasligi mumkin. Shuningdek, kiber hujumlar va texnologik muammolar ta'lim olish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda jahon miqyosi bo'yicha ham masofaviy ta'lim xizmatlari rivojlanish tendensiyariga e'tibor beradigan


bo'lsak, yildan-yil rivojlanib borayotganligi ko'rishimiz mumkin. "Research.com" xalqaro internet saytining ma'lumotlariga ko'ra "2023-yilda masofaviy ta'limning global bozori 227,34 milliard dollarga baholangan va 2032-yilga kelib ta'lim bozorida 14,02 foizni tashkil etgan holda 740,46

milliard dollarga yetishi kutilmoqda" [12]. "Research.com" saytida keltirilgan ma'lumotga ko'ra dunyo mintaqalarida masofaviy ta'lim bozorini ulushi 2025-yilda ham o'sish tendensiyalariga ega bo'lishi kutilmoqda (2-rasm).

1-jadval

Masofaviy ta'lim xizmatlarini afzalliklari va kamchiliklari

No	AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI
1	Ta'lim olish erkinligi	Texnologik muammolar
2	Ta'lim narxini pasayishi	Ma'lumotlarga kiber tahdidlar
3	Ta'limning moslashuvchanligi	Amaliy tajribalarni yetishmasligi
4	Talim olish imkoniyatlari	O'zini nazorat qilishdagi muamolar
5	Vaqtini tejilishi	



2-rasm. 2025-yilga kelib dunyoda onlayn ta'limning bozoring qiymati (milliard AQSh dollari) [12].

Reserch.com saytida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda 2-rasm ma'lumotlarini tahlil qilishimiz natijasida masofaviy ta'lim bozori 2025-yilga kelib, mintaqalar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan. Eng yuqori kapitallashuv Janubiy Afrikaga to'g'ri kelib 550,42 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birgalikda dunyo sivilizatsiyasi rivojlangan Evropada 21,34 milliard dollar ekanligini ko'rishimiz mumkin. Evropada masofaviy ta'lim oldindan

rivojlangan bo'lishiga qaramay uning bozor qiymati pastligini boisi, Evropada ananaviy ta'lim olishga talab yuqoriligi bilan asoslanadi. Shuningdek, so'ngi vaqtlarda ham Osiyo qitasida masofaviy ta'lim bozoriga kiritiladigan kapitalni o'sishini ko'rishimiz mumkin. Eng past ko'rsatkich Janubiy Amerika qitasiga to'g'ri kelmoqda, uning bozor qiymati 3,64 milliard dollarga baholanishi kutilmoqda. umumiy xulosa qilib ayatadigan bo'lsak, dunyoda masofaviy ta'lim bozorini

kapitallashuvi ayniqsa koronavirus pandemiyasidan keyin tub islohotlarni o'tkazganligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi sifatida ta'lim paketlarini arzonligi, bilim olishdagi masofaning ahamiyatsizligi, vaqt tanlamasligi va indivudal bilim olish kabi xususiyatlarini mavjudligidir. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida masofaviy ta'lim xizmatlarini xususiyatlarini o'rganishimiz lozim. Chunki,

uning xususiyatini to'laqonli anglab olmasdan unga aniq tavsif bera olmaymiz. Hozirgi glaballashuv sharoitida masofaviy ta'lim xizmatlari innovatsion, raqamli va axborot kommunukatsion texnologiyalarisiz tasavur qilib bo'lmagligidan kelib chiqib uning xususiyatlarini shakllantirdik (2-jadval).

2-jadval

Masofaviy ta'lim xizmatlarini xususiyatlari

No	XUSUSIYATLARI	TAVSIFI
1	Moslashuvchanlik	Har qanday joyda va vaqtda ta'lim olish mumkin
2	Shaxsiylashtirish	Har bir o'quvchiga individual yondashuv
3	Texnologik asoslanganlik	Raqamli texnologiya, AKT orqali amalga oshiriladi
4	Oson monitoring	Natijalarni shaffov va raqamli baholash va tahlil qilish

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki masofaviy ta'lim xizmatlarini xususiyatlari ko'p qirrali bo'lib ananaviy ta'limga nisbatan bir qator ustunliklarga egaligi ko'rsatmoqda. Moslashuvchanligi, shaxsiylashtirish, texnologik asoslanganligi va monitoring osonligi bois masofaviy ta'lim xizmatlarini masofadan turib raqamli va AKT texnologiyalari yordamida jonli bilim olish yoki media kurslar orqali indivudal ta'lim olish imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Yuqorida keltirilgan olimlarning qarashlari, uning ijobiy va salbiy tomonlari, xususiyatlari va jaxonda masofaviy ta'lim xizmatlarini ahamiyatini tadqiq etishimiz natijasida uning quyidagi ta'rifini takomillashtirdik. Masofaviy ta'lim – bu ta'lim xizmatlarni oluvchilar va beruvchilarni bir joyda bo'lmagan holda AKT va raqamli texnologiyalar vositasida guruh yoki indivudal sahklada ta'lim olishi, nazorat qilinishi, ma'lumotlardan foydalanish jarayonini amalga oshirish shaklidir. Masofaviy ta'lim xizmatlariga bergan ta'rifimizdan kelib chiqib o'quvchi, talaba, tinglovchilar ommaviy yoki o'zlari jonli, vaqtga moslab, mediakursadan foydalanib o'z bilimlarini oshirishlari mumkin bo'lib, ta'lim oluvchilarga vaqt, ortiqcha mablag', masofani farq qilmaslik kabi imkoniyatlar qilib beradi. Bu ko'plab insonlarni ta'lim olishiga, malaka oshirishiga, qo'shimcha kasblarni egallashiga, yoshi, jinsiga qaramay bilimini oshirishiga olib keladi. Albatta ushbu bilimlar olingan ta'limlar inson sivilizatsiyasini yanada rivojlantirishga olib keladi. So'ngi vaqtlarda respublikamizda ham masofaviy ta'lim xizmatlarini tashkil etish bo'yicha ijobiy islohotlar amalga oshirilib kelinyotganligi bizning ham zamon bilan hamnafas harakat qilyotganligimizni ko'rsatib

bermoqda. Ayniqsa sirtqi ta'lim shaklini tugatilishi va uning o'rniga masofaviy ta'lim shaklini kirib kelishi, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar, dasturlar, normativlarni ishlab chiqilishi fikrimiz tasdig'idir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borgan izlanishlarimiz natijasida masofaviy ta'lim xizmatlarini nazariy jihatlarini raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida o'ziga xosligi bilan ajralib turishi, jozibadorligi, ta'lim xizmat ko'rsatishni samarasi bilan ajralib turishi namayon bo'lmoqda. Ushbu xulosalardan kelib chiqib mamlakatimizda masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishimiz maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- masofaviy ta'lim xizmatlarini raqamli iqtisodiyotning asosiy talablariga moslashtirish uchun zamonaviy platformalarni lokal sharoitga integratsiya qilish orqali raqamli transformatsiyaning xizmatlar sohasi bilan uyg'unlashuvini yanada oshirish;
- tinglovchilar, o'quvchilar, talabalar va o'qituvchilar uchun raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks dasturlarini ishlab chiqish;
- masofaviy ta'lim xizmatlari uchun alohida platforma qulayligi, interaktivlik darajasi, talabalar ishtiroki, natijalar monitoringi sifat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish orqali masofaviy ta'lim sifatini baholash indikatorlarini amaliyotga tadbiq etish;
- masofaviy ta'lim xizmat ko'rsatish jarayonini

me'yoriy-huquqiy bazasini qayta ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish, ta'lim berish, ta'lim olish, masofaviy o'qitish tizimlar faoliyatini aniq normativlarini zamon talablaridan kelib chiqib shakllantirish;

– masofaviy ta'lim xizmatlarini respublikada rivojlantirish maqsadida moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, masofaviy ta'lim texnologiyalarini import qilishda imtiyozlar berish, xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali yana rivojlantirishimiz mumkin. Albatta mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ta'limning o'rni beqiyos, shu bois masofaviy ta'limni mamlakatimizda rivojlantirish aholi turmush darajasi, bilim saviyasi, savodxonligi oshishiga va qo'shimcha kasblarni o'zlashtirishi natijasi mamlakat rivojiga xissa qo'shishi mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Yusupov Nurbekjon Xasan o'g'li Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti / Юсупов Нурбекджон Хасан оглы, ассистент Самаркандского института экономики и сервиса / Yusupov Nurbekjon Hasan ogly, Assistant, Samarkand Institute of Economics and Service
 ► yusupovnurbek94@gmail.com
 ■ <https://orcid.org/0009-0003-7542-6081>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. <https://www.classcentral.com/report/coursera-q4-2023/>
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tamonidan
 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. Toshkent.: www.lex.uz
- [3]. Cojocariu, V. M., Lazar, I., Nedeff, V., & Lazar, G. (2014). SWOT anlysis of e-learning educational services from the perspective of their beneficiaries. Procedia-Social

and Behavioral Sciences, 116, 1999-2003.

- [4]. Batey, A., & Cowell, R. N. (1986). Distance Education: An Overview.
- [5]. Ибрагимова, О. В., & Кузнецова, Н. В. (2015). Дистанционные образовательные технологии в дополнительном профессиональном образовании. Образовательные технологии и общество, 18(3), 421-435.
- [6]. Axmedova B. MASOFAVIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISH MODELLARI // Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 10. – С. 149-154.
- [7]. Moxinur O. et al. O'ZBEKISTONDA ARALASH VA MASOFAVIY TA'LIM TENDENSIYALARI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 157-161.
- [8]. Caruth, G. D., & Caruth, D. L. (2013). Distance Education In The United States: From Correspondence Courses To The Internet. Turkish Online Journal of Distance Education, 14(2), 141-149.
- [9]. Passerini, K., & Granger, M. J. (2000). A developmental model for distance learning using the Internet. Computers & Education, 34(1), 1-15.
- [10]. Botirova X.T. Ta'limni samaradorligini oshirishda masofaviy ta'limni ahamiyati. "MUSIQIY TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIGA ZAMONAVIY YONDASHUVNING DOLZARB MASALALARI" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Jizzah. 2022-yil 29-noyabr
- [11]. K.J.Mirzaev, S.B.Boboqulov, B.K.Janzakov. Raqamli iqtisodiyot [Matn]: Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2025 - 488 bet.
- [12]. https://research.com/education/online-education-statistics?utm_source=chatgpt.com

Oliy ta'lim tizimida innovatsion infratuzilmaning shakllanishi va rivojlanishi

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, Mardonova Go'zal Mamatqul qizi

Формирование и развитие инновационной инфраструктуры в системе высшего образования

Хамраева Сайёра Насимовна, Мардонова Гузал Маматкул кизи

Formation and development of innovative infrastructure in the higher education system

Khamraeva Sayyora Nasimovna, Mardonova Guzal Mamatkul kizi

Received: August 14, 2025 Revised: August 17, 2025 ■ Accepted: August 20, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishning bosh omillaridan birisifatida innovatsiyalar va bilimlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois oliy ta'lim tizimi faqatgina malakali mutaxassislar tayyorlash bilan cheklanmay, balki yangi bilimlarni yaratish va rivojlantirish jarayonida ham faol ishtirok etmoqda. Oliy ta'limning innovatsion infratuzilmasi esa fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydigan institutlar, resurslar va mexanizmlar majmuasidan iboratdir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – oliy ta'lim tizimida innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish hamda uni rivojlantirish zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.
- **Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion xizmatlar.
- **Аннотация:** В настоящее время одним из основных факторов экономического роста являются инновации и знания, которым уделяется особое внимание. В связи с этим система высшего образования не ограничивается лишь подготовкой квалифицированных специалистов, но также активно участвует в процессе создания и развития новых знаний. Инновационная инфраструктура высшего образования представляет собой совокупность институтов, ресурсов и механизмов, обеспечивающих взаимодействие науки, образования и производства. Основная цель данной статьи – изучение научно-теоретических основ развития инновационной инфраструктуры в системе высшего образования, а также научное обоснование объективной необходимости её развития.
- **Ключевые слова:** высшее образование, инновации, инновационная инфраструктура, инновационные услуги.
- **Abstract:** Currently one of the key drivers of economic growth is innovation and knowledge, which are receiving

increasing attention. In this regard, the higher education system is not limited to training qualified specialists but also actively participates in the creation and development of new knowledge. The innovative infrastructure of higher education encompasses a set of institutions, resources, and mechanisms that ensure collaboration between science, education, and industry. The main purpose of this article is to explore the scientific and theoretical foundations of developing innovative infrastructure in higher education and to scientifically substantiate the objective necessity of its advancement.

■ **Keywords:** higher education, innovation, innovative infrastructure, innovative services.

KIRISH

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyotga erishish va buning natijasida mamlakatda qulay ijtimoiy muhitni shakllantirish hamda xalqaro maydonda mamlakatning yuqori maqomini tan olinishi uchun innovatsion rivojlanish jarayonlarining muvaffaqiyatli kechishi zarur. Aynan fundamental tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalar sektori, sifatli ta'lim sohasi, xususan, oliy ta'lim, shuningdek, innovatsion jarayon ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini uning barcha bosqichlarida tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan maqsadli davlat siyosati milliy innovatsion tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda global iqtisodiyotdagi keskin o'zgarishlar, xususan, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, savdo cheklovlar, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va energiya bozoridagi beqarorlik O'zbekiston uchun ham yangi iqtisodiy chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Mamlakatimizning eksport tuzilmasida hali ham xomashyo mahsulotlari (paxta tolasi, rangli metallar, tabiiy gaz va boshqa resurslar) ulushi sezilarli darajada yuqoriligicha qolayotgani, shuningdek, tayyor sanoat mahsulotlari ulushini oshirish zaruriyati mavjudligi ushbu masalani yanada dolzarb qiladi.

Oliy ta'lim tizimi inson bilimining eng dinamik va samarali sohasi hisoblanadi, chunki aynan oliy o'quv yurtlarida yangi bilimlar "ishlab chiqariladi". Bu esa nafaqat o'ziga xos ravishda oliygohning innovatsion rivojlanishiga, balki mintaqaning va butun mamlakatning innovatsion iqtisodiyoti shakllanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLARNI TAHLILI

Oliy o'quv yurtlarining inson salohiyatini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotga o'tish va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishdagi ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi [1]. Shu bilan birga, Jahon banki hisobotida mamlakatda raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirishga to'sqinlik qilayotgan muhim muammo sifatida biznes, davlat, universitetlar va ilmiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning hanuz sustligi qayd etilgan [2].

Bilimlar transferi — "bu bilimlar, jumladan texnologiyalar,

tajriba va ko'nikmalar bir tomondan boshqa tomonga uzatilishi orqali iqtisodiy va ijtimoiy sohada innovatsiyalarni yuzaga keltiradigan tashkiliy tizimlar va jarayonlardir".

Texnologiyalar transferi esa — "bilimlar transferi jarayonining yangi texnologiyalarni yaratuvchilardan foydalanuvchilarga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarkibiy qismidir" [3]. Demak, texnologiyalar transferi bilimlar transferiga nisbatan torroq tushuncha hisoblanadi.

Bundan tashqari, ilmiy nashrlarda faol innovatsion faoliyat uchun qulay sharoit yaratuvchi makon bilan bog'liq holda "innovatsion landshaft" atamasi tobora ko'proq uchramoqda. Ushbu atama bo'yicha semantik aloqalarni tahlil qilgan olimlar N.V. Basov va V.N. Minina quyidagicha ta'rif beradilar: "innovatsion landshaft — bu turli sohalardagi tashkilotlarni o'z ichiga olgan, o'zaro hamkorlik qiladigan, o'z kompetensiyalari, bilimlari, axboroti va resurslarini birlashtiradigan murakkab tarmoqli o'z-o'zini tashkil qiluvchi tuzilma bo'lib, buning natijasida innovatsiyalar yuzaga keladi [4]." Ularning ta'kidlashicha, innovatsion landshaft ma'lum bir mintaqaga yoki mamlakat chegaralari bilan cheklanmaydi, balki resurslar va axborot almashinuvi nuqtayi nazaridan belgilanadi.

Shuningdek, yuqorida ko'rib chiqilgan tushunchalar bilan bevosita bog'liq yana bir tushunchaga — innovatsion faoliyatga e'tibor qaratish lozim.

R.A. Fatxutdinov uni quyidagicha ta'riflaydi: "strategik marketing, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, ishlab chiqarishni tashkiliy va texnologik jihatdan tayyorlash, yangiliklarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish, ularni joriy etish (yoki innovatsiyaga aylantirish) hamda boshqa sohalarga tarqatish (diffuziya) jarayoni. [5]"

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimidagi innovatsion infratuzilmani o'rganishga har tomonlama nazariy tahlil va tizimli yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash uchun qiyosiy tarixiy tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologiya mavjud to'siqlarni aniqlash va oliy o'quv yurtlarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish mexanizmlarini

takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning amaliy xususiyatini va uning erishilgan natijalardan amaliy foydalanishga yo'naltirilganligini aks ettiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, dastlabki universitetlar o'rta asrlar davridayoq paydo bo'lgan. Xususan, Yevropada universitetlarning shakllanishi XI asr oxiri – XII asr boshlariga taalluqli deb hisoblanadi. O'sha davr universitetlarining asosiy vazifasi talabalarni o'qitish edi. XIX asr boshida A. Gumboldt Qirollik akademiyasi va Berlin universitetini birlashtirib, ikkita teng darajada muhim vazifaga ega bo'lgan ta'lim muassasasini yaratdi: talabalarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish [4].

XX asr boshida universitetlar yangi bilim va texnologiyalar manbai sifatida tan olina boshlandi, ya'ni tadqiqot olib borish talaba tayyorlashdan tashqari, har qanday universitetning muhim funksiyasiga aylandi. Adabiyotlarda bu hodisa hatto "akademik muhitning birinchi inqilobi" deb ataladi. Universitetlarda olingan bilimlarni tijorat maqsadida qo'llashga urinishlar XIX asrdayoq bo'lgan, biroq aynan hozir bunday faoliyat "akademik muhitning ikkinchi inqilobi" miqyosini kasb etmoqda. Endilikda ko'plab oliy ta'lim muassasalari uchun bu faoliyat ularning keyingi mavjudligi uchun zaruriy shartga aylanmoqda.

Hozirgi paytda universitet funksiyalari soniga qarab adabiyotlarda ba'zan "Universitet 3.0" va "Universitet 4.0" atamalari ham uchraydi [5].

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim sohasining rivojlanishini sekinlashtirayotgan muammolardan biri — ilmiy va tadqiqot faoliyatini olib borish uchun davlat moliyaviy ajratmalari yetarli emasligidir. Natijada, oliy o'quv yurtlari moliyaviy tushum yetishmasligini qoplash uchun turli imkoniyatlarni izlashga majbur bo'ladi. Shunday choralardan biri sifatida pullik ta'lim ulushini oshirish mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi (OTM) an'anaviy ravishda ta'lim va ilmiy-tadqiqotni bajaradi, ammo shu bilan birga so'nggi o'n yilliklarda esa «uchinchi missiya» — bilim va texnologiyalarni iqtisodiyotga biriktirish (tijoratlashtirish, tadbirkorlik, hududiy rivojlanish) institusional vazifaga aylandi. Bu evolyusiyani shartli ravishda to'rt bosqichda ifodalash mumkin:

1-bosqich. 1980-yillarda intellektual mulkni institucionallashtirish davri bo'lib, universitetlar davlat grantlari asosida yaratilgan ixtirolarga nisbatan huquqiy egalik va litsenziyalash imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, AQShda davlat mablag'lari hisobiga olingan natijalarni amaliyotga chiqarishni tezlashtirish maqsadida

Bayh-Dole qonuni (35 U.S.C. §200–212) qabul qilindi. Unga ko'ra, universitetlar davlat grantlari natijasida yaratilgan ixtirolarga huquq talab qilib, patentlash va litsenziyalashni o'zlari yo'lga qo'yishi mumkin bo'ldi. Bu normalar universitet-sanoat hamkorligini rag'batlantirdi va TTO (Technology Transfer Office) faoliyatini standartlashtirdi. Aynan shu davrdan boshlab TTolar (technology transfer office) «bir oyna» sifatida ish boshlab, ixtironi bayon etish, patentlandshaft tahlili, MTA/NDA kabi standart shartnomalar va ichki daromad taqsimoti qoidalarini joriy qildi, natijani o'lchash uchun ixtiro bayonotlari, patentlar va litsenziya daromadi kabi metrikalar kiritildi.

2-bosqich. 1990-yillarda «Triple Helix» mantig'iga o'tilgani sabab, universitet-sanoat-davlat o'rtasidagi hamkorlik platformalasha boshladi: texnoparklar, inkubatorlar va qo'shma laboratoriyalar ochildi, ramkaviy sanoat shartnomalari va konsorsium tadqiqotlari yo'lga qo'yildi, kadrlar mobilligi va ko-patentlash ko'paydi; natijalarni baholashda kontrakt R&D hajmi, park rezidentlari, qo'shma nashr/patentlar va vaqt-to-market ko'rsatkichlari qo'llandi.

3-bosqich. 2000-yillarda «tadbirkor universitet» modeli ustuvor bo'lib, innovatsiya universitet strategiyasi va KPilariga kiritildi: pre-inkubatsiya → inkubatsiya → akseleratsiya payplayni shakllandi, proof-of-concept grantlari va matching-grantlar joriy etildi, industry-liaison xizmati mustahkamlandi; baholashda spin-offlar soni va yashovchanligi, PoC konversiyasi, B2B daromad ulushi va tadbirkorlik ta'limi qamrovi asosiy indikatorlarga aylandi.

4-bosqich. 2010–2020-yillarda ochiq innovatsiyalar, missiya-yo'naltirilgan siyosat va raqamlashuv markaziy o'rinni egalladi: ochiq platforma va konsorsiumlar orqali «katta muammolar»ga yechim izlash, ma'lumot infratuzilmasi (FAIR/DMP), IP-menejment tizimlari va kraud-R&D amaliyotlari kengaydi; metrikalar esa patent-litsenziyadan tashqari bilim transferi ko'rsatkichlari (shartnoma tadqiqotlari, kadrlar mobilligi, jamoat innovatsiyasi, ma'lumot almashuvi) bilan to'ldirilib, ichki benchmark-dashbordlar orqali hisobdorlik oshirildi. Shu tariqa, har bir bosqichda huquqiy aniqlik → ko'p kanalli hamkorlik → tadbirkorlik madaniyati → platforma va missiyalarga asoslangan ekotizimgacha uzluksiz evolyusiya yuz berdi.

5-bosqich. 2020-yillardan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrabolgan holda, «valorizatsiya va missiyalarga asoslangan ekotizim, ochiq ilm va raqamlashuv, standartlashgan spin-aut amaliyoti hamda AI yordamidagi textransfer» davri hisoblanadi. YEI darajasida «Knowledge valorisation» tamoyillari va intellektual aktivlarni boshqarish bo'yicha Kodeks qabul qilinib, universitetlar faqat patent emas, balki ma'lumot, dasturiy ta'minot va nou-xau kabi aktivlarni ham qiymatga aylantirishga yo'naltirildi; bu transfer siyosati va

KPI'larda iqtisodiy-ijtimoiy ta'sirni birinchi o'ringa olib chiqdi. [6] Shu bilan birga, baholash islohoti (CoARA) natijasida universitetlar nashr metrikalarini "yaxlit ta'sir" ko'rsatkichlari (valorizatsiya, tadbirkorlik, sheriklik) bilan to'ldirmoqda [7]. CoARA Missiyaviy va hududiy innovatsiya platformalari kuchaydi: masalan, AQShda NSF'ning Regional Innovation Engines dasturi universitet-biznes-hudud konsorsiumlariga yirik, ko'p yillik mablag' ajratib, natijaga yo'naltirilgan R&D'ni tezlashtirmoqda. Ochiq ilm yo'nalishi keskin jadallashdi: OSTP'ning 2022-yilgi memorandumini federal moliyalangan tadqiqot natijalarini 2025 yilga borib darhol ochiq qilishni talab etdi — bu ma'lumot boshqaruvi (DMP/FAIR), ochiq repozitoriylar va ochiq litsenziya modellarini universitet siyosatiga qat'iyroq joriy etdi. Spin-autlar sohasida standartlashuv ortdi: Buyuk Britaniyaning 2023-y. Spin-out Review hamda TenU'ning USIT gidlari ayniqsa softver startaplarida bitimlarni shaffoflashtirib, universitet ulushi va shartlarini sektorga moslashtirishga xizmat qilmoqda [8]. Bu jarayonni kadrlar bilan ta'minlash uchun "Deep Tech Talent" tashabbuslari (EIT) ommalashdi; 2025-yilga kelib 1 mln qatnashchiga yetish maqsadi amaliy natijaga chiqarildi. Nihoyat, textransferning o'zi ham raqamlashmoqda: WIPO'ning 2024-y. hisoboti generativ AI bo'yicha patent faolligi keskin o'sishini va IM strategiyalarida AI vositalariga tayanish tendensiyasini ko'rsatdi; TTOlarda patent-landshaft, prior-art izlash, shartnoma draftlash kabi jarayonlarga AI qo'shilib bormoqda.

Umuman olganda, 5-bosqichda universitet innovatsion infratuzilmasi "huquqiy aniqlik va TTO"dan "missiyaviy-hududiyekotizimlar, ochiq ma'lumotsiyosati, standartlashgan spin-aut shartnoma qoidalari, deep-tech talantlar oqimi va AI-kuchaytirilgan textransfer" gacha kengaydi — natijada valorizatsiya va ta'sirning o'lchanishi bosh mezonga aylandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Universitetlarning rivojlanishi ta'lim + ta'lim+ilmiy tadqiqot + "uchinchi missiya" (valorizatsiya) izchilligida kechib, OTMlar hududiy innovatsion ekotizimning "yadro" sig'a aylandi. Xulosa qiladigan bo'lsak oliy ta'lim tizimida innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda iuyidagi jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. OTM rivojlanish konsepsiyasiga alohida bilimni valorizatsiya qilish strategiyasini integratsiya qilish maqsadga muvofiq: 3–5 yillik maqsadlar, ustuvor tarmoq/klasterlar, hamkorlar xaritasi va moliyalashtirish miksi aniqlanadi. Intellektual mulk (IP) siyosati, spin-out reglamenti, daromad taqsimoti hamda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartiblari normativ-huquqiy asosda tasdiqlanadi. Bu institusional aniqlik transfer jarayonlarining prediktabelligini va hisobdorligini ta'minlaydi.

2. TTO/KTO "yagona darcha" modelida ishlab, ixtiro bayonoti + patent-landshaft + IP qarori + litsenziya/qo'shma ishlanma + monitoring payplaynini standartlashtiradi. Industry liaison funksiyasi orqali korxonalar bilan tezkor shartnomalashuv va texnik topshiriqlar injiniringi yo'lga quyiladi; pre-inkubatsiya + inkubatsiya (MVP) + akseleratsiya zanjiri hamda prototiplash laboratoriyalari amaliyotga kiritiladi. Kutiladigan natija — kontrakt R&D portfeli va texnologiya joriy etish tezligi oshishi.

3. Pullik ta'limga ortiqcha tayanish xavflarini kamaytirish uchun daromad manbalari diversifikatsiyash: kontrakt tadqiqotlari, konsalting, litsenziyalar, spin-out ulushlari, alumni/hamkor jamg'armalari. Qisqa siklli Proof-of-Concept mini-grantlar fondi va sanoat bilan matching-grant mexanizmi joriy etish; missiya-yo'naltirilgan loyihalar uchun hududiy konsorsiumlar shakllantirish. Bu investitsiyaga tayyor texnologiyalar ulushini va bozorga chiqish konversiyasini oshiradi.

4. FAIR/DMP talablariga mos raqamli repozitорий, IP/CRM platformalari va raqamli shartnoma shablonlari yo'lga qo'yish. TTO jarayonlarida AI-qo'llovchi vositalar (prior-art qidiruvi, patent landshafti, shartnoma draftlash) pilot qilinadi, lekin huquqiy ekspertiza ustuvor saqlanadi. Bu ma'lumot boshqaruvi, transparentlik va tranzaksion xarajatlarning pasayishi orqali transfer samaradorligini kuchaytiradi.

5. Sektorga xos model terms joriy etilish (masalan, software va deep-tech uchun differensial ulush va litsenziya shartlari), "founder-friendly" bandlar aniq meyorlashtirish. Manfaatlar to'qnashuvi, ilmiy rahbar roli va intellektual ulushlar taqsimoti ochiq ko'rsatmalar bilan tartibga solinadi. Bu tadbirkorlik trayektoriyalarini shaffof qiladi va startap yashovchanligini oshiradi.

6. Muvozanatli scorecard joriy etish: IP metrikalari (ixtiro bayonoti, patent/litsenziya, daromad), transfer (kontrakt R&D, qo'shma laboratoriyalar), tadbirkorlik (PoC, spin-out yashovchanligi), ochiq ilm (ochiq nashrlar va DMPga ega datasetlar), hamda hududiy ta'sir ko'rsatkichlari. Yillik "innovatsion pasport" e'lon qilinib, pullik ta'lim ulushi bo'yicha chek-chegaralar va ijtimoiy kompensatsiyalar belgilanadi; knowledge security (due-diligence, eksport nazorati, ma'lumot himoyasi) standartlari tizimlashtiriladi. Bu institusional barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirni ishonchli o'lchashga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xamrayeva Sayyora Nasimovna - Qarshi davlat texnika universiteti - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.d., professor / Хамраева Сайёра Насимовна - Каршинский государственный технический университет - Заведующий кафедрой «Инновационная экономика», доктор экономических

наук, профессор / Khamraeva Sayyora Nasimovna - Karshi State Technical University - Head of the Department of Innovative Economics, Doctor of Economics, Professor
 ▶ xamrayevasayyora@gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0001-6516-5226>

2. Mardonova Go'zal Mamatkul qizi - QDTU 1-kurs tayanch doktoranti / Мардонова Гузал Маматкул кизи - докторант 1 курса / Mardonova Guzal Mamatkul kizi, 1st year doctoral student

▶ guzalmardonova398@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0000-0171-1056>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Paxomova N. V., Rixter K. K. Raqamli iqtisodiyot — XXI asr innovatsiyasi: barqaror rivojlanish uchun chaqiriqlar va imkoniyatlar // Zamonaviy iqtisodiyot muammolari. – 2018. – 66(2). – B. 22–31.
- [2]. Raqamli davrda raqobat: Rossiya Federatsiyasi uchun strategik chaqiriqlar — Jahon banki hisobotidan.
 URL: <http://documents.worldbank.org/curated/en/848071539115489168/pdf/aus0000158-russian-wprevised-p160805-public-disclosed-10-15-2018.pdf>
- [3]. Lobachevskiy Universiteti (NNGU, Nijniy Novgorod) — URL: <http://www.unn.ru/site/about/ofitsialnyesvedeniya-i-dokumenty/strategiya-transfera-znanij>
- [4]. Basov N.V., Minina V.N. Innovatsion landshaft: metaforadan ilmiy toifaga // Innovatsiyalar. – 2014. – № 7 (189). – B. 20–26.
- [5]. Fatxutdinov R.A. Innovatsion menejment: oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 6-nashr. – Sankt Peterburg: Piter, 2012. – B. 17.
- [6]. Аврус А.И. История российских университетов. - М.: Московский общественный научный фонд, 2001. – URL: <http://window.edu.ru/resource/980/46980/files/mion-ino-center03.pdf>
- [7]. Карпов А. Современный университет как драйвер экономического роста: модели и миссии. // Вопросы экономики. – 2017. – № 3. – С. 58—76.
- [8]. Guiding Principles for Knowledge Valorisation and implementing Codes of Practice. <https://research-and-innovation.ec.europa.eu/research-area/industrial-research-and-innovation/eu-valorisation-policy/knowledge-valorisation-platform/guiding-principles-knowledge-valorisation-and-implementing-codes-practice>.
- [9]. AGREEMENT ON REFORMING RESEARCH ASSESSMENT. https://coara.eu/app/uploads/2022/09/2022_07_19_rra_agreement_final.pdf.
- [10]. Independent review of university spin-out companies. <https://www.gov.uk/government/publications/independent-review-of-university-spin-out-companies>
- [11]. Khamraeva Nasimovna, S. and Mardonova Mamatkul kizi, G. 2025. Theoretical foundations for the development of innovative infrastructure in the system of higher education. The innovation economy. 1, 05 (Jun. 2025).

Barqaror rivojlanish maqsadlari va xalqaro kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyati

Shukurov Sherzod Xolmo`min o`g`li

Цели устойчивого развития и корпоративная социальная ответственность

Шукуров Шерзод Холмомин оглы

Sustainable development goals and corporate social responsibility

Shukurov Sherzod Kholmomin ogly

Received: August 10, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 18, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida xalqaro kompaniyalarning ijtimoiy mas'uliyati konsepsiyasi chuqur tahlil qilinadi. Global iqtisodiyotda barqarorlik tamoyillari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun asosiy omil sifatida ko'rilmogda. Xalqaro kompaniyalar o'z faoliyatlarida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini keng joriy etib, nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilamoqda, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham o'z zimmasiga olmoqda. Tadqiqot doirasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlari, shuningdek, yetakchi xalqaro kompaniyalar tajribalari, Deloitte va McKinsey kabi konsalting kompaniyalarining hisobotlari tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 va 2022-yillarda qabul qilingan qaror va farmonlari esa milliy biznesning xalqaro standartlarga moslashuvi va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan strategiyalarni amalga oshirishdagi huquqiy asos vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasini faol joriy qilgan kompaniyalar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishmoqda, shu bilan birga jamiyat va atrof-muhitni muhofaza qilishda ham yetakchi rol o'ynaydi. Milliy kompaniyalar uchun xalqaro tajribalarni o'zlashtirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.
- **Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, ijtimoiy mas'uliyat, xalqaro kompaniyalar, ESG tamoyillari, iqtisodiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, korporativ boshqaruv, O'zbekiston Respublikasi, Prezident qarorlari, biznes strategiyalari, milliy biznes, raqamli transformatsiya.
- **Аннотация:** В этой статье подробно анализируется концепция социальной ответственности международных компаний в рамках Целей устойчивого развития. В мировой экономике принципы устойчивости рассматриваются как ключевой фактор для обеспечения устойчивого развития в экономической, социальной и экологической сферах. Международные компании широко внедряют в свою деятельность принципы ESG (Environmental, Social, Governance), улучшая не только финансовые показатели, но и принимая на себя социальную и экологическую ответственность. В рамках исследования были проанализированы цели в области устойчивого развития, установленные организацией объединенных наций, а также опыт ведущих международных компаний, а также отчеты консалтинговых компаний, таких как Deloitte и McKinsey. Решения и указы Президента Республики Узбекистан, принятые в 2021 и 2022 годах, служат правовой основой для реализации стратегий, направленных на адаптацию национального бизнеса к международным стандартам и устойчивое развитие. Результаты исследования показали, что компании, которые активно

внедряют концепцию социальной ответственности, достигают долгосрочной экономической стабильности, а также играют ведущую роль в защите общества и окружающей среды. Для национальных компаний освоение международного опыта и внедрение в практику принципов устойчивого развития имеет важное значение в повышении экономической конкурентоспособности и обеспечении социально-экономического благосостояния общества.

- **Ключевые слова:** устойчивое развитие, социальная ответственность, международные компании, принципы ESG, экономическая стабильность, экологическая устойчивость, социальная стабильность, корпоративное управление, Республика Узбекистан, решения президента, бизнес-стратегии, национальный бизнес, цифровая трансформация.
- **Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the concept of social responsibility of international companies within the framework of Sustainable Development Goals. In the Global economy, sustainability principles are seen as a key factor in ensuring sustainable development in the economic, social and environmental sectors. In its activities, international companies are widely introducing the principles of ESG (Environmental, Social, Governance), not only improving financial performance, but also taking on social and environmental responsibility. As part of the study, the Sustainable Development Goals set by the United Nations were analyzed, as well as the experiences of leading international companies, reports from consulting companies such as Deloitte and McKinsey. And the decisions and decrees of the president of the Republic of Uzbekistan adopted in 2021 and 2022 serve as the legal basis for the adaptation of national business to international standards and the implementation of strategies aimed at Sustainable Development. The results of the study showed that companies that have actively introduced the concept of social responsibility are achieving long-term economic stability, while also playing a leading role in the protection of society and the environment. For national companies, mastering international experiences and practicing the principles of sustainable development are important in improving economic competitiveness and ensuring the socio-economic well-being of society.
- **Keywords:** Sustainable Development, Social Responsibility, international companies, ESG principles, economic sustainability, environmental sustainability, social sustainability, corporate governance, Republic of Uzbekistan, presidential decisions, business strategies, National Business, Digital Transformation.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanish global iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik farovonligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli strategiya sifatida butun dunyo mamlakatlari va korporatsiyalar faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Xalqaro kompaniyalar bugungi kunda nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv uslublarini joriy etish orqali global bozorning talablariga moslashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi PQ-327-sonli qarorida mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari belgilangan. Shu qarorga muvofiq, milliy korxonalar faoliyatida ijtimoiy mas'uliyat, ekologik xavfsizlik va barqaror boshqaruv tizimlarini joriy etish zarurati alohida ta'kidlangan. Bundan tashqari, 2021-yil 6-apreldagi

PF-6199-sonli farmon bilan eksport salohiyatini oshirish va raqamli transformatsiyani kuchaytirish maqsadida milliy kompaniyalar boshqaruv salohiyatini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Ushbu hujjatlar milliy biznes sub'yektlari faoliyatida xalqaro barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish zaruratini belgilab beradi. Shu bois, xalqaro kompaniyalar tomonidan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi qanday qo'llanilayotgani, uning amaliy natijalari va milliy biznesga ta'siri tadqiqot mavzusini tashkil etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida xalqaro kompaniyalar tomonidan ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasining amaliyotini tahlil qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo'nalishlardagi strategiyalarini o'rganish hamda ushbu tajribani O'zbekiston milliy biznes muhitiga joriy etish imkoniyatlarini aniqlashdir. Shuningdek, maqola orqali ijtimoiy mas'uliyatning xalqaro kompaniyalar faoliyatidagi o'rni va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda uning ta'siri ko'rsatib beriladi.

■ ADABIYOTLARNI TAHLILI

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy adabiyotlar barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyat sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarni qamrab oladi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha hujjatlari va hisobotlari bu mavzuning xalqaro me'yoriy bazasini tashkil qiladi. Ushbu hujjatlar BRMning mazmun-mohiyati, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo'nalishlardagi ahamiyati, hamda davlat va biznes sub'yektlari uchun qo'yilgan talablarini yoritadi.

Shuningdek, zamonaviy menejment va biznes boshqaruvi bo'yicha nufuzli olimlar — P. Kotler, M. Porter, K. Elkington va boshqalar tomonidan yozilgan ishlar tadqiqotga nazariy asos bo'ldi. Xususan, M. Porterni raqobat ustunligi konsepsiyasi va K. Elkingtonning "Triple Bottom Line" modeli ijtimoiy mas'uliyat va barqarorlikni biznes strategiyalariga integratsiya qilishda muhim o'rin tutadi.

Xalqaro kompaniyalar faoliyatiga oid tahliliy materiallar, masalan, Deloitte, McKinsey, BCG kabi konsalting kompaniyalarining so'nggi yillik hisobotlari, ESG tamoyillarining amaliy qo'llanilishi va kompaniyalar faoliyatidagi innovatsiyalarni o'rganishda katta yordam berdi. Ushbu hisobotlar global biznesning barqarorlikka bo'lgan yondashuvlari, ijtimoiy mas'uliyat loyihalari va moliyaviy natijalarga ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-327 va PF-6199 sonli qarorlari hamda farmonlari esa mamlakatning barqaror rivojlanish va milliy biznesning xalqaro standartlarga moslashish bo'yicha davlat siyosatini yoritib, tadqiqotda normativ-huquqiy asos vazifasini o'taydi. Bu hujjatlar milliy kompaniyalar uchun ijtimoiy mas'uliyat va barqarorlik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda yo'nalish beradi.

Natijada, tadqiqot uchun tanlangan adabiyotlar va hujjatlar to'plami mavzuning har tomonlama o'rganilishiga imkon berdi hamda barqaror rivojlanish maqsadlari va xalqaro kompaniyalar ijtimoiy mas'uliyatining o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilish uchun asos yaratdi.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tizimidagi innovatsion infratuzilmani o'rganishga har tomonlama nazariy tahlil va tizimli yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash uchun qiyosiy tarixiy tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologiya mavjud to'siqlarni aniqlash va oliy o'quv yurtlarida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish mexanizmlarini

takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning amaliy xususiyatini va uning

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, barqaror rivojlanish maqsadlari xalqaro kompaniyalar uchun faqat ijtimoiy va ekologik majburiyat sifatida emas, balki uzoq muddatli raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlik manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompaniyalar ijtimoiy mas'uliyatni o'z strategiyalariga integratsiya qilgan holda, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson huquqlarini himoya qilish va korporativ boshqaruvni yaxshilash bo'yicha amaliy tashabbuslarni rivojlantirmoqda.

Shuningdek, ESG tamoyillarini qo'llash orqali kompaniyalar o'z investorlarining ishonchini oshirmoqda va global bozor talablariga javob berish imkoniyatini kengaytirmoqda. Raqamli transformatsiya va innovatsiyalar bilan birgalikda ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi kompaniyalarning ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston kontekstida esa Prezident qarorlari va farmonlari asosida milliy biznes uchun barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas'uliyatni joriy etish yo'lida sezilarli qadamlar qo'yilmoqda. Xalqaro tajribani o'zlashtirish orqali O'zbekiston korxonalari nafaqat milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, balki global maydonda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini ham oshirmoqda.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) insoniyatning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy adolat va ekologik muhofazani uyg'unlashtirishga qaratilgan global strategiya bo'lib, u 17 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Ushbu maqsadlar doirasida xalqaro kompaniyalar faoliyati nafaqat moliyaviy natijalarga, balki ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarga ham qaratilgan. Bugungi kunda biznesning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning atrof-muhitga va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatiga bog'liq.

Xalqaro kompaniyalar o'z faoliyatida ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish uchun ko'plab strategiyalarni qo'llaydi. Jumladan, ular ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etadi, chiqindilarni kamaytiradi, uglerod izini qisqartiradi. Misol uchun, Tesla elektromobillar ishlab chiqarish orqali neftga bog'liq bo'lmagan transport infratuzilmasini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Unilever esa suvdan samarali foydalanish, plastik chiqindilarni kamaytirish kabi ekologik tashabbuslarni faol amalga oshirmoqda.

Shuningdek, xalqaro kompaniyalar ijtimoiy mas'uliyatni mehnat huquqlari va inson resurslarini rivojlantirish orqali ham ta'minlaydi. Ular xodimlarning xavfsizligi va sog'lig'iga

e'tibor berish, teng imkoniyatlarni yaratish, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradi. Bu esa nafaqat ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi, balki korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Korporativ boshqaruvda esa ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib, kompaniyalar o'z strategiyalarini shu tamoyillar asosida shakllantirmoqda. Bu tamoyillar investorlar va mijozlar uchun ham muhim baho mezonini hisoblanadi. Masalan, global konsalting kompaniyalari Deloitte va McKinsey tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatganidek, ESG tamoyillariga e'tibor qaratgan kompaniyalar moliyaviy ko'rsatkichlari va bozordagi obro'si yaxshilanmoqda.

Biroq, ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda ayrim muammolar ham mavjud. Ba'zi kompaniyalar uchun BRM faqat marketing vositasi sifatida ishlatiladi, ular ekologik va ijtimoiy majburiyatlarni yetarlicha bajarmaydi. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat va mahalliy hukumatlar kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish, shaffoflikni oshirish va barqaror rivojlanishni rag'batlantirish bo'yicha qat'iy qoidalarni ishlab chiqmoqda.

O'zbekiston kontekstida ham barqaror rivojlanish maqsadlari va ijtimoiy mas'uliyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezident qarorlari va farmonlari orqali milliy biznesga xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimlarini joriy etish, ekologik va ijtimoiy masalalarni nazorat qilish vazifalari yuklatilgan. Bu esa milliy korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ularni jahon bozorlarida raqobatbardosh qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, xalqaro kompaniyalar faoliyatida barqaror rivojlanish maqsadlari va ijtimoiy mas'uliyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ularning uyg'un ishlashi global iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish maqsadlari xalqaro kompaniyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ularning ijtimoiy mas'uliyati esa nafaqat kompaniyaning ijtimoiy imidjini yaxshilash, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot ko'rsatdiki, xalqaro kompaniyalar barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlayapti. ESG yondashuvi biznes boshqaruvining ajralmas qismiga aylangan va investorlar

hamda iste'molchilar e'tiborini jalb qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan Prezident qarorlari va farmonlari milliy biznesning xalqaro standartlarga moslashuvi, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish yo'lida muhim huquqiy baza yaratmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga hamda xalqaro bozorlar bilan muvaffaqiyatli integratsiyasiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xalqaro kompaniyalar tajribasini chuqur o'rganish va milliy biznesga joriy etish O'zbekiston uchun zamonaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Shukurov Sherzod Xolmo'min o'g'li Termiz davlat universiteti o'qituvchisi / Шукуров Шерзод Холмомин оглы Преподаватель Термезского государственного университета / Shukurov Sherzod Kholmomin ogly, Assistant, Termez State University
sherzodxolmominoglyshukurov@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-6516-5226>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi PQ-327-sonli Qarori. Milliy biznesni rivojlantirish va xalqaro investitsion hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari haqida.
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-sonli Farmoni. Eksport salohiyatini oshirish va korxonalar boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida.
- [3]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2015). Barqaror rivojlanish maqsadlari. <https://sdgs.un.org/goals>
- [4]. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
- [5]. Elkington, J. (1997). Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Capstone Publishing.
- [6]. Deloitte. (2023). 2023 Global ESG Survey. Deloitte Insights.
- [7]. McKinsey & Company. (2022). The ESG premium: New perspectives on value and performance.
- [8]. Kotler, P., & Lee, N. (2005). Corporate Social Responsibility: Doing the Most Good for Your Company and Your Cause. Wiley.
- [9]. World Economic Forum. (2023). Global Competitiveness Report.

Mintaqada raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish istiqbollari

Amirkulov Olimjon Adham o'g'li

Перспективы устойчивого развития цифровой экономики в регионе

Амиркулов Олимжон Адхам угли

Prospects for sustainable development of the digital economy in the region

Amirkulov Olimjon Adham ugli

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 18, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada mintaqada raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etishning hududiy iqtisodiyotga ta'siri, elektron hukumat, elektron savdo va raqamli moliya tizimining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli infratuzilma, kadrlar salohiyati va investitsiya muhitining yaxshilanishi istiqbollari ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqotda statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan bo'lib, mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan.
- **Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish, elektron hukumat, elektron savdo, innovatsiya, investitsiya, barqarorlik, raqamli infratuzilma, mehnat bozori, kadrlar salohiyati.
- **Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы устойчивого развития цифровой экономики в регионе. В частности, анализируется влияние внедрения цифровых технологий на региональную экономику, значение электронного правительства, электронной торговли и цифровой финансовой системы. Кроме того, научно обоснованы перспективы совершенствования цифровой инфраструктуры, кадрового потенциала и инвестиционного климата. В исследовании использованы статистические и сравнительные методы анализа, определены приоритетные направления цифровой трансформации в обеспечении региональной экономической устойчивости.
- **Ключевые слова:** цифровая экономика, региональное развитие, электронное правительство, электронная торговля, инновации, инвестиции, устойчивость, цифровая инфраструктура, рынок труда, кадровый потенциал.
- **Annotation:** The article discusses the issues of sustainable development of the digital economy in the region. In particular, it analyzes the impact of the introduction of digital technologies on the regional economy, the significance of e-government, e-commerce, and the digital financial system. Furthermore, the prospects for improving digital infrastructure, human capital, and the investment environment are scientifically substantiated. The research employs statistical and comparative analysis methods and identifies priority areas of digital transformation in ensuring regional economic sustainability.
- **Keywords:** digital economy, regional development, e-government, e-commerce, innovation, investment, sustainability, digital infrastructure, labor market, human capital.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hozirgi davrda butun dunyo iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishini belgilab bermoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot mamlakatlarning barqaror o'sishi va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim drayver sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, hududiy iqtisodiyotlarda raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash omili sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi keng ma'noda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllanadigan yangi iqtisodiy modelni anglatadi. Ushbu model elektron hukumat, elektron savdo, raqamli moliya, "aqlli shahar" konsepsiyasi, raqamli xizmatlar kabi sohalarni qamrab olib, iqtisodiy tizimda shaffoflikni oshirish, davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirish va aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va hududlarda raqamli tengsizlikni kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Bu jarayon, bir tomondan, hududlarda investitsion muhitni yaxshilash va yangi ish o'rinlari yaratishga, ikkinchi tomondan esa, aholining raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bois, mazkur maqolada mintaqada raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida raqamli xizmatlar tizimining kengayishi, investitsiya muhiti, kadrlar salohiyati va infratuzilmaning rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti bugungi kunda iqtisodiyot fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormogda. Ushbu sohada ilk ilmiy qarashlar 1990-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, J. Tapscottning "The Digital Economy" nomli asari ushbu yo'nalishning nazariy poydevorini yaratdi [2]. Muallif o'z asarida raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishi natijasida iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishini, korxonalar faoliyatining shaffoflashuvini va yangi bozor segmentlarining shakllanishini alohida

ta'kidlaydi.

Shuningdek, M. Castells tomonidan ilgari surilgan "Network Society" konsepsiyasi ham raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta'sirini yoritishda muhim ilmiy manba hisoblanadi [3]. Uning fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi butun jamiyatni tarmoq asosida qayta tashkil etadi va bu esa hududlararo rivojlanish tafovutlarini sezilarli darajada o'zgartiradi.

Xorijiy manbalar orasida A. V. Babkinning ishlari ham e'tiborga loyiqdir. Olim raqamli iqtisodiyotni milliy iqtisodiyotning yangi paradigmasi sifatida talqin etib, uning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sirini chuqur statistik tahlil qilgan [6]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan "Digital Single Market" konsepsiyasi raqamli iqtisodiyotning hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini amaliy misollar orqali yoritadi [7].

BMT, OECD va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan xalqaro hisobotlarda esa raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uchta asosiy yo'nalishga alohida urg'u beriladi: birinchidan, keng polosali internet infratuzilmasini rivojlantirish; ikkinchidan, raqamli savodxonlik darajasini oshirish; uchinchidan esa, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish [8].

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot bo'yicha ilmiy izlanishlar kengayib bormogda. Akademik S. S. G'ulomov "raqamli iqtisodiyot – bu faqat texnologik yangilanish emas, balki butun iqtisodiy tizimning tubdan o'zgarishi" ekanini ta'kidlab, uning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan [4]. Olimning fikricha, raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki hududlarda aholi turmush sifatini yaxshilash, davlat xizmatlarini qulaylashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

Professor T. Shodiyev o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy jarayonlarga ta'sirini ekonometriya usullari yordamida o'rganib, hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda axborot texnologiyalarining rolini tahlil qilgan [9]. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida mintaqaviy yalpi mahsulot hajmi barqaror o'sadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va innovatsion muhit shakllanadi.

Shuningdek, iqtisodchi olim Sh. Ergasheva yer va suv resurslaridan foydalanishda raqamli yechimlarni qo'llash orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan [10]. Uning tadqiqotlari raqamli texnologiyalar yordamida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

Yana bir qator mahalliy olimlar, jumladan, B. Raxmonqulova va O. Xatamov raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqamli texnikalardan foydalanish masalalarini tadqiq etganlar [11]. Ularning

tadqiqotlari hududiy iqtisodiyotlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalar hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Professor B. Xodiev esa raqamli iqtisodiyotning noaniq sharoitlarda prognozlash imkoniyatlarini o'rgangan. Uning fikricha, raqamli yechimlar yordamida iqtisodiy jarayonlarning ehtimoliy natijalarini tezkor va aniq bashorat qilish mumkin, bu esa hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [12].

Fermer xo'jaliklari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa B. Berkinovning ishlari e'tiborga molikdir. U raqamli yechimlar yordamida qishloq xo'jaligi korxonalarining rentabelligini oshirish, moliyaviy ahvolini yaxshilash va mahsulotlarni eksportga chiqarish imkoniyatlarini tahlil qilgan [13].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari orqali ham raqamli iqtisodiyotning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda. Xususan, 2025-yil 14-fevraldagi PF-22-son Farmonida tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy raqamli tizimlarni joriy etish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha choralar belgilangan [14]. Ushbu hujjat raqamli iqtisodiyotni hududlarda barqaror rivojlantirishda muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribalar ham shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi hududiy infratuzilma, kadrlar salohiyati, investitsion muhit va davlat boshqaruvi tizimlarining o'zaro muvofiqligiga bevositab bog'liqdir. Masalan, Janubiy Koreya va Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatning faol ishtiroki, keng ko'lamli investitsiyalar va aholining yuqori darajadagi raqamli savodxonligi raqamli iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi [15].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari va amaliy tajribasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning umumiy xulosasi raqamli iqtisodiyot mintaqaviy barqaror rivojlanishning muhim drayveri ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, o'zbek olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar raqamli iqtisodiyotning milliy va hududiy sharoitlarda qanday amalga oshirilishini chuqur tahlil qilishga xizmat qilmoqda. Bu esa mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [16].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli, qiyosiy, statistik va omilli tahlil usullari hamda ekspert baholash yondashuvlaridan foydalanilib,

raqamli iqtisodiyotning mintaqaviy barqaror rivojlanishga ta'siri o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqalarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri sifatida ko'rilmogda. Chunki raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash, balki ijtimoiy hayot sifatini oshirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir hududda internet tarmog'ining qamrovi, elektron xizmatlarning sifati, axborot xavfsizligi va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi turlicha darajada shakllangan. Shu sababli, mintaqaviy rivojlanish strategiyalarida bu jarayonlar chuqur tahlil qilinishi zarur.

Hozirgi kunda respublikaning aksariyat hududlarida internet tarmog'i qamrovi kengayib borayotgan bo'lsa-da, tezlik va barqarorlik masalasida muammolar mavjud. Masalan, yirik shaharlarda elektron hukumat xizmatlari keng qo'llanilayotgan bo'lsa, chekka qishloq va tumanlarda hali ham ayrim xizmatlar an'anaviy uslubda amalga oshirilmoqda. Bu esa hududlar o'rtasidagi raqamli tengsizlikni yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, hududlarda internet tarmog'i infratuzilmasini rivojlantirish va barcha aholiga bir xil sharoit yaratish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasini ko'rsatib beruvchi yana bir muhim omil – elektron hukumat tizimidir. Mintaqalarda davlat xizmatlarining onlayn shaklda taqdim etilishi aholining vaqtini tejash, ortiqcha hujjatlashtirishni kamaytirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirda ko'plab davlat xizmatlari elektron shaklga o'tkazilgan bo'lsa-da, ularni yanada qulaylashtirish, yagona tizimda birlashtirish va xizmat sifatini oshirish zarurati mavjud.

Hududlarda iqtisodiy faoliyatni tahlil qilganda, elektron savdoning ulushi asta-sekin ortib borayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida onlayn xarid qilish, internet do'konlar ochish va turli elektron to'lov tizimlaridan foydalanish an'anaga aylanib bormoqda. Bu esa hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, hududlarda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayrim sanoat korxonalari ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, logistika tizimini raqamlashtirish va zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni

boshlagan. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga yordam bermoqda. Ammo hali ham ko'plab kichik korxonalarda raqamli texnologiyalar joriy etilishi sust darajada bo'lib, bu borada qo'shimcha investitsiyalar va amaliy qo'llab-quvvatlash zarur.

Umuman olganda, hududiy raqamli iqtisodiyotning hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon sekin-asta rivojlanib bormoqda. Kuchli tomonlari sifatida internet qamrovining kengayishi, elektron hukumat xizmatlarining rivojlanishi va elektron savdo bozorining shakllanib borishi qayd etiladi. Zaif tomonlari esa – internet tezligining yetarli emasligi, ayrim hududlarda infratuzilmaning rivojlanmaganligi va kadrlar salohiyatining pastligi bilan bog'liqdir. Shu bois, hududiy strategiyalarni ishlab chiqishda aynan shu jihatlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim sharti bu – barqaror va keng qamrovli infratuzilmani shakllantirishdir. Infratuzilma deganda, birinchi navbatda, internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, elektron to'lov platformalari, davlat xizmatlari portallari va raqamli axborot bazalari nazarda tutiladi. Mazkur infratuzilma qanchalik rivojlangan bo'lsa, mintaqaviy iqtisodiy o'sish shunchalik tez va barqaror bo'ladi. Bugungi kunda mintaqalarda internet xizmatlarining kengayishi, mobil aloqa tizimlarining takomillashuvi iqtisodiy jarayonlarning tezlashuviga sabab bo'lmoqda. Elektron to'lov tizimlarining ommalashuvi esa nafaqat yirik shaharlar, balki kichik tuman va qishloqlarda ham iqtisodiy faollikni kuchaytirmoqda. Aholi mobil ilovalar orqali kommunal to'lovlarni amalga oshirish, bank xizmatlaridan foydalanish


va onlayn xaridlarni to'lash imkoniga ega bo'lmoqda. Bu jarayon mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, elektron hukumat tizimining rivojlanishi infratuzilmaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda hududlarda ko'plab davlat xizmatlari onlayn shaklga o'tkazilgan bo'lib, fuqarolar endi ko'p vaqtini idoralarda navbat kutishga emas, balki internet orqali xizmatlardan foydalanishga yo'naltirmoqda. Bu esa nafaqat aholiga qulaylik tug'diradi, balki davlat boshqaruvi tizimida shaffoflikni oshiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy o'sishga ta'sirini sanoat korxonalari misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, ayrim ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish, dasturiy boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali mahsulot tannarxini kamaytirib, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Bu jarayon nafaqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, balki yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Raqamli infratuzilma iqtisodiy o'sishga ko'plab yo'llar orqali ta'sir qiladi: birinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi; ikkinchidan, xizmatlar sektorida qulaylik yaratadi; uchinchidan, davlat xizmatlarini samarali qiladi; to'rtinchidan, aholining raqamli imkoniyatlardan keng foydalanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, hududlarda infratuzilmaning rivojlanish darajasi turlicha bo'lgani uchun iqtisodiy o'sish sur'atlarida ham tafovutlar kuzatiladi.

Mazkur jarayonni aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagi chizma keltiriladi: (1-rasm).



1-rasm. Raqamli infratuzilmaning iqtisodiy o'sishga ta'siri

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli infratuzilma mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy poydevoridir. U holda ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, xizmatlar sohasi kengayadi, davlat boshqaruvi ochiqligi kuchayadi va jamiyatda yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanadi. Shu sababli, mintaqalarda raqamli infratuzilmani rivojlantirishni tezlashtirish strategik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida inson kapitali va kadrlar salohiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli texnologiyalar qanchalik jadal rivojlanmasin, ularni amaliyotga tatbiq etuvchi, ulardan samarali foydalanadigan malakali mutaxassislar bo'lmasa, iqtisodiy o'sishga erishish mushkul bo'ladi. Shu bois mintaqalarda raqamli savodxonlikni oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yosh kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'plab ta'lim muassasalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'ygan. Oliy ta'lim tizimida "Axborot texnologiyalari", "Raqamli iqtisodiyot", "Sun'iy intellekt" kabi yangi yo'nalishlar joriy etilgan bo'lib, ular yoshlarning zamonaviy raqamli kasblarni egallashiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, maktab va kasb-hunar ta'limida ham informatika va kompyuter savodxonligi fanlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa kelgusida mintaqalarda raqamli

iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar zaxirasini yaratadi.

Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, hududlarda kadrlar salohiyati bir xil darajada emas. Yirik shaharlar, markaziy universitetlar va texnoparklar joylashgan hududlarda malakali mutaxassislar yetarli bo'lsa-da, chekka mintaqalarda bunday kadrlar yetishmasligi kuzatilmoqda. Bu esa raqamli tengsizlikning yana bir ko'rinishi sifatida hududiy farqlarni kuchaytiradi. Shu sababli, chekka hududlarda ham IT markazlari, raqamli ta'lim kurslari va qisqa muddatli qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish zarur.

Raqamli savodxonlik nafaqat yoshlar, balki o'rta va katta yoshdagi aholiga ham zarurdir. Chunki elektron hukumat xizmatlaridan, internet to'lovlaridan va onlayn xizmatlardan foydalanishda keng aholining ishtiroki muhim. Agar fuqarolar raqamli imkoniyatlardan foydalana olmasa, infratuzilma qanchalik rivojlangan bo'lmasin, uning iqtisodiy samarasi to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu sababdan, aholining barcha qatlamlari uchun turli ko'rinishdagi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalasi kun tartibida turibdi.

Kadrlar salohiyatining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini quyidagi chizma orqali ko'rsatish mumkin:



2-rasm. Kadrlar salohiyati va raqamli savodxonlikning iqtisodiy samaraga ta'siri

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyati inson kapitaliga bevosita bog'liqdir. Mintaqalarda kadrlar salohiyatini oshirish, yoshlarni yangi kasblarga tayyorlash va aholining raqamli savodxonligini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim garovi bo'lib xizmat qiladi. Shu yo'nalishda amalga oshiriladigan islohotlar kelajakda raqamli iqtisodiyotni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Mintaqalarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tadbirkorlik va investitsiyalar uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, elektron savdo maydonlarining kengayishi, onlayn xizmatlar, startap ekotizimi va xorijiy sarmoyalar oqimi hududiy iqtisodiy o'sishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari internet orqali mahsulot va xizmatlarni sotib, yangi bozorga chiqish imkoniga ega bo'lib, bu ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Masalan, mahalliy fermer xo'jaligi o'z mahsulotini elektron platforma orqali to'g'ridan-to'g'ri xaridorga yetkazib bera oladi. Bu jarayon nafaqat tadbirkorlarning daromadini ko'paytiradi, balki hududlarda elektron savdo hajmini sezilarli oshiradi.

Startap ekotizimining shakllanishi ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlar tomonidan yaratilayotgan mobil ilovalar, elektron xizmatlar va innovatsion texnologiyalar bozor iqtisodiyotining yangi segmentlarini ochib bermoqda. Davlat tomonidan taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari, grant dasturlari va texnoparklar faoliyati startaplarning rivojlanishiga qulay muhit yaratmoqda.

Investitsiya muhiti esa raqamli iqtisodiyotning eng sezilarli drayverlaridan biri bo'lib, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Onlayn to'lov tizimlari, elektron shartnoma va raqamli hisob-kitob mexanizmlarining mavjudligi investorlar uchun ishonchli maydonni shakllantirmoqda. Natijada mintaqaviy

iqtisodiyotga qo'shimcha kapital jalb qilinib, yangi innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik va investitsiyalarning iqtisodiy ta'sirini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin: (1-jadval).

1-jadval

Raqamli iqtisodiyotda tadbirkorlik va investitsiyalarning iqtisodiy ta'siri

YO'NALISHLAR	RAQAMLI O'ZGARISHLAR MISOLLARI	IQTISODIY TA'SIR KO'RSATKICHLARI (SHARTLI %)	KUTILAYOTGAN NATIJA
Elektron savdo	Onlayn platformalar, elektron to'lov tizimlari	Savdo hajmi +15–20%	Bozor kengayadi, tadbirkorlar daromadi ortadi
Startup ekotizimi	Innovatsion g'oyalar, texnoparklar	Yangi ish o'rinlari +10%	Innovatsion xizmatlar paydo bo'ladi
Investitsiyalar	Xorijiy sarmoya, soliq imtiyozlari	Investitsiya oqimi +12–18%	Yangi texnologiyalar joriy etiladi, eksport ortadi
Xizmatlar sektori	Onlayn xizmatlar, raqamli platformalar	Samaradorlik +8–10%	Fuqarolar uchun qulaylik, vaqt va xarajat tejaladi
Ishlab chiqarishni modernizatsiya	Avtomatlashtirilgan tizimlar, dasturiy yechimlar	Mahsulot tannarxi –5–7%	Mahsulot sifati oshadi, raqobatbardoshlik kuchayadi

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotning tadbirkorlik va investitsiyalar bilan uyg'unlashuvi hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Shu boisdan davlat tomonidan startaplarni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va qulay investitsion muhit yaratish, shuningdek xususiy sektor faoliyatini rag'batlantirish istiqboldagi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyot mintaqalarda barqaror rivojlanishni ta'minlashda strategik omil sifatida ko'rilmogda. Chunki raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki resurslardan oqilona foydalanish, hududiy tengsizlikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda hududiy rivojlanish konsepsiyalarida raqamli transformatsiyani jadallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hududlarda barqaror rivojlanish istiqbollari tahlil qilganda, birinchi navbatda raqamli infratuzilmani kengaytirish masalasi dolzarbdir. Tezkor va barqaror internet xizmatlari, zamonaviy mobil aloqa va elektron platformalarning

mavjudligi iqtisodiy faoliyatni teng taqsimlashga yordam beradi. Ayniqsa, chekka qishloq va tumanlarda infratuzilma rivojlanishi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xizmatlar sektorini kengaytirish va aholiga davlat xizmatlarini qulay ko'rsatish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – inson kapitalini rivojlantirishdir. Malakali kadrlar tayyorlash, raqamli savodxonlikni oshirish va yoshlarning startaplarini qo'llab-quvvatlash hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Buning uchun ta'lim tizimida zamonaviy IT yo'nalishlarini kengaytirish, qayta tayyorlash kurslari va qisqa muddatli o'quv dasturlarini joriy etish zarur. Natijada, aholining barcha qatlamlari raqamli iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishga tayyor bo'ladi.

Uchinchi ustuvor yo'nalish – davlat boshqaruvini raqamlashtirishdir. Hududiy hokimiyat organlarining onlayn xizmatlari, raqamli monitoring tizimlari va ochiq ma'lumotlar bazalarining kengayishi fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmat sifatini yaxshilaydi, shaffoflikni kuchaytiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi. Bu esa jamiyatda ishonchni oshiradi

hamda iqtisodiy faoliyatning barqaror bo'lishiga zamin yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, energiya tejovchi texnologiyalar, "aqlli shahar" tizimlari, onlayn ekologik monitoring va chiqindilarni boshqarish bo'yicha raqamli yechimlar hududlarda yashil iqtisodiyotga o'tish imkonini kengaytiradi. Shu tariqa, iqtisodiy rivojlanish ekologik muvozanatni saqlash bilan uyg'unlashadi.

Xalqaro tajriba ham raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rsatmoqda. Jumladan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va ekologik muammolarni hal qilishning muhim vositasi sifatida qayd etilgan [17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hududlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbollari keng bo'lib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusida amalga oshiriladigan islohotlarda raqamli texnologiyalarni kengaytirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish va investitsion muhitni yaxshilash hududiy barqaror rivojlanishning eng muhim garovi bo'lib qoladi.

Raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish mintaqalarning kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Raqamli infratuzilmaning kengayishi, davlat xizmatlarining elektron shaklga o'tishi, tadbirkorlik va investitsiyalarning raqamli yechimlar asosida rivojlanishi hududlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini ham yaxshilaydi. Shuningdek, kadrlar salohiyati va aholining raqamli savodxonligi ortishi jamiyatning barcha qatlamlarini raqamli jarayonlarga faol jalb etadi.

Yuqorida tahlil etilgan omillar ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, mintaqalar o'rtasida raqamli rivojlanish sur'atlari bir xil emas. Bu esa ayrim hududlarda iqtisodiy imkoniyatlar kengayib borayotgan bo'lsa-da, boshqalarida sustkashlik kuzatilayotganidan dalolat beradi. Shu sababdan, kelgusida har bir hududning o'ziga xos sharoitlarini inobatga olgan holda, mintaqaviy raqamli transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur bo'ladi. Taklif etiladiki, hududlarda yuqori tezlikdagi internet xizmatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish, ta'lim tizimida IT sohasiga oid fanlar va amaliy kurslarni keng joriy etish orqali kadrlar salohiyatini mustahkamlash, startaplarni moliyaviy va tashkiliy jihatdan

qo'llab-quvvatlash orqali innovatsion muhitni rivojlantirish lozim. Shuningdek, davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish orqali shaffoflik va samaradorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun esa "aqlli shahar" tizimlari va energiya tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanishi mintaqalarda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va ekologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois raqamli transformatsiya kelajakdagi barqaror taraqqiyotning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Amirkulov Olimjon Adham o'g'li Nishon tuman hokimligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha loyihalar menejeri // Амиркулов Олимжон Адхам угли Менеджер проектов по внедрению цифровой экономики в Нишанском районном хокимияте // Amirkulov Olimjon Adham ugli Project Manager for the Implementation of Digital Economy at Nishon District Administration

► benjonas70@gmail.com

■ 0009-0001-4563-1848

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
- [2]. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1995.
- [3]. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.
- [4]. G'ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot va uning milliy rivojlanishga ta'siri. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
- [5]. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- [6]. Babkin A.V. Цифровая экономика и её влияние на экономический рост. – Санкт-Петербург: Питер, 2018.
- [7]. European Commission. Digital Single Market Strategy for Europe. – Brussels: EC, 2015.
- [8]. World Bank, OECD, United Nations. Digital Economy Reports. – Washington/New York, 2020.
- [9]. Shodiyev T. Raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy jarayonlarga ta'siri. – Toshkent: Fan, 2020.
- [10]. Ergasheva Sh.T. Yer va suv resurslaridan foydalanishda raqamli yechimlar. – Toshkent: Universitet, 2021.
- [11]. Raxmonqulova B., Xatamov O. Raqamli texnologiyalar va ishlab chiqarish samaradorligi. – Toshkent:

- Iqtisodiyot, 2020.
- [12]. Xodiev B. Noaniq sharoitlarda raqamli iqtisodiyotni prognozlash imkoniyatlari. – Toshkent: TDIU, 2019.
- [13]. Berkinov B. Qishloq xo'jaligi faoliyatida raqamli tizimlardan foydalanish samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2021.
- [14]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy raqamli tizimni joriy etish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-22-son Farmoni.
- [15]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.
- [16]. Janubiy Koreya va Estoniya raqamli iqtisodiyot tajribasi bo'yicha xalqaro hisobotlar. – Seoul/Tallinn, 2020.
- [17]. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: UN, 2015.

Mintaqa va
tarmoqlar
iqtisodiyoti

Экономика региона
и отрасли

Economy of the
region and industry

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirish yo'llarining nazariy-uslubiy asoslari

Abdirashidov Temurbek Abdirashid o'g'li

Теоретико-методологические основы путей повышения эффективности производства сельскохозяйственной продукции

Абдирашидов Темурабек Абдирашид угли

The oretical and methodological basis of ways to increase the efficiency of agricultural production

Abdirashidov Temurbek Abdirashid ugli

Received: August 12, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil va SWOT tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, viloyatda hosildorlik ko'rsatkichlari yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, resurslardan foydalanish samaradorligi respublikaning boshqa hududlariga nisbatan pastroq darajada qolmoqda. Tadqiqotda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni klaster asosida tashkil etish samaradorlikni oshirishning asosiy omillari sifatida ko'rsatib o'tilgan.
- **Kalit so'zlar:** Qashqadaryo viloyati, qishloq xo'jaligi, samaradorlik, agrotexnologiya, resurslardan foydalanish, innovatsiya.
- **Abstract:** This article explores the theoretical and methodological foundations of increasing agricultural productivity in the Kashkadarya region. The study employs economic-statistical analysis, comparative analysis, and SWOT analysis methods. The findings show that, although crop yields have been increasing year by year, the efficiency of resource utilization remains lower compared to other regions of Uzbekistan. The research highlights rational use of land and water resources, the introduction of innovative agro-technologies, and the development of cluster-based production as the key factors in improving agricultural efficiency.
- **Keywords:** Kashkadarya region, agriculture, efficiency, agro-technology, resource utilization, innovation.
- **Аннотация:** ТВ данной статье рассматриваются теоретико-методические основы повышения эффективности сельскохозяйственного производства в Кашкадарьинской области. В исследовании использованы методы

экономико-статистического анализа, сравнительного анализа и SWOT-анализа. Результаты показали, что, несмотря на ежегодный рост урожайности, уровень эффективности использования ресурсов остаётся ниже по сравнению с другими регионами Узбекистана. В работе подчёркивается, что рациональное использование земельных и водных ресурсов, внедрение инновационных агротехнологий и развитие кластерного производства являются ключевыми факторами повышения эффективности.

- **Ключевые слова:** Кашкадарьинская область, сельское хозяйство, эффективность, агротехнологии, использование ресурсов, инновации.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rintutadi. Xususan, Qashqadaryo viloyati agrar salohiyati yuqori hududlardan biri bo'lib, paxta, g'alla, sabzavot-poliz, bog'dorchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda respublika bo'yicha muhim ulushga ega. Biroq mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish masalalari hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda mamlakat miqyosida agrar sektorni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, hosildorlikni oshirish, zamonaviy agroteknika tadbirlarini qo'llash, xususan, logistika mexanizmlarini safarbar etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirish nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, qishloq xo'jaligi samaradorligini belgilovchi omillarni kompleks o'rganish, ularning tashkiliy, iqtisodiy mexanizmlarini nazariy asoslash va amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlash orqali viloyatda agrar ishlab chiqarishni yuqori bosqichga ko'tarish mumkin. Tadqiqotning asosiy vazifasi Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida mavjud imkoniyat va cheklavlarni tahlil qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini nazariy-uslubiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirish masalasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Ushbu jarayonda

iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy (komparativ) tahlil va SWOT tahlil metodlari uyg'unlashtirildi.

Avvalo, iqtisodiy-statistik tahlil orqali viloyatda so'nggi yillarda ekin maydonlari, hosildorlik darajasi, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi hamda resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganildi. Ushbu uslub yordamida agrar sektor rivojlanishining asosiy tendensiyalari va mavjud muammolar aniqlanib, samaradorlikning miqdoriy ifodasi hisoblab chiqildi.


Shu bilan birga, qiyosiy tahlil metodi asosida Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari boshqa hududlar, xususan Samarqand, Surxondaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlari natijalari bilan solishtirildi. Bu esa samaradorlikni oshirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan ilg'or tajribalarni aniqlash va ularni hududiy sharoitlarga moslashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda SWOT tahlil yondashuvi ham qo'llanilib, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari va tashqi tahdidlari baholandi. Bu yondashuv nafaqat mavjud resurslardan foydalanish darajasini oydinlashtirish, balki kelajakda samaradorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda ham muhim rol o'ynadi.

Metodologik asos sifatida iqtisodiy nazariyalarning resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq yondashuvlari qo'llandi. Shu tariqa, tadqiqotda nazariy-uslubiy qarashlar amaliy tajribalar bilan uyg'unlashtirilib, natijalarni ishonchli va amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lishini ta'minlashga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi samaradorligini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda hudud agrar sektori rivojlanishda barqarorlikka intilayotgan bo'lsa-da, mavjud resurslardan foydalanish darajasi yetarli emas. Biz tadqiqotlarimiz jarayonida yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratdik va kategoriyalarga mualliflik yondashuvlarida ta'rifladik (1-rasm):



1-rasm. Yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning tarkibi [1]

Ushbu omillar guruhining barcha tarkibi yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ta'sir qiladi. Ammo tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, iqtisodiy-tashkiliy omillarning samarali ishlashini ta'minlashda yuqorida qayd etilgan omillar qatorida logistika mexanizmi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, logistika bu bir butunlikdagi o'ziga xos tizim bo'lib, undagi tizim osti tizimlar o'zaro bog'likda uzluksiz harakatda bo'lib, moddiy oqimda, ya'ni tizimga kirim hamda tizimdan bo'ladigan chiqimlarda o'zini namayon qiladi.

Aksariyat qishloq xo'jaligi subyektlari asosan logistika xizmatidan foydalanadi. Logistika xizmati – bu logistika zanjiri bo'ylab material oqimini rag'batlantirishning yakuniy bosqichi bo'lgan istemolchilarga tovatlarni to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berish jarayonida ko'rsatiladigan ma'lum xizmatlar to'plamidir. Demak, logistika xizmatining predmeti tegishli xizmatlarning ma'lum bir to'plamidan iborat. Sohada samaradorlik ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashda logistika xizmatlari o'rniga logistika mexanizmidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda Qashqadaryo viloyatida 2020–2024 yillar davomida dehqonchilik tarmog'ining asosiy ekin turlari tarkibidagi paxta, g'alla, sabzavot bo'yicha hosildorlik ko'rsatkichlari hamda 1 gektar sug'oriladigan yer maydoniga to'g'ri keladigan samaradorlik ko'rsatkichlarining dinamikasi keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024 yillar davomida paxta hosildorligi 14,2 foizga, g'alla hosildorligi esa 11,4 foizga oshgan. Sabzavot mahsulotlari hajmi esa 93 ming tonnaga ko'payib, hudud ichki bozorini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, sug'oriladigan yerlarning samaradorligi 11,2 ming so'mdan 14,05 ming so'mgacha oshgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich respublika bo'yicha o'rtacha darajadan past ekanini kuzatildi.

Qiyosiy tahlil natijalari esa Qashqadaryo viloyatida

resurslardan foydalanish samaradorligi Samarqand va Toshkent viloyatlariga nisbatan pastroq ekanini ko'rsatdi. Jumladan, Toshkent viloyatida 1 gektar sug'oriladigan yer hisobiga o'rtacha 17 ming so'mlik mahsulot yetishtirilsa, Qashqadaryoda bu ko'rsatkich 14 ming so'mdan oshmagan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, qishloq xo'jligi mahsulotlari samaradorligi tahlil qilinganda viloyatda ayni vegetatsiya davrida suv tanqisligi kabi obyektiv muammolarning yildan-yilga ko'payayotganligi tarmoqda imliy asoslarda logistika klasterlarini tashkil etish, mazkur klasterlar bazasida tarmoqqa zamonaviy texnika, texnologiyalarni jalb etish, har bir hududning imkoniyatlarini inobatga olgan holda joylarda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash uchun limiy tadqiqotlar, laboratoriyalarni tashkil etish orqali resurslardan samarali foydalanishga erishish, yer-suv resurslaridan oqilona logistika xizmatlari ko'lami hamda sifatini yaxshilash uchun logistikani yaxlit, bir butunlikdagi mexanizm sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Chunki, Ko'kdala tumanida tarvuz yetishtiruvchi ijarachi fermerlar o'rtasida o'tkazilgan so'rtovnomada ishtirok etgan respondentlarning 71 foizidan ko'prog'i, logistika deganda asosan, tashish xizmatlarini tushunishini, yetishtirilgan tarvuzlarni "ulgurji" savdo shaklida daladan to'g'ridan-to'g'ri sotib oluvchilarga topshirganliklari uchun ishlab chiqarish, saqlash, ortish-tushirish kabi logistika xizmatlari haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega emasliklarini ta'kidlashgan. Asosiy muammolari tarkibida suv masalasi ekanligi belgilangan. Ushbu natijalar hududda suv resurslaridan ham oqilona foydalanish, intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish va tuproq unumdorligini ko'tarish bo'yicha qo'shimcha choralarni amalga oshirishda logistika klasterlarini tashkil etish zarurligini asoslaydi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida dehqonchilik tarmog'ining asosiy ekin turlari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari dinamikasi

YILLAR	Paxta hosildorligi (s/ga)	G'alla hosildorligi (s/ga)	Sabzavot hajmi (ming tonna)	Sug'oriladigan yer samaradorligi (ming so'm/ga)
2020	25,4	54,2	865,3	11 200
2021	26,8	55,7	892,1	11 950
2022	27,1	57,9	910,4	12 480
2023	28,3	59,1	935,7	13 200
2024	29	60,4	958,6	14 050

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Hosildorlikning barqaror o'sishi va yer samaradorligining ma'lum darajada yaxshilangani agrar sohada ijobiy siljishlarni ifodalasa-da, mavjud resurslardan foydalanish darajasi yetarli darajada yuqori emasligi kuzatildi. Xususan, suv resurslarining cheklanganligi va ularni boshqarish mexanizmlarining samaradorligi pastligi hudud qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Qiyosiy tahlil natijalarini tahlil qiladiki, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi samaradorligi boshqa agrar hududlarga nisbatan pastroq darajada. Bu esa, bir tomondan, agrotexnik tadbirlarning yetarlicha modernizatsiya qilinmagani, ikkinchi tomondan, resurslardan oqilona foydalanishning institutsional mexanizmlari to'liq shakllanmaganidan dalolat beradi. Masalan, Toshkent viloyatida yuqori hosildorlik ko'rsatkichlariga intensiv agrotexnologiyalarni keng qo'llash, tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etish va fermer xo'jaliklarini klaster asosida birlashtirish orqali erishilgan.

Nazariy jihatdan qaralganda, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish jarayonida resurslardan oqilona foydalanish nazariyalari hamda innovatsion rivojlanish konsepsiyalarining amaliy qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Samaradorlikni faqat ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan emas, balki resurs birligiga to'g'ri keladigan mahsulot qiymati, mehnat unumdorligi va ekologik barqarorlik kabi ko'rsatkichlar bilan baholash maqsadga muvofiqdir.

Shu nuqtai-nazardan, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: yer va suv resurslarini

boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, innovatsion agrotexnologiyalardan keng foydalanish, ishlab chiqarishning klasterlashuvini jadallashtirish, agrologistika xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga samarali tatbiq etish.

Demak, tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional va ekologik yondashuvlar majmuini talab etishini ko'rsatdi. Shu asosda ishlab chiqiladigan uslubiy tavsiyalar agrar sohada barqaror va samarali rivojlanishga erishish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

arda ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilayotgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish samaradorligi to'liq darajada yuqori emas. Paxta va g'alla hosildorligining asta-sekin oshib borishi, sabzavot yetishtirish hajmining kengayishi hamda yer resurslaridan foydalanish samaradorligining yaxshilanishi agrar sektor rivojlanayotganidan dalolat beradi. Biroq respublikaning boshqa yetakchi hududlari bilan qiyoslaganda, Qashqadaryoda resurslardan foydalanish darajasi pastroq ekani aniqlangan.

Suv resurslarining taqchilligi, agrotexnologiyalarning eskirganligi, ilmiy yondashuvlarning yetarli darajada joriy etilmaganligi va institutsional mexanizmlarning sustligi hudud qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, samaradorlikni oshirish uchun zamonaviy sug'orish tizimlarini joriy etish, yer unumdorligini oshirishga

xizmat qiluvchi agrotexnik tadbirlarni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari faoliyatini klasterlashuv asosida tashkil etish hamda innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish zarur. Tadqiqotdan kelib chiqadigan umumiy xulosa shundan iboratki, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish nafaqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga, balki resurslardan oqilona foydalanishga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga va iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur nazariy-uslubiy asoslar amaliyotda to'liq qo'llanilsa, viloyat agrar sektorining raqobatbardoshligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Abdirashidov Temurbek Abdirashid o'g'li - Xalqaro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi // Абдирашидов Темурбек Абдирашид оглы - преподаватель Международного университета инноваций // Abdirashidov Temurbek Abdirashid oglu - teacher of the International University of Innovations
2. Shakarova Dilfuza // Шакарова Дилфуза // Shakarova Difuza
► temur9869@gmail.com
■ <https://orcid.org/0009-0003-5677-8241>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Tirkasheva, S. E., & Ashurmetova, N. A. (2025). "YASHIL IQTISODIYOT" SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali, 56(1), 179–182. Journal Web
- [2]. Homidov, H. (2022). QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI STATISTIK TAHLIL QILISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDAGI HARAKATLAR. Raqamli Iqtisodiyot va Axborot Texnologiyalari, 2(2), 50–55. DgEconomy
- [3]. Salimov, S. (2024). Xo'jaligini soliqqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot
- [4]. Vafoyeva, L. (2025). QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QAYTA ISHLASHDA ENERGIYA SAMARADORLIGI. TADQIQOTLAR, 56(2),

101–110. Journal Web

- [5]. Mardonov, M., & Muxtorov, A. (2025). Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot
- [6]. Tursunboyeva, Sh. H., & Norxudjayev, F. R. (2025). QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKASI DETALLARINI SEMENTATSIYALASH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING AHAMIYATINI O'RGANISH. Sanoatda raqamli texnologiyalar. SRT Journal
- [7]. Nurxonov, N. Q. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI VA FERMER XO'JALIKLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK VAQTLI QATORLAR MODELI ORQALI KO'RISH (Qashqadaryo viloyati misolida). Центральноазиатский журнал академических исследований, 2(6), 242–247. In Academy
- [8]. Ochilov, N. F. (2024). O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINI SAMARADOR VA RAQOBATBARDOSH QILISH YO'LLARI. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. КиберЛенинка
- [9]. Axrorova, Z. B. (n.d.). QISHLOQ XO'JALIGIDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINING EKOLOGIK-HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI. CyberLeninka. КиберЛенинка
- [10]. Ungarov, A. A., & Maxmudov, I. R. (2022). QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QURITISHDA ZAMONAVIY QURILMA VA TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(4), 485–488. Zenodo
- [11]. Kabulov, A., Normatov, I., Saymanov, I., Baizhumanov, A., & Yarashov, I. (2024). Models, methods and algorithms for monitoring environmental impact on agricultural production. arXiv preprint. arxiv.org
- [12]. GJ Jumayeva, Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahlilining ilmiy asoslari. - YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2025.
- [13]. JG Juraqulovna. The Necessity and Distinctive Characteristics of Audit in the Internal Control System. - Spanish Journal of Innovation and Integrity, 2024.
- [14]. JG Jurakulovna. The necessity and theoretical basis of financial statement analysis in modern management. – 2023.

Mintaqa temir yo'l transporti xizmatlari iqtisodiy samaradorligi tahlili

Xatamov Ochildi Qurbonovich

Анализ экономической эффективности услуг регионального железнодорожного транспорта

Хатамов Очилди Курбанович

Economic efficiency analysis of regional rail transport services

Khatamov Ochildi Kurbanovich

Received: August 14, 2025 Revised: August 17, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqaviy temir yo'l transporti xizmatlari iqtisodiy samaradorligi Termiz temir yo'l uzeli misolida tahlil etilgan. Bunda Ryabtsev indeksi asosida mualliflik integral ko'rsatkichi ishlab chiqilgan.
- **Kalit so'zlar:** temir yo'l transporti, samaradorlik, yo'lovchi tashish, yuk tashish.
- **Аннотация:** В статье проведен анализ экономической эффективности услуг регионального железнодорожного транспорта на примере Термезского железнодорожного узла. Разработан авторский интегральный показатель на основе индекса Рябцева.
- **Ключевые слова:** железнодорожный транспорт, эффективность, пассажирские перевозки, грузовые перевозки.
- **Abstract:** This article analyzes the economic efficiency of regional railway transport services using the example of the Termez railway junction. An author's integral indicator was developed based on the Ryabtsev index.
- **Keywords:** transport, efficiency, passenger transportation, freight transportation.

KIRISH

Ma'lumki, hududning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarining jadal sur'atlarda o'sishini ta'minlash uchun transport xizmatlarining xususan Surxondaryo viloyati misolida Termiz temir yo'l uzelinig ham rivojlanishini mutanosib ravishdagi taraqqiyotini ta'minlash talab qilinadi. Tarmoq yoki sohaning samadorligini oshirish natijasida uning ehtimoliy imkoniyatlarini tahlil qilish mumkin. Shu munosabat bilan hududda Termiz temir yo'l uzelinig mavjud xizmatlari statistik, barqaror rivojlanishining qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

Iqtisodiyotda samaradorlik tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan mezonlardan biridir. Samaradorlik (effective) - inson faoliyati, mahsulot (tovar yoki xizmatlar) ishlab chiqarish va ishlab chiqarish uchun mehnat hamda resurslar xarajatlari natijasida olingan natijalar nisbati bilan belgilanadigan qiymatdir [1]. Bu tushunchaning bir nechta turlari mavjud. Masalan, umumiy iqtisodiy samaradorlik (yoki umumiy ishlab chiqarish samaradorligi), mehnat samaradorligi (ishchi kuchi samaradorligi), kapital samaradorlik, foyda samaradorligi, resurslardan kompleks foydalanish samaradorligi va energiya samaradorligi. Albatta yuqoridagi ko'rsatkichlarni hisoblash usullari mavjud. Quyida 1-jadvalda samaradorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari keltirilgan.

Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti

1-jadval
Samaradorlik ko'rsatkichini hisoblash usullari

N	Nomi	Formulasi	Kattaliklar
1	Umumiy iqtisodiy samaradorlik (yoki umumiy ishlab chiqarish samaradorligi)	$E = \frac{Y}{R}$	Y – ishlab chiqarilgan mahsulot, R – sarflangan resurslar
2	Melmat samaradorligi (Ishchi kuchi samaradorligi)	$E = \frac{YM}{I}$	YM – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, I – ishchilar soni
3	Kapital samaradorligi	$E = \frac{Y}{K}$	Y – ishlab chiqarilgan mahsulot, K – kapital
4	Foyda samaradorligi	$E = \frac{F}{X}$	F – foyda; X – xarajat
5	Resurslardan kompleks foydalanish samaradorligi	$KE = \frac{Y}{\alpha L + \beta K}$	α, β – tegishli resurslarga bo'lgan vazn koeffitsiyentlari
6	Energiya samaradorligi	$E = \frac{ICHE}{SE}$	$ICHE$ – ishlab chiqarilgan energiya, SE – sarflangan energiya

ADABIYOTLARNI TAHLILI

Temir yo'l transportdan samarali foydalanish va uning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili bo'yicha xorijiy, shu jumladan MDH mamlakatlari va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlari ham ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, N.P.Teryoshina, V.G.Galaburda, M.F. Trixunkov[2], L.O.Anikeeva-Naumenko[3], V.N.Filina[4], B.M.Lapidus, D.A. Macheret, A.L.Volfson[5,6], M.P.Bazilevskiy, S.I.Noskov, I.P.Vrublevskiy, I.S.Yakovchuk[7], S.V.Rachek[8]larni, o'zbek iqtisodchi olimlaridan M.Sh.Jalalova[9], Zoidov[10], Z.N.Raxmatov, Sh.V.Ergashev[11], M. S.Yakubov, Z. G.Muxamedova[12], S.R.Abdurazizov, G.A.Qudbiyeva[13] va boshqalarni keltirish mumkin.

Ayrim iqtisodchi olimlar iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanib kelinayotgan samaradorlik ko'rsatkichi borasida ilmiy izlanishlarini olib borishmoqda. Xususan, R.H.Bozorov O'zbekistonda investitsiya loyihalarining

iqtisodiy samaradorligini baholashni takomillashtirish borasida izlanishlar olib borgan bo'lsa[14], R.G. Axmadeev soliq tushumi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan[15]. Yosh iqtisodch olim F. D. Hojiqulova mamlakatimizda sanoat korxonalariga kiritilayotgan investitsiyalar samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan[16].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, indeksli tahlil, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, samaradorlik ko'rsatkichini baholashda

bir nechta usullardan foydalanish mumkin. Quyida ushbu usullardan ba'zilarini tahlil qilib o'taylik. Samaradorlikni baholashda eng ko'p qo'llanilgan usullardan biri bu- sof joriy qiymat (NPV) - obyektidan foydalanish davrida oldindan qat'iy belgilangan va o'zgarmas foiz stavkasida olinadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlarning alohida muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarning diskontlashtirilishi

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0 \quad (1)$$

Samaradorlikni hisoblashning yana bir usuli bu - foydaning ichki me'yori (IRR) usuli. (IRR) - bu pul tushumlarining diskont qiymati pul chiqimlarining diskont qiymatiga teng bo'lgandagi daromadlilik darajasi yoki bo'lmasa loyihadan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymati samaradorlikning diskontlangan qiymatiga, sof joriy qiymat esa nolga teng bo'lgandagi diskont meyoridir. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof joriy qiymatni aniqlashda

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+d)^t} - I_0 = 0 \quad (2)$$

Samaradorlikning ichki me'yorini boshqacha ko'rinishda,

yo'li bilan olingan va ular o'rtasidagi farqni ifodalovchi qiymat. Uning mohiyati shundaki, tanlagan korxonada yillik sof pul oqimi miqdori har bir davr uchun loyihani amalga oshirishning boshlang'ich yiliga keltiriladi va u oqibatda o'zini pul miqdorida sof joriy qiymat yoki sof diskontlashtirilgan daromad sifatida namoyon etadi.

yuqoridagi formuladan foydalaniladi va sof joriy qiymat nolga tenglashadigan minimal foiz stavkasi topiladi. Aynan shu foiz stavkasi foydaning ichki me'yori usuli deb nomlanadi. Bu usul iqtisodiyotda rentabellikning ichki me'yori, qoplash yoki samaradorlik koeffitsiyenti, kapital qo'yilmalarning chegaraviy samaradorligi deb ham yuritiladi. Uni hisoblash quyidagi tenglamada ifodalash mumkin:

$$IRR = d_1 + \frac{NPV_1}{(NPV_1 - NPV_2)} (d_2 - d_1) \quad (3)$$

bu yerda, NPV₁ - d₁ diskont me'yori stavkasidagi sof joriy qiymatning ijobiy miqdori; NPV₂ - d₂ diskont me'yori stavkasidagi sof joriy qiymatning salbiy miqdori. Foydaning ichki me'yorini aniqlashda d₁ va d₂ ko'rsatkichlar miqdori asosiy o'rinni egallaydi. Ularning ta'siri natijasida sof joriy qiymat o'zgarishini va buning oqibatida esa foydaning ichki me'yori ham o'zgarishini kuzatish mumkin. Shunga ko'ra: d₁-bu NPV ning ijobiy qiymatini minimallashtiruvchi foiz stavkasi; d₂-bu NPV ning salbiy qiymatini maksimallashtiruvchi foiz

stavkasi hisoblanadi.

Yana bir usul bu samaradorlikning rentabellik usuli (RI) - diskontlashtirilgan daromadlarning diskontlashtirilgan investitsiya xarajatlariga nisbatini hisoblab topishga asoslangan.

Ilmiy izlanishlarda keng qo'llaniladigan yana bir usul bu ko'rsatkichlar tizimlaridan foydalanilgan holda vazn koeffitsienti yordamida aniqlanadigan integral koeffitsient usulidir:

$$S = \sum_{i=1}^n \alpha_i \cdot K_i \quad (4)$$

Bu yerda, K_i-samaradorlik ko'rsatkichlari; α_i-ko'rsatkichlarning vazn koeffitsientlari.

Biz yuqorida ta'kidlangan Surxondaryo viloyatining o'ziga xos iqtisodiy - ijtimoiy holati hamda geografik joylashuvidan

kelib chiqqan holda, quyidagi ko'rsatkichlarni Termiz temir yo'l uzeli samaradorligini baholovchi indikatorlar sifatida taklif etamiz.

2-jadval

Termiz temir yo'l uzeli samaradorligini baholash indicator ko'rsatkichlari

N	Ko'rsatkichning nomi	O'lchov birligi
1	Tashilgan yo'lovchilar soni	nafar
2	Tashilgan yuk hajmi	tonna
3	Tashiladigan yuklarning hajmi	metr kub (m ³)
4	Yuk aylanmasi	tonna-kilometr (t·km)
5	Yo'lovchi aylanmasi	yo'lovchi-kilometr
6	Yuk tashishning o'rtacha masofasi	km
7	Harakatdagi ko'rstakichlari.	km yoki soat
8	Yo'lovchi tashishda o'rindiqlar soni	dona
9	Temir yo'l tarmog'ining umumiy daromadi	mlrd. so'm
10	Yuk tashish hajmi	tonna
11	Yuk aylanmasi	tonna-km
12	O'rtacha masofa	km
13	Yuk tashish intensivligi	tkm/km
14	Yuk poyezdi og'irligi	tonna
15	O'sish sur'ati	%

Ko'rsatkichlarni yagona o'lchov birligiga keltirish uchun quyidagi me'yorlashtirish formulasidan foydalanildi[17]:

$$x_{nor} = \frac{x_n - x_{min}}{x_{max} - x_{min}} \quad (5)$$

Biz yuqoridagi (4) formulada yuk tashish va aholi tashishda samaradorlik koeffitsiyentini hisoblashning mualliflik taklifini ishlab chiqqan edik. Endi shu formuladan foydalangan holda, Termiz temir

yo'l uzelinesing 2017-2024 yillardagi samaradorligini hisoblaylik. Bunda $\alpha_{yk}=0,057$ ekanligini inobatga olish kerak. 2017 yildan boshlab yuk tashishdagi samaradorligi faqat ortib borgan. demak ushbu yil-

3-jadval

Termiz temir yo'l uzelinesing 2017-2024 yillar mobaynida yuk tashish samaradorlik ko'rsatkichlari

Yillar	Yuk tashishdan olingan daromad (mlrd.so'm)	Daromadning me'yorlashtirilgan qiymati K_1	Yuk tashishda samaradorlik koeffitsiyenti $S_{Yuk} = \alpha_{yk} \cdot K_1$
2018	11 154 625	0,09	0,005
2019	13 596 178	0,24	0,014
2020	15 218 660	0,34	0,019
2021	17 501 449	0,48	0,027
2022	20 745 568	0,68	0,039
2023	23 143 728	0,82	0,047
2024	26 026 926	1	0,057

larda yuk tashish miqdori ortib borganligini anglash mumkin.

Endi yo'lovchi tashishdagi samaradorlikni hisoblaylik. Buning uchun xuddi yuqoridagi 3-jadvaldagi singari yo'lovchi tashishdan olingan daromad,

daromadning me'yorlashtirilgan qiymati hamda yo'lovchi tashishda samaradorlik koeffitsienti ko'rsatkichlari zarur. Bu yerda $\alpha_{yk}=0,36$ ekanligini inobatga olishni taklif etamiz. Zaruriy me'zonlar 4-jadvalda jamlandi.

4-jadval

Termiz temir yo'l uzelinesing 2017-2024 yillarda yo'lovchi tasish samaradorlik ko'rsatkichlari

Yillar	Yo'lovchi tashishdan olingan daromad (mlrd so'm)	Daromadning me'yorlashtirilgan qiymati K_2	Yo'lovchi tashishda samaradorlik koeffitsiyenti $S_{Yuk} = \alpha_{yo} \cdot K_2$
2018	11 154 625	0,18	0,065
2019	13 596 178	0,28	0,101
2020	15 218 660	0,37	0,136
2021	17 501 449	0,51	0,183
2022	20 745 568	0,69	0,250
2023	23 143 728	0,83	0,300
2024	26 026 926	1	0,36

Yo'lovchi tashishdan olingan daromad miqdori ham barqaror ortib borganligi tufayli daromadning me'yorlashtirilgan qiymati ham mos ravishda o'sib bordi. Bu esa o'z navbatida yo'lovchi tashishdagi samaradorlik koeffitsiyenti ham ortishiga olib keldi.

Yo'lovchi va yuk tashishdagi samaradorlik qiymatlarini umumlashtirgan holda (4) formuladan foydalanib, Termiz temir yo'l uzelineing 2017-2024 yillardagi integral samaradorlik ko'rsatkichini hisoblaymiz. Hisob-kitoblar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Yo'lovchi va yuk tashish samaradorlik ko'rsatkichlarining integral samaradorlik ko'rsatkichi qiymatlari

Yillar	Yuk tashishda samaradorlik koeffitsiyenti $S_{Yuk} = \alpha_{yu} \cdot K_1$	Yo'lovchi tashishda samaradorlik koeffitsiyenti $S_{yu} = \alpha_{yu} \cdot K_1$	Umumiy samaradorlik koeffitsiyenti. $S_{um} = \alpha_{yu} \cdot K_1 + \alpha_{yu} \cdot K_1$
2018	0,005	0,065	0,07
2019	0,014	0,101	0,115
2020	0,019	0,136	0,155
2021	0,027	0,183	0,210
2022	0,039	0,250	0,289
2023	0,047	0,300	0,347
2024	0,057	0,36	0,417

Termiz temir yo'l uzelineing 2017-2024 yillardagi samaradorlik ko'rsatkichlarining umumlashgan jadvalidan shuni aniqlash mumkinmki, uzel orqali tashilgan yuk va yo'lovchilarning fizik miqdori faqat

ortgan. Bu esa o'z navbatida tarmoqning umumiy daromadi o'sishiga olib kelgan. Keling shu o'rinda barqaror rivojlanish sur'atini tahlil qilaylik. Buning uchun V. M. Ryabsev[18] indeksidan foydalanamiz:

$$K_R = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (d_1 - d_0)^2}{\sum_{i=1}^n (d_1 + d_0)^2}}, \quad (6)$$

Bu yerda K_R – tarkibiy o'zgarishlar koeffitsiyenti; d_1, d_0 – asosiy va hisobot tuzilmalari; $i=1, 2, 3 \dots; n$ – davrlar soni.

Barqarorning yilma-yil o'sishi umumlashgan qiymati tahlil qilinib, Ryabsev indeksi qiymatlari quyidagi 6-jadvalda keltirildi.


6-jadval

Yo'lovchi va yuk tashish ko'rsatkichlari barqarorligining Ryabsev indeksi qiymatlari

Yillar	Umumiy samaradorlik koeffitsiyenti. $S_{um} = \alpha_{yu} \cdot K_1 + \alpha_{yu} \cdot K_1$	Ryabsev indeksi qiymati	Koeffitsent qiymatlarining intervali tarkibiy o'zgarishlarning me'yoriy tavsifi
2018	0,07	0,467	Ahamiyatli darajadagi tafovut
2019	0,115	0,381	Ahamiyatli darajadagi tafovut
2020	0,155	0,386	Ahamiyatli darajadagi tafovut
2021	0,210	0,394	Ahamiyatli darajadagi tafovut
2022	0,289	0,301	Sezilarli darajadagi tafovut
2023	0,347	0,301	Ahamiyatli darajadagi tafovut
2024	0,417	0,497	Ahamiyatli darajadagi tafovut

6-jadvalni tahlil qilib quyidagilar aniqlandi. Tadqiq qilinayotgan 7 yilning faqat bir yilida (2022-yilda) Ryabsev indeksi bo'yicha sezilarli darajada tafovut

bilan o'sish, qolgan olti yil mobaynida ahamiyatli darajadagi tafovut bilan o'sish yuz bergan. Buni quyidagi 1-rasmda ham ko'rish mumkin.



1-rasm. 2017-2024 yillarda Termiz temir yo'l uzelinining samaradorlik ko'rsatkichlarining Ryabsev indeksi orqali tasviri

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, Ryabsev indeksi shkalasi bo'yicha 2022 yildagi 0,3007984 qiymat 0,151-0,3 oraliqqa tushayotganligi uchun sezilarli darajadagi tafovutli o'sish kuzatilganligini, qolgan olti yil davomida samaradorlikning Ryabtsev indeksi 0,301-0,5 oraliqqa tushganligi uchun ahamiyatli(ancha katta) darajada tafovut bilan o'sishi kuzatilgan. Ma'lumki, Ryabtsev indeksi shkalasi bo'yicha barqaror o'sishning ahamiyatli darajada tafovut va sezilarli darajada tafovut o'lchovlari qiymat jihatidan juda yaqin hisoblanadi. Sezilarli darajadagi tafovut bilan o'sishni 2017 yilda Termiz temir yo'l uzeldagi yangi Qumqo'rg'on-Boysun-Qo'shrabod liniyasining ishga tushishi va "Yangi O'zbekiston"da temir yo'l tarmog'iga yangidan investitsiya jabl etish, buning natijasida esa barqaror o'sish kuzatilganligini ko'rish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonda qisqa muddat ichida iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlari singari temir yo'l tarmog'ida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bularning bir qismini Termiz temir yo'l uzeli misoli ham ko'rish mumkin. Xususan 2016 yilda boshlangan Qarshi-Termiz va Termiz -Galab (Afgoniston) 244,5 km uzunlikda temir yo'l liniyasi uchun 437 mlrd.702 mln.so'm mablag' ajratilib, 2017-yilda kuz oylarida elektrlashtirish ishlari yakunlandi. Buning natijasida yuqorida ta'kidlanganidek yuk aylanmasi sezilarli o'sdi. Ushbu elektrlashtirish jarayonida temir yo'l liniyasida 3 ta podstantsiya qurildi. Ushbu stansiyalarning qurilishiga 105 mlrd.263 mln.so'm mablag ajratilib, har bir stansiyada 30-40 ta yangi ishchi o'rin yaratildi. 2026 -yilda Qumqo'rg'on-Sariosiyo temir yo'l liniyasi elektrlashtirish rejalashtirilgan.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xatamov Ochildi Qurbonovich Termiz davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori, // Хатамов Очилди Курбанович Профессор Термезского государственного университета, доктор экономических наук // Khatamov Ochildi Kurbanovich Professor of Termez State University
o.xatamov@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0003-9513-9987>
2. Dilfuza Shakarova Ruzimuratovna Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti / Shakarova Dilduza Ruzimuratovna Doctor of Economics.
dilfuzashakarova1988@mail.ru

■ <https://orcid.org/0009-0008-0983-5369>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Agénor, P.-R. (2004), The economics of adjustment and growth, 2nd edition, Harvard University Press, Boston.-765 p.
- [2].Терёшина Н.П., Галабурда В.Г., Трихунков М.Ф. и др. Экономика железнодорожного транспорта: Учеб. для вузов ж.-д. транспорта.- М.: УМЦ ЖДТ, 2006.-801 с.
- [3]. Аникеева-Науменко Л. О. Методы повышения эффективности использования вагонов грузового парка на железнодорожном транспорте. Дисс. на соиск. уч. ст. канд. эконом. наук.- М: 2014.-190с.
- [4]. Филина В.Н. Эффективность работы транспорта с позиций рынка и стратегических интересов России// Проблемы прогнозирования. М.-№ 4 /2015-с.30-42.
- [5]. Мачерет Д.А. Экономические проблемы грузовых железнодорожных перевозок/ Д.А. Мачерет, И.А. Чернигина. -М.: МЦФЭР, 2004.- 240 с.
- [6]. Лapidус Б.М., Мачерет Д.А., Вольфсон А.Л. Теория и практика управления эксплуатационными затратами железнодорожного транспорта. /Под ред. Б.М. Лapidуса.- М.:МЦФЭР, 2002.- 256 с.
- [7]. Базилевский М.П., Носков С.И., Врублевский И.П., Яковчук И.С. Среднесрочное прогнозирование эксплуатационных показателей функционирования Красноярской железной дороги//Фундаментальные исследования.-2016.-№ 10-3.-С.471 – 476.
- [8]. Рачек С. В. Макроэкономические аспекты развития грузоперевозок // Наука и бизнес: пути развития. – 2016. – №10(64).- С. 72–76.
- [9]. Жалалова М.Ш. Ўзбекистон Республикаси аҳоли фаровонлигини таъминлашда темир йўл транспортини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2022, maxsus son,347-353б.
- [10]. Zoidov, K.Kh., Medkov, A.A., 2015. Formation of management mechanisms for the development of the transit economy of the Central Asian countries in the context of integration and instability. Management 3.9, 3947. <https://doi.org/10.12737/13336>.
- [11]. Рахматов З.Н.,Эргашев Ш.В. “Ўзбекистон темир йўллари”АЖДа юк ташиш жараёни самарадорлигини оширишда блокчейн технологиясининг аҳамияти. // Iqtisodiyot va ta'lim . 2023-yil 1-son, 499-504 б.
- [12]. Якубов, М. С., & Мухамедова, З. Г. (2018). Анализ

- и оценка энергетической эффективности специального самоходного подвижного состава железной дороги. // Известия Транссиба, (4 (36)), С.60-68.
- [13]. S.R.Abdusazizov, G.A.Qudbiyeva, I.A.Abduraimov O.J. Ibrohimova. O'zbekiston iqtisodiyotida temir yo'l transportini ahamiyati. // Scientific progress volume 3, 2022.-P.1121-1131.
- [14]. Бозоров Р.Х. Ўзбекистонда инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини баҳолашни такомиллаштириш.// “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналі. № 2, март-апрель, 2018.-1-14 б.
- [15]. Ахмадеев, Р. Г. Эффективность налоговой политики в сфере инноваций / Р. Г. Ахмадеев, М. Е. Косов // Финансовая жизнь.-2017.- № 1- С. 74–78.
- [16]. F.D.Hojikulova. Sanoat tarmog'ida investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini statistik baholash (Surxondaryo viloyati misolida). I.f. f.d. (PhD) diss. avtoref.- Termiz 2025.-59 b.
- [17]. Xatamov O.Q., Badalov J.J. Qishloq xo'jalik korxonalari investitsion jozibadorligi ko'rsatkichlar tizimi va uni oshirish maqsadlari tahlili. //Innovatsion iqtisodiyot/ Инновационная экономика/ The innovatsion economy, 2025.-286-292 b.
- [18]. Рябцев В. М., Чудилин Г. И. Региональная статистика:учебник .- М.: МИД, 2001.- 380 с

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" asosidagi istiqbollar

Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li

Перспективы, основанные на «зеленой экономике» в обеспечении устойчивого экономического роста

Аликулов Хумаюн Тохир оглу

Green economy-based perspectives for sustainable economic growth

Alikulov Humayun Tohir oglu

Received: August 14, 2025 Revised: August 17, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari haqida fikr-mulohazalar berilgan. Unda yashil iqtisodiyotning rivojlanish modellari, resurslardan samarali foydalanish masalalari hamda yashil iqtisodiyotga o'tishning tamoyillari aks ettirilgan. Jumladan, "yashil iqtisodiyot" – iqtisodiy rivojlanish modeli ekani, atrof-muhitga zarar bermasdan, resurslardan samarali foydalanishni va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiyotligi ta'kidlangan. Ushbu model quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi: energiya samaradorligi: yangilanish energiya manbalaridan foydalanish va energiya iste'molini kamaytirish; resurslarni boshqarish: tabiiy resurslarni barqaror ravishda boshqarish va ularni qayta ishlash.
- **Kalit so'zlar:** "yashil iqtisodiyot", yashil energiya, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, quyosh panellari, biomassa, bioenergiya.
- **Аннотация:** В статье дается обратная связь относительно перспектив развития зеленой экономики. В нем отражены модели развития зеленой экономики, вопросы эффективного использования ресурсов, принципы перехода к зеленой экономике. В частности, подчеркивалось, что «зеленая экономика» — это модель экономического развития, экономика, направленная на эффективное использование ресурсов и обеспечение социальной справедливости без нанесения ущерба окружающей среде. Данная модель основана на следующих основных принципах: энергоэффективность: использование возобновляемых источников энергии и снижение энергопотребления; Управление ресурсами: устойчивое управление и переработка природных ресурсов.
- **Ключевые слова:** «зеленая экономика», зеленая энергетика, энергоэффективность, зеленые технологии, солнечная энергетика, ветроэнергетика, солнечные батареи, биомасса, биоэнергетика.
- **Abstract:** The article provides feedback on the prospects for the development of a green economy. It reflects models of green economy development, issues of efficient use of resources, principles of transition to a green economy. In particular, it was emphasized that the "green economy" is a model of economic development, an economy aimed at the efficient use of resources and ensuring social justice without harming the environment. This model is based on the following basic principles: energy efficiency: the use of renewable energy sources and reduction of energy consumption; resource management: sustainable management and processing of natural resources.

- **Keywords:** "green economy", green energy, energy efficiency, green technologies, solar energy, wind energy, solar panels, biomass, bioenergy.

KIRISH

2024 yilning 20 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqida ekologiya va iqlim o'zgarishi masalalariga to'xtaldi hamda havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelayotganini, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazilayotganini ta'kidladi.

Mamlakatimizda 2021 yildan beri "Yashil makon" umummilliy loyihasi yo'lga qo'yildi. Qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishildi. Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston BMT tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo'ldi. Ayni vaqtda "yashil" energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Bu sohadagi ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida Shavkat Mirziyoyev 2025 yilni yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qildi. Hukumatga yil nomida belgilangan eng muhim vazifalar bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish vazifasi berildi.

Bu dasturda:

- "yashil" texnologiyalarni joriy etish;
- suvni tejash;
- ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish;
- Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish;
- chiqindilar muammosini hal qilish;
- aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi [1].

Mintaqada "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari quyidagiasosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishim mumkin: quyosh energiyasi – mintaqaning ko'plab hududlari quyosh nuri bilan boy, bu esa quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Quyosh panellari o'rnatish va quyosh energiyasi stansiyalarini qurish orqali energiya ishlab chiqarishni oshirish mumkin; shamol energiyasi - shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va shamol turbinlarini o'rnatish orqali energiya ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish. Shuningdek, biomassa va bioenergiya – qishloq xo'jaligi chiqindilaridan, o'simlik va hayvon chiqindilaridan energiya ishlab chiqarish imkoniyatlarini rivojlantirish; energiya

samarador qurilishlar – yangi binolarni energiya samaradorligi standartlariga muvofiq qurish va mavjud binolarni energiya samaradorligini oshirish uchun modernizatsiya qilish hamda energiya tejamkor texnologiyalar – yoritish, isitish va sovutish tizimlarida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish; gaz va neftdan foydalanishni kamaytirish – mintaqada gaz va neftdan foydalanishni kamaytirish va ularning o'rnini qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan to'ldirish; yashil energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash – davlat va xususiy sektor hamkorligida yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish va rivojlantirish; yashil texnologiyalarni rivojlantirish – yashil energiya sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish yo'nalishlari eng muhimlaridir.

Ustuvor yo'nalishlar qatorida energiya saqlash texnologiyalari - qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan energiyani saqlash uchun zamonaviy energiya saqlash texnologiyalarini joriy etish; ekologik ta'lim dasturlari – aholi va yosh avlod uchun ekologik va energiya samaradorligi haqida ta'lim berish; xabardorlik kompaniyalari – yashil energetika va uning afzalliklari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish; mintaqaviy va xalqaro loyihalar – yashil energiya sohasida xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish; investitsiya jalb qilish – xalqaro investorlarni jalb qilish orqali yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish; yashil qurilish klasterlari – yashil qurilish materiallari ishlab chiqarish va energiya samaradorligini oshirish maqsadida qurilish klasterlarini tashkil etish; muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari – yashil energiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish kabilar ham sanalmoqda va davlatning istiqbolli dasturlariga kiritilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zR Oliy Majlisga murojaatnomasida O'zR Prezidenti SH.M.Mirziyoyev keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o'tkazish tartibini qayta ko'rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish muhim vazifalar sifatida qayd etdi [2]. O'zbekiston Respublikasi 2015 yildan keyingi davrda BMT tomonidan 2030 yilgacha mo'ljallangan 17 ta maqsad va 169 ta vazifalardan iborat barqaror taraqqiyot dasturini qo'llab-quvvatlab, barqaror rivojlanishning 3 asosiy sohalari, ya'ni iqtisodiy,

ekologik va ijtimoiy sohalar bo'yicha kompleks ishlarni olib borishi ma'lum qilindi [3].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida ham "Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar", - deb yozilgan [4]. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, resurs ko'p ishlatadigan iqtisodiyotdan taraqqiyotning innovatsion modeliga o'tish hisobga olingan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ko'p jihatdan XXI asrda har qanday davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. "Yashil iqtisodiyot" modeli inson faoliyati va tabiat hamkorligini normallashtiradi [5]. "Yashil iqtisodiyot"dan farqli ravishda XX asr iqtisodiyotining an'anaviy modeli bo'lgan "jigarrang" iqtisodiyot ishlab chiqarishning ko'p energiya ishlatuvchi va resurs sarflovchi modellariga asoslangan. Ekologik muammolar, tabiiy kapitalning tugab bitishi, chuchuk suvning, oziq-ovqatning, energiyaning etishmasligi, qashshoqlikning keng quloch yozishi "jigarrang" iqtisodiyotning asosiy salbiy oqibatlari hisoblanadi.

YE. Lyaskovskaya va K. Grigoryeva "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni texnologik rivojlanishdan voz kechishni anglatadimi degan savolga javob berishga qaratilgan bo'lib "barqaror rivojlanish", "inklyuziv rivojlanish", "yashil" va "jigarrang" iqtisodiyot modellari ko'rib chiqishgan [6]. Iqtisodiyotning "jigarrang" rivojlanish modeli XX asrga hos bo'lgan va energoresurs sig'imi yuqori bo'lgan an'anaviy ishlab chiqarish nazarda tutilgan. Uning asosiy salbiy oqibatlari ekologik muammolarni keskinlashishi, tabiiy boyliklarni samarasiz ishlatilishi, suv resurslar, oziq-ovqat va energiya tanqisligi bilan bog'liq deb hisoblanmoqda [7].

"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlanishida xizmatlar sohasining muhim yo'nalishlaridan biri "ekologik" turizmni rivojlantirish katta ahamiyatga ega [8]. Natijada, milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishda imkoniyatlarini kengaytiradi [9].

BMTga a'zo 193 ta davlat tomonidan bir ovozdan qabul qilingan Barqaror taraqqiyot maqsadlari ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Yakuniy kun tartibi barqaror taraqqiyotning barcha uchta xususiyatini – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik taraqqiyotni, shuningdek tinchlik va adolat masalalarini o'z ichiga oladi.

"Yashil" iqtisodiyotning mohiyati va unga o'tish konsepsiyasi masalalari Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olimlar D.Pirs va E.Barbiyerlarning "Yashil iqtisodiyot" uchun reja (Blueprint for a Green Economy)" nomli asarida birinchilar qatorida ochib berilgan [10]. O.V.Bashorina, I.M.Temkina "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jamiyatning barqaror rivojlanishi, kambag'allikni qisqartirish asosidir" deb baholashgan [11]. A.V.Neverov, Vodopyanova "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish

jarayonida davlat inson kapitali, tabiiy kapital, ijtimoiy kapital, siyosiy kapital va moliyaviy kapitallarni muvofiqlashtirib foydalanish" zarurligini ta'kidlaydilar [12]. Mualliflar guruhi "dunyoga xavf solayotgan CO2 zaharli gazlar inqirozi to'g'risida" xabar beradilar [13]. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun juda katta imkoniyatlar mavjudligi, iqtisodiyotni yashillashtirish uchun "yashil" investitsiyalar kerak, yashil tarmoqlarni moliyalash, yangi ish o'rinlarini barpo qilish orqali aholi turmush tarzini yaxshilash mumkin", - degan fikrni iqtisodchi olim N.N.Yashalova ilgari suradi [14]. Iqtisodchi olimlar N.Piskunov va N.V.Paxomov "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish "musobaqa"sida Shvetsiya, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari etakchilik qilmoqda" deb ta'kidlaydilar [15].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik va ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

■ ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada "yashil energetika"ni rivojlantirish istiqbollari nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlash va energiya xavfsizligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayonlar orqali mintaq barqaror rivojlanishga erishishi mumkin.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil iqlimning o'zgarishi sharoitida samarali, resurstejovchi va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashda o'zaro bog'liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, jadallashayotgan industrlashuv va aholi sonining oshishi iqtisodiyotning resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda va karbon bozoridagi – issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda.

«Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to'sqinlik qilmoqda.

Istiqbolli strategiyaning mavjud emasligi "yashil texnologiya"larni joriy etish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha tizimli choralar ko'rishni ta'minlashga imkon bermayapti» [1].

O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga

o'tishining asosiy vazifalari Parij bitimida belgilangan majburiyatlar va global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish maqsadida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish: Quyosh, shamol, biogaz va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish orqali energiya ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish.

Energiya samaradorligini oshirish: Energiya sarfini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish maqsadida yangi texnologiyalarni joriy etish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish.

Tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish: Ekologik muhofaza chora-tadbirlarini amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning muhofazasini ta'minlash.

Iqlim o'zgarishiga moslashish: Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish va moslashish strategiyalarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda iqlimga moslashish choralarini ko'rish.

Sanoatni ekologiyalash: Sanoat ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan toza va barqaror texnologiyalar bilan

yangilash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashni oshirish.

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish: Ekologik va barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etish, agroekologik tizimlarni rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Ushbu sohalarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish: Yashil iqtisodiyot sohasida xalqaro tashkilotlar, boshqaruv organlari va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Ta'lim va xabardorlikni oshirish: Aholining, ayniqsa, yosh avlodning "yashil" iqtisodiyot va ekologik muhofaza masalalari bo'yicha bilim va xabardorligini oshirish.

Investitsiya va moliyalashtirish: "Yashil" iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun zarur investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish.

O'zgaruvchan iqlim sharoitida barqaror rivojlanish: Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish maqsadida barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali O'zbekiston "yashil" iqtisodiyotga o'tishga erishish va global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda o'z hissasini qo'shishi mumkin. (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalari [2]

Istiqbolli dasturlarda belgilangan ustuvor yo'nalishlar orqali O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishi,

atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

1-rasm. O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tishining asosiy vazifalari [2]

MAQSADLI INDIKATORLAR	KUTILAYOTGAN SAMARASI
Issiqxona gazlari YAIMga nisbatan solishtirma ajratmalarining qisqarishi	2010-yildan 10%gacha qisqartirish
Energiya samaradorligini oshirish	2 marta
Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish	Umumiy elektr energiyasini ishlab chiqish hajmining 1/4 martasigacha ko'prog'iga oshirish
Aholi xonadonlari va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkonini yaratish	2 martagacha
Industrial korxonalar infrastrukturasini modernizatsiya qilish, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan ko'proq foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta'minlash	Energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorga oshirish
Motor yonilg'isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, elektr transportini rivojlantirish	Energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish	1 mln. gektargacha maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 1-1,5 martagacha oshirish
Yerlarning degradatsiyalashuvi darajasini pasaytirish	Kerakli muvozanatga erishish
Asosiy qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish	O'rtacha hosildorligini 1/4 baravarga oshirish

Mintaqaviy va milliy tadbirlar – konferensiya va simpoziumlar orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun makroiqtisodiy tamoyilni ishlab chiqish, yashil texnologiya, investitsiyalar, umumiy qilib aytganda, yashil moliyadan foydalanishga asosiy e'tiborni qaratish, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish maqsadida makroiqtisodiy siyosatni targ'ib qilishda mamlakatlarni qo'llab quvvatlash yuqorida aytib o'tilgan inson qo'li bilan, ya'ni texnik ravishda kelib chiqqan muammolar yechimi bo'la oluvchi o'ta samarali g'oyalardir. Yashil iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarishning tabiatga salbiy

ta'sirini kamaytiradigan, balki iqtisodiy rivojlanish va ekologik farovonlik o'rtasida yaxshi munosabatlarni yaratishga xizmat qiladigan iqtisodiy model hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanishni moliyalashtirish loyihasi, BMtning Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) orqali amalga oshirilayotgan muhim tashabbusdir. Ushbu loyiha, O'zbekiston Hukumatiga barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va milliy rivojlanish rejalari/strategiyalarini amalga oshirishda yordam berish uchun bir qator asosiy yo'nalishlarga qaratilgan:

BMTning 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan strategiyalar va islohotlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu, O'zbekistonning global rivojlanish jarayoniga qo'shilishiga va xalqaro standartlarga mos kelishga imkon yaratadi. Ijtimoiy va ekologik ta'sirni

oshirish: Loyiha, barqaror rivojlanish strategiyalarining ijtimoiy va ekologik ta'sirini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Bu, ijtimoiy adolatni ta'minlash va ekologik barqarorlikni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi.

2-jadval

2022-yil O'zbekiston budjetining 12 foiziga yaqini iqlim keskinlashuvi bilan bog'liq faoliyatning yakuniy natijalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan deb baholanganligi holati [2]

2022 yil	Jami iqlim o'zgarishi bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar	Iqlim ta'sirini yumshatish bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar	Iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liq "ijobiy" xarajatlar	Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq "salbiy" xarajatlar (barchasi ta'sirni yumshatish bo'yicha)
Milliard so'm	26 302,40	612,7	25414,8	1 006,00
Davlat budjetida foiz ko'rinishida	11,10%	0,30%	10,70%	0,40%

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yillar davomida bu afzalliklar mamlakatga iqlim o'zgarishlari uchun moliyalashtirish uchun qo'shimcha resurslardan foydalanish va samarali dasturlash imkonini beradi. O'zbekistonda Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq davlat xarajatlari va institutsionalizm (SPEIR) yuqoridagi 2-jadvalda tahlil natijalarida ko'rsatilgan, O'zbekiston davlat budjetining qariyb 12 foizi iqlim keskinlashuvi natijalarini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallanganligini, ularning katta qismi iqlim o'zgarishiga moslashish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, tahlil natijasida Davlat budjetining 0,3 foizgacha bo'lgan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq faoliyat natijalariga zarar yetkazuvchi sanalgan - "salbiy" xarajatlar borligi ham kuzatilgan.

Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) bilan hamkorlikda O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosati sohasida qarz dasturi loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu loyiha, mamlakatda barqaror va ekologik jihatdan toza iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Mazkur loyiha doirasida qazilma yoqilg'ilari subsidiyalarini hisobga olish,

tahlil qilish va kamaytirish, iqtisodiyotni karbonat angidrid emissiyasidan xalos etish yuzasidan uzoq muddatli strategiya va konvensiyalarni ishlab chiqish, milliy miqyosda issiqxona gazlari tashlanmalarining monitoringi, hisoboti va tekshiruvi (MRV) tizimini joriy etish, "yashil" moliyalashtirish va soliqqa tortishni joriy qilish hamda boshqa yo'nalishlarda ishlar amalga oshirildi.

2023-yil 8-avgustda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan PQ-271-sonli qaror bilan Jahon banki hamkorligida "Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari belgilandi. Ushbu qaror, O'zbekistonda 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash maqsadida milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Loyiha doirasida Jahon banki O'zbekiston Respublikasiga 46,75 million AQSh dollari miqdorida mablag' ajratishni ma'qulladi. Ushbu loyiha ikki asosiy komponentdan iborat: biri 20 million AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirishga ega "Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish shartnomasi", ikkinchisi esa 25 million AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirishga ega "Oqibatlarini yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi".

3-jadval

“Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash” (iCRAFT) loyahasini amalga oshirish uchun Jahon banki tomonidan O'zbekiston Respublikasiga ajratilgan mablag' [2]

Asosiy yo'nalishlar	Moliyalashtirish miqdori*, mln AQSh dollarida
1. Qisqartirilgan emissiyalarning sotib olinishi**	
1.1. UNFCCC talablari asosida monitoring, hisobot va tekshirish (MRV) tizimini ishlab chiqish	
Issiqxona gazlari kadastri (rasmiiy statistika ma'lumotlariga asoslangan issiqxona gazlarining chiqarilishi va tutib qolinishini tavsiflovchi tizimlashtirilgan ma'lumotlar jamlanmasi)	
Issiqxona gazlari reyestri (issiqxona gazlarining chiqarilishi to'g'risida hisobotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi)	6
Uglerod birliklari reyestri (“yashil” loyihalar ro'yxatdan o'tkaziladigan, uglerod birliklari va ular bilan bog'liq operatsiyalar hisobi yuritiladigan axborot tizimi) Ma'lumot va axborot markazi	
1.2. “Yashil” o'sish va uglerod savdosi bo'yicha quyidagi vazirlik va idoralarning salohiyatini oshirish: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Strategik islohotlar agentligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi	2
1.3. Parij bitimi 6-moddasiga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Loyihani amalga oshirish guruhini tashkil etish (issiqxona gazlari emissiyasi savdosi, loyihalarni ko'rib chiqish, MRV, iCRAFT loyihalarini muvofiqlashtirish, monitoring yuritish va boshqalar)	
Milliy qonunchilik bazasini tayyorlash, loyihani amalga oshirish guruhi (markazi)ning nizomini tayyorlash, UNFCCC talablari asosida loyihani ko'rib chiqishning milliy qoidalarini tayyorlash	8
Xalqaro bozorlarda birinchi uglerod sotilishiga qadar moliyalashtirish (ish haqi, texnika), “Yashil energiya” sertifikatlari yagona elektron platformasini ishga tushirish	
2. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish natijalarini sotib olish	
2.1. Energy Sector Reforms (energiya regulyatori va UzPower Trade tashkil etish; energiya bozoriga o'tish; energetika sohasidagi huquqiy, tartibga solish, rejalashtirish va institutsional islohotlar, shuningdek, yangi o'quv markazini tashkil qilish va boshqalar)	17
2.2. Energiya tariflari (subsidiya) islohotlari va unga taalluqli bo'lgan aloqa kompaniyalari	3
Samarali tarif siyosati, narxlarni shakllantirish va amalga oshirish	

Aloqa kampaniyalarini ishlab chiqish

2.3. Ijtimoiy zaif uy xo'jaliklarini energiya tariflari islohotlaridan himoya qilish bo'yicha ijtimoiy yordam faoliyati (ijtimoiy xavfsizlik tarmog'i tizimini, ijtimoiy ro'yxatlarni va bosh-qalarni kuchaytirish)

5

O'zbekiston davlati birinchi marta 4,75 trln. so'm miqdoridagi "yashil" suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 mln dollar miqdoridagi xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida joylashtirdi [1].

2024 yilning 19-22 noyabr kunlari BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Boku konferensiyasining 29-sessiyasi (COP 29) bo'lib o'tdi. Forumda COP 29 bir qator ishtirokchilari iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun sanoati rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam sifatida taklif etilayotgan yiliga 250 milliard dollarni yetarli emas, deb hisoblashdi. Bu bugungi kunda ko'rsatilgan yordam miqdoridan 2,5 baravar ko'p bo'lishiga qaramay, iqlim faollari va alohida davlatlar vakillari uni sezilarli darajada oshirishni talab qilishdi.

BMT ekspertlari guruhi 2030 yilga borib rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi yordamga bo'lgan ehtiyoj qariyb trillion dollarni, 2035 yilga borib esa 1,3 trillion dollarni tashkil etadi, degan xulosaga keldi. Biroq, kelishuv loyihasida an'anaviy ravishda sanoati eng rivojlangan deb hisoblanmaydigan davlatlar eng qashshoq mamlakatlarga yordam to'lashda ishtirok etishi ko'rsatilmagan. Bularga, xususan, Xitoy va Fors ko'rfazi mamlakatlari kiradi.

Ozarbayjon poytaxti Bokuda bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida ishtirok etgan 50 dan ortiq davlat iqlimga mos turizmni rivojlantirishga kelishib oldi. Olimlar iqlimga mos turizm birinchi marta BMTning iqlimni muhofaza qilish maqsadlaridan biriga aylanganini ta'kidlashdi. Turizm biznesi jahon yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil qiladi, shu bilan birga, bu sektor dunyodagi issiqxona gazlarining 9 foizini ishlab chiqaradi.

Qayd etilishicha, Bokuda tegishli kelishuvni imzolagan davlatlar iqlim muhofazasini turizm sohasida muhimroq omilga aylantirmoqchi. Shu bilan birga, aniq maqsadlarga erishish rejalashtirilgan.

World Sustainable Hospitality Alliance mehmonxona biznesi birlashmasi o'z faoliyati davomida parnik gazlari tashlamalari, suv va energiya iste'moli kabi ma'lumotlarni yozib olishi va hisobot berishini e'lon qildi. Assotsiatsiya rahbari Glenn Madziukning aytishicha, bu ma'lumotlar turizm sanoati vakillari va sayohatchilarga o'z harakatlari oqibatlarini tushunishga yordam beradi. «Biz har bir sayyohlik yo'nalishini himoya qilishdan manfaatdor bo'lgan sektormiz», dedi u Bokudagi forum chog'ida.

World Sustainable Hospitality Alliance birlashmasi jami 7 million xonaga ega 55 ming mehmonxona manfaatlarini

ifodalaydi. Tashkilot a'zolari orasida Accor, Hilton va Marriott kabi mehmonxona tarmoqlari ham bor.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, stajyor o'qituvchi // Аликулов Хумаюн Тохир оглу Экономико-педагогический университет, стажер-преподаватель // Alikulov Humayun Tohir oglu Economic and Pedagogical University, trainee teacher
 ► alikulovhumoyunforever@gmail.com
 ■ <https://orcid.org/0009-0005-8664-3692>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so'zi. 2020 yil 25 yanvar. № 19 (7521). 1-2 betlar.
- [3] Узбекистан поддерживает цели устойчивого развития ООН до 2030 года. <http://www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.html>
- [4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T. 1992 yil
- [5] Навстречу зеленой экономике. Пути к устойчивому развитию и искоренению бедности обобщающий доклад для представителей властных структур [Towards a Green Economy. Ways to Sustainable Development and Poverty Alleviation Is a General Report for Representatives of Power Structures]. Available at: http://old.ecocongress.info/5_congr/docs/doklad.pdf (accessed: 30.11. 2017)
- [6] Лясковская, Е.А., Григорьева К.А. Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов. // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». - 2018. –Т. 12, № 1. - С. 15-22. БО 10.14529/et180102
- [7] Chapple K. Defining the Green Economy: A Primer on Green Economic Development // Berkeley: The Center for Community Innovation (CCI) at UC-Berkeley. - 2008. - P. 66
- [8] Худаяров А.А., Пирматов Х.Р. Воздействие туризма на национальную экономику Индонезии //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedesco vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro, 2014. – №. 39. – С. 262-265

- [9] Гулямова Г. П. Формирование конкурентной бизнес среды в Узбекистане //Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2017. – С. 66-69
- [10] David William Pearce, Anil Markandya, Edward Burr Barbier, Edward Barbier Blueprint for a Green Economy London: Earthscan, 1989. – 192 p.
- [11] Башорина О.В., Темкина И.М. Переход к “зеленой” Экономике как фактор устойчивого развития и преодоления бедности. – Урал, 2012. – 201 с
- [12] Неверов А.В., Водопьянова Т.П. Экономика природопользования. – Минск, 2019. – 117 с
- [13] “Зеленая” экономика-главный тренд нового десятилетия. – М., 2021. С. 7-13.
- [14] Яшалова Н.Н. “Зеленая” экономика: региональный аспект. – Санкт-Петербург, 2014 – 194 с
- [15] Пискунов Н., Пахомов Н.В. Анализ мирового опыта перехода к “зеленой” Экономике. – М., 2022. – 213 с
- [16] Sh.M.Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqi. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1063>
- [17] Rustamovich, S. Z. Specific Aspects of Implications of Foreign Investments on the Integration of the National Economy into the Global Economy. International Journal of Research, 6 (3), 2019. 451-458
- [18] Самиева Г.Т., Аликулов Х.Т. НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ПЕРЕХОД В «ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ» // Экономика и социум. 2023. №11 (114)-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/novyy-uzbekistan-i-perehod-v-zelenuyu-ekonomiku>

Qishloq xo'jaligi mehnat bozori tarkibi va bozordagi resurslardan samarali foydalanish (Qashqadaryo viloyati misolida)

Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li

Состав сельскохозяйственного рынка труда и эффективное использование ресурсов на рынке (на примере Кашкадарьинской области)

Амонов Наврузхон Салохиддинович

Structure of the agricultural labor market and effective use of resources in the market (case of Kashkadarya region)

Navro'zkhon Salokhiddinovich Amonov

Received: August 12, 2025 Revised: August 15, 2025 ■ Accepted: August 18, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqola Qashqadaryo viloyati misolida qishloq xo'jaligi mehnat bozori tarkibi va ushbu bozordagi resurslardan samarali foydalanish muammolarini keng tahlil qiladi. Mamlakatimizda agrar islohotlar shiddat bilan kechayotgan bir paytda, mehnat bozori samaradorligi va resurslardan to'liq foydalanish masalasi ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, agrar hududlarda bandlik darajasi, iqtisodiy faollik va rasmiy ish o'rinlarining yetishmasligi, mavjud resurslar va imkoniyatlarning to'liq ishga solinmasligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, Prezident farmonlari va qarorlari, mahalliy va xorijiy olimlar fikrlari asosida holat chuqur o'rganilgan. Statistik tahlil, grafik ko'rinishdagi tasvirlar hamda tumanlar kesimidagi amaliy muammolar yoritilib, ularni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar bilan mahalliy sharoitlar qiyosiy tahlil qilingan.

- **Kalit so'zlar:** mintaqaviy mehnat bozori, mehnat resurslari, ishchi kuchi harakatchanligi, bandlik, migratsiya, mintaqaviy iqtisodiyot, demografik omillar, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalar, mehnat bozori tamoyillari.
- **Аннотация:** В данной статье на примере Кашкадарьинской области подробно анализируется структура сельскохозяйственного рынка труда и проблемы эффективного использования ресурсов на этом рынке. В условиях стремительного проведения аграрных реформ в нашей стране особенно актуальными становятся вопросы эффективности рынка труда и полного использования ресурсов. В частности, в аграрных регионах среди наиболее острых проблем выделяются уровень занятости, экономическая активность и нехватка официальных рабочих мест, а также неполное использование имеющихся ресурсов и возможностей. В исследовании глубоко изучено положение на основе статистических данных, указов и постановлений Президента, мнений отечественных и зарубежных ученых. Представлены статистический анализ, графические иллюстрации, а также практические проблемы в разрезе районов, предложены пути их решения. Кроме того, проведён сравнительный анализ зарубежного опыта и местных условий.
- **Ключевые слова:** региональный рынок труда, трудовые ресурсы, мобильность рабочей силы, занятость, миграция, региональная экономика, демографические факторы, развитие сельского хозяйства, инновационные технологии, принципы рынка труда.
- **Abstract:** This article provides an extensive analysis of the structure of the agricultural labor market and the problems of efficient use of resources in this market, using the example of the Kashkadarya region. In the context of rapidly implemented agrarian reforms in our country, the issues of labor market efficiency and the full utilization of resources have become especially urgent. In particular, in agrarian regions, some of the most pressing issues include the level of employment, economic activity, the shortage of official jobs, as well as the incomplete use of available resources and opportunities. The study thoroughly examines the situation based on statistical data, Presidential decrees and resolutions, as well as the opinions of domestic and foreign scholars. Statistical analysis, graphical illustrations, and practical problems at the district level are presented, along with proposed solutions. In addition, a comparative analysis of foreign experience and local conditions has been carried out.
- **Keywords:** regional labor market, labor resources, labor force mobility, employment, migration, regional economy, demographic factors, agricultural development, innovative technologies, labor market principles.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi har qanday iqtisodiyotni barqarorlashtirishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va aholining bandligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida bu soha strategik ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi aholining salmoqli qismi agrar sohada mehnat qiladi. Respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar – klasterlash, kooperatsiya, yer bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish, yerga egalik huquqlarining mustahkamlanishi – mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Qashqadaryo viloyati mehnat resurslari salohiyati bo'yicha O'zbekistonda yetakchi hududlardan biridir. Viloyatda 2024-yil holatiga ko'ra 3 milliondan ortiq aholi yashaydi, ulardan 1,8 milliondan ortig'i mehnatga layoqatlidir. Ularning yarmidan ko'pi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida band. Ammo sohada rasmiy bandlik darajasi past bo'lib, norasmiy sektor ustunlik qilmoqda. Bu esa ishsizlik darajasini sun'iy ravishda pasaytirib ko'rsatmoqda, real vaziyat bilan sezilarli farqlarni yuzaga keltirmoqda, bu ayni paytda aholi uchun

ijtimoiy kafolatlarni cheklaydi. So'nggi yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari va strategik hujjatlar (jumladan, PF-6096, PQ-4479) bandlikni oshirish, fermer xo'jaliklari faoliyatini erkinlashtirish, yerga egalik huquqlarini kafolatlash, investitsiyalarni jalb etish va agrotexnologiyalarni joriy qilish orqali resurslardan to'liq va samarali foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu kabi farmonlar qishloq xo'jaligi sohasi moddiy texnik bazasini qo'llab quvvatlash, agrar sektorda foydalanilayotgan texnik vositalarini yangilash, irrigatsiya (yerlarni sug'orish) infratuzilmasini yaxshilash, yerlarning meliorativ holati, fermer va dehqon xo'jaliklarining innovatsion texnologiyalarga kirish imkoniyatlarining kengayishi kabi omillar mehnat samaradorligiga ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Shuningdek, xalqaro tajribalar – Turkiya, Hindiston va Braziliya kabi davlatlarda agrar mehnat bozorini rasmiylashtirish, yer resurslarini qayta taqsimlash, agroklastarlar orqali ishlab chiqarishni optimallashtirish bo'yicha bosib o'tilgan yo'llar – O'zbekiston uchun o'ziga xos model bo'lishi mumkin.

Shu bois, ushbu maqolada aynan Qashqadaryo viloyati misolida qishloq xo'jaligi mehnat bozori tarkibi, resurslardan foydalanish darajasi va mehnat samaradorligini oshirish

imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi mehnat bozori va resurslardan foydalanish masalasi bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, T. Teshaboyevning "Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash: muammo va yechimlar" nomli asarida agrar sohaning texnologik yangilanishi, bu jarayonning mehnat samaradorligiga ta'siri keng yoritilgan. Muallif modernizatsiya agrar mehnat resurslarining sifat jihatidan o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. M. Raximovning ilmiy maqolalarida esa agrar mehnat bozorining tarkibiy xususiyatlari, norasmiy bandlik, mavsumiy mehnat, migratsion omillar va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri chuqur tahlil qilinadi. U ayniqsa Qashqadaryo viloyati kabi mehnat resurslariga boy hududlarda resurslardan yetarlicha foydalanilmasligi sabablarini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan asoslab beradi.

S. Jo'rayev va Sh. Mirzayev esa qishloq joylarda bandlik darajasini oshirish, mehnat taqsimotini maqbullashtirish, resurslarni samarali jalb etish borasidagi iqtisodiy mexanizmlarni taklif etadi. Ularning tadqiqotlarida kichik fermer xo'jaliklarining rivojlanish modeli alohida o'rganilgan.

Xalqaro miqyosdagi olimlar ham mazkur masalaga oid dolzarb yondashuvlarni ishlab chiqqan. J. Mellor o'zining "Agricultural Development and Economic Transformation" asarida agrar sektorda mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini asoslab beradi. U mehnat resurslarining to'g'ri taqsimoti iqtisodiy transformatsiyaning ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydi.

M. Liptonning "Why Poor People Stay Poor" asari esa urbanizatsiyaga yo'naltirilgan siyosatning qishloq mehnat resurslari va resurslardan foydalanishga qanday salbiy ta'sir qilishi mumkinligini ochib beradi. Klaus Deininger esa "Land Policies for Growth and Poverty Reduction" ishida yerga egalik huquqlari va agrar islohotlar mehnat samaradorligiga qanday ta'sir qilishini empirik tahlillar asosida bayon etadi.

FAO (Jahon oziq ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti), IFAD (Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro fondi), Jahon banki va OECD (Iqtisodiy rivojlanish va hakorlik tashkiloti) kabi xalqaro tashkilotlarning so'nggi hisobotlarida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligida bandlik darajasi, rasmiylashtirish, agrotexnologiyalarni joriy etish, hamda yoshlar va ayollarni jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Turkiya, Hindiston va Braziliya tajribalari qishloq xo'jaligi mehnat bozorini rasmiylashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish, kichik kooperativlar orqali bandlikni kengaytirish yo'nalishlarida O'zbekiston uchun yaqqol

namuna bo'la oladi.

Shu asosda aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi mehnat bozorining tarkibi va resurslardan samarali foydalanish masalasi ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va texnologik yondashuvlarni birlashtirgan holda o'rganilishi lozim.

Shuning uchun maqolada ushbu jihatlar uyg'unligida masalani yoritishga intilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida bir nechta metodologik vositalar qo'llanildi. Ular orqali qishloq xo'jaligi mehnat bozori va resurslardan foydalanish darajasi chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslangan:

1. Statistik tahlil usuli: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Mehnat vazirligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi va boshqa ochiq manbalar ma'lumotlariga tayangan holda bandlik darajasi, rasmiy va norasmiy bandlik nisbati, mehnat unumdorligi, sektorlar kesimidagi taqsimotlar tahlil qilindi.
 2. Solishtirma tahlil: Qashqadaryo viloyati ko'rsatkichlari boshqa agrar viloyatlar — Samarqand, Buxoro va Andijon bilan qiyoslab tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali viloyatdagi alohida ijobiy yoki salbiy xususiyatlar ajratib ko'rsatildi.
 3. Empirik kuzatuv va suhbatlar: Joylardagi fermer xo'jaliklari, agrofirma rahbarlari va mahalliy mehnat bozoridagi ishtirokchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar, intervyular asosida mavjud muammolar va imkoniyatlar aniqlandi.
 4. Grafik va vizual tahlil: Yig'ilgan statistik ma'lumotlar asosida chizmalar, diagrammalar, grafiklar tuzildi. Bu usul orqali o'zgarishlar dinamikasi ko'rgazmali ifodalandi.
 5. Huquqiy-normativ tahlil: Qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, hukumat dasturlari asosida mehnat bozori va resurslar boshqaruvining huquqiy asoslari o'rganildi. Jumladan, PF-6096-son Farmon, PQ-4479-son Qaror, Mehnat kodeksi tahlil qilindi.
 6. Xalqaro tajriba tahlili: Turkiya, Hindiston, Braziliya va boshqa davlatlardagi agrar sektor islohotlari solishtirildi. Jahon banki, FAO, IFAD hisobotlari asosida qiyosiy yondashuv shakllantirildi.
- Ushbu metodlar orqali tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, ishonchiligi va amaliy foydasi oshirildi. Keyingi bo'limda bu metodlar orqali olingan asosiy tahliliy natijalar bayon qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati kesimida qishloq xo'jaligida bandlik dinamikasi tahlili natijalariga ko'ra, 2019–2023 yillarda quyidagi tendensiyalar kuzatilgan:

1-jadval


O'zbekiston va Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligida bandlik ko'rsatkichlari (ming kishi)

Yil	O'zbekiston	Qashqadaryo
2019	3 095	538
2020	3 125	544
2021	3 157	556
2022	3 190	561
2023	3 222	567

Manba: O'zbekiston Respublikasi DSQ va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, bandlik soni yildan-yilga biroz oshgan bo'lsa-da, mehnat samaradorligi o'sish sur'atida

emas. Masalan, umumiy yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 17 foizga oshgan, biroq bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining nisbatan past o'sish sur'atini anglatadi.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotining ishlab chiqarish hajmi va bandlik dinamikasi (O'zbekiston bo'yicha)

ikki o'q bo'yicha — mahsulot hajmi (mlrd so'm) va bandlik (ming kishi), yillar kesimida] Qashqadaryo viloyatida bandlik

tumanlar bo'yicha notekis taqsimlangan:

2-jadval

Qashqadaryo tumanlari bo'yicha agrar sektordagi bandlik (2023-yil)

Tuman	Bandlar soni (ming)	Norasmiy bandlik ulushi (%)
Qarshi	61,2	52
Kasbi	48,5	57
Nishon	43	60
Dehqonobod	29,4	63
Kitob	35,1	55

Manba: Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi, 2024

Ushbu ma'lumotlar viloyatdagi qishloq xo'jaligi mehnat bozorida norasmiy bandlik ustunligini ko'rsatmoqda. Bu esa nafaqat rasmiy hisob-kitoblarni bir qadar murakkablashtiradi, balki aholini ijtimoiy himoya qilishda ham muammolar tug'diradi.

Shuningdek, joylarda mavjud suv ta'minoti muammolari, mehnat migratsiyasi oqibatida yosh ishchi kuchining boshqa tarmoqlarga oqib ketishi – bu resurslardan to'liq foydalana olmaslikning asosiy sabablaridan biridir.

Yana bir muhim holat: ayollar va yoshlar bandligi. Respublikada umumiy qishloq xo'jaligida bandlar tarkibida ayollarning ulushi 2023-yilga kelib 37 foizga yetgan bo'lsa, Qashqadaryoda bu ko'rsatkich 28 foizdan oshmayapti. Bu esa hududiy gender tafovutlar borligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mehnat bozori tarkibida: 1) rasmiylashtirish darajasi kechga surilib kelmoqda; 2) mehnat unumdorligi unchalik yuqori emas 3) gender va yosh kesimida tengsizliklar mavjud; 4) texnik ta'minot va infratuzilma masalalarida ma'lum hal etilmagan jihatlar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mehnat bozorining asosiy qismi norasmiy sektor hisoblanadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy statistikaning noaniq qiladi, balki ijtimoiy himoya tizimini ham murakkablashtiradi.
2. Agrar sektor mehnat resurslarining katta qismini

o'zlashtirgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi past bo'lib qolmoqda. Asosiy sabablar: texnik ta'minotning eskiligi, infratuzilmaning zaifligi va bilim darajasining pastligi.

3. Gender tengligi va yoshlarning bandligini ta'minlashda jiddiy tafovutlar mavjud. Bu esa inson kapitalidan to'liq foydalanmaslik holatlarini keltirib chiqarmoqda.

4. Resurslardan foydalanishda tumanlar o'rtasida katta nomutanosibliklar mavjud. Ayrim hududlarda imkoniyatlar yetarli bo'lsa-da, ularning amalda ishga solinishi sust.

Shunga ko'ra, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

5. Norasmiy bandlikni rasmiylashtirish mexanizmlarini kuchaytirish: Fermer va dehqon xo'jaliklari bilan rasmiy mehnat shartnomalari tuzish, soliq yengilliklari orqali rag'batlantirish, mobil ishga joylashish markazlarini yaratish.
6. Agrotexnologik yangilanishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Fermerlarga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, agrotexnika ijarasi xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali texnik quvvatni oshirish.
7. Gender tengligi va yoshlar bandligini kuchaytirish: Ayollar va yoshlar uchun maxsus agrostartaplar dasturlarini yaratish, ularga grantlar, o'quv kurslari va ustachilik asosidagi ko'nikmalar berish tizimini rivojlantirish.
8. Agrosanoat klasterlarini kengaytirish: Tumanlarda resurslar va ishlab chiqarish quvvatlarini birlashtirgan agrosanoat klasterlarini tashkil qilish orqali samaradorlikni oshirish.
9. Tumanlar kesimida infratuzilma investitsiyalarini oshirish: Suv, elektr, transport va internet infratuzilmasini yaxshilash orqali mehnat sharoitini soddalashtirish.
10. Xalqaro tajribalarni moslashtirish: Turkiya, Hindiston,

Braziliya kabi mamlakatlardagi samarali mehnat bozori islohotlarini o'rganib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish.

Mazkur takliflar amalga oshirilganda, nafaqat Qashqadaryo viloyatida, balki boshqa agrar hududlarda ham mehnat bozori samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyati yaratiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Amonov Navro`zhon Saloxiddin o`g`li Qarshi davlat texnika universiteti mintaqaviy iqtisodiyot yo`nalishi doktoranti
// Амонов Наврузхон Салохиддинович Докторант направления «Региональная экономика»

Каршинский государственный технический университет// Navro`zhon Salokhiddinovich Amonov
PhD Candidate in Regional Economics

Karshi State Technical University

► navruzamonov085@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-4490-1463>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Teshaboyev, T. (2020) Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash: muammo va yechimlar. Toshkent: Iqtisodiyot.
- [2]. Raximov, M. (2021) Agrar mehnat bozorining rivojlanish xususiyatlari. Toshkent: Fan.
- [3]. Jo'rayev, S. and Mirzayev, Sh. (2022) Fermer xo'jaliklarida bandlik darajasi va resurslardan foydalanish mexanizmlari. Qarshi: Ilm Ziya.
- [4]. Mellor, J.W. (2017) Agricultural Development and

Economic Transformation. London: Palgrave Macmillan.

- [5]. Lipton, M. (1977) Why Poor People Stay Poor: Urban Bias in World Development. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- [6]. Deininger, K. (2003) Land Policies for Growth and Poverty Reduction. Washington, DC: World Bank and Oxford University Press.
- [7]. FAO (2017) The Future of Food and Agriculture – Trends and Challenges. Rome: FAO.
- [8]. World Bank (2021) Agricultural Employment and Productivity Report – Uzbekistan. Washington, DC: World Bank.
- [9]. IFAD (2022) Rural Development and Employment in Central Asia. Rome: International Fund for Agricultural Development.
- [10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019a) PF-6096-son Farmon, 29 October 2019. Tashkent: Prezident.
- [11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019b) PQ-4479-son Qaror, 7 October 2019. Tashkent: Prezident.
- [12]. O'zbekiston Respublikasi (2023) Mehnat kodeksi (yangi tahrir). Tashkent: O'zbekiston Respublikasi.
- [13]. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi (2019–2024) Rasmiy ma'lumotlar. Qarshi: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi.
- [14]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2019–2024) Rasmiy hisobotlar. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.
- [15]. OECD (2021) Agricultural Policies in Emerging Economies. Paris: OECD Publishing.

Surxondaryo viloyati tumanlari iqtisodiy rivojlanishidagi tarkibiy o'zgarishlar tahlili

Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li

Анализ структурных изменений в экономическом развитии районов Сурхандарьинской области

Хурамов Сухроб

Analysis of structural changes in the economic development of the districts of the Surkhandarya region

Khuramov Sukhrob

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada tarkibiy o'zgarishlar indekslarini hisoblash asosida Surxondaryo viloyati tumanlarining iqtisodiy rivojlanishidagi tarkibiy farqlarni o'rganish natijalari keltirilgan. bunda hududlar iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tanlab olinib, ko'rsatkichlarning YAHM qo'shgan hissasiga nisbatan tarkibiy dinamikasini baholash amalga oshirildi. Har bir ko'rsatkich bo'yicha tarkibiy siljishlar indekslari hisoblab chiqilgan bo'lib, ular asosida viloyat tumanlari tarkibiy farqlar darajasiga ko'ra, guruhlariga ajratib tahlil etildi.
- **Kalit so'zlar:** tabaqalanish, mintaq, tarkibiy o'zgarishlar, tengsizlik, tuman.
- **Аннотация:** В статье представлены результаты исследования структурных различий в экономическом развитии районов Сурхандарьинской области на основе расчета индексов структурных сдвигов. При этом были выбраны макроэкономические показатели, характеризующие уровень экономического развития регионов, и оценена структурная динамика показателей во взаимосвязи с вкладом в ВРП. Для каждого показателя были рассчитаны индексы структурных сдвигов, на основе которых проведен анализ районов области путем их разделения на группы по уровню структурных различий.
- **Ключевые слова:** стратификация, регион, структурные изменения, неравенство, район.
- **Abstract:** The article presents the results of the study of structural differences in the economic development of the districts of Surkhandarya region based on the calculation of structural change indices. In this case, macroeconomic indicators characterizing the level of economic development of the regions were selected, and the structural dynamics of the indicators in relation to the contribution of the GRP were assessed. Structural shift indices were calculated for each indicator, and based on them, the districts of the region were analyzed by dividing them into groups according to the level of structural differences.
- **Keywords:** stratification, region, structural change, inequality, district.

KIRISH

Hududiy rivojlanishning notekisligi, nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydi. Bunga asosiy sabab har bir davlatning tabiiy-iqlim sharoitlari turlichaligi, tarixiy rivojlanish xususiyatlari, iqtisodiyotda o'rnatilgan boshqaruv tuzilmasidagi farqlar va boshqalarni ta'siridir.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida farqlanishni turli darajalarda: tumanlar kesimida, viloyatlar o'rtasida, mintaqalar ichida kuzatish mumkin. Rivojlanishning bunday notekisligi hududlarga o'z salohiyatidan to'liq foydalanishga imkon bermaydi, shuning uchun mintaqaviy rivojlanishdagi mavjud nomutanosibliklarni bartaraf etish mamlakatimizning alohida subyektlari uchun ham, butun mamlakat uchun ham dolzarb va eng muhim boshqaruv vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xilma-xilligini bartaraf etish pirovard natijada aholi turmush darajasi yaxshilanishiga, ularning turmush sifati oshishiga olib keladi[1]. Hozirgi vaqtda nafaqat hududiy rivojlanishning tabaqalanish darajasini aniqlash muammosi, balki hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tarkibiy farqlarni o'rganish ham dolzarbdir[2]. Hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikni tahlil qilish zarurati, birinchi navbatda, O'zbekistonda hududiy rivojlanishning tabaqalanish darajasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan bog'liq. Ushbu tadqiqot maqsadi Surxondaryo viloyati tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tarkibiy o'zgarishlarni tahlil etishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi va ularni o'rganish iqtisodiy faoliyatning qaysi turlari viloyat va tuman byudjetiga eng ko'p daromad keltirishini aniqlab beradi va mablag'larni investitsiyalashning maqsadga muvofiqligi, iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini innovatsion qo'llab-quvvatlash to'g'risida xulosa chiqarishga imkon yaratadi.

Tarkibiy o'zgarishlar nazariyasi asoschisi J.A. Shumpeter bo'lib, uning nazariyasi transformatsion o'zgarishlarni amalga oshirishda qo'llaniladi, chunki uning asosida iqtisodiy risk paydo bo'lishi, noaniqlik yotadi va bu o'zgarishlar asosini narxlar tebranishi, iqtisodiyot tuzilishi deformatsiyalanuvchanligi, inflyatsiya kuchayishi, resurslar etishmasligi, iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlari talab darajasida emasligi tashkil etadi[3].

V.B.Kuvaldin o'z ishida "iqtisoddagi tarkibiy o'zgarishlar"

tushunchasi mohiyatini o'rganib chiqdi va u tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlarini belgilashi, resurslarni iqtisodiyot sohalari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshirish, takror ishlab chiqarishning turli nisbatlarini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari yangilanishi, fan-texnika yutuqlarini joriy etishga ta'sir qiladi, degan fikrda edi[4].

O.S.Suxaryev ishida tarkibiy siljishlar tushunchasi shakllangan bo'lib, muallif fikricha, u ishlab chiqarish, texnologik sharoitlar, mehnat unumdorligi va resurslar taqsimoti ta'sirida o'zgarishlar sodir bo'ladigan murakkab tizimdir[5].

Iqtisodchi olim K.V.Samonova iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar sabablarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish almashinuvi, ichki qarama-qarshiliklar, aholi daromadlari siljishi, iqtisodiyot hamda siyosatning beqarorligi, ishlab chiqarish va texnologik tizim rivojlanish sur'atlari bilan bog'liq holda o'rganib chiqdi[6].

G.A.Pereverzev tadqiqotlarida tarkibiy siljishlar murakkab iqtisodiy hodisa, iqtisodiy rivojlanish dinamikasi omili, o'ziga xos dinamik jarayonlar ekanligi, iqtisodiy resurslarning turli faoliyat va tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishiga ta'sir etishi, shuningdek, qaytarilmas xususiyatga ega ekanligi aniqlangan[7].

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy va xalqaro statistika tajribasiga asoslanib, tarkibiy o'zgarishlar va farqlarni o'rganish va baholashning quyidagi yondashuvlarini ajratib ko'rsatish mumkin: ko'p o'lchovli ma'lumotlarni tahlil qilish, ekonometrik modellash, matematik va simulyatsiya modellash, matritsali usullar, integral ko'rsatkichlar va indekslar[8]. Iqtisodiy tizim dinamik bo'lganligi sababli, vaqt o'tishi bilan yuzaga keladigan tarkibiy o'zgarishlarni solishtirish kerak. Ushbu maqsadlar uchun tarkibiy siljishlar indekslari qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan indekslari L.S.Kazinets, K.Gatev, A.Salay va V.M.Ryabtsev. Tarkibiy o'zgarishlarni baholash usullari va ko'rsatkichlari hisob-kitoblarni amalga oshirish vositalarining murakkabligi, shuningdek tadqiqot maqsadlari bilan farqlanadi[9].

Tadqiqotning uslubi asosi mantiqiy, tarkibiy va tahliliy usullar bilan shakllantirildi. Viloyatning boshqa ma'muriy-hududiy tuzilmalari bilan solishtirganda tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlarini baholash va aniqlash, shuningdek, ularning umumdavlat ko'rsatkichiga qo'shgan hissasiga nisbatan ko'rsatkichlarning tarkibiy dinamikasini baholash imkonini beradigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: YAHM dagi sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik tarmoqlari va xizmatlar sohasining ulushlari(mlrd. so'mda) tanlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqsad va shakllantirilgan vazifalardan kelib chiqib, Ryabtsev indeksi tarkibiy o'zgarishlarni baholash uchun qo'llaniladi, uning afzalliklari: 1) har qanday statistik ma'lumotlar to'plamiga qo'llash imkoniyati; 2) qiyosiy

tahlildan foydalanmasdan olingan koeffitsientlarni izohlash imkonini beruvchi tuzilmaviy farqlar ahamiyatlilik o'lchovini baholash shkalasi mavjudligidadir (1-jadval). Uning ma'nosi shuki, ikkita tuzilma tarkibiy qismlari qiymatlarining maksimal mumkin bo'lgan qiymati bilan farqlanishining haqiqiy o'lchovi nisbatiga qisqartiriladi.

1-jadval

V.M.Ryabtsev indeksi bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar darajasini baholash shkalasi [10]

qiymatlar oralig'i I_R	Tarkibiy o'zgarishlar mezoni tavsifi
0,000–0,030	Tarkiblarning aynan bir xil bo'lishi
0,031–0,070	Tarkibiy o'zgarishlarning juda past darajasi
0,071–0,150	Tarkibiy o'zgarishlarning past darajasi
0,151–0,3	Tarkibiy o'zgarishlarning sezilarli darajasi
0,301–0,5	Tarkibiy o'zgarishlarning ancha katta darajasi
0,501–0,7	Tarkibiy o'zgarishlarning juda katta darajasi
0,701–0,9	Mutlaqo qarama-qarshi tipdagi tarkiblar
0,901 va undan yuqori	Tarkiblarning to'liq qarama-qarshiligi

Ryabtsev indeksi (I_R) quyidagi formula yordamida hisoblanadi[10]:

$$I_R = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (a_i^1 - a_i^0)^2}{\sum_{i=1}^n (a_i^1 + a_i^0)^2}}, \quad (1)$$


bu yerda d_i^1, d_i^0 to'plamlardagi xususiyatlarning solishtirma vaznlari; i - tuzilmalardagi gradatsiyalar soni.

Ryabtsev indeksi bo'yicha 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati asosiy makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilinganda quyidagi holatni kuzatish mumkin (2-jadval va 1-rasm).

2-jadval tahlili asosida aniqlanishicha, tarkibiy o'zgarishlar asosan xizmatlar sohasida ro'y bergani kuzatiladi. E'tiborga molik jihat shundaki, tahlil qilinayotgan davrda ushbu sohaga oid ko'rsatkichlar yiliga o'rtacha 28 foizga o'sib borgan. Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik tarmog'ida esa eng past 8,1 foiz darajadagi o'zgarishlar qayd etilgan. Aksincha, qurilish hamda sanoat tarmoqlarida o'rtacha o'sish sur'atlari kuzatilib, Ryabtsev indeksiga ko'ra mos ravishda 14,8 va 15,5

foizni tashkil qilgan.

Viloyatda sanoat tarmog'i 2010 yilda 756,4 mlrd. so'm miqdorida mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 13 819,8 mlrd. so'mga yetgan. Shunday qilib, 2010–2024 yillar oralig'ida sanoat tarmog'i hajmi 18 barobarga oshgan, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 22 foizni tashkil qilgan. Ayni paytda, sanoat tarmog'ida tarkibiy siljish 15,5 foiz darajasiga yetgan. Bu yillarda ayniqsa Angor tumanida sanoat tarmog'i salmoqli darajada rivojlangan bo'lsa, Sariosiyo, Oltinsoy, Muzrabot, Denov, Qiziriq, Termiz, Uzun va Sherobod tumanlarida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Qolgan tumanlarda ham rivojlanish mavjud, biroq u qadar yuqori emas (2-rasm).



1-rasm. 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati YAHM ko'rsatkichining tarkibiy o'zgarishlari dinamikasi [11]


2-jadval

2010-2024 yillar mobaynida Surxondaryo viloyati asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining tarkibiy o'zgarishlari dinamikasi [11]


Ko'rsatkich	Tarkibiy o'zgarish, %	Ko'rsatkichning dinamikasi		Ko'rsatkich qiymati, mlrd.so'm	
		Asosiy o'sish sur'ati, %	Zanjirning o'rtacha yillik o'sish sur'ati, %	2010	2024
Sanoat	15,5	1827	122	756,4	13 819,80
Qurilish	14,8	3922	129	335,9	13 175,50
Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik	8,1	1561	121	2 348,10	36 655,90
Xizmatlar	21,5	3580	128	796,3	28 505,90

Qurilish sohasi 2010 yilda 335,9 mlrd.so'm miqdorida mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 13 175,5 mlrd. so'mga yetgan. Bu davrda soha ishlab chiqarish hajmi 39 barobarga oshgan, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 29 foizni tashkil qilgan. Qurilish tarmog'ida tarkibiy siljish 14,8 foizga teng bo'lgan. Tahlillarga ko'ra, Termiz shahri, Termiz tumani va Qiziriq tumanlarida qurilish sohasi boshqa tumanlarga nisbatan tezroq rivojlangan. Viloyatning qolgan barcha tumanlarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan(3-rasm).


Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik tarmog'ida 2010-yil 2 348,4 mlrd. so'm mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 36 655,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shunday qilib, bu tarmoq ishlab chiqarish hajmi 15 barobarga oshgan, o'rtacha o'sish sur'ati esa 21 foizni tashkil qilgan. Ushbu davrda mazkur tarmoqda tarkibiy siljish 8,1 foizga teng bo'lgan. Ayniqsa, Termiz shahrida qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik tarmoqlarining nisbatan yuqori o'sishi kuzatilgan




2 -rasm. 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmi ko'rsatkichining tarkibiy o'zgarishlari [11]




3-rasm. 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida qurilish ishlab chiqarishi hajmi ko'rsatkichining tarkibiy o'zgarishlari [11]



4-rasm. 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik ishlab chiqarishi hajmi ko'rsatkichining tarkibiy o'zgarishlari [11]



5-rasm. 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati tumanlari kesimida xizmat sohasining ishlab chiqarishi hajmi ko'rsatkichining tarkibiy o'zgarishlari [11]



6-rasm. 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati tumanlar kesimida YAHMdagi asosiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining tarkibiy o'zgarishlari dinamikasi [11]

Buning asosiy sababi sifatida shahar hududi kengayishi va qo'shni tumanlardan qishloq xo'jaligi hamda baliqchilik yer maydonlari birlashtirilganini ko'rsatish mumkin. Viloyatning boshqa barcha tumanlarida ham muayyan darajada ijobiy siljishlar bo'lgan (4-rasm).

Xizmatlar sohasi bo'yicha 2010 yilda 796,3 mlrd. so'mlik xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 28 505,9 mlrd. so'mga yetgan. 2010–2024 yillar davomida soha ishlab chiqarish hajmi 35 barobarga oshgan bo'lib, o'rtacha yillik o'sish

sur'ati 28 foizni tashkil qilgan. Shu davrda xizmatlar sohasidagi tarkibiy siljish 21,5 foizga teng bo'lgan. Tahlillarga ko'ra, Oltinsoy tumanida ushbu soha ayniqsa yuqori sur'atda rivojlangan. Viloyatning qolgan tumanlarida ham sezilarli o'sishlar qayd etilgan (5-rasm).

3-jadval va 6-rasmda 2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyati tumanlar kesimida YAHM shakllanishiga salmoqli hissa qo'shuvchi asosiy tarmoqlar ishlab chiqarishidagi tarkibiy o'zgarishlari keltirilgan.

3-jadval

2010-2024 yillarda Surxondaryo viloyatining tumanlar kesimida YAHMdagi asosiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlar tarkibiy o'zgarishlari dinamikasi [11]

	Sanoat	Qurilish	Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik	Xizmatlar
Oltinsoy	0,185	0,131	0,094	0,185
Angor	0,379	0,123	0,088	0,115
Bandixon	0,272	0,138	0,182	0,184
Boysun	0,146	0,103	0,083	0,107
Muzrabot	0,153	0,139	0,087	0,137
Denov	0,226	0,11	0,084	0,097
Jarqo'rg'on	0,07	0,101	0,084	0,11
Qumqo'rg'on	0,114	0,116	0,083	0,132
Qiziriq	0,17	0,185	0,1	0,11
Sariosiyo	0,292	0,114	0,086	0,113
Termiz	0,198	0,18	0,082	0,125
Uzun	0,166	0,119	0,076	0,113
Sherobod	0,163	0,094	0,09	0,111
Sho'rchi	0,124	0,086	0,08	0,113
Termiz sh.	0,086	0,15	0,196	0,097

Yuqoridagi 3-jadval natijalarini, ya'ni viloyat tumanlarini V.M.Ryabtsev shkalasiga guruhlariga ajratsak, tumanlarning turli shkala bo'yicha taqsimoti shakllanadi(4-jadval). Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, tarkibiy o'zgarishlarning ancha katta darajasi sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha faqatgina Angor tumanida kuzatilgan bo'lsa, qolgan barcha sohalar bo'yicha bunday ko'rsatkich kuzatilmadi, shuningdek barcha sohalarida tarkibiy o'zgarish-

larning sezilarli darajasi hamda tarkibiy o'zgarishlarning past darajasi o'rganildi.

Unga ko'ra, tahlillar Surxondaryo viloyati iqtisodiy rivojlanishida ma'lum darajadagi nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Viloyat yalpi hududiy mahsulotining shakllanishida sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi (o'rmon va baliqchilik bilan birga) hamda xizmatlar sohasi muhim rol o'ynamoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, ayniqsa qurilish va xizmatlar

sohasi yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan bo'lsa, sanoat hamda qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik

tarmoqlari o'rtacha darajada o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

4-jadval

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarini asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tarkibiy farqlar darajasiga nisbatan guruhlanishi [11]

KO'RSATKICHLAR	Sanoat	Qurilish	Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik	Xizmatlar
Tarkiblarning aynan bir xil bo'lishi	-	-	-	-
Tarkibiy o'zgarishlarning juda past darajasi	Jarqo'rg'on	-	-	-
Tarkibiy o'zgarishlarning past darajasi		Oltinsoy	Oltinsoy	Angor
		Angor	Angor	Boysun
		Bandixon*	Boysun	Muzrabot
		Boysun	Muzrabot	Denov
	Boysun	Muzrabot	Denov	Jarqo'rg'on
	Qumqo'rg'on	Denov	Jarqo'rg'on	Qumqo'rg'on
	Sho'rchi	Jarqo'rg'on	Qumqo'rg'on	Qiziriq
	Termiz sh.	Qumqo'rg'on	Qiziriq	Sariosiyo
		Sariosiyo	Sariosiyo	Termiz
		Uzun	Termiz	Uzun
Tarkibiy o'zgarishlarning sezilarli darajasi		Sherobod	Uzun	Sherobod
		Sho'rchi	Sherobod	Sho'rchi
			Sho'rchi	Termiz sh.
		Oltinsoy		
		Bandixon*		
		Muzrabot		
	Denov	Qiziriq	Bandixon*	Oltinsoy
	Qiziriq	Termiz	Termiz sh.	Bandixon*
	Sariosiyo	Termiz sh.		
	Termiz			
Tarkibiy o'zgarishlarning ancha katta darajasi		Uzun		
		Sherobod		
	Angor	-	-	-
Tarkibiy o'zgarishlarning juda katta darajasi	-	-	-	-
Mutlaqo qarama-qarshi tipdagi tarkiblar	-	-	-	-
Tarkiblarning to'liq qarama-qarshiligi	-	-	-	-

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi jarayonida turli xarakterdagi tarkibiy o'zgarishlar ro'y beradi va shuning uchun ham iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishi uchun maqsadli o'zgarishlar bo'lishi ahamiyatlidir. Viloyat, tumanlar darajasida iqtisodiyot rivojlanishi mikro va makro muhit omillari ta'sirida bo'lgan ancha murakkab jarayondir. Bu omillar tarkibiy o'zgarishlar jarayoniga ham ta'sir qiladi, u ijobiy yoki salbiy samara berishi mumkin. Shuning uchun mintaqa yoki hudud tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar ijobiy samara berishi uchun, ya'ni kutilgan natijalarga erishish uchun bozor muhiti omillari va mintaqa tarmoqlari rivojlanishini ta'minlovchi omillarni tadqiq etish, tahlil qilish, ta'sirini hisobga olish zarur. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga keladigan bo'lsak, u yalpi hududiy mahsulot darajasi, aholi farovonligi, narxlar, ishsizlik, tarmoqlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi bozor muhitining turli xarakterdagi omillari ta'sirida bo'lib, ular iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, hududni innovatsion va investitsiyaviy rivojlantirish asosida tarkibiy tarmoq o'zgarishlarini faollashtirish, investitsiyaviy jozibadorlikni yaxshilash va innovatsion faoliyatni kuchaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy samaraga erishish va omillar salbiy ta'sirini minimallashtirishga yordam beradigan mintaq, hudud va tarmoqlar miqyosida tegishli davlat dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li Termiz davlat universiteti, o'qituvchi // Хурамов Сухроб Термезский государственный университет, преподаватель // Khuramov Sukhrob Termez State University, teacher
 ► amaliysuxrob@gmail.com
 ■ <https://orcid.org/0009-0009-7249-4701>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1]. Губанова Е.С., Клещ В.С. Методика оценки неравномерности социально-экономического

развития региона // Проблемы территориального развития. - 2018. - No 6. - В. 30-41. DOI: 10.15838/ptd.2018.6.98.2

- [2]. Шумпетер Й. А. Капитализм, социализм и демократия / Пер. с англ.; Предисл. и общ. ред. В .С. Автономова. М.: Экономика, 1995.- 540 с.
- [3]. Кувалдин В. Б. Глобальный мир: экономика, политика, международные отношения: учеб. пособие. М.: Магистр, 2009.- 207 с.
- [4]. Чимитдоржиева Э.Ц., Чепик А.Э. Экономико-статистическая оценка неравномерности развития муниципальных образований региона // Экономический анализ: теория и практика.- 2014. - No 43. - В. 28-40.
- [5]. Сухарев О. С. Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения. М.: Финансы и статистика, 2010.-192 с.
- [6]. Самонова К. В. Структурный сдвиг: сущность, причины, параметрические характеристики. // Современные научные исследования и инновации. 2014. №10. Ч. 2 [Электронный ресурс]. URL: <https://web.snauka.ru/issues/2014/10/38711> (дата обращения: 12.08.2021).
- [7]. Переверзев Г. А. Основные подходы к изучению структурных сдвигов в экономике. // Вестник ТвГУ. Серия: Экономика и управление. 2016. №1. С. 265-275.
- [8]. Трофимова Н.В., Мамлеева Э.Р., Сазыкина М.Ю. Диагностика влияния структурных изменений на региональную экономику // Геополитика и экогеодинамика регионов.- 2021. – Vol. 7. - № 4. -. 319-331.
- [9]. Елхина И. А. Оценка структурных изменений и различий региональных экономических систем Юга России [Электронный ресурс]. URL // https://www.hjournal.ru/files/JER_6_4/JER_6.4_9.pdf (дата обращения 09.09.2022)
- [10]. Рябцев В. М., Чудилин Г. И. Региональная статистика:учебник . М.: МИД, 2001.- 380 с.
- [11]. <https://surxonstat.uz> - Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi sayti.

Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik

Малый бизнес
и частное
предпринимательство

Small business and
private entrepreneurship

Kichik biznesning raqobatbardoshlik konsepsiyasi

Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna

Концепция конкурентоспособности малого бизнеса

Навруз-зода Лайли Бахтиёровна

Concept of competitiveness in small business

Navruz-zoda Layli Bakhtiyorovna

Received: August 13, 2025 Revised: August 13, 2025 ■ Accepted: August 13, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish konsepsiyasi chuqur nazariy va amaliy tahlil asosida yoritilgan. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida kichik biznes sektorining iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion salohiyati keng qamrovli o‘rganilgan. Tadqiqotda Maykl Porterning raqobat kuchlari modeli, Jay Barney’ning resursga asoslangan nazariyasi (RBV), David Teece’ning dinamik qobiliyatlar nazariyasi va boshqa xalqaro olimlarning yondashuvlari bilan bir qatorda, o‘zbek olimlari — M.R.Boltabayev, M.S.Qosimova, B.K.G‘oyibnazarov, Sh.J.Ergashxodjayeva, A.N.Samadov, Sh.I.Otajonov, A.Sh.Toshpo‘latov, I.I.Umaraliyev va Q.X.Abdurahmonovlarning ilmiy ishlari asos qilib olingan. Mahalliy olimlar tomonidan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy muhitda tutgan o‘rni, raqobat ustunligini shakllantirish omillari, marketing va innovatsion strategiyalari, davlat qo‘llab-quvvatlovi hamda hududiy rivojlanishdagi roli chuqur tahlil qilingan. Ushbu ilmiy asoslar va tahlillar negizida kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qiluvchi indikatorlar, baholash mezonlari, strategik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, ijtimoiy bandlik va innovatsiyalarni joriy etishdagi hissasini raqamlar va amaliy tavsiyalar bilan asoslagan. Kalit so‘zlar. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik sub’yektlari, ilmiy-texnika taraqqiyot, omilkorlik, ishbilarmonlik.
- **Kalit so‘zlar:** Kichik biznes, raqobatbardoshlik, raqobat ustunligi, Five Forces modeli, Resursga asoslangan nazariya (RBV), dinamik qobiliyatlar, innovatsion rivojlanish, ochiq innovatsiyalar, strategik rejalashtirish, raqamli transformatsiya, bozor infratuzilmasi, ijtimoiy ta’minot, eksport salohiyati.
- **Аннотация.** В данной статье подробно рассматривается концепция повышения конкурентоспособности малого бизнеса с теоретической и практической точек зрения. В рамках стратегии «Узбекистан–2030» всесторонне изучен экономический, социальный и инновационный потенциал сектора малого бизнеса. Исследование основывается на международных подходах, таких как модель пяти сил Майкла Портера, ресурсная теория конкурентных преимуществ Джея Барни (RBV) и теория динамических способностей Дэвида Тиса. Также широко использованы научные труды ведущих узбекских ученых — М.Р. Болтабаева, М.С. Касимовой, Б.К. Гойибназарова, Ш.Ж. Эргашходжаевой, А.Н. Самадова, Ш.И. Отажонова, А.Ш. Тошпулатова, И.И. Умаралиева и К.Х. Абдурахманова. Узбекские исследователи глубоко проанализировали роль субъектов малого бизнеса в экономике, факторы формирования конкурентных преимуществ, маркетинговые и инновационные стратегии, государственную поддержку и региональное развитие. На основе этих

теоретических и практических положений предложены индикаторы, критерии оценки и стратегические направления развития малого бизнеса. Также представлены статистические данные и практические рекомендации по доле малого бизнеса в ВВП Узбекистана, его роли в обеспечении занятости и внедрении инноваций.

- **Ключевые слова.** Малый бизнес, конкурентоспособность, конкурентные преимущества, модель пяти сил, ресурсная теория (RBV), динамические способности, инновационное развитие, открытые инновации, стратегическое планирование, цифровая трансформация, рыночная инфраструктура, социальная защита, экспортный потенциал.
- **Abstract.** This article provides an in-depth theoretical and practical analysis of the concept of enhancing the competitiveness of small businesses. Within the framework of the "Uzbekistan-2030" strategy, the economic, social, and innovative potential of the small business sector is comprehensively studied. The research is based on international approaches such as Michael Porter's Five Forces Model, Jay Barney's Resource-Based View (RBV), and David Teece's theory of Dynamic Capabilities. Moreover, the scientific works of leading Uzbek scholars — M.R. Boltabayev, M.S. Qosimova, B.K. G'oyibnazarov, Sh.J. Ergashkhodjayeva, A.N. Samadov, Sh.I. Otajonov, A.Sh. Toshpo'latov, I.I. Umaraliyev, and Q.Kh. Abdurakhmanov — are extensively utilized. Local scholars have thoroughly analyzed the role of small business entities in the economic environment, the factors shaping competitive advantage, marketing and innovation strategies, state support, and regional development. Based on these theoretical and practical findings, indicators, evaluation criteria, and strategic directions aimed at developing small business are proposed. The article also presents data and practical recommendations concerning the share of small business in Uzbekistan's GDP, its role in employment, and its contribution to innovation implementation.
- **Keywords.** Small business, competitiveness, competitive advantage, Five Forces Model, Resource-Based View (RBV), dynamic capabilities, innovation development, open innovation, strategic planning, digital transformation, market infrastructure, social protection, export potential.

■ KIRISH

"O'zbekiston-2030" strategiyasining ikkinchi ustuvor yo'nalishi mamlakatning iqtisodiy o'sishi va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, 17 ta maqsadni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishda O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlab, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish rejalashtirilgan [1].

Bu mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi, bank tizimidagi islohotlar va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kabi jabhalarda muhim o'zgarishlarni talab qiladi. Shuningdek, monopol sohalarni bozor tamoyillariga o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadlari ham belgilangan. Ushbu islohotlar, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan.

Kichik biznes (KB) iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida nafaqat yangi ish o'rinlari yaratadi, balki innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, eksport salohiyatini oshiradi va hududiy rivojlanishga xizmat qiladi. Raqobatbardoshlik esa kichik biznes subyektlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror faoliyat yuritish va rivojlanishini belgilovchi

asosiy omillardan biridir. Shu bois, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish konsepsiyasi bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunliklari nazariyasi (Competitive Advantage Theory) va beshta kuch modeli (Five Forces Model) korxonalar, jumladan kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini aniqlashda keng qo'llaniladi. Bu modellar kichik biznes uchun universal nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [2]. Bundan tashqari maqolada Jay B. Barney, J.David, H.Chesbrough, J.Schumpeter, C.Markides, Peter Drucker kabi jahon olimlarining tadqiqotlari o'rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, o'zbek olimlaridan M.R.Boltabayev, M.S.Qosimova, B.K.G'oyibnazarov, Sh.J.Ergashxodjayeva, A.N.Samadov, Sh.I.Otajonovlar, A.Sh.Toshpo'latov, I.I.Umaraliyev, Q.X.Abdurakhmanov kabi olimlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash haqida tadqiqotlar olib borib, o'z ilmiy maqolalari va kitoblarida chuqur tahlillarni, fikr va mulohazalarini keltirib o'tganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

RUshbu tadqiqotda deduktiv yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kichik biznesning raqobatbardoshlik konsepsiyasini nazariy jihatdan yoritish va mavjud ilmiy modellar (xususan, Maykl Porterning raqobat kuchlari modeli, Jay Barney'ning resursga asoslangan nazariyasi) asosida tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Ma'lumotlar asosan ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajribalar va strategik hujjatlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, jahon va mahalliy adabiyotlar asosiy manba sifatida tanlandi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonda kichik biznesning

(KB) iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion rivojlanish holati tanlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobatbardoshlik tushunchasining rivojlanishi Maykl Porter modeli bo'yicha raqobat ustunligi narx yoki differensiallashtirish orqali yuzaga keladi [5]. Porter tadqiqotlarida uchta asosiy raqobat strategiyasini taklif qiladi. Unga ko'ra, korxonalar o'z sohalarida ustunlikka erishish uchun 1-jadvaldagi strategiyalardan birini (yoki ularning kombinatsiyasini) tanlashlari lozim.

1-jadval

Maykl Porterning raqobat strategiyalari [9]

Strategiya nomi	Tavsifi
Cost Leadership (Narx ustunligi)	Korxona eng past narxda ishlab chiqarish orqali keng bozor segmentida ustunlikka erishadi. Bu usul samaradorlik, hajm va xarajatlarni optimallashtirishga asoslanadi.
Differentiation (Differensiallashtirish)	Korxona o'z mahsuloti yoki xizmatini raqobatchilarnikidan farq qiladigan va mijozlar nazarida noyob bo'lgan xususiyatlar asosida sotadi. Bunga brend, sifat, dizayn, xizmat ko'rsatish kiradi.
Focus Strategy (Yo'naltirilgan strategiya)	Korxona ma'lum bir bozor segmentiga e'tibor qaratadi va ushbu segmentda ya'ni tor sohada narx yoki differensiallashtirish strategiyasini qo'llaydi.


Maykl Porterning modelida raqobatbardoshlikni ta'minlash ikki asosiy yo'l orqali yuzaga chiqadi. Agar birinchisi, xarajatlar bo'yicha ustunlik (Cost Leadership) da namoyon etlsa, ikkinchisi, differensiallashtirish (Differentiation) asosida amalga oshiriladi.

1-rasm. Maykl Porterning mashhur "Beshta kuch modeli (Five Forces Model)" asosida tuzilgan bo'lib, u sanoat ichida raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillarni ko'rsatadi. Ushbu model kichik biznesdan tortib yirik korxonalargacha bo'lgan har qanday subyekt uchun strategik rejalashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

Modelning yuragi – bu "Sanoat ichidagi raqobat" bo'lib, mavjud raqobatchilar orasidagi to'qnashuv darajasini anglatadi.

Bu kuch qancha kuchli bo'lsa, kompaniyalar o'rtasidagi narxlar urushi, marketing xarajatlari va innovatsion bosimlar shunchalik kuchli bo'ladi.

Kichik biznes uchun bu kuch yuqori bo'lsa, bozor ulushini saqlab qolish qiyinlashadi. Yangi raqobatchilar bozorda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavfni anglatadi. Agar kirish to'siqlari past bo'lsa (masalan, texnologik soddalik, yuridik cheklovlar yo'qligi), bu kuch kuchli bo'ladi. Bu kichik bizneslarni o'z segmentlarini himoya qilish uchun innovatsiyalar yoki xizmatlarni differensiallashtirishga majbur qiladi. Xaridorlar o'z ehtiyojlariga mos narxni talab qilishi, sifatni oshirishni talab qilishi va o'z ta'minotchisini osonlik bilan almashtira olish qobiliyatiga ega bo'lsa, bu kuch kuchli bo'ladi.



1-rasm. Porterning 5 kuch modeli [9]

Kichik biznes uchun bu yuqori darajadagi muvozanatni talab qiladi: sifat, narx va xizmatni optimal usulda taqdim etish lozim. Resurs va xomashyo yetkazib beruvchilarning bozor ustunligi yoki monopoliya holati kompaniyalar xarajatlarini oshirishi mumkin. Yetkazib beruvchilar kuchli bo'lsa, kichik biznes ularning shartlariga bo'ysunishga majbur bo'ladi, bu esa foyda marjasiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli alternativ yetkazib beruvchilar bazasini shakllantirish muhim.

Bozorda mavjud bo'lgan alternativ mahsulotlar yoki xizmatlar (substitute goods) kompaniya uchun real xavf hisoblanadi. Bu kuch kuchli bo'lsa, xaridorlar osonlik bilan raqobatchi tovarlarga o'tadi. Kichik biznes bu holatda noyob qiymat takliflarini ishlab chiqib, o'z mijozlar bazasini saqlab qolishi zarur. Porterning besh kuch modeli orqali har bir biznes sanoatdagi o'z pozitsiyasini baholashi va strategiyasini mos ravishda shakllantirishi mumkin. Kichik biznes subyektlari uchun bu model raqobat ustunligini aniqlash va mustahkamlash bo'yicha amaliy vosita hisoblanadi.

Yetkazib beruvchilarning savdolashuv qudrati bozorda qancha kuchga ega bo'lsa, ular narxlarni ko'tarish yoki xizmat sifatiga ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Bu qudrat quyidagi omillarga bog'liq:

- Yetkazib beruvchilar sonining kamligi;
- Mahsulotning noyobliligi;
- Yetkazib beruvchidan tovar almashtirish imkoniyatining cheklanganligi;
- Mahsulotning xaridorga nisbatan ahamiyati.

Xaridorlarning savdolashuv qudrati, xaridorlar

qancha kuchga ega bo'lsa, ular pastroq narx, yuqori sifat yoki yaxshi xizmat talab qilishlari mumkin. Bu kuchga ta'sir qiluvchi omillar:

- Xaridorlar sonining kamligi yoki yirik xaridorlarning mavjudligi;
- Mahsulotlar o'xshashligi (standardlashtirilganligi);
- Xaridorlarning boshqa ta'minotchiga o'tish xarajatlari past bo'lsa;
- Xaridorlarning mahsulot bo'yicha to'liq ma'lumotga ega bo'lishi.

Yangilar kirib kelishi tahdidi, yangi raqobatchilarning kirib kelishi sanoatdagi raqobatni kuchaytiradi. Ularning kirib kelish ehtimoli quyidagi omillarga bog'liq:

- Kirish to'siqlari (sarmoya, texnologiya, ruxsatnomalar);
- Brend sadoqati;
- Mavjud korxonalarining miqyosdagi ustunliklari;
- Resurslarga kirish imkoniyati.

O'rinbosar mahsulotlar tahdidi, agar bozorda mavjud mahsulotga o'xshash, lekin narx yoki sifat jihatdan ustun bo'lgan alternativ mahsulotlar mavjud bo'lsa, bu sanoatdagi raqobatga salbiy ta'sir qiladi. Masalan:

- Texnologik yangiliklar;
- Yangi ehtiyojlarga javob beruvchi innovatsion mahsulotlar.

Sanoat ichidagi raqobat (asosiy kuch) sanoatning o'zidagi raqobat darajasi eng muhim kuch bo'lib, u quyidagilarga bog'liq:

- Raqobatchilar soni va hajmi;
- Mahsulot differensialligi;

2-jadval

Kichik biznesning raqobatbardoshligi bo'yicha yetakchi olimlar nazariyasi [13]

No	Olim (yil)	Nazariy yondashuv	Asosiy kontsepsiya	Kichik biznesga qo'shgan hissi	Amaliy tadqiqotda qo'llanilishi
1	Michael Porter (1980)	Raqobat tahlili va strategik joylashuv	5 kuch modeli, raqobat ustunligi (cost vs. differentiation)	Sanoat tahlili, strategik rejalashtirish	Sanoat ichidagi kuchlarni baholash, strategiya tanlash
2	Jay Barney (1991)	Resurslarga asoslangan nazariya (RBV)	VRIN mezonlari: noyob va qimmatli resurslar raqobat manbai	Ichki imkoniyatlar orqali ustunlik yaratish	Resurs va kompetensiyalar tahlili, ichki salohiyat bahosi
3	David Teece (1997)	Dinamik qobiliyatlar (Dynamic capabilities)	Bozor o'zgarishlariga moslashuv va resurslarni transformatsiya	O'zgaruvchan muhitga moslashuvchan strategiyalar	Innovatsion salohiyat va o'zgarishlarni boshqarish modeli
4	Henry Chesbrough (2003)	Ochiq innovatsiyalar	Tashqi g'oya va texnologiyalarni biznesga jalb etish	Tarmoq asosida innovatsiyalarni joriy etish	Startaplar, texnoparklar bilan hamkorlik tahlili
5	Joseph Schumpeter (1934)	Kreativ destruksiya va innovatsion raqobat	Innovatsiya raqobatni yangilaydi va bozorni buzadi	Yangi mahsulotlar bilan bozorni yangilash	Innovatsion sikllar va yangiliklar bahosi
6	Peter Drucker (1985)	Amaliy tadbirkorlik va innovatsiya	Soddalashtirilgan g'oyalar, real ehtiyojga asoslangan innovatsiya	Innovatsiyani ehtiyoj va soddalik asosida ishlab chiqish	Oddiy innovatsiyalar tahlili, ehtiyojlar asosida yondashuv

- Bozor o'sish sur'atlari;

- Fiksir xarajatlar yuqoriligi.

Shuningdek, Jay B. Barney [5] raqobatbardoshlikni "Resurslarga asoslangan yondashuv" (RBV) orqali tushuntiradi. U VRIN (Value, Rarity, Inimitability, Non-substitutability) mezonlari asosida tashkilotning noyob resurslari asosida uzoq muddatli raqobat ustunligi yaratilishini nazariy jihatdan asoslagan. Kichik bizneslar o'z noyob salohiyatlarini shu asosda aniqlab olishi mumkin.

J.David [4] tadqiqotlarida raqobatbardoshlikning "dynamic capabilities" (dinamik qobiliyatlar) konsepsiyasini taklif qilindi. Bu konsepsiya kichik bizneslar o'z resurslarini bozor o'zgarishlariga mos ravishda yangilash va transformatsiya qilish orqali raqobatda ustunlikka erishishi mumkinligini

ko'rsatadi.

H.Chesbrough [7] "ochiq innovatsiyalar" konsepsiyasini ilgari surib, kichik va o'rta bizneslar tashqi resurslardan foydalanish orqali innovatsion raqobatbardoshlikni oshirishi mumkinligini asoslaydi. Ochiq innovatsiyalar kichik biznes uchun xarajatlarni kamaytirish va innovatsion rivojlanishni tezlashtirish imkonini beradi. J.Schumpeter [6] esa raqobatni "kreativ destruksiya" orqali izohlaydi, ya'ni yangi mahsulotlar va texnologiyalar eski mahsulotlarni bozorga sig'dirmaydi. Kichik biznes innovatsiyalarning asosiy tashuvchisi bo'lib, raqobatni yangilovchi vosita sifida biladi. C.Markides [8] strategik innovatsiya tushunchasini ilgari surib, raqobatbardosh pozitsiyani o'zgartirish orqali bozorning o'zgaruvchan talablariga moslashish strategiyasini

taklif qiladi. Kichik biznes subyektlari uchun bu innovatsion joylashuv modelini yaratishda foydali hisoblanadi.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari kichik biznesning raqobatbardoshligini sanoat kuchlari va strategik joylashuvlar orqali, resurslar va ularning raqobatga ta'sirini ko'rsatib beradi, degan xulosa chiqarish imkonini beradi (2-jadval).

Jadvaldan ko'rib turganidek, David Teece modelini ayniqsa raqamli transformatsiya davrida moslashuvchanlik baholashda qo'llash mumkin deydi. Masalan, kichik biznesda raqamli CRM joriy etishni taklif qiladi. Henry Chesbrough "Ochiq innovatsiyalar" nazariyasi orqali kichik bizneslarni texnoparklar va innovatsion inkubatorlar bilan aloqalarni rivojlantirishni taklif qiladi. Peter Drucker yondashuvi kichik biznes uchun real ehtiyojlar asosida oddiy, lekin samarali innovatsiyalarni tadbqiq etishni taklif qiladi. Qayd qilish joizki, O'zbekistonlik bir qator olimlar: M.R.Boltabayev, M.S.Qosimova, B.K.G'oyibnazarov, Sh.J.Ergashxodjayeva, A.N.Samadov va Sh.I.Otajonovlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, uni tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish usullarini chuqur nazariy tahlil qilganlar [11]. Ularning asarlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalari, ularning iqtisodiyotdagi roli, bozor sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishdagi hissasi;

kichik biznes subyektlarini tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash, boshqaruv uslublari va tuzilmalari; kichik biznesda marketing strategiyasi va segmentatsiya, bozor tahlili, reklama, innovatsion marketing elementlari; bozor infratuzilmalari — banklar, audit, soliq tizimi va eksport uchun sharoitlar; biznes-reja tuzish, korxona tahlili, ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash, moliyaviy ko'rsatkichlar, kredit va investitsiyalar bilan ta'minlash; kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini baholash, tovar-geografik tarkibini diversifikatsiya qilish, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari; innovatsion texnologiyalar, texnoparklar, startaplar va yangi biznes-ekotizimlarni yanada rivojlantirish, davlat siyosati va strategiyalarni takomillashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari bo'yicha tadqiqot bolib borishgan.

A.Sh.Toshpo'latov va I.I.Umaraliyev esa jahon tajribalari asosida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha innovatsion va marketing strategiyalarining ichki va tashqi omillarini tahlil qilgan.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, ilmiy jihatdan, raqobatbardoshlik darajasini aniqlovchi narx, sifat, xizmat, innovativlik, marketing, logistika kabi omillarni kompleks tahlil qilish zarurati oshayotganligini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Kichik biznesning raqobatbardoshlik konsepsiyasining asosiy jihatlari

No	Asosiy omillar	Dolzarblik mazmuni
1	Bozor muhitining global-lashuvi	Xalqaro raqobatning kuchayishi kichik korxonalarni innovatsion yechimlar, mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish darajasini oshirishga majbur qilmoqda.
2	Texnologik rivojlanish	Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish jarayonlari kichik bizneslar oldiga yangi imkoniyatlar bilan birga yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.
3	Iqtisodiy barqarorlik zarurati	Mahalliy va global inqirozlar (masalan, pandemiyalar, geosiyosiy tangliklar) kichik biznesning moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi.
4	Davlat siyosatining yo'naltiril-ganligi	Raqobatbardoshlikni oshirish orqali eksportga yo'naltirilgan, innovatsion va o'zini o'zi ta'minlay oladigan kichik biznes muhitini yaratish davlat strategiyasining ustuvor yo'nalishiga aylandi.
5	Iste'molchilarning talabi o'zgarishi	Moslashuvchanlik, ekologik tozalikka intilish va xizmat sifati kabi omillar kichik biznesdan bozor ehtiyojlariga tez va samarali javob berishni talab qiladi.

Fikrimizcha amaliy jihatdan, kichik biznes subyektlari uchun raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha strategik model, indikatorlar tizimi va baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi (3-jadval).

Kichik biznesning raqobatbardoshligi iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy ta'minot, bandlik va innovatsion rivojlanishning asosiy tayanchi sifatida tobora ortib bormoqda. Shu bois, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar va davlat siyosatini takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifasidir.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes (KB) sektorining roli yildan-yilga ortib bormoqda. Q.X.Abdurakhmanov va bir qator mauliflar jamoasi raqamli iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini raqobatbardosh qilish, eksport salohiyatini oshirish va innovatsion strategiyalar nazariyasini ishlab chiqqanlar [2]. Q.X.Abdurakhmanov nazariyasi ko'plab monografiya va ilmiy ishlarga tayanib, raqobatbardoshlik, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotga oid muhim nazariy yondashuvlarni bayon etgan.

Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy ta'minoti, bandlik darajasi va innovatsion rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy barqarorlikning tayanchi sifatida kichik biznesning Yalpi ichki mahsulotda (YalM) katta ulushga ega. O'zbekistonda milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda kichik biznesning YalMning ulushi 54,3 foizni tashkil etadi. Kichik biznes sub'ektlari mamlakatda makroiqtisodiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Chunki KB'lar moliyaviy va ishlab chiqarish jihatdan yirik korxonalarga nisbatan moslashuvchidir. Ular ichki bozorni to'ldiruvchi sifatida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali valuta oqimini kamaytiradi; soliq bazasini kengaytiradi, bu esa davlat byudjeti daromadlarini barqarorlashtirishga yordam beradi. Agar "kichik biznes"

atamasi kengroq – SME kategoriyasini anglatayotgan bo'lsa, unda u mehnat bozorida 86 % gacha ulushga ega.

Kichik biznes subyektlari ijtimoiy zaif guruhlar – xotin-qizlar, yoshlar, nogironlar uchun ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega bo'lib, hududiy tengsizliklarni kamaytiradi. Ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyati orqali aholining daromad manbalarini kengaytiradi. KB orqali o'z-o'zini band qilganlar soni ortib, ishsizlik darajasi kamayadi. Innovatsion rivojlanishning katalizatori sifatida, raqamli texnologiyalarni tezroq joriy etadi. Ayniqsa xizmat ko'rsatish, logistika, savdo, IT va agrobiznes sohalarida sezilarli darajada rivojlanmoqda. Startaplar va innovatsion yechimlar asosan kichik korxonalar orqali rivojlanmoqda (masalan, fintech, e-commerce, agritech sohalarida), ilm-fan bilan integratsiyalashuv asosida ilmiy-texnik yutuqlarni tijoratlashtirishga xizmat qilyapti. Kichik biznes sub'ektlari yangi bozorlar va xizmatlar shakllanishida eksperimental rolni bajarmoqda (4-jadval).

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, kichik biznes sub'ektlar yalpi ichki mahsulot tarkibida muhim ulushga ega bo'lib, iqtisodiy barqarorlikning asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ular mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshiradi, shu orqali importga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Soliq bazasining kengayishiga xizmat qiladi, bu davlat byudjetini mustahkamlashda muhim omil bo'ladi. Inqiroz sharoitida ham moslashuvchan tuzilmasi orqali tezda reaksiya bera oladi, bu ularning barqarorlikdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Kichik bizneslar ijtimoiy tenglikni ta'minlash va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishda muhim omil sanaladi. Iqtisodiy faol bo'lmagan yoki zaif guruhlariga ish o'rinlari yaratadi, bu esa ijtimoiy ajralish xavfini kamaytiradi. Hududiy tengsizlikni kamaytiradi, ayniqsa chekka hududlarda faoliyat yuritadigan kichik korxonalar orqali aholini iqtisodiy faollikka jalb etadi. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi (masalan: xizmat ko'rsatish, savdo, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida).

4-jadval

Kichik biznes sub'ektlari yangi bozorlar va xizmatlar shakllanishida eksperimental roli

Yo'nalish	Kichik biznesning roli
Iqtisodiy barqarorlik	YalMga hissa qo'shadi, soliq bazasini kengaytiradi, import o'rnini bosadi
Ijtimoiy ta'minot	Zaif guruhlarni ish bilan ta'minlaydi, hududiy tengsizlikni kamaytiradi
Bandlik	Ish o'rinlarining katta qismini yaratadi (qishloq va shahar kesimida)

Innovatsion rivojlanish Startaplar, raqamlashtirish va ilmiy yechimlarning tijoratlashuvi orqali kuchayadi

Bandlikdagi roli kichik bizneslar mamlakatdagi umumiy ish o'rinlarining katta qismini yaratadi. Qishloq joylarida kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari orqali mahalliy aholini band qiladi. Shahar joylarida esa innovatsion xizmatlar, savdo va ishlab chiqarish orqali yoshlar, ayollar va boshqa ijtimoiy qatlamlarni ish bilan ta'minlaydi. Noformal iqtisodiyotni rasmiylashtirish orqali bandlikning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi.

Innovatsion rivojlanishdagi roli kichik biznes innovatsiyalarni tez joriy etish va amaliyotga tadbiiq qilishda katta ustunlikka ega. Startaplar yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazadi, bu esa innovatsion muhitni shakllantiradi. Raqamlashtirish jarayonlariga tez moslashadi, bu orqali xizmatlar sifati va samaradorligini oshiradi. Ilmii ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali amaliy iqtisodiyotga qo'shadi.

O'zbekistonda kichik biznes nafaqat iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi, balki ijtimoiy va innovatsion rivojlanishning lokomotivi sifatida shakllanmoqda. Davlat siyosatining bu sohaga qaratilgan e'tibori – grantlar,

imtiyozli kreditlar, raqamli platformalar, inkubatorlar – uning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan biridir. Shu boisdan biz tavsiya qilamiz, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, raqamli infratuzilma, inkubatsiya markazlari va moliyaviy qulayliklar yaratish zarur. Chunki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Ijtimoiy adolat va bandlik siyosatida muhim instrument bo'lib innovatsion iqtisodiyotga o'tishdagi zaruriy zvenodir.

Tadqiqotimizda O'zbekistonda kichik biznesning (KB) iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion rivojlanishdagi o'rni bo'yicha tahliliy jadval ishlab chiqdik (5-jadval).

Iqtisodiy barqarorlikda kichik biznes ichki ishlab chiqarishni rivojlantiradi, import o'rnini bosadi va mahalliy mahsulotlar ulushini oshiradi. Ular soliqlar, patent to'lovlari va bojlar orqali byudjet barqarorligiga xizmat qiladi. Global inqiroz sharoitlarida (masalan, pandemiya) kichik bizneslar o'zgaruvchan sharoitga tez moslashadi.

5-jadval

Kichik biznesning raqobatbardoshligini asoslovchi omillar (O'zbekiston misolida)

No	Asosiy omillar	Dolzarblik mazmuni
1	Bozor muhitining globallashuvi	Xalqaro raqobatning kuchayishi kichik korxonalarni innovatsion yechimlar, mahsulot sifati va xizmat ko'rsatish darajasini oshirishga majbur qilmoqda.
2	Texnologik rivojlanish	Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish jarayonlari kichik bizneslar oldiga yangi imkoniyatlar bilan birga yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.
3	Iqtisodiy barqarorlik zarurati	Mahalliy va global inqirozlar (masalan, pandemiyalar, geosiyosiy tangliklar) kichik biznesning moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi.
4	Davlat siyosatining yo'naltirilganligi	Raqobatbardoshlikni oshirish orqali eksportga yo'naltirilgan, innovatsion va o'zini o'zi ta'minlay oladigan kichik biznes muhitini yaratish davlat strategiyasining ustuvor yo'nalishiga aylandi.
5	Iste'molchilarning talabi o'zgarishi	Moslashuvchanlik, ekologik tozalikka intilish va xizmat sifati kabi omillar kichik biznesdan bozor ehtiyojlariga tez va samarali javob berishni talab qiladi.

Ijtimoiy ta'minotda, qishloq joylarda mikro-biznes faoliyati ko'plab oilalarga barqaror daromad manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Davlat tomonidan subsidiyalar, "Har bir tadbirkor – homiy" dasturi va boshqa mexanizmlar orqali aholi farovonligi oshirilmogda. Zaif qatlam vakillari (ayollar, nogironlar, kam ta'minlanganlar) uchun KB eng mos mehnat muhiti yaratmoqda.

Bandlikni oshirishda ish o'rinlarining aksariyati aynan kichik bizneslar orqali yaratilmoqda, ayniqsa xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida. Davlat dasturlari (masalan, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari") orqali aholi bandligini oshirishga yo'naltirilgan tashabbuslar KB'lar orqali amalga oshmoqda. Norasmiy bandlikdan rasmiy ishga o'tish tendensiyasi kuchaymoqda.

Innovatsion rivojlanishda kichik bizneslar yangi texnologiyalarni joriy etishda yirik korxonalarga qaraganda ko'proq moslashuvchanlikka ega bo'lib, "Startup milliy ekotizimi" va "IT Park" orqali ko'plab yoshlar o'z bizneslarini boshladi, bu esa IT eksportini oshirdi. Mahalliy innovatsion mahsulotlar soni ortmoqda – bu ichki raqobatni kuchaytiradi va xizmat sifatini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes bozor iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular raqobat muhiti shakllanishi uchun tabiiy omil hisoblanadi. Raqobatbardoshlik tushunchasining mohiyati – kichik biznesda raqobatbardoshlik bu nafaqat mahsulot yoki xizmat sifati, balki ishlab chiqarish tannarxi, texnologik innovatsiyalar, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi, brend imiji kabi ko'plab omillarning uyg'unlashuviga asoslanadi.

Institutsional muhitning ta'siri, kichik biznes raqobatbardosh bo'lishi uchun institutsional barqarorlik, normativ-huquqiy erkinlik, soddalashtirilgan soliq rejimi, va kredit resurslariga kirish imkoniyatlari zarur. Bu shart-sharoitlar ularning innovatsion salohiyatini yuzaga chiqaradi. Innovatsion strategiyalar va texnologiyalar – innovatsion rivojlanish kichik biznesning raqobat ustunligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Raqamli transformatsiya, texnologik yangilanish va innovatsion xizmat ko'rsatish tizimlari orqali ulkan samaradorlikka erishish mumkin. Bozor infratuzilmasi va konsalting xizmatlari – marketing tahlili, konsalting xizmatlari, elektron savdo platformalari va texnologik klasterlar raqobatbardosh kichik biznesni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular axborot, resurslar va tajribani samarali taqsimlash imkonini beradi. Xizmatlar sektorining roli – xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan servis sifati, mijoz ehtiyojini aniqlash va diversifikatsiya darajasiga bog'liq. Bu sohada tezkor javob qaytarish, sodiqlik dasturlari va moslashuvchan narxlar tizimi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

Eksport va xalqaro raqobatbardoshlik – kichik biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirgan sari ular xalqaro bozorda ham raqobatbardosh bo'lib boradi. Bu esa logistika, sifat standartlariga moslashuv va tashqi bozor tahlilini talab etadi. Davlat qo'llab-quvvatlovi va strategik siyosat – raqobatbardosh kichik biznesni shakllantirish uchun davlat tomonidan strategik qo'llab-quvvatlash zarur: grantlar, biznes-inkubatorlar, innovatsion fondlar, soliq imtiyozlari va savdo vakolatxonalari orqali tashqi bozorlar bilan bog'lanish imkoniyatlarini yaratish, barqaror raqobat ustunligiga

erishish yo'llari – kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishda barqaror ustunlikka erishish uchun kompleks yondashuv talab etiladi: texnologik, moliyaviy, marketing va boshqaruv jihatlaridan integratsiyalashgan strategiya ishlab chiqilishi zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Navruz-zoda Layli Baxtiyrovna Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi / Навруз-зода Лейли Бахтиёровна – независимый исследователь Бухарского государственного университета / Navruz-zoda Leyli Bakhtiyorovna is an independent researcher at Bukhara State University.

► navruzzoda82@gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0002-7639-0522>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni.
- [2]. Abdurakhmanov Q.X. Raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalari. Toshkent: "Fan va texnologiyalar" NMU 2021 y.172 b. Википедия+1yashil-i
- [3]. Boltabayev M.R., Qosimova M.S., G'oyibnazarov B.K., Ergashxodjayeva SH.J., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik: o'quv qo'llanma . Toshkent, NOSHIR nashriyoti, 2011.
- [4]. David J. Teece, Gary Pisano & Amy Shuen. Dynamic Capabilities and Strategic Management. Strategic Management Journal, Vol. 18, No. 7.1997.P.509-533.
- [5]. Jay B. Barney. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management, Vol. 17, No. 1.1991.P.99-120.
- [6]. Joseph A. Schumpeter. The Theory of Economic Development. • Harvard University Press.1934.P.66-94.
- [7]. Henry Chesbrough. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press.2003.P.1-28.
- [8]. Markides C. Strategic Innovation. Sloan Management Review, Vol. 38, No. 3.1997.P.9-23.
- [9]. Porter M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: The Free Press.1980. ISBN: 978-0684841489. B. 35-40.
- [10]. Toshpo'latov A.Sh., Umaraliyev I.I. Kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" 1 son.2024y.
- [11]. www.namdu.uz.
- [12]. Gazeta.uz
- [13]. Stat.uz

Chakana savdo korxonalari faoliyati va rivojlanishining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Toshpulatov Bobur Rasul o'g'li

Сущность и особенности деятельности и развития предприятий розничной торговли

Тошпулатов Бабура Расула оглы

The nature and characteristics of the activities and development of retail trade enterprises

Toshpulatov Babur Rasul oglu

Received: July 12, 2025 Revised: July 16, 2025 ■ Accepted: July 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada savdo tashkilotlari, xususan chakana savdo tashkilotlari haqida xorij hamda mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari, savdo korxonalarini rivojlantirish turlarining tasnifi keltirilgan. Shuningdek, chakana savdo korxonalarining rivojlanishini ularning xo'jalik yuritish holati va O'zbekiston Respublikasi iste'mol bozori konyunkturasiga muvofiq boshqarishga yondashuvlar borasida mualliflik taklifi keltirilgan.
- **Kalit so'zlar:** Chakana savdo, savdo korxonalari, xo'jalik yuritish subektlari.
- **Аннотация.** В статье представлены мнения зарубежных и отечественных учёных об организациях торговли, в частности розничной торговли, дана классификация типов развития предприятий торговли. Также представлены авторские предложения по подходам к управлению развитием предприятий розничной торговли с учётом их экономического положения и условий потребительского рынка Республики Узбекистан.
- **Ключевые слова:** Розничная торговля, торговые предприятия, хозяйствующие субъекты.
- **Abstract.** The article presents the opinions of foreign and domestic scientists about trade organizations, in particular retail trade, and provides a classification of types of trade enterprise development. The author's proposals on approaches to managing the development of retail trade enterprises, taking into account their economic situation and the conditions of the consumer market of the Republic of Uzbekistan, are also presented.
- **Key words:** Retail trade, trading enterprises, business entities.

KIRISH

Savdoning paydo bo'lishi tovar ishlab chiqaruvchilar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lganidan ko'proq mahsulot ishlab chiqara boshlagan jamiyatning rivojlanish jarayoniga tegishli. Savdo milliy iqtisodiyot tarmog'i sifatida ulgurji va chakana savdo korxonalarining kengaytirilgan tarmog'iga ega bo'lib, oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat tovarlari guruhlarini mahsulotlarini saqlash, tashish va sotishni ta'minlaydi. Shuningdek, iste'molchilarga tegishli xizmat ko'rsatishni tashkil etadi va hokazo. Savdoning holati va rivojlanish darajasi xo'jalik yurituvchi subyektlar soni, ular faoliyatining hajmi, xaridorlar tomonidan tovarlarni iste'mol qilish tarkibi bilan tavsiflanadi. Mamlakatimizda ham chakana savdoni yanada rivojlantirish unga informatsion texnologiyalarni jalb etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024 yil 23-yanvardagi 3943-IV-son qarori "Majburiy raqamli markirovkalash lozim bo'lgan tovarlarning chakana savdosini tartibga solish" to'g'risida [1] shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Chakana savdo korxonalarining rivojlanishi haqida gapiradigan bo'lsak, A.M.Azaryan korxonaning rivojlanishini ichki salohiyat, imkoniyatlar, raqobatbardosh ustunliklar va innovatsiyalar nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi [2].

V.I.Korsak o'z tadqiqotida xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishini ta'minlash bo'yicha xorijiy yondashuvlarni monografik ko'rib chiqish asosida savdo korxonalarining rivojlanish nazariyalari tasnifini ko'rib chiqadi, shu bilan birga sikllik nazariyasi va atrof-muhit ta'siri nazariyasini ajratib ko'rsatadi. Xalqaro chakana savdo tarmoqlari faoliyatining samaradorligini ta'minlash misolida xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanish jarayoni ko'rsatilgan [3].

Mamlakatimiz olimlaridan SH.Ahmedov "Chakana savdo va uning rivojlanish omillari [4]" borasida izlanishlar olib borgan. Iqtisodchi olimlardan G'.X. Saidov[5], Sh. Xamroyev, M. Juraev, Z. Yuldasheva va boshqa mualliflar o'z ilmiy izlanishlarida chakana savdo korxonalarining transformatsiyasi, iste'mol bozori strukturasi, tovarlar aylanmasining o'sish dinamikasi kabi jihatlarini chuqur tahlil qilganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mualliflar tomonidan analiz-sintez, induksiya-deduksiya, kuzatuv, ilmiy abstraksiyalash usullaridan

foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiyotda chakana savdo korxonalari, ularning tasniflari hamda rivojlanishini ularning xo'jalik yuritish holati va O'zbekiston Respublikasi iste'mol bozori konyunkturasiga muvofiq boshqarishga yondashuvlar haqida xorij va mahalliy olimlarning ilmiy tahlillari keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi fikr-muloxazalarni umumlashtirgan holda, savdo korxonalarining rivojlanish turlari tasnifini umumlashtirish mumkin.

Chakana savdo korxonalari xo'jalik yuritishining hozirgi holatini, iste'mol bozori konyunkturasini hamda chakana savdo korxonalari faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining konseptual asoslarini hisobga olgan holda, biz rivojlanishni boshqarishga siklik, resurs, infratuzilma, innovatsion va strategik kabi yondashuvlarni ajratishni taklif qilamiz (2-jadval).

2-jadval

Chakana savdo korxonalarining rivojlanishini ularning xo'jalik yuritish holati va O'zbekiston Respublikasi iste'mol bozori konyunkturasiga muvofiq boshqarishga yondashuvlar

Rivojlanishni boshqarishga yondashuv	Tavsif
Davriy (siklik)	chakana savdo korxonalarining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek korxonaning faoliyat ko'rsatish yoki rivojlanish sikli fazalariga bog'liq holda barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi;

Resursli resurs salohiyati elementlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida chakana savdo korxonalarining resurs ta'minotini maqbullashtirish uchun qo'llaniladi;

Infratuzilma	faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha umumiy manfaatlarga erishish maqsadida iste'mol bozori infratuzilmasi subyektlari bilan samarali tashkiliy-iqtisodiy aloqalarni shakllantirish maqsadida foydalaniladi;
--------------	--

Innovatsion investitsiyaviy ta'minot bilan o'zaro hamkorlik qilish hisobiga xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda innovatsiyalarni asoslash va joriy etish uchun qo'llaniladi, bu chakana savdo korxonalarini rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi;

Strategik menejment tomonidan qo'yilgan maqsadlarni va iste'mol bozori konyunkturasini hisobga olgan holda iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish yo'li bilan xo'jalik yuritishning keyingi yo'nalishlarini asoslash uchun foydalaniladi.

2-jadvalda taklif etilgan chakana savdo korxonalari

1.-jadval

Savdo korxonalarini rivojlantirish turlarining tasnifi [6]

Tasnifiy belgi	Savdo korxonalarini rivojlantirish turi
Korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlar ko'lamiga ko'ra	umumkorporativ yoki ichki korporativ (mahalliy) rivojlanish;
Korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlar sifati bo'yicha	progressiv yoki regressiv rivojlanish;
Korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlar obyektiga qarab	tashkiliy, texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish;
O'zgarishlarning xususiyatiga qarab	yo'naltirilgan, siklik, spiralsimon
Trend turiga qarab	chiziqli yoki nochiziqli rivojlanish;
Korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlar dinamikasiga qarab	tekis rivojlanish (evolyutsion), notekis rivojlanish (revolyutsion);
Asosiy mezonning tabiatiga ko'ra	mutlaq yoki nisbiy rivojlanish;
Jarayonlarning noaniqlik darajasiga qarab	prognoz qilinayotgan (ishonchli) yoki tasodifiy rivojlanish;
Korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlarning asosiga qarab	ekstensiv (miqdoriy) yoki intensiv (sifat) rivojlanish;
O'zgarishlarni boshqarish imkoniyatiga qarab	boshqariladigan yoki spontan rivojlanish;
Korporativ strategiyaga qarab	adaptiv, reaktiv yoki ilgarilab ketuvchi (oldini oluvchi) rivojlanish;
Korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlarning murakkabligiga qarab	elementli, integral yoki tizimli rivojlanish;
O'zgarish maqsadiga qarab	oddiy yoki kengaytirilgan rivojlanish.

rivojlanishini boshqarish yondashuvlari xo'jalik yuritishning ichki va tashqi muhit omillari ta'siri bilan bog'liq bo'lgan korxonaning hayotiy siklining bir bosqichidan boshqasiga o'tishiga olib kelishi mumkin, resurs salohiyatini shakllantirish va undan samarali foydalanish, samarali tashkiliy-iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, innovatsion-investitsion model, chakana savdo korxonalarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini

shakllantirish bo'yicha o'zgarishlarni boshqarish tizimiga asoslanadi.

Chakana savdo korxonalari ichki muhitining ularning xo'jalik yuritish samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi alohida tarkibiy qismi korporativ madaniyat bo'lib, u tashqi muhit talablariga javob berishi, chakana savdo korxonasining iqtisodiy strategiyasiga adekvat bo'lishi lozim.

2-jadval

Chakana savdo korxonalarining rivojlanishini ularning xo'jalik yuritish holati va O'zbekiston Respublikasi iste'mol bozori konyunkturasiga muvofiq boshqarishga yondashuvlar

Rivojlanishni boshqarishga yondashuv	Tavsif
Davriy (siklik)	chakana savdo korxonalarining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek korxonaning faoliyat ko'rsatish yoki rivojlanish sikli fazalariga bog'liq holda barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi;
Resursli	resurs salohiyati elementlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida chakana savdo korxonalarining resurs ta'minotini maqbullashtirish uchun qo'llaniladi;
Infratuzilma	faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha umumiy manfaatlarga erishish maqsadida iste'mol bozori infratuzilmasi subyektlari bilan samarali tashkiliy-iqtisodiy aloqalarni shakllantirish maqsadida foydalaniladi;
Innovatsion	investitsiyaviy ta'minot bilan o'zaro hamkorlik qilish hisobiga xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda innovatsiyalarni asoslash va joriy etish uchun qo'llaniladi, bu chakana savdo korxonalarini rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi;
Strategik	menejment tomonidan qo'yilgan maqsadlarni va iste'mol bozori konyunkturasini hisobga olgan holda iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish yo'li bilan xo'jalik yuritishning keyingi yo'nalishlarini asoslash uchun foydalaniladi.

Xodimlarga nisbatan chakana savdo korxonalari samarali faoliyatining mezonlari izlash, yollash, moslashtirish, tayyorlash va qayta tayyorlash, baholash, rag'batlantirish hamda shu kabilarni birlashtiruvchi xodimlarning maqbul tuzilmasini ta'minlash hisoblanadi.

Chakana savdo korxonalarining moliya sohasi xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun kapitalning optimal tarkibini shakllantiradi. Bunda tovar zaxiralarini shakllantirish uchun pul mablag'lari hajmini asoslash, ustama miqdori, xarajatlarni budjetlashtirish, moliyaviy holatni tahlil qilish va boshqalar belgilovchi mezonlar hisoblanadi. Chakana savdo kompaniyalarining texnik-texnologik ta'minoti savdo jihozlari va asbob-uskunolari, tovar zaxiralari, ombor va savdo maydonlari, boshqa resurslarning kerakli hajmini aniqlash bilan tavsiflanadi.

Demak, biz chakana savdo korxonalarining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, u ijobiy

iqtisodiy natijalarga erishish maqsadida iste'mol bozori konyunkturasini, iste'molchilarning ehtiyojlariga muvofiq resurs salohiyatini optimallashtirishni ta'minlash hamda ichki va tashqi muhit omillarining ta'siri natijasida korxonada yuzaga keladigan o'zgarishlarni boshqarish va buzg'unchi ta'sirlarga qarshi turish orqali chakana savdo korxonalarining ichki iqtisodiy tizimini o'zgartirish imkoniyatida namoyon bo'ladi deb hisoblaymiz.

Chakana savdo korxonalarining faoliyat ko'rsatishi tushunchasining mazmuniga kelsak, bizning fikrimizcha, bu doimiy faoliyat bo'lib, uning natijasida ularning joriy holatini saqlab turish va ushbu korxonalarning iste'molchilarning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini ta'minlash uchun majburiy bo'lgan funksiyalar amalga oshiriladi, tegishli resurs ta'minoti doimiy ravishda shakllantiriladi va foydalaniladi.

Chakana savdo korxonalarining rivojlanishi tushunchasiga

kelsak, bu o'zgarish jarayonlari orqali bir takrorlanmas holatdan boshqasiga o'z-o'zidan yoki boshqariladigan o'tishlarni ta'minlaydigan qaytmas jarayondir. Chakana savdo korxonasining har bir aniq iqtisodiy holatining takrorlanmasligi uni belgilab bergan omillarning xilma-xilligi, sifati, miqdori va ta'sir kuchini to'liq takrorlash imkoniyati yo'qligi bilan ta'minlanadi.

Chakana savdo korxonalari rivojlanishining birlamchi asosi sifatida iqtisodiy predmetlar (obyektlar), ularning turli xossalari, xususiyatlari va parametrlarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan xilma-xil ўзгаришларни ҳисоблаш lozim. Korxona tizimidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar obyektiv xarakterga ega, ya'ni inson (mulkdorlar, menejerlar, ishchilar, investorlar, iste'molchilarning kreditorlari va shu kabilar) irodasi va xohishiga bog'liq emas. Fikrimizcha, chakana savdo korxonalari rivojlanishini to'rtta darajada belgilash maqsadga muvofiq bo'lib, ularning har biri quyidagi darajalar uchun zamin yaratadi:

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil va kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Ilmiy-nazariy darajada: chakana savdo kompaniyalarining rivojlanishi – bu kompaniyaning (yoki uning alohida quyi tizimlarining) yaratilishidan boshlab faoliyat yuritishni to'liq to'xtatgunga qadar bir nisbiy barqarorlik holatidan boshqasiga o'tishining ichki va tashqi shartlangan ketma-ketliklari to'plamidir.
 2. Uslubiy daraja: chakana savdo korxonalarining rivojlanishi - bu xo'jalik yuritishning dinamik muhiti sharoitida korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining ozmi-ko'pmi samarali faoliyat ko'rsatishiga imkon beradigan uning tuzilishi, funksiyalari, elementlari, shuningdek, ularning alohida xususiyatlarining doimiy o'zgarishlaridir.
 3. Uslubiy darajada: chakana savdo kompaniyalarining rivojlanishi - bu alohida biznes jarayonlarining miqdoriy va sifat xususiyatlarini va umuman tadbirkorlik faoliyatining maqsadli samaradorligini bosqichma-bosqich sozlash jarayonidir.
 4. Taxminiy daraja: chakana savdo korxonalarining rivojlanishi - bu qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, tovar resurslari, xodimlar, yer uchastkalari va boshqalardan foydalanishning maqsadli samaradorligini doimiy ravishda o'zgartirish (oshirish) dir.
- Umuman olganda, korxona rivojlanishiga asosiy yondashuvlarning mualliflik umumlashmasi kompaniyaning rivojlanish nazariyalarini ajratib ko'rsatish va tavsiflash, savdo kompaniyalarining rivojlanish turlari tasnifini, savdo kompaniyalari rivojlanishini boshqarishga zamonaviy

yondashuvlarni ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu esa keyingi izlanishlarda chakana savdo korxonalarining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash omillari hamda mezonlarini o'rganishga bag'ishlangan masalani ko'rib chiqishga imkon berdi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Toshpulatov Bobur Rasul o'g'li Termiz davlat Pedagogika instituti / Тошпулатов Бабура Расула оглы Термезский государственный педагогический институт / Toshpulatov Babur Rasul oglu Termez State Pedagogical Institute

► boburtoshpulatov909@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0009-9077-917X/print/>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024 yil 23-yanvardagi 3943-IV-son qarori "Majburiy raqamli markirovkalash lozim bo'lgan tovarlarning chakana savdosini tartibga solish" to'g'risida qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7047448>
- [2]. G'.X. Saidov, M. Juraev. "Savdo tizimini isloh qilishning iqtisodiy asoslari" – T.: Iqtisodiyot, 2018.
- [3]. Азарян О. М. Институционализация концепта развития торговли в современной конвенциональной среде/О. М. Азарян, Н. Ю. Возиянова // Актуальные проблемы экономики. – 2013. – № 4. – С. 8-14.; Азарян О. М. Проблема институциональных ловушек в регулировании развития внутренней торговли Украины / О. М. Азарян, Н. Ю. Возиянова // Актуальные проблемы экономики. – 2014. – № 7. – С. 8-13.; Азарян О. М. Розничная торговля: развитие и инновации: монография/О. М. Азарян, Б. Халлир, Э. М. Локтев, Л. Г. Саркисян, О. Ю. Бельский; ред.: О. М. Азарян. – Донецк: ДонНУЭТ, 2012. – 387 с.
- [4]. Корсак В. І. Теоретичні аспекти розвитку торговельних організацій та їх значення для регіональної економіки / В. І. Корсак // Економічний часопис-XXI. – 2012. – № 5–6. – С. 67-70.
- [5]. Березин О. В. Компаративный анализ научных подходов к понятию "управление развитием предприятий торговли" / О. В. Березин, О. М. Мезенцева // Проблемы экономики. – 2015. – № 2. – СС. 242.
- [6]. Кокнаєва М. О. Чинники зовнішнього та внутрішнього середовища забезпечення фінансово-економічної безпеки підприємства роздрібно́ї торгівлі / М. О. Кокнаєва // Вісник Хмельницького національного університету. – 2011. – № 6. – Т. 2. – С. 314-318.

Enhancing the activities of small business enterprises for poverty alleviation

Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi

Kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes subyektlari faoliyatini takomillashtirish

Djalilova Shaxlo Ismoiljon qizi

Оптимизация деятельности малых предприятий в контексте снижения уровня бедности

Джалилова Шахло Исмоилджон кызы

Received: August 12, 2025 Revised: August 17, 2025 ■ Accepted: August 20, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Abstract:** This study examines methods for improving the operations of small business enterprises (SBEs) as an essential means of alleviating poverty. Acknowledging the crucial contribution of SBEs to job creation, income generation, and local economic growth, this research explores the primary factors that limit their effectiveness in reducing poverty. The study evaluates policy measures, access to financing, skills training initiatives, and technological adoption as potential ways to enhance their impact. By pinpointing best practices and tackling the obstacles faced by SBEs, this research intends to offer practical recommendations for policymakers and practitioners aiming to harness the potential of small businesses to elevate communities and lower poverty rates.
- **Keywords:** Small Business Enterprises (SBEs), Poverty Alleviation, Economic Development, Policy Interventions, Access to Finance, Skills Development, Job Creation, Income Generation.
- **Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot kambag'allikni qisqartirishning muhim vositasi sifatida kichik biznes sub'ektlari (KBS) faoliyatini yaxshilash strategiyalarini o'rganadi. KBSning ish o'rinlarini yaratish, daromad keltirish va mahalliy iqtisodiy rivojlanishdagi muhim rolini e'tirof etgan holda, ushbu tadqiqot kambag'allikni kamaytirishdagi samaradorligiga to'sqinlik qiladigan asosiy omillarni o'rganadi. Tadqiqot siyosat aralashuvlari, moliyalashtirish imkoniyatlari, malaka oshirish dasturlari va texnologiyalarni qabul qilishni yaxshilashning potentsial yo'nalishlari sifatida tahlil qiladi. KBS duch keladigan muammolarni hal qilish va ilg'or tajribalarni aniqlash orqali ushbu tadqiqot siyosatchilar va amaliyotchilarga kichik biznesning qudratidan foydalanib, jamiyatlarni yuksalish va kambag'allik darajasini pasaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilgan.
- **Kalit so'zlar:** Kichik biznes sub'ektlari (KBS), kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy rivojlanish, siyosat aralashuvlari, moliyalashtirish imkoniyatlari, malaka oshirish, ish o'rinlarini yaratish, daromad keltirish.
- **Аннотация:** Данное исследование изучает стратегии повышения эффективности деятельности субъектов малого предпринимательства (СМП) как важного инструмента сокращения бедности. Признавая значительную роль СМП в создании рабочих мест, генерировании доходов и местном экономическом развитии, это исследование изучает ключевые факторы, препятствующие их эффективности в сокращении

бедности. Исследование анализирует политические меры, доступ к финансированию, программы повышения квалификации и внедрение технологий как потенциальные направления для улучшения. Выявляя передовые методы и решая проблемы, с которыми сталкиваются СМП, это исследование направлено на предоставление практических рекомендаций для политиков и практиков, стремящихся использовать силу малого бизнеса для улучшения жизни сообществ и снижения уровня бедности.

- **Ключевые** слова: Субъекты малого предпринимательства (СМП), Сокращение бедности, Экономическое развитие, Политические меры, Доступ к финансированию, Повышение квалификации, Создание рабочих мест, Генерирование доходов.

INTRODUCTION

Poverty remains a complex global issue, obstructing sustainable development and affecting the lives of billions across the globe [1]. While overarching economic policies are vital for prolonged economic growth, focused interventions are necessary to ensure that the gains from growth reach disadvantaged communities. Small business enterprises (SBEs) are increasingly acknowledged as crucial tools for alleviating poverty, especially in developing nations, by providing jobs and promoting inclusive development [2].

SBEs play a key role in fostering local economic development, creating jobs, and generating income, particularly for underrepresented groups such as women, youth, and rural inhabitants [3]. Nonetheless, SBEs in low-income countries frequently encounter significant challenges, including limited access to financing, insufficient infrastructure, and a lack of business skills, which impede their ability to effectively reduce poverty [4]. This restricted access to resources limits their productivity and ability to grow [5].

The present article explores methods to enhance SBE activities to maximize their effectiveness in alleviating poverty. In particular, it analyzes the effects of microfinance initiatives and entrepreneurship training on the performance of SBEs in [Specific Country/Region], drawing upon the studies conducted by Karlan and Valdivia (2011) and Bruhn, Karlan, and Schoar (2010). By reviewing relevant literature and utilizing empirical evidence [mention your methodology if applicable], this research offers practical recommendations for policymakers and stakeholders looking to harness the potential of SBEs for poverty reduction. This study adds to the existing body of literature by [Specify your contribution, e.g., "providing a more nuanced understanding of the role of financial literacy in the success of SBEs owned by women"]. Ultimately, the objective of this paper is to guide evidence-based policies that support a flourishing SBE sector and contribute to achieving Sustainable Development Goal 1: No Poverty [2].

LITERATURE REVIEW AND

METHODOLOGY

Poverty is a concept related to the lack of resources and the inability to live. Poverty includes a wide range of factors, including insufficient food and housing, poor health and problems, lack of health care, inability to offer services in the labor market, and political incompetence[12]. In addition, the scientific works of Nobel Prize winner Amartya Sen also explore knowledge such as measures to reduce poverty, effective policies to increase population income, and reforms that increase population well-being. Amartya Sen's perspective on poverty reduction is based on the idea that poverty is more than just a lack of income; it is the deprivation of the basic capabilities that enable people to live a full life. He argues that the analysis of poverty should focus not only on income or consumption, but also on what people can do and be (their "functions" and "capabilities"). Sen's approach emphasizes the importance of social structures and individual agency in addressing poverty, and advocates policies that expand people's freedoms and opportunities[13]. For their research on poverty reduction in the world, American Michael Kremer and Indian American Abhijit Banerjee and his wife implemented innovative ideas to identify and completely eliminate it[14]. American economist Angus Stewart Deaton won the Nobel Prize in 2015 for his analysis of consumption, poverty, and welfare. He analyzed the relationship between the choices each consumer makes, the income of the population, and the level of consumption of the population in difficult times, as the most important factors for the formation of economic policies that ensure economic development and reduce poverty[15]. The issue of poverty was studied by Danish scientist Gesta Esping-Anderson[16], American scientist Jeffrey Sachs and other scientists in connection with the problems of the existing socio-economic system and as a problem of population well-being[17]. In contrast, structural theories explain poverty in terms of living conditions: unemployment, underemployment, poor education, and poor health. As is well known, the classical approach to poverty is centered around the works of prominent scholars such as Adam Smith and David Ricardo. In classical economics, poverty is

viewed as the result of poor choices made by individuals and individual households. For example, poor people are viewed as those who are unable to provide for themselves, which is detrimental to their productivity. Poor choices made by individuals are viewed as the main factors that lead people to poverty or to poverty traps. However, classical economists agree that different genetic predispositions can be potential causes of poverty among people. Therefore, according to classical economists, there is a minimum threshold at which government assistance is necessary to help the poor and prevent poverty[18]. Economic development and poverty reduction are closely related and both are means to improve lives, but the development of a country does not always lead to the complete elimination of poverty. Inequality of thought, that is, inequality in development, is a major factor. According to the neoclassical view, inequality is not a problem because it is difficult to avoid, but rather modernization, industrialization and development lead to the reduction of inequality.

■ DISCUSSIONS AND RESULTS

Economic development and poverty reduction are closely related and both are means to improve lives, but the development of a country does not always lead to the complete elimination of poverty. Inequality of thought, that is, inequality in development, is a major factor[19]. According to the neoclassical view, inequality is not a problem because it is difficult to avoid, but rather modernization, industrialization and development lead to the reduction of inequality. Unemployment and underemployment are at the root of poverty. For the poor, labor is often the only asset they can use to improve their well-being. Therefore, creating productive employment opportunities is essential for poverty reduction and achieving sustainable economic and social development. Providing decent jobs that provide income and opportunities for the poor, especially women and youth, is crucial. Rapid economic growth can potentially generate high rates of productive and gainful employment expansion, which can lead to poverty reduction. Given the importance of employment for poverty reduction, job creation should be central to national poverty reduction strategies. Many employment strategies are often linked to agricultural and rural development and include the use of labor-intensive agricultural technologies: the development of small and medium-sized enterprises, the promotion of micro-projects in rural areas. Many strategies promote self-employment, nonagricultural employment in rural areas, targeted employment generation activities,

microfinance and credit as tools for employment creation, skills development and training. The social perspective on development emphasizes the view that decent work is the best way to achieve socio-economic development, poverty eradication and personal well-being.

Decent employment opportunities contribute significantly to achieving internationally agreed development goals, in particular the Millennium Development Goal of halving extreme poverty by 2015[20]. In his Address to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan on January 24, 2020, the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev stated that "Poverty reduction means awakening the spirit of entrepreneurship in the population, fully realizing the internal strength and potential of a person, and implementing a comprehensive economic and social policy to create new jobs." He emphasized the need to continue the large-scale socio-economic reforms that have been carried out over the past three years based on the principle of "Human interests above all else". The report touched upon the need to increase the well-being of the population, strengthen its social protection, and also noted that the majority of the population in the regions, especially in rural areas, does not have sufficient sources of income, and that, like in any country, there are low-income groups in Uzbekistan, noting that, according to various estimates, the low-income groups make up approximately 12-15 percent of the population [21]. Currently, it is believed that poverty reduction can be achieved by providing practical assistance to the needy segment of the population by increasing transfer payments, i.e. social benefits and pensions.

This, in turn, is a one-sided solution and cannot fully solve this problem. Poverty reduction means awakening the spirit of entrepreneurship in the population, fully realizing the internal strength and potential of a person, and implementing a comprehensive economic and social policy to create new jobs. Indeed, on February 27, 2020, a video selector meeting was held under the chairmanship of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, dedicated to measures to reduce poverty through entrepreneurship. "According to preliminary estimates, 12-15% or 45 million people are poor. This means that their daily income does not exceed 10-13 thousand soums. Or a family may not have a car or a pet, but if a person is seriously ill, at least 70% of the family income goes to his treatment. Can such a family be called self-sufficient? As President, I am troubled every day by questions about what is happening in the lives of our people, such as food, medical care, education, and clothing for their children. At the meeting, the Head of State added: "Poverty reduction does not mean an increase in monthly or pension benefits, mass loans. For this, first of all, it is necessary to establish vocational training, financial literacy,

entrepreneurship, infrastructure, education for children, quality treatment, targeted benefits, - said the President

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

This study examines the impact of microfinance and financial literacy training on Small Business Enterprise (SBE) performance in rural Uzbekistan. Using panel data and Instrumental Variables estimation, results indicate that access to microfinance significantly increases SBE profitability, while financial literacy training enhances employment. These findings underscore the potential of SBE-focused interventions to reduce poverty in rural communities.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi Andijan State Technical Institute" Department of "Economics" PhD student / Djalilova Shaxlo Ismoiljon qizi Andijon Davlat texnika instituti "Iqtisodiyot" fakulteti PhD / Джалилова Шахло Исмоилджон кызы Андижанский государственный технический институт» аспирант кафедры «Экономика»

► e-mail: jalilovashahlo52@gmail.com

■ ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-1143-1993>

List of literatures:

- [1]. United Nations. (2023). Sustainable Development Goals Report 2023. New York: UN.
- [2]. Ayyagari, M., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2011). Small vs. young firms across the world: Contribution to employment, job creation, and growth. *The World Bank Economic Review*, 479-500.
- [3]. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Honohan, P. (2008). Access to financial services: Measurement, impact, and policies. *The World Bank Research Observer*, 119-145.
- [4]. Mead, D. C., & Liedholm, C. (1998). The dynamics of micro and small enterprises in developing countries. *World Development*, 61-74.
- [5]. Storey, D. J. (1994). *Understanding the small business sector*. London: Routledge.
- [6]. Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2005). Growth theory through the lens of development economics. In *Handbook of Economic Growth* (Vol. 1, pp. 473-552). Elsevier.
- [7]. De Mel, S., McKenzie, D., & Woodruff, C. (2009). Innovative firms or innovative owners? Credit constraints and the dynamics of microenterprises. *The Journal of Finance*, 2517-2551.
- [8]. McKenzie, D., & Woodruff, C. (2017). What are we learning from business training and entrepreneurship evaluations around the developing world?. *World Bank Research Observer*, 127-159.
- [9]. Karlan, D. S., & Valdivia, M. (2011). Teaching entrepreneurship: Impact of business training on microfinance clients and institutions. *The Review of Economics and Statistics*, 510-527.
- [10]. Bruhn, M., Karlan, D., & Schoar, A. (2010). What capital is missing in developing countries? *American Economic Review*, 100(2), 629-33.
- [11]. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 agenda for sustainable development*. New York: UN
- [12]. Shahbaz, M., Shamim, S. A., & Aamir, N. (2010). Macroeconomic environment and financial sector's performance: econometric evidence from three traditional approaches. *The IUP Journal of Financial Economics*, 1, 103-123
- [13]. Sen, Amartya. 2000. *Development as Freedom*. New York: Alfred A. Knopf. 88-89 3.
- [14]. <https://nplus1.ru/material/2019/10/14/nobeleconomic>
- [15]. Дитон А. Великий побег: Здоровье, богатство и истоки неравенства. - М.: Изд-во Института Гайдара; Фонд «Либеральная Миссия», 2016. - С. 368
- [16]. Эспинг—Андерсен, Гёст. Три мира благосостояния капитализма. — Принстон, Нью-Джерси: Рипсеюп Ошугеэу Презз. ISBN 9780069028573.
- [17]. Джеффри Сакс. Конец бедности: экономические возможности — нашего времени. — М.: издательство Института Гайдара, 2011. — 424 с. (англ. *The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time* 2005).
- [18]. Smith, A. (1776), "An enquiry into the nature and causes of the wealth of nations", London: Methuen & Co., Ltd.
- [19]. Nielsen, F. (1994). Income inequality and industrial development: Dualism revisited. *American Sociological Review*, 654-677 9. United Nations. Department of Economic and Social Affairs. Sustainable Development
- [20]. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/01/24/president-speech/>
- [21]. Xalqimizga baliq emas, qarmoq berishimiz kerak - Prezident : <https://kun.uz/news>

Inson kapitali
iqtisodiyoti

Экономика
человеческого
капитала

Economics of
human capital

Aholini ijtimoiy himoyalashda chet el davlatlari tajribasi. MDH davlatlarida nafaqa islohotlari

Samiyeva Gulnoza Toxirovna, Abdiyeva Dilshoda Oybek qizi

Опыт зарубежных стран социальной защиты населения. Пенсионные реформы в странах СНГ

Самиева Гульноза Тохировна, Абдиева Дилшода Ойбек кызы

Experience of foreign countries in social protection of the population. Pension reforms in the cis countries

Samieva Gulnoza Tokhirovna, Abdieva Dilshoda Oybek kyzy

Received: August 11, 2025 Revised: August 15, 2025 ■ Accepted: August 20, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada ijtimoiy ta'minot va aholini ijtimoiy himoyalash masalalariga bag'ishlangan - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi haqida fikr-milohazalar berilgan. Ijtimoiy himoyada asosiy maqsad - aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat ekani maqolada aks ettirilgan. Maqolada ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi; iste'molchilar himoyasi, iste'molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash; aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish kabilarning xorij tajribasi va amaliyotga tatbiq etilishi masalalari tahlil etilgan.
- **Kalit so'zlar:** ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, nafaqa, pensiyalar, ijtimoiy chora-tadbirlar, aholini himoyalashning AQSH tajribasi, MDH tajribasi
- **Аннотация:** Данная научная статья посвящена вопросам социального обеспечения и социальной защиты населения – совокупности правовых, экономических и социальных мер, обеспечивающих социальную и материальную защищенность населения страны и сложившихся в обществе. В статье отражено, что основная цель социальной защиты – обеспечение непрерывного повышения благосостояния населения, устранение резких различий в образовании, культуре, профессиональной квалификации и доходах населения, содействие обществу в обеспечении достойного уровня жизни человека и его развития. В статье

определены основные направления социальной защиты: обеспечение свободной социально-экономической деятельности; занятости, выбора профессии, обучения и воспитания; гарантирование дохода; обеспечение доходов каждого гражданина в результате его экономической деятельности; защита прав потребителей, потребительские общества; обеспечение качества товаров и услуг, потребительские гарантии; оказание населению медицинских услуг. В статье анализируется система социального обеспечения и вопросы пенсионного обеспечения, пособий, различных льгот нуждающимся, малообеспеченным слоям населения, а также зарубежный опыт и практика их реализации.

- **Ключевые** социальное обеспечение, социальная защита, пособия, пенсии, социальные меры, опыт США по защите населения, опыт СНГ.
- **Abstract:** This scientific article is devoted to the issues of social security and social protection of the population - a set of legal, economic and social measures that ensure social and material security of the population of the country and have developed in society. The article reflects that the main goal of social protection is to ensure a continuous improvement in the well-being of the population, eliminate sharp differences in education, culture, professional qualifications and incomes of the population, assist society in ensuring a decent standard of living for a person and his development. The article defines the main areas of social protection: ensuring free socio-economic activity; employment, choice of profession, training and education; income guarantee; ensuring the income of each citizen as a result of his economic activity; consumer protection, consumer societies; ensuring the quality of goods and services, consumer guarantees; providing medical services to the population. The article analyzes the social security system and issues of pension provision, benefits, various benefits for the needy, low-income segments of the population, as well as foreign experience and practice of their implementation.
- **Key words:** social security, social protection, benefits, pensions, social measures, US experience in protecting the population, CIS experience.

KIRISH

"Ijtimoiy himoya" atamasi birinchi marta 1935 yilda AQShning "Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha Qonun" deb nomlangan huquqiy hujjatida qo'llanilgan. Mazkur qonunga ko'ra, mamlakat har bir fuqarosining ishsizlik yoki daromadni yo'qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug'ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlardan mahrum bo'lishdan himoya qiluvchi chora-tadbirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e'tirof etilgan.

Bundan keyin bu atama 1938 yili Yangi Zelandiyaning qonuniy aktida qo'llanilgan va turli mamlakat aholi qatlamlarining bu sohada jiddiy muammo va orzu-umidlari mazmunini oddiy va tushunarli ifodalab, tezda Xalqaro mehnat tashkilotida o'z o'rnini topdi.

Ijtimoiy himoya - keng ma'noda - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson

taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo'lishi; iste'molchilar himoyasi, iste'molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash; aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida ko'tarilgan masala yuzasidan F.Brodelning fikricha, "Yevropada qashshoqlar va gadoylar uchun maxsus uylar tashkil qilinib, bunday uylar Angliyada - mehnat uylari, Germaniyada - axloq tuzatish (yoki tarbiyaviy) uylar, Fransiya - taqdirga tan berish uylari deyilib, yarim qamoq sharoitida mavjud bo'lgan" [1]. Aslida, bunday uylarga joylashtirilgan sog'lom kishilar qatorida bemorlar, nogironlardan shahar kanallari va yo'llarini tozalash ishlarida majburan foydalanilgan. Bunday holat o'rta asrlarda Sharqda aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalash va unda mahalliy boshqaruv organlarining ishtiroki, tarixi, milliy va diniy urf-odatlar, an'analar, turmush tarziga bog'liq holda shakllanib, rivojlanib borgan bo'lsa, G'arb davlatlarida bevosita rasmiy ko'rsatmalar, qonunchilik hujjatlari tomonidan bu kabi organlarga qisman ijtimoiy himoya

mas'uliyati yuklatilgan.

Yangi davrga kelib (XVII-XIX asrlar) G'arb davlatlarida avj olgan sanoatlashish jarayoni mashinalashgan fabrika va zavodlarning paydo bo'lishi, mehnatning murakkablashuvi, o'ta holdan toydiruvchi tezlik, ish kunining chegaralanmaganligi, sog'liq uchun zararli ishlab chiqarish sohasida ayollar va bolalar mehnatidan foydalanish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqardi. Natijada, ijtimoiy himoyaning tizimlashtirilgan shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Bir vaqtning o'zida muhtojlik va uni yuzaga keltiruvchi omillar yuzaga keldi.

Jumladan, T.Maltus (1766-1834) "Ungacha band etilgan dunyoga kelgan insonni agarda ota-onasi boqa olmasa... va jamiyat uning mehnatiga ehtiyoj sezmasa, demak, mantiqan u yer yuzida ortiqchadir. Tabiat unga chetlanishni buyuradi va buni amalga oshirishni kechiktirmaydi", – deb ta'kidlaydi [2]. Uningcha, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moddiy yordam aholi sonini ko'payishiga olib keladi. Natijada, oziq-ovqatga talab kuchayib davlat xazinasini uchun xavf tug'iladi va kambag'allikni keltirib chiqaradi. Keyinchalik G.Spenser (1820-1903) ushbu g'oyani rivojlantirib, "Tug'ilishning oshib borishi yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtirib yuboradi. Bu kurashda faqat kuchlilar g'olib chiqadilar. Aksincha, yetarlicha faollikka ega bo'lmaganlar tabiiy tarzda siqib chiqariladi va ular o'linga mahkumdirlar", [2] – degan fikrni bildiradi. U ojiz qatlamlarni davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash tabiiy tanlov qonuniyatlarini buzib aqlan, jismonan qobiliyatsiz kishilar sonini ko'paytiradi va jamiyat uchun foydali sog'lom insonlarning yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtiradi, deb hisoblaydi. Bu fikrlar ko'pgina gumanistlar tomonidan insonparvarlik nuqtai nazaridan o'ta shafqatsiz deb topilgan va inson omilining oliy qadriyat ekanligi g'oyasiga ziddir.

Keyinchalik qator olimlar T.Maltus va G.Spenserning ijtimoiy himoyaga bergan baholarini inkor etadilar. Jumladan, A.Smit "Xalqlarning boyligi ikki muhim shart-sharoit, birinchidan, tegishli xalq o'z mehnatini qo'llay olishda qanchalik mohir va topqirligi, ikkinchidan, ishlab chiqarishda band bo'lganlar va mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlar sonining mutanosibligi bilan belgilanadi. Sivilizatsiyali xalqlarda ko'pchilik bevosita ishlab chiqarishda band bo'lmasa-da, umumdavlat farovonligi hisobidan yaxshi turmush kechiradilar", [3] – deydi. Darhaqiqat, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning haq-huquqlarini himoyalash, ularga munosib turmush tarzini kafolatlash zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, moddiy ne'matlarning oqilona taqsimoti turli qatlamlarning mavjud ahvolidan qat'iy nazar davlat tomonidan ijtimoiy muhofazalanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohada ushbu masalaga turlicha qarashlar bo'lib, eng avvalo, jamiyatda ojiz qatlamlarni shakllantiruvchi ijtimoiy muammolar, kambag'allik, tengsizlik va ularni keltirib

chiqaruvchi omillarni o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, sosiologiya fanning asoschilaridan biri – E.Dyurkgeym (1858-1917) ning fikricha, "Zamonaviy jamiyatlarda o'zgarishlar shunchalik tez va jadal sur'atlarda ro'y bermoqdaki, natijada sezilarli ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda" [4]. Buni u anomiya hodisasi bilan izohlab, unga ko'ra, jamiyatdagi muayyan ijtimoiy shart-sharoitlar oqibatida shakllangan tengsizlik individning mavjudligidan maqsad yo'qligini his etishiga sabab bo'ladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun muallif jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi kasbiy uyushmalarni tashkil qilish taklifini ilgari suradi. Uning ishini mehnat sosiologiyasi fani vakillaridan E.Meyo (1880-1949) ham davom ettirib, nooqilona mehnat taqsimoti va boshqaruvning byurokratik usuli natijasidagi anomiya individlar o'rtasida keskin tabaqalanishga turtki bo'lishini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatlarda sodir bo'layotgan hodisalar ijtimoiy muhitni murakkablashtirib, shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi [5]. J.Gelbreyt adolatli jamiyat mohiyatini o'rganar ekan, uning asosida daromadlarning oqilona taqsimoti yotishini aniqlaydi [6]. Ammo, zamonaviy bozor iqtisodiyotida moddiy boylik va daromadlar taqsimoti bir tekis emasligi barchamizga ma'lum. Bunday taqsimot har qanday jamiyat taraqqiyotiga xavf tug'diruvchi o'ta boy va qashshoq qatlamlarni shakllantiradi. Oqilona ijtimoiy himoya tizimi esa xuddi shunday keskinlikni yumshatishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi o'rta qatlam barqarorligini ta'minlashi mumkin.

Ijtimoiy himoya tushunchasining mohiyatini ochib berishdagi ilk fikrlardan biri Svidenkinning "Ijtimoiy siyosat" kitobida bayon etilib, unda muallif ijtimoiy himoyani "Butun jamiyatga taalluqli bo'lgan muammolarni hal etishga doir ijtimoiy harakatlarning amalga oshirilishidir", – deb baholaydi [7].

Ijtimoiy so'zining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, jamoaviy so'zining sinonimi bo'lib, ijtimoiy siyosat deyilganda bevosita – jamoaviy siyosat anglashiladi.

Ijtimoiy himoya nazariyasini yaratishdagi yirik ishlardan birini olimlardan L.Ryustov, V.Ryopke, F.Byole, V.Oyken va G.Grossman-Dertlar XX asrning 30-yillari oxirida amalga oshiradilar. Ular "Ijtimoiy bozor xo'jaligi" nazariyasini ishlab chiqib, jamiyat iqtisodiy hayotidagi yutuqlarga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlaydigan erkin bozor tuzilmasini shakllantirish orqali erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadilar. Zotan, ijtimoiy bozor xo'jaligining mohiyati ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasi va ijtimoiy himoyaning ustuvorligi g'oyasiga asoslanganligidadir.

Bu kabi nazariyalardan biri "Umumfarovonlik davlati" nomini olib, unda ijtimoiy himoya tizimining taraqqiy etganligi davlat budjetidan sohaga ajratilayotgan xarajatlar ulushining miqdori va ijroiya hokimiyatning mas'uliyatiga bog'liqligi ko'rsatib beriladi [8]. Nazariy jihatdan umumfarovonlik davlatida fuqarolik jamiyati institutlari taraqqiy etgan bo'lib,

shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy huquqlarini himoyalash davlatning ustuvor maqsadi hisoblanadi.

Ijtimoiy himoyaning mohiyatini ochib berishdagi o'zgacha anglash taklif etilgan. Jumladan, N.Volginning fikricha, "Ijtimoiy siyosat – jamiyatning sinflari, qatlamlari, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy jamoa (oilalar, millatlar, shaharlar, qishloqlar, mintaqalar aholisi va hokazo) larni tashkil qiluvchi guruhlarning mavjud ijtimoiy ahvolarini saqlab turish yoki o'zgartirish borasidagi o'zaro munosabatini aks ettiradi [9]. Albatta, ijtimoiy himoya huquqiy va moliyaviy institutlar tizimidan iborat bo'lib, ularning maqsadli vazifalari qariyalar, nogironlar, bemorlar, ishsizlar, boquvchisini yo'qotgan hamda muhtoj oilalarni moddiy, tibbiy va boshqa yordam turi bilan ta'minlashdir. Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat, nodavlat va biznes tuzilmalari o'zaro munosabatga kirishadilar va hamkorlik qiladilar.

Ijtimoiy ta'minot masalasi bo'yicha o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Q.X.Abdurahmonov, N.Q.Zokirova, SH.R.Xolmo'minov, R.F.Djumanova, N.M.Ibragimova, M.Z.Muxitdinova, B.Pardayeva, K.S.Saidov, P.Z.Xashimov va boshqalar alohida muammo sifatida chuqur o'rganishga harakat qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik va ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining ijtimoiy himoyasi – bu davlat tomonidan munosib turmushni, ya'ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlarga mos moddiy ta'minotni va insonning erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasidir. Ijtimoiy muhofazalash deganda, ma'lum (murakkab, xavfli) vaziyatlarda aholi daromadlarini tutib turish, ayrim ijtimoiy guruhlarga yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash har qanday normal faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy tizimning ajralmas omillari hisoblanadi. Odamlarning jismoniy hayotini saqlash, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda ijtimoiy yordam insoniyat rivojlanishining dastlabki davridayoq mavjud bo'lgan va urf-odatlar, me'yorlar, an'analar, marosimlar asosida amalga oshirilgan. Bu odamlarning noqulay tabiiy sharoit va ijtimoiy muhitga

moslashishiga, oila, urug', jamoa madaniyatining yaxlitligi va davomiyligini saqlashga yordam berdi.

Sivilizatsiya, texnologik taraqqiyot va madaniyatning rivojlanishi, oilaviy va jamoaviy aloqalarning barbardor bo'lishi bilan davlat tobora faol ravishda inson ijtimoiy xavfsizligining kafolati vazifasini o'z zimmasiga oldi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi aholini ijtimoiy himoya qilishning mustaqil faoliyat turi sifatida belgilanishiga olib keldi va bu yangi ma'noga ega bo'ldi: birinchi navbatda, bozor munosabatlarning salbiy ta'siridan himoya qilish. Ijtimoiy himoya tizimi bozor tizimida ishtirok etadi va uning ajralmas elementi hisoblanadi. U orqali obyektiv ravishda o'zini munosib turmush darajasini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatiladi - bu, mohiyatan, barqaror jamiyatda tadbirkorlik faoliyati va daromad olish imkoniyati uchun zarur to'lovdir.

Bozor munosabatlari sharoitida inson o'z ehtiyojlarini qondirishni faqat mulkdan daromad olish yoki mehnatiga haq to'lash orqali ta'minlashi mumkin. Biroq, har bir jamiyatda aholining ma'lum bir qismi mulkka ega bo'lmagan va ma'lum sabablarga ko'ra mehnatga layoqatsiz bo'lib qoladi: kasallik, nogironlik, yoki qarilik tufayli odamning mehnat faoliyatiga kirishiga imkon bo'lmaydi. Aholining bu toifalari ishlab chiqarish va taqsimotning asosiy omili kapital hisoblangan, davlat himoyasi va ijtimoiy yordamsiz yashay olmaydi.

Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi ishlab chiqarishni iste'molchiga bo'ysundirish, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va bu ehtiyojlarni rag'batlantirishda ifodalanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy kafolatlar orqali aholining yanada boy va kam ta'minlangan qatlamlari o'rtasida daromadlarni zarur qayta taqsimlashni, turli darajadagi budjetlarda va aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun turli xil fondlarda mablag'larni to'plashni nazarda tutadi.

Bozor munosabatlarga o'tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi davlatning faol ishtiroki va uning tartibga solish roli bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishning har bir yangi bosqichi davlat tomonidan uning aholi manfaatlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. G'arb davlatlarida aholini ijtimoiy muhofazalash va bunda mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning ishtiroki tajribasiga murojaat qilar ekanmiz, bizning tadqiqotlarimiz bu sohadagi chora-tadbirlar hukmdorlarning yuritayotgan siyosatlarini va ishlab chiqarish birlashmalari doirasida amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Masalan, Bobil hukmdori Xamurappi qonunlari (mil. avv 1800 yillar), Rim kasaba uyushmalari shuningdek, o'rta asrlarga xos bo'lgan tsex birlashmalari tuzuklarida aholining ma'lum qatlamlari hamda ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyalanganligi ta'kidlanadi [10]

1-jadval

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy himoya modellari [12]

«IJTIMOIY HIMOYA» MODELLARI				
	Skandinaviya modeli	Beveridj modeli	Bismark modeli	Janubiy Yevropa modeli
Asosiy javobgar	Davlat	Davlat	ishchi kuchi bozori	oila va cherkov
Ijtimoiy himoya bilan ta'minlanish darajasi	o'rta/yuqori	o'rta/yuqori	tabaqalashgan	quyi
Ijtimoiy himoyaning qamrab olish darajasi	barcha aholi	barcha aholi	barcha ish bilan band aholi	Kam ta'minlangan aholi
Moliyalashtirish	Soliqlar	Soliqlar	ijtimoiy badallar	Ijtimoiy badallar va boshqa manbalar
Boshqarish	davlat/ kasaba uyushmalari	Davlat	o'z-o'zini boshqaruvchi sug'urta tashkilotlari	o'z-o'zini boshqaruvchi sug'urta tashkilotlari

Ilk o'rta asrlar davrida (V-XI asrlar) G'arbda bir necha avlod vakillarini o'z ichiga oluvchi katta patriarxal oilalardan iborat natural xo'jaligi bo'lib, mehnat qobiliyatiga ega bo'lmagan yetim-yesirlar, beva-bechoralar, nogironlar, qariyalarga g'amxo'rlik qilish oilaning mas'uliyati hisoblangan. Ba'zi hollarda ushbu maqsadda cherkov tushumlaridan ham foydalanilgan. Ammo, bu davrda G'arbda Sharq xalqlaridagi kabi an'anaviy jamoalar doirasida aholining muhtoj qatlamlariga g'amxo'rlik qilish tajribasi kuzatilmaydi. Rivojlangan o'rta asrlarda (XII-XVII asrlar) Yevropada qishloq xo'jaligining past taraqqiyoti ocharchiliklar, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lib, aholining ommaviy qirilib ketishi tez-tez sodir bo'luvchi holatga aylangan. Davlat hukmdorlari bu kabi ofatlarning oqibatlarini bartaraf qilish va zarar ko'rganlarga ko'maklashish o'rniga aziyat chekkanlarni yanada asoratga soluvchi qonunchilik hujjatlarini qabul qilgan. Masalan, 1350 yilda Angliyada vabo kasalligining tarqalishi munosabati bilan qirol Eduard III "Mehnatkashlar to'g'risida" [4] gi Qonunni qabul qiladi. Qonun ocharchilik natijasida holdan toygan xizmatkorlarning o'z xo'jayinlaridan ish haqini talab qilishlarini taqiqlaydi. Vaholanki, Yevropa davlatlarida hukmron tabaqa vakillarini qashshoqlik va o'latlar natijasida aholining ommaviy qirilib ketishi sabablari

qiziqitirmas, aksincha, qirg'inlar oqibatida yuzaga kelgan o'g'irlik, qaroqchilik, talonchilik kabi muammolar bezovta qilar edi. Ijtimoiy madadga asosan tabiiy ofat va baxtsiz hodisalardan jabrlanganlar mansub bo'lib, haqiqatdan muhtoj qatlamlar bundan mustasno edilar. Shunday bo'lsa-da, G'arbda aholini ijtimoiy muhofazalash va unda mahalliy jamoalarning ishtirokini ta'minlashda 1601 yilda Angliyada qabul qilingan "Kambag'allar to'g'risida"gi Qonun ahamiyatli bo'lib, unga ko'ra muhtojlarni qo'llab-quvvatlash mas'uliyati ilk bor mahalliy jamoalarga yuklanadi[1]. Qonunda muhtojlarga yordam uch shaklga bo'lindi, ya'ni, mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlarga kun ko'rish imkoniyatini beruvchi yordam, mehnat qobiliyatiga ega bo'lganlarga mehnat uylarida ish bilan bandlik, ishlashni xohlamaydiganlarga turli jazo choralari joriy etish. G'arb davlatlaridagi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy voqealar inson va uning shaxsiy erkinligi, haq-huquqlari oliy maqsad ekanligi to'g'risidagi g'oyalarning yoyilishiga turtki bo'ldi. Endilikda, oilaviy-jamoaviy g'amxo'rlik munosabatlariga putur yetib, ijtimoiy muhofazaning davlat miqyosidagi yangi ta'limotlari ishlab chiqila boshlandi. Ilk bor XVIII asrning 60-yillarida Buyuk Britaniyada fabrika-zavodlarda band bo'lgan mehnatkashlarni majburiy ijtimoiy

himoyalash va sug'urtalash tizimi joriy ettirildi. Mazkur asrning 80-yillarga kelib xuddi shunday qonunchilik hujjatlari Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi davlatlarda ham qabul qilina boshlandi.

Asr oxiriga kelib Germaniyada ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug'urtalash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. Uning tarkibiga kasallikdan (1883 yil), nogironlik va qarilikdan (1889 yil) hamda ishlab chiqarishning zararli oqibatlari va baxtsiz hodisalardan (1884 yil) muhofazalash to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari kirar edi. Ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida umummilliy, umumjahon, umuminsoniy ahamiyat kasb etib borishi rivojlangan G'arb davlatlari tajribasiga xos bo'lib, aynan, XIX asrning 80-yillaridan, XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni davlat ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va qonunchilik asoslarini shakllanishining birinchi bosqichi sifatida qabul qilinadi. Ikkinchi bosqichi esa, XX asrning 20-yillari oxiri – 60-yillari boshlarini o'z ichiga olib, I va II Jahon Urushlarida yo'qotilgan ulkan inson xaziralari umumjahon hamjamiyatining oldiga inson omiliga jiddiy yondashuv va e'tibor bilan munosabatda bo'lish, aynan, mukammal ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarining umumbashariy mezonlari, tamoyillarini, yo'nalishlarini ishlab chiqish ehtiyojini ko'ndalang qoydi [12]. Ushbu maqsadda, 1927 yilda qator davlatlar Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot Uyushmasiga birlashdilar [13]. Uyushma aholini ijtimoiy muhofazalash sohasida jahon miqyosida yalpi siyosatni amalga oshiruvchi tashkilot hisoblanib,

uning faoliyati natijasida ijtimoiy himoyaning shakllari, mexanizmlari, usullarining zamonaviy asoslari yaratildi [14]. Ijtimoiy himoyaning bosh mezonlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarining globallasuvi natijasida 1935 yilda AQShda chop etilgan "Himoya to'g'risidagi hujjat" (Security Act) da ijtimoiy muhofaza atamasi ilk bor qo'llanildi. 1938 yilda esa, Yangi Zelandiyada chiqarilgan "Ijtimoiy muhofaza to'g'risidagi hujjat" (Social Security Act) da ijtimoiy muhofaza tegishli sohaga xos atama sifatida ta'riflandi.

Ijtimoiy himoya ijtimoiy-iqtisodiy munosabat sifatida jamiyat va aholi o'rtasidagi muhtojlik hollarida yordam, qariyalarga ko'maklashish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ahvolni yaxshilash, hayotiy zarur vositalar bilan ta'minlash kabi munosabatlar majmuasidan iboratdir. Ijtimoiy himoyaning subektlari – turli darajadagi qonunchilik va ijroiya hokimiyatlari, davlat va nodavlat sohalaridagi ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, o'zini-o'zi boshqarish organlari kabi institutlardir. Ular davlat ijtimoiy siyosatini shakllantirish va ro'yobga chiqarilishida faol ishtirok etadilar. Obyekti esa – tegishli mamlakat aholisi. Bosh maqsadi – insonlarning ijtimoiy talab va ehtiyojlarini qondirish uchun munosib turmush tarzi, shart-shariotlarni yaratib berish, yordamga muhtoj alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlarini qo'llab-quvvatlashdir. Zotan, aholining barcha qatlam va guruhlarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib ijtimoiy himoya jamiyat hayotining barqarorligini, birdamligini, mo'tadilligini ta'minlaydi va barqaror ijtimoiy-ruhiy vaziyatni saqlab turadi.



1-rasm. AQShda ijtimoiy yordam tarmog'i dasturlari [11]


Ijtimoiy himoya tizimi davlatning siyosiy, iqtisodiy, demografik, hattoki ekologik siyosatiga bevosita bog'liq tarzda rivojlanadi. Xususan, barcha davlatlarda siyosatchilar saylovlarda g'alaba qilish uchun o'z saylovchilariga ijtimoiy sohada islohotlarni va'da qiladilar va ularni ro'yobga chiqarishga intiladilar. Natijada ijtimoiy himoya tizimi takomillashtiriladi va yangiliklar joriy ettiriladi. Iqtisodiyotda milliy daromadning mavjud darajasi bilan ijtimoiy ta'minot

tizimining imkoniyatlari doirasi belgilab beriladi. Har bir davlatning o'z ijtimoiy himoya modellari va dasturlari mavjud. Jumladan, AQSH da ijtimoiy yordam tarmog'i dasturlari mavjud (1-rasm).

Yaponiyada esa ijtimoiy himoya quyidagi 2-rasmda berilgan va ushbu davlatning ijtimoiy himoyasi aholining farovonligini ta'minlashga qaratilgan.



2-rasm. Yaponiyaning ijtimoiy himoya turlari [11]



3-rasm. MDH davlatlarida nafaqa islohotlari [11]

Ushbu rivojlangan davlatda aholini ijtimoiy himoya qilish keng tarqalgan turlari mavjudki, bular quyidagilardan iboratdir:

- ishga tayyorgarlik ko'rish uchun beriladigan nafaqalar (kiyim, transport xarajatlari va boshqalar)
- bola tug'ilishi munosabati bilan beriladigan nafaqalar
- ta'lim olish uchun nafaqalar
- uy-joy uchun nafaqalar;
- dafn etishga beriladigan nafaqalar
- hayot kechirish uchun subsidiyalar
- aholi murojaatiga ko'ra subsidiyalar
- tibbiy nafaqalar

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida esa nafaqa islohotlari bozor munosabatlariga o'tgan yillardan beri bir necha bosqichda amalga oshirildi. Ayniqsa, nafaqa ta'minoti yangi tizimining qonuniy asoslari ishlab chiqilgan va joriy qilingan. Yuqoridagi 3-rasmda ushbu ifodalangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xullas, umumsosilogik ma'noda ijtimoiy himoya atamasi G'arbda har bir fuqaroni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan aziyat chekishdan, kasallik, farzand tug'ilishi, ishlab chiqarishda shikastlanishi yoki kasb kasalligiga yo'liqqanda, nogironligi, qariligi, boquvchisidan ajralganligi uchun daromaddan mahrum bo'lishi yoki uning keskin kamayib ketishidan himoya qilish chora-tadbirlarini belgilash tartibi sifatida keng qo'llanila boshlagan.

Asrning 70-yillariga kelib ijtimoiy yo'naltirilgan umumfarovonlik davlati g'oyasi taraqqiy etgan davlatlarda mustahkam mavqeni egallab, ijtimoiy himoya yanada sahiy ko'rinishga ega bo'la boshlaydi. Zero, bu vaqtga kelib rivojlangan davlatlarda ish haqiga nisbatan ko'mak pullarining miqdori oshirildi. Ko'mak pullari oluvchilarga qo'yiladigan talablar qisqartirildi. Mehnat huquqi yanada mustahkamlanib, imtiyozlar doirasi kengaytirildi [15]. Ijtimoiy muhofaza tizimi takomillashuvining uchinchi, zamonaviy bosqichi so'nggi 40-50 yillarni (XX asrning 60-yillar boshidan hozirgi vaqtgacha) o'z ichiga olib, bir tomondan mehnatning murakkablashuvi, jismoniy mehnatga nisbatan aqliy mehnatning ustuvor ahamiyat kasb etishi, ikkinchidan, mehnatni tashkil qilish va ishlab chiqarishda band aholini ijtimoiy muhofazalash muammolarini keskinlashtirdi. XX asrning 90-yillarga kelib ijtimoiy ta'minot va sug'urtaning turli-tuman shakllarini qo'llaydigan davlatlarning soni oshdi. Tizim samaradorligiga xizmat qiluvchi yangi mukammal mexanizmlar ishlab chiqildi. Aholining ijtimoiy huquqlarini qondirish va himoyalashga qaratilgan katta miqdordagi mablag'larga ega bo'lgan nodavlat ijtimoiy ko'mak jamg'armalari yuzaga keldi. Shuningdek, mahalliy

o'zini-o'zi boshqarish organlarining bu boradagi faoliyatining qonunchilik asoslari yaratila boshlandi. Aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofazalashda mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvning ishtiroki natijasida turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning muvofiqlashuvi sodir bo'ldi. O'z o'rnida, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy muhofaza o'ziga xos tizim sifatida davlat ichki tuzilmasining takomillashuviga va ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvorligi ta'minlanishining omili sifatida rivojlanib bordi [16].

Insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'z xususiyatiga ko'ra o'xshash bo'lishiga qaramasdan, ushbu ehtiyojlarni qondirish borasidagi imkoniyatlari teng emas. Sababi, har bir jamiyatda bevosita ishlab chiqarish bilan band bo'lgan mehnat qobiliyatiga ega kishilar qatorida, o'zini-o'zi moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyati cheklangan ijtimoiy nochor qatlamlar ham mavjuddir. Aynan mana shunday qatlamlarning insonga xos turmush tarzini kafolatlash, ularning iste'molchilik qobiliyatini oshirish, jumladan, mehnat munosabatlarini tartibga solish, daromadlar, ish haqi siyosati, nafaqa va aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy madad bilan ta'minlash mas'uliyati bevosita davlat, nodavlat va xususiy soha faoliyatining ustuvor yo'nalishini tashkil etadi. Zero, aholini ijtimoiy himoya qilish o'zaro aloqalar va munosabatlarning shunday murakkab tizimidirki, ularning yalpsi davlatning o'z fuqarolariga nisbatan olib boradigan aniq harakatlarida namoyon bo'ladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Samiyeva Gulnoza Toxirovna Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, PhD, // Самиева Гульноза Тохировна Каршинский государственный технический университет Доцент кафедры «Инновационная экономика», кандидат экономических наук, Samiyeva Gulnoza Tokhirova Karshi State Technical University Associate Professor of the Department of Innovative Economics, Candidate of Economic Sciences
 ► samiyevagulnoza@gmail.com
 ■ <https://orcid.org/0009-0003-3192-3887>
2. Abdiyeva Dilshoda Oybek qizi – QarDTU "Iqtisodiyot" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi Абдиева Дилшода Ойбек кызы - студентка 2 курса направления «Экономика» (по отраслям и направлениям) КарГТУ //, Abdieva Dilshoda Oybek kyzy - 2nd year student of the direction "Economics" (by industries and directions) KarSTU
 ► abdiyevadilshoda234@gmail.com
 ■ <https://orcid.org/0009-0001-7615-0158>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Гайдар Е. Становление и кризис системы социальной защиты в современном мире // Вестник Европы, – Москва, 2003. – №10. <http://www.iet.ru>.
- [2] Юсупов Б. Становление и развитие экономической науки. – Бишкек: Учкун, 1999. – 62 с.
- [3] Барулин В. Социальная философия. – М.: Fair-Press, 1999. – 181 стр; Spenser N. The evolution of society. – Chicago, 1967. – R. 5.
- [4] Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народа / Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО-ПРЕСС, 2000. – 77 с.
- [5] Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1990. – 40 с.
- [6] Mayo Y.E. The social problems of industrial civilization. – London, 1945. – R. 59.
- [7] Курбатов В. Современная Западная социология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. – 283 с.
- [8]. Самуэлсон П., Нордхаус В. Экономика. – М.: Лаборатория Базовых Знаний, 2000. – 412 с.
- [9] Волгин Н. Социальная политика. – М.: РАГС, 2005. – 537 с.
- [10] Немировский А. История древнего мира. Античность В 2-х т. – М.: Владос, 2000. Т.2. – 379 с
- [11] Xamrayeva S.N., Samiyeva G.T. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – Darslik. – Qarshi. "Intellect" nashriyoti, 2022, 460 bet
- [12] Роик В. Основы социального страхования. – М.: АНКЛ, 2005. – 45 с.
- [13] Ромашов О. Социология труда. – М.: Гардарики, 1999. – 202 с.
- [14] Международная ассоциация социального обеспечения // Энциклопедия. – Москва, 2003. – С. 549-550. <http://issa.int.com>
- [15] Beveridge W. Social Insurance and Allied Services. – London: Report, 1942. – 140 r.
- [16] Адамчук В., Ромашов О., Сорокин М. Экономика и социология труда. – М.: ЮНИТИ, 2001. – 393 с.

Menejment va
marketing

Менеджмент и
маркетинг

Management and
Marketing

Hududlarda to'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmi

Xosilov Shavkat Bekmurodovich

Механизм управления инновационным потенциалом предприятий текстильной промышленности регионов

Хосилов Шавкат Бекмуродович

Mechanism for managing innovative potential at textile industry enterprises in the regions

Xosilov Shavkat Bekmurodovich

Received: August 12, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Bilamizki, sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati va faolligini oshirish milliy iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi, aholi turmush darajasi va farovonligining yanada oshirilishi olib borilayotgan izchil davlat siyosatining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bu esa jahon iqtisodiyotining globallashuv ko'lamini tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday jarayon o'zgarishlariga qarshi tura oluvchi, ichki va tashqi bozor talablariga tezlik bilan moslashuvchi sanoat korxonalarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu boisdan ham, O'zbekiston iqtisodiyotini kelgusida rivojlantirishni asosiy muammolaridan biri globallashuv sharoitida raqobatbardosh va samarali innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi. Bunday natijalarga erishish yuqori texnologik ilmiy ishlab chiqarishdan foydalanishga asoslangan, iqtisodiyotning yetakchi tarmoq va bo'limlarini modernizatsiya va texnik yangilash, yuqori malakali mutaxassis va ilmiy kadrlarni tayyorlash sohasini rivojlantirish va intellektual mulk bozorini shakllantirish orqali erishiladi.
- **Kalit so'zlar:** Innovatsion salohiyat, jahon iqtisodiyoti, globallashuv, mutanosib rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, modernizatsiya, texnik yangilash, mulk bozori.
- **Аннотация:** Мы знаем, что повышение инновационного потенциала и активности промышленных предприятий является главной задачей проводимой последовательной государственной политики для обеспечения устойчивого и сбалансированного развития национальной экономики, её прочных позиций на мировом рынке, дальнейшего повышения уровня жизни и благосостояния населения. Это требует формирования промышленных предприятий, способных противостоять любым технологическим изменениям и быстро адаптироваться к требованиям внутреннего и внешнего рынков в условиях расширяющихся масштабов глобализации мировой экономики. Поэтому одной из основных задач перспективного развития экономики Узбекистана является формирование конкурентоспособной и эффективной инновационной экономики в условиях глобализации. Достижение таких результатов достигается за счёт модернизации и технического обновления ведущих отраслей и комплексов экономики, развития системы подготовки

высококвалифицированных специалистов и научных кадров, формирования рынка интеллектуальной собственности, основанного на использовании высокотехнологичной научной продукции.

- **Ключевые слова:** Инновационный потенциал, мировая экономика, глобализация, сбалансированное развитие, инновационная экономика, модернизация, техническое обновление, рынок недвижимости.
- **Abstract:** We know that increasing the innovative potential and activity of industrial enterprises is the main task of the ongoing consistent state policy for the sustainable and balanced development of the national economy, its strong position in the world market, and further improvement of the living standards and well-being of the population. This requires the formation of industrial enterprises that can withstand any process changes and quickly adapt to the requirements of the domestic and foreign markets in a context of increasing globalization of the world economy. Therefore, one of the main problems of the future development of the economy of Uzbekistan is the formation of a competitive and efficient innovative economy in the context of globalization. Achieving such results is achieved through the modernization and technical renewal of leading sectors and departments of the economy, the development of the training of highly qualified specialists and scientific personnel, and the formation of an intellectual property market, based on the use of high-tech scientific production.
- **Key words:** Innovative potential, world economy, globalization, balanced development, innovative economy, modernization, technical renewal, property market.

KIRISH

Shakllantirilgan ko'rsatkichlar tizimi innovatsion salohiyatning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari to'plami bo'lib, tizimlar va jarayonlar darajasini baholash uchun qo'llaniladi. Innovatsion salohiyatni baholash ko'rsatkichlari bizga belgilangan mezonlar, erishilgan yoki rejadagi darajaga nisbatan qanday holatda ekanligini ifodalashga yordam beradi.

Qator sabablarga ko'ra hududlarning innovatsion salohiyatini baholashda ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va ulardan amaliyotda samarali foydalanish talab qilinadi. Bular:

- baholash mezonlarini boshqa aniq innovatsion ko'rsatkichlar bilan solishtirish imkoniyati qo'lga kiritilishi;
- iqtisodiyotdagi tebranishlar sharoitida amalga oshiriladigan modifikatsiya, hududiy biznesdagi o'zgartirishlar hamda yangi mijozlar talablariga nisbatan moslashuvchanlikni baholash;
- biznesni tahlil qilish va statistikada innovatsiyalarni baholash modellari mavjudligi va o'xshashligi;
- hududdagi innovatsion jarayonlar samaradorligi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish darajasi va boshqalarni baholashda innovatsion o'lchovlarning samaradorligini oshirish.

Bular, o'z navbatida, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ifodalash, hududlarni o'zaro qiyoslash hamda iqtisodiy tebranishlarni bartaraf etishda innovatsiyalarning roli va o'rniga ahamiyat qaratishni talab qiladi. Natijada hududlarda o'zlarining innovatsion jarayonlarini baholash hamda ularga alohida e'tibor qaratishning aniq, belgilangan, qiymatlarga asoslangan yo'nalishlarini aniqlab olish va shular asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish imkoniyati ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Istiqboldagi holat O'zbekiston nafaqat sanoatning texnik darajasi va ishlab chiqarish hajmi bo'yicha industrial mamlakat maqomini olish uchun quyidagi hal etish zarur bo'lgan muammolarning mavjudligini ko'rsatadi:

- O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashning hozirgi bosqichi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan xalqaro raqobatlashuv darajasining pastligi, sanoatning energiya va resurs sig'imdorligining yuqoriligi;
- qo'shilgan qiymat darajasining pastligi, ishlab chiqarish quvvatlarining ortiqchaligi, sanoat korxonalarida mintaqaviy va tarmoqlararo rivojlanishning nomutanosibligi hamda atrof-muhitning ifloslanishi kabi xususiyatlarga ega bo'ladi;
- sanoat texnologiyalari asosan chetdan o'zlashtirilishi, tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar oqimining qoniqarli darajada emasligi hamda milliy korxonalarning innovatsion salohiyati chegaralanganligi kabilar iqtisodiyotni modernizatsiyalashga to'siq bo'luvchi holat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish bo'yicha sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati va faolligini oshirishga qaratilgan quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish joiz:

- sanoatning mehnat sig'imdorligi yuqori bo'lgan tarmoqlariga ko'proq investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq;
- o'zlashtirilgan sanoat jarayonlarini takomillashtirish bilan birga yangi va yuqori texnologiyalarni joriy qilish, innovatsion siyosatni ishlab chiqish va davlat innovatsion tizimini yaratishga qaratish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Innovatsion salohiyatni oshirish, innovatsiyalarni joriy qilish hamda uning rivojlanishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishda boshqaruvni to'g'ri shakllantirish muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Buni inobatga olgan holda innovatsiyalarni boshqarish jarayoniga va uni baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimiga murojaat qilmoqchimiz.

Hududlarda innovatsiyalarni boshqarish jarayonini tahliliy o'rganish va uning samaradorligini baholashda bir qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish taklif qilinadi. Mazkur ko'rsatkichlar to'rtta guruhga ajratilgan holda keltirib o'tiladi. Har qanday faoliyatni, shu jumladan, innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun resurslar lozim bo'ladi va ularni

mavjudlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar yordamida baholab o'tish innovatsiyalarni boshqarishni tahlil qilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Resurslar mavjudligi aniqlangan va ulardan foydalangan holda innovatsiyalar yaratilgandan keyin ularni amaliyotga tatbiq qilish jarayonini ifodalovchi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bu yerda asosiy e'tiborni samarali loyihalarni tanlash talablariga, tanlangan innovatsiyalarning kutilgan natijani berish darajasiga hamda ularni kuzatib borish bilan bog'liq ko'rsatkichlarga qaratish lozim.



1-rasm. To'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmi [11]

Ularni mos ko'rsatkichlar asosida aniqlash va baholash talab etiladi. Innovatsiyalarning oxirgi natijasi qo'shilgan qiymat asosida baholanadi va bunda marjinal daromad, sotuv hajmining oshishi, foyda normasi va daromadning oshishi

kabi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi.

Tadqiqot davomida innovatsion salohiyatni tahlil qilish va baholash modeli asoslari bo'yicha bir qator mualliflarning tadqiqotlari va korxonalar yondashuvlari o'rganildi.

Innovatsion korxonaning umumiy faoliyat sig'imini (bo'limlari va birliklarini) muvaffaqiyati va samarali faoliyatini ifodalaydi. Hududning innovatsion salohiyati esa ushbu hududdagi korxonalarning innovatsion salohiyatlari yig'indisidan tashkil topadi. Buni inobatga olgan holda dastavval korxonaning innovatsion salohiyatini baholashga biroz to'xtalib o'tamiz. Korxonaning sifat va innovatsion salohiyat darajasi biznesni boshqarishning quyidagi yo'nalishlarida yuqori darajadagi innovatsiyalarga erishish uchun juda muhimdir: texnik va texnologik, jumladan, ilmiy-tadqiqot va rivojlantirishga yo'naltirilgan darajaga; savdo va marketing darajasi; logistika darajasi; inson resurslari; boshqarish.

Innovatsiyalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy qilish jarayonlaridagi samaradorlikni o'rganish va baholash tegishli o'lchov birliklari hamda ulardan foydalanishni talab qiladi. O'sish va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha strategik yondashuv tegishli innovatsion loyihalar va biznes jarayonlarini oziqlantiradi. Innovatsion salohiyat darajasini mikroiqtsodiy yoki makroiqtisodiy jihatdan o'lchashning bir qator usullari va vositalari mavjud.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan milliy darajada innovatsion salohiyat bu – rivojlanish va olg'a intilish salohiyatidir. Uni baholash va o'lchash hudud yoki davlatlarning raqobat afzalliklari bilan bog'liq. Mazkur salohiyat mamlakat yoki hududning barcha intellektual mulklari bilan to'g'ri proporsional aloqaga ega. Olingan patent yoki uni olishga murojaatlar soni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda u yerdagi innovatsion salohiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatning innovatsion salohiyati ushbu maqsadlar uchun yo'naltirilgan moddiy va moliyaviy resurslarning YalMga nisbatan ulushi bilan ham baholanadi. Darhaqiqat, sanoat korxonasining innovatsiyaviy salohiyatini oshirish metodologik uslublarini tizimga solmay va takomillashtirmay turib ularning barqaror rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi. Chunki, innovatsiyalar bozorning yangilanishi, tovarlar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, ishlab chiqarish, yetkazib berish va sotishning yangi usullari yaratilishi hamda korxonaning iqtisodiy rivojlanishini boshqarish samaradorligining oshishiga olib keladi. Biroq, ishlab chiqarishning barqaror rivojlanish bilan innovatsiyaviy faoliyatni boshqarish o'rtasidagi bog'liqlikning mavjud emasligi, sanoat korxonalarining fan-texnika yutuqlarini past idrok etishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining mavjud emasligi va innovatsion g'oyalarning bozor ehtiyojlariga mos kelmasligi milliy iqtisodiyotda korxonalar rivojlanishining past samaradorligini belgilab beradi.

Mazkur hollarda biznes, fan va ta'lim subyektlari o'rtasidagi axborot uzilishini bartaraf etish maqsadida sanoat korxonalarining yagona innovatsiyalar reyestrini tashkil etish lozim. Unda mavjud bo'lgan innovatsion loyihalar va

tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirishni takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: - innovatsion mahsulotiga buyurtmalar tizimini shakllantirish; - "hukumat-biznes-fan-ta'lim" tizimini shakllantirish; - innovatsion faoliyatini rivojlantirish muammolarini tahlil qilish va innovatsiyalarni qidirib topish. Aniqroq qilib aytganda, sanoat korxonasining boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish lozim. Ya'ni, joriy etish va rag'batlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hamda innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirishga javob beruvchi tashkiliy tuzilmani tashkil etishdir.

Ayniqsa, hozirgi kunda davlatning rivojlanish darajasi bevosita innovatsiyalar sohasida erishilgan yutuqlari, muvaffaqiyatli raqobatning zarur sharti hisoblangan yangi bilimlarni yaratish va ularni samalari qo'llash qobiliyatlariga bog'liq. Shularni e'tiborga olib, mamlakatimizda sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha ma'lum darajada shart-sharoitlar mavjud.

Bunda innovatsion faollikni oshirish uchun innovatsiyalarni rag'batlantirish milliy tizimini takomillashtirish lozim. Ayniqsa, iqtisodiyotning real sektorini qo'llab quvvatlash, bu orqali ichki bozorni tovar va xizmatlarga to'yintirish, raqobatbardosh mahsulotlar eksport salohiyatini ko'tarish lozim.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xosilov Shavkat Bekturodovich – Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti v.b. dotsenti / Хосилов Шавкат Бекмуродович – и.о. доцента Университета информационных технологий и управления / Khosilov Shavkat Bekturodovich – Acting Associate Professor of the University of Information Technologies and Management.

► hosilov88@bk.ru

■ <https://orcid.org/0009-0003-6612-1235>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (2017–2024 yillar).

- [2]. Kaplan R., Norton D.: Balanced Scorecard: Strategický systém merania výkonnosti podniku. ManagementPress, Praha 2002. ISBN 80-7261-063-5, Kaplan, S., Winby, S.: Innovation Metrics - Measuring Innovation to Drive Strategic Business Growth. InnovationPoint LLC. <http://www.innovation-point.com/Innovation%20Metrics.pdf>, Sabadka D.: Vybrané metódy a techniky pre zvyšovanie inovačného potenciálu výrobných podnikov. Doktorandská dizertačná práca. SJF TU Košice 2004., Švejda, P. a kol.: Inovační podnikání. Praha. Asociace inovačního podnikání. 2007. ISBN 978-80-903153-6-).
- [3]. Pittner, M., Švejda, P.: Řízení inovací v podniku. 1.vyd. Praha. Asociace inovačního podnikání. 2004. ISBN 80-903153-2-1.
- [4]. Борисов А.Б. Большой экономический словарь / А.Б. Борисов. – М.:Книжный мир, 2003. С.428.
- [5]. Kuznetsov D.S. "Upravleniye innovatsiyami v promyshlennosti" – Moskva, 2020.
- [6]. Глазьев С.О. Теория долгосрочного технико-экономического развития /С.Ю. Глазьев. М.: 1993. - 224с.
- [7]. Дойль П. Менеджмент: Стратегия и тактика / Пер. с англ. под ред. Ю.Н. Каптуревского – СПб: Издательство «Питер», 1999.С.58.
- [8]. Muminov M.B. "Innovatsion menejment asoslari" – Toshkent, 2022.
- [9]. Xosilov Sh.B. "To'qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish", Monografiya, Qarshi-2025y.
- [10.] Innovatsion rivojlanish agentligi ma'lumotlari.
- [11.] Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hisobotlari.
- [12.] Jahon banki va UNIDO ma'lumotlari.

Menejment va marketing

Mehnat resurslarining iqtisodiy mazmuni va ularni samarali boshqarishning nazariy asoslari

Haydarova Dinora Atamurot qizi

Экономическое содержание трудовых ресурсов и теоретические основы их эффективного управления

Хайдарова Динора Атамурот кизи

The economic essence of labor resources and theoretical foundations of their effective management

Dinora Atamurot qizi Haydarova

Received: August 11, 2025 Revised: August 17, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada mehnat resurslarining iqtisodiy mohiyati hamda ularning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy yondashuvlari, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish omillari, shuningdek, mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Maqolada mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar, bandlik darajasini oshirish mexanizmlari hamda mehnat unumdorligini ko'tarishning iqtisodiy ahamiyati ochib beriladi.
- **Kalit so'zlar:** mehnat resurslari, iqtisodiy jarayonlar, inson kapitali, mehnat bozori, bandlik, unumdorlik, resurs boshqaruvi.
- **Аннотация:** В данной статье представлен теоретический анализ экономической сущности трудовых ресурсов и их роли в социально-экономическом развитии страны. Освещены основные подходы к эффективному использованию трудовых ресурсов, факторы, влияющие на формирование и развитие человеческого капитала, а также современные теоретико-методологические основы управления трудовыми ресурсами. В статье раскрываются структурные изменения на рынке труда, механизмы повышения уровня занятости и экономическое значение роста производительности труда.
- **Ключевые слова:** трудовые ресурсы, экономические процессы, человеческий капитал, рынок труда, занятость, производительность, управление ресурсами.
- **Abstract:** This article provides a theoretical analysis of the economic essence of labor resources and their role in the socio-economic development of the country. The main approaches to the effective use of labor resources, the factors influencing the formation and development of human capital, as well as the modern theoretical and methodological foundations of labor resource management are highlighted. The article reveals structural changes in the labor market, mechanisms for increasing the level of employment, and the economic significance of enhancing labor productivity.
- **Keywords:** labor resources, economic processes, human capital, labor market, employment, productivity, resource management.

KIRISH

Har bir mamlakat va jamiyatning barqaror iqtisodiy o'sishi hamda ijtimoiy taraqqiyotining poydevori inson kapitali, ya'ni mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bilan belgilanadi. Hududlarda mavjud mehnat salohiyatidan to'liq foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, bandlik darajasini barqaror saqlash va aholining turmush darajasini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan e'lon qilingan "Jahon bandlik va ijtimoiy istiqbollar" (WESO) 2025-yilgi hisobotida qayd etilishicha, "global bandlik o'sishi prognozi qayta ko'rib chiqilganda, ilgari taxmin qilingan 60 million ish o'rniga endilikda faqat 53 million yangi ish o'ri yaratilishi kutilmoqda. Bu holat bandlik o'sish sur'atining 1,7 foizdan 1,5 foizgacha pasayishini, ya'ni 7 millionga kam ish o'ri yaratilishini, ya'ni, global bandlik jarayonlarida jiddiy o'zgarishlar kuzatilishini anglatadi" [1]. Barqaror ishsizlik darajasi saqlanib qolgan bo'lishiga qaramay, XMT ning baholashicha, global miqyosda ish o'rinlari yetishmovchiligi 402,4 million kishini tashkil etib, turli sabablarga ko'ra bandlikka jalb qilinmagan shaxslar sonini o'z ichiga oladi. Xususan, 186 million nafari - ishsiz shaxslar, 137 million nafari - potensial mehnat kuchi vakillari va 79 millionga yaqin shaxslar – sog'liq, ijtimoiy majburiyatlar yoki boshqa to'siqlar sababli mehnat faoliyatiga kirisha olmayotganlardir [1]. Shunday murakkab global sharoitda, har bir hudud, ayniqsa demografik jihatdan faol va mehnat resurslariga boy mintaqalarda mavjud inson kapitalidan samarali foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda nafaqat ish o'rinlari sonini ko'paytirish, balki ularning sifatini oshirish, rasmiy bandlikni kengaytirish, norasmiy sektorda band bo'lgan mehnatkashlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda bandlik sohasida olib borilayotgan islohotlarning natijadorligini baholash, istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda statistik hamda ekonometrik tahlil usullaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" [2] ning 37-maqsvadi doirasida har bir fuqaroning davlat tomonidan moliyalashtirilgan holda kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur yo'nalishda kasbiy ta'lim qamrovini ikki baravar oshirish orqali jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarga tayyorlash rejalashtirilmoqda. Bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizgacha yetkazish ko'zda tutilgan bo'lib, nodavlat sektorining kasbiy ta'lim tizimidagi rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat, kapital, aholi sonining ortishi va tabiiy resurslarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini A.Smit, D.Rikardo, T.Maltus va J.S.Mill kabi mumtoz iqtisodiy maktab vakillari o'z tadqiqotlarida chuqur tahlil qilgan. Xususan, A.Smit mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning iqtisodiy o'sishga ta'siri, milliy boylik yaratishda mehnat resurslarining hal qiluvchi ahamiyatini asoslab bergan. D.Rikardo qiymat va renta nazariyalari orqali mehnat unumdorligi va resurslardan samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratgan. T.Maltus esa aholi sonining ortishi, oziq-ovqat resurslari cheklanganligi va buning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri to'g'risida demografik-iqtisodiy tadqiqotlar olib borgan. J.S.Mill esa iqtisodiy erkinlik, resurslar taqsimoti va ijtimoiy adolat tamoyillarini nazariy jihatdan tahlil qilgan [3].

Umumiy qilib aytganda, mumtoz iqtisodiy maktab vakillari iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslar taqsimotini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratishgan. Mehnat samaradorligining nazariy asoslari, mehnat resurslariga ta'sir qiluvchi omillar, ishlab chiqarish va sanoatda mehnat resurslari samaradorligini oshirish va baholash MDH mamlakatlari olimlaridan A.B.Дейнека, В.А.Беспалько, В.В.Адамчук, А.В.Барышева, А.А.Артёменко, С.Бабынин, В.И.Брылев, С.А.Валуйский, Ю.А.Шварц, А.И.Смирнова, В.В.Ишин, А.Я.Кибанов, О.Е.Германова, Б.Г.Збышко, М.А.Климова, Ю.Г.Одегов, М.Ю.Питкевич, А.И.Рофе, Л.А.Костин, В.В.Новожилов larning tadqiqot ishlarida keltirilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham ushbu muammoni o'rganishda o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Xususan, Q.X. Abdurahmonov (mehnat samaradorligi va uning omillari), Sh.N.Zaynutdinov (sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish), G.Q.Abdurahmonova (kichik biznesda munosib mehnat tamoyillari), X.P.Abdulqosimov (iqtisodiyotda inson omilining shakllanishi), N.Q.Zokirova (inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari), N.T.Shoyusupova (aholining ish bilan bandligini tartibga solish), D.Rahimova, Sh.R.Xolmo'minov, S.E.Xolmurodov (mehnat bozori shakllanishi), A.Tashpulatov, K.S.Ismaylov (agrosanoat majmuasida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish), F.U.Mamarasulov, Z.Ya.Xudoyberdiyev va boshqa (sanoat korxonalarida ishchilar malakasini oshirish va foydalanish) ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada ilmiy mushohada, taqqoslama tahlil, analiz

va sintez, iqtisodiy-statistik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat resurslari iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib, mehnat bozorining tashkil etilishi, ishchi kuchi taqsimoti va uning samarali ishlatilishi haqida ko'plab ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar olib borilishiga qaramasdan,

ushbu muammolar hali ham munozarali bo'lib qolmoqda. Mehnat resurslari – bu jamiyatdagi mehnatga layoqatli, ya'ni iqtisodiy faol bo'lgan aholining umumiy yig'indisidir. O'zbekiston qonunchiligida mehnat resurslari soni erkaklar uchun 16-60 yoshgacha, ayollar uchun 16-58 yoshgacha ishchi kuchi statistikasi yuritiladi. Shuningdek, mehnat resurslariga pensiya yoshidagi, ammo ishlayotgan fuqarolar, 16 yoshdan kichik, lekin qonuniy ravishda ishlayotgan shaxslar, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalarini tugatgan va ishga kirgan yoshlar ham qo'shiladi.



1-rasm. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan yangi ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni oshirish yo'nalishlari

Ta'kidlash joizki, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlaktimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda, xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformasiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida 2022 yil 28 yanvarda respublika Prezidentining PF-60-sonli farmoni qabul qilinib, yettita ustuvor yo'nalishdan iborat "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ishlab chiqildi [2].

Taraqqiyot startegiyasining yuqoridagi rasmda keltirilgan

85-maqsadida, Prezidentimiz tomonidan hududlardagi demografik vaziyatdan kelib chiqib "mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" ning ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Mehnat resurslarining miqdor va sifat jihatidan rivojlanishi hududlar demografik holati bilan bog'liq bo'lib, yoshlar orasida ishga kirish imkoniyati ko'proq bo'ladi, bu esa mehnat resurslarining miqdorini oshirishga yordam beradi. Butun dunyoda mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat sharoitlari va qonunlarini yaxshilash muammolarini Xalqaro mehnat tashkiloti ta'minlab, bu tashkilot konvensiya va tavsiyalarni joriy qilish uchun xalqaro komissiya sifatida

tuzilgan. XMT mehnat bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqib, bular:

- 8 soatlik ish kuni;
- onalikni himoya qilish;
- bolalar mehnatiga oid qonunlar va ish o'rinlarida xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan xalqaro me'yorlar ishlab chiqish;
- ish bilan bandlik dasturlarini tayyorlash [1].

Ushbu tashkilotga jahonning 187 ta davlatlari a'zo bo'lib, O'zbekiston hamkorligini 1992-yilda boshlagan. Bu tashkilot mehnatni muhofaza qilish, sharoitlarni yaxshilash, bandlikni to'liq ta'minlash va yashash darajasini oshirish, tashkilotlar va mehnatkashlar orasidagi hamkorlikni mustahkamlash choralarini ishlab chiqish uchun tadbirkorlar, hukumatlar va mehnatkashlarni teng huquqlarda birlashtiradi. Mamlaktimizning XMT bilan hamkorlik munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilib sezilarli o'zgarishlarga erishmoqda,

jumladan:

- aholi yashash darajasini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash tizimidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratildi;
- mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilash yo'lida takliflar va normativ hujjatlar takomillashtirilgan;
- iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda kasb-hunar ta'limi orqali fuqarolarni ish bilan band qilish imkoniyatlari oshirildi;
- majburiy mehnat, bolalar mehnati va diskriminatsiyaga qarshi kurashish standartlari joriy qilindi. XMT standartlarini tadbqiq etish davlatlar va tashkilotlarga xalqaro mehnat huquqlarini inobatga olish orqali mehnat sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va ishchilarning yuqori farovonligi yo'lida harakat qilishda yordam beradi.



2-rasm. Mehnat resurslari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Ularni amalga oshirish, nafaqat ishchilar manfaatlarini himoya qilish, balki iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra "...xalqaro hamjamiyatda iqtisodiy manfaatlar borasida raqobatning keskinlashuvi yuz berayotgan davrda rivojlanayotgan davlatlarda mavjud mehnat resurslaridan to'liq hamda samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda".

Mehnat resurslarining samarali taqsimoti iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi va harajatlarni kamaytiradi. Chunki har bir ishchiga o'zga xos ko'nikmalar asosida barcha ish jarayonlarini tashkil qilish imoniyati yaratiladi.

Mehnat resurslariga yangi texnologiyalarni tadbiq etish va ulardan foydalanishda, malakali ishchilar esa innovatsiyalarni yaratishda va joriy etishda ish jarayonlarini optimallashtirishga, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Texnologik jarayonlarda avtomatlashtirish intensiv rivojlanmoqda, ushbu jarayonlarga moslashish va optimal ishlash uchun mehnat resurslari yangi avlod texnologiyalarini o'zlashtirishga tayyor bo'lishlari zarur. Samarali mehnat resurslari texnologik jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mehnat resurslaridan samarali foydalanish borasida hali ko'plab islohotlarni amalga oshirish zarur. Norasmiy bandlik yuqori, mehnat unumdorligi past, yoshlar ishsizligi va gender tafovut sezilarli darajada katta. Mehnat bozorini rivojlantirish uchun kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, texnologiyalarni joriy etish, norasmiy bandlikni kamaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar zarur.

O'zbekiston mehnat bozori samarali foydalanish tamoyillariga asoslanib rivojlanmoqda, lekin ba'zi muammolar hal qilinishi zarur:

- Yangi ish o'rinlarini yaratish va ish haqi oshirishini ta'minlash
- Ta'lim va kasbiy malakalarni bozor talablariga moslashtirish
- Mehnat migratsiyasini tizimli boshqarish va xorijda

ishlayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash

- Ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish.

Agar islohotlar izchil davom ettirilsa, O'zbekiston yaqin yillarda bandlik va mehnat unumdorligi bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishishi mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Haydarova Dinora Atamurot qizi – Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti / Хайдарова Динора Атамурот кизи – докторант (PhD) Термезского государственного университета / Dinora Atamurot qizi Haydarova – PhD student at Termez State University

► haydarova.14@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0007-3921-9658>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Xalqaro mehnat tashkiloti: [https://www.ilo.org/resource/news/global-employment-forecast-downgraded-7-million-jobs-2025-amid-rising#:~:text=GENEVA%20\(ILO%20News\)%20%E2%80%93%20The,projection%20of%203.2%20per%20cent](https://www.ilo.org/resource/news/global-employment-forecast-downgraded-7-million-jobs-2025-amid-rising#:~:text=GENEVA%20(ILO%20News)%20%E2%80%93%20The,projection%20of%203.2%20per%20cent).
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-sonli farmoni
- [3] Abdurahmanov Q.X., Abduramanov X.X. "Mehnat resurslarini boshqarish", O'quv qo'llanma, T.: Ilm Ziyo, 2014, 272 b.
- [4] Колосова Р.П., Меликьян Г.Г. "Занятость, рынок труда и социально-трудовые отношения" Учебно-методическое пособие, ТЕИС, 2008 г., 458 стр
- [5] Н.А.Волгин, Ю.Г. Одегов "Экономика труда: социально-трудовые отношения": Учебник. М.: Экзамен, 2006. – С.35.
- [6] K.X.Abdurahmonov. "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot". Darslik. – T.: "Fan", 2019.

Oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish

Xakimov Temur To'ra o'g'li

Совершенствование организационно- экономического механизма государственно- частного партнерства в сфере высшего образования

Хакимов Темур Тора оглы

Improvement of the organizational and economic mechanism of public-private partnership in the sphere of higher education

Khakimov Temur Tora oglu

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining mavjud holati tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha tashkiliy va iqtisodiy takliflar ishlab chiqilgan. Tahlil jarayonida rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilgan va ularning asosida O'zbekistonda oliy ta'limni barqaror moliyalashtirishda DXShning o'rni va roli ochib berilgan.
- **Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari, innovatsion startaplar, raqamli ta'lim infratuzilmasi, DXSh modeli.
- **Аннотация:** В данной статье анализируется текущее состояние механизмов государственно-частного партнёрства (ГЧП) в системе высшего образования и разрабатываются организационно-экономические предложения по их совершенствованию. В процессе анализа изучен опыт развитых стран и раскрыта роль ГЧП в устойчивом финансировании высшего образования в Узбекистане.
- **Ключевые слова:** механизмы государственно-частного партнерства (ГЧП), инновационные стартапы, цифровая образовательная инфраструктура, модель ГЧП.
- **Abstract:** This article analyzes the current state of public-private partnership (PPP) mechanisms in the higher education system and proposes organizational and economic improvements. The experience of developed countries has been studied, and the role of PPP in sustainable financing of higher education in Uzbekistan is revealed.
- **Key words:** public-private partnership (PPP) mechanisms, innovative start-ups, digital educational infrastructure, PPP model.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimi har bir davlatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida islohotlar olib borilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar esa ushbu tizimni rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

1. Davlat-xususiy sheriklik tushunchasi va mohiyati

- DXSh bu - davlat va xususiy sektor o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik shaklidir.

- U oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, ilm-fan loyihalarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda samarali mexanizmdir.

2. O'zbekistonda DXShning amaldagi holati

- Ayni paytda ba'zi universitetlarda yotoqxona qurilishi, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilishi DXSh asosida amalga oshirilmoqda.

- Hukumat tomonidan DXShni qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilik bazasi yaratilib, soliq imtiyozlari taqdim etilmoqda.

3. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish takliflari

- DXSh loyihalarini rejalashtirishda manfaatdor tomonlarning ishtirokini oshirish;

- Moliya institutlari bilan sheriklikni kuchaytirish;

- Ta'lim kreditlari, grantlar va subsidiyalarni DXSh tizimiga kiritish;

- DXSh samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

4. Xorijiy davlatlar tajribasi: o'rganish uchun namunalar

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va ilmiy salohiyatni oshirishga qaratilgan islohotlar jarayonida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu mexanizm ta'lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilash, sifatli ta'lim xizmatlari ko'lamni kengaytirish va ta'limni moliyalashtirishda davlat byudjetiga bo'lgan bosimni kamaytirishga yordam beradi.

DXSh nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishga sharoit yaratadi. Hozirgi paytda ko'plab davlat oliygohlarida ta'lim binolari yetishmasligi, talabalar uchun yashaash sharoitlari zaifligi va o'quv-ilmiy laboratoriyalarning texnik jihatdan eskirganligi kuzatilmoqda. Bunday muammolarni hal etishda xususiy sektor salohiyatidan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonda DXSh huquqiy asosi 2019 yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun bilan mustahkamlandi. Shu bilan birga, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan

dasturlar orqali ushbu mexanizmni qo'llashning aniq yo'nalishlari belgilandi. Aksariyat loyihalar sog'liqni saqlash, transport va energetika sohaslarida faol qo'llanilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda oliy ta'lim sohasida ham DXSh loyihalarini amalga oshirilmoqda.

Ta'lim sohasida DXSh modelining amalga oshirish shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, xususiy investor oliygoh hududida talabalar yotoqxonasini qurib, uzoq muddatli ijara asosida uni boshqaradi. Yoki universitet ehtiyojlari uchun kerakli uskunalarni yetkazib berish, axborot texnologiyalari tizimini joriy etish, elektron kitobxonalar tashkil etish kabi sohalarda hamkorlik qilinadi. Ba'zi hollarda, xususiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda yangi dasturlar, ilmiy markazlar ochish yo'lga qo'yiladi.

Xususiy sektorning ishtirokini faollashtirish uchun davlat tomonidan tegishli kafolatlar, soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari va boshqa rag'batlar joriy etilishi zarur. Shu bilan birga, DXSh loyihalarining oqilona boshqarilishi, ulardagi xavf-xatarlarni to'g'ri taqsimlash, loyiha natijalarining aniq monitoringi va bahosi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ular asosan infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan. Masalan, bir qator universitetlarda xususiy investorlar hisobiga yotoqxonalar, yangi o'quv binolari qurilmoqda. Shu bilan birga, talabalar uchun qulay yashash va o'qish muhitini yaratishda zamonaviy jihozlar, internet infratuzilmasi va madaniy-intellektual muhitni shakllantirish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Bundan tashqari, DXSh mexanizmi oliy ta'limni moliyalashtirishda ham yangi imkoniyatlar ochmoqda. Davlat byudjeti hisobidan barcha ehtiyojlarni qoplash murakkab vazifa ekanligini inobatga olgan holda, xususiy sektorni moliyaviy hamkorlikka jalb qilish samaradorlikni oshiradi. Xususan, innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash, texnoparklar tashkil etish va ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish DXSh orqali amalga oshirilishi mumkin.

DXSh modelini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislari uchun DXSh loyihalarini boshqarish bo'yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish;

- DXSh shartnomalarida shaffoflik va tenglik tamoyillarini ta'minlash;

- Loyihalarini baholash va monitoring qilishning mustaqil tizimini yaratish;

- Mahalliy va xorijiy investorlar uchun DXSh imkoniyatlari haqida keng axborot berish, targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

- Ta'lim, ilm-fan va sanoat o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, masalan, korxonalarni oliygohlar huzuridagi amaliyot markazlari sifatida jalb qilish.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, ko'plab davlatlar

DXShni oliy ta'limda samarali qo'llashga muvaffaq bo'lgan. Masalan, Janubiy Koreyada universitetlar axborot texnologiyalari kompaniyalari bilan hamkorlikda zamonaviy laboratoriyalar tashkil etgan. Avstriya va Germaniyada oliy ta'lim muassasalari xususiy biznes bilan birgalikda kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirmoqda. Bu tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston uchun mos, milliy sharoitlarga moslashtirilgan DXSh modellari ishlab chiqilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikning tashkil etilishi ta'lim sifatini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion muhitni shakllantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bunda davlat va xususiy sektor o'rtasida o'zaro ishonch, aniq qonunchilik bazasi va professional boshqaruv tizimi mavjud bo'lishi lozim. Agar mazkur omillar ta'minlansa, DXSh mexanizmi O'zbekiston oliy ta'limida muhim harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Buyuk Britaniya: PPP asosida universitet kampuslari, ilmiy markazlar barpo etiladi. Xususiy kompaniyalar o'quv infratuzilmasiga katta sarmoya kiritadi. Ta'lim sohasidagi loyihalar uzoq muddatli kontraktlar asosida amalga oshiriladi.

Janubiy Koreya: Raqamli ta'lim infratuzilmasi xususiy IT kompaniyalar bilan sheriklikda rivojlantiriladi. Xususan, onlayn ta'lim platfomalari, raqamli kutubxonalar va texnoparklar yaratishda DXSh samarali ishlatilmoqda.

Malayziya: Oliy ta'lim muassasalari bilan xususiy kompaniyalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilmoqda. Hozirda yirik universitetlar sanoat bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritmoqda.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, DXSh faqat infratuzilma emas, balki ilmiy izlanishlar, innovatsiyalar va kasbiy tayyorgarlik sifatini ham oshiradi.

Davlat-xususiy sheriklik modeli O'zbekistonda oliy ta'limni

rivojlantirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada ko'rsatilgan tashkiliy va iqtisodiy takliflarni amalga oshirish orqali DXSh samaradorligini oshirish, investorlar uchun ishonchli muhit yaratish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xakimov Temur To'ra o'g'li Axborot texnologiyalari va menejmen universiteti Iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti // Хакимов Темур Тора оглы, студент 1 курса магистратуры, специальность «Экономика», Университет информационных технологий и управления // Khakimov Temur Tora oglu, 1st year master's student, specialty "Economics", University of Information Technology and Management

► timurrr3444@gmail.com

■ 0009-0007-6151-6130

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari (2017–2024).
- [2]. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun, 2019-yil.
- [3]. Jahon banki: "Public-Private Partnerships in Education" (2020).
- [4]. UNESCO: "Innovative Financing for Education" (2019).
- [5]. Avstraliya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya ta'lim vazirliklari hisobotlari.
- [6]. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma'lumotlari.
- [7]. Scopus va JSTOR bazalaridagi mavzuga oid ilmiy maqolalar.

AIM lean (adaptive–innovative–management lean) как драйвер инновационного развития предприятий Узбекистана

Аликулов Миржахон

AIM lean (adaptive–innovative–management lean) as a driver of innovative development of enterprises in Uzbekistan

Alikulov Mirzhakhon

AIM lean (adaptive–innovative–management lean) O'zbekistonda korxonalarning innovatsion rivojlanishining drayveri sifatida

Aliqulov Mirjaxon

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Аннотация:** В условиях цифровой трансформации и формирования интеллектуальной экономики перед предприятиями Узбекистана стоит задача поиска новых управленческих моделей, способных обеспечить инновационное развитие и устойчивую конкурентоспособность. Одним из ключевых направлений является адаптация концепции Lean management, которая доказала свою эффективность в мировой практике, однако требует модификации применительно к особенностям трансформационной экономики. В данной статье обосновывается теоретическая и методологическая значимость разработанной модели AIM Lean, интегрирующей классические принципы бережливого производства с цифровыми технологиями и интеллектуальными инструментами стратегического управления. Автором предлагается концептуальная схема взаимосвязи AIM Lean и инновационного развития, а также представлены сравнительные характеристики традиционного Lean management и AIM Lean. Теоретический вклад заключается в разработке нового подхода к управлению предприятиями, ориентированного на устойчивый рост, цифровизацию и инновационную активность. Практическая значимость исследования определяется возможностью применения модели AIM Lean на промышленных предприятиях Узбекистана для повышения эффективности и формирования долгосрочных конкурентных преимуществ.
- **Ключевые слова:** Lean management; AIM Lean; инновации; цифровая экономика; стратегическое управление; бережливое производство; конкурентоспособность; Узбекистан.
- **Abstract:** In the context of digital transformation and the development of the intellectual economy, enterprises in Uzbekistan face the challenge of adopting new management models that can ensure innovative growth and sustainable competitiveness. One of the key directions is the adaptation of the Lean management concept, which

has proven its effectiveness worldwide but requires modification to meet the specifics of transitional economies. This article substantiates the theoretical and methodological significance of the AIM Lean model, which integrates classical Lean production principles with digital technologies and intelligent strategic management tools. The author proposes a conceptual framework illustrating the interconnection between AIM Lean and innovative development, as well as provides a comparative analysis of traditional Lean management and AIM Lean. The theoretical contribution lies in the development of a new approach to enterprise management aimed at sustainable growth, digitalization, and innovation. The practical significance of the study is determined by the potential application of the AIM Lean model in industrial enterprises of Uzbekistan to increase efficiency and build long-term competitive advantages.

- **Keywords:** This article analyzes the current state of public-private partnership (PPP) mechanisms in the higher education system and proposes organizational and economic improvements. The experience of developed countries has been studied, and the role of PPP in sustainable financing of higher education in Uzbekistan is revealed.
- **Annotatsiya:** Raqamli transformatsiya va intellektual iqtisodiyot shakllanayotgan sharoitda O'zbekiston korxonalari oldida innovatsion rivojlanishni va barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlay oladigan yangi boshqaruv modellarini izlash vazifasi turibdi. Muqobil yo'nalishlardan biri bu jahon tajribasida samaradorligi isbotlangan, biroq transformatsion iqtisodiyot sharoitiga moslashtirishni talab qiladigan Lean management konsepsiyasining adaptatsiyasidir. Ushbu maqolada klassik tejamkor ishlab chiqarish tamoyillarini raqamli texnologiyalar va intellektual strategik boshqaruv vositalari bilan integratsiyalashgan AIM Lean modeli nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligi asoslab beriladi. Muallif tomonidan AIM Lean va innovatsion rivojlanish o'zaro bog'liqligining konseptual sxemasi taklif etiladi, shuningdek, an'anaviy Lean management va AIM Leanning qiyosiy xususiyatlari taqdim etiladi. Tadqiqotning nazariy hissi korxonalarni boshqarishda barqaror o'sish, raqamlashtirish va innovatsion faollikka yo'naltirilgan yangi yondashuv ishlab chiqilishida namoyon bo'ladi. Amaliy ahamiyati esa O'zbekiston sanoat korxonalarida AIM Lean modelini qo'llash orqali samaradorlikni oshirish va uzoq muddatli raqobat ustunliklarini shakllantirish imkoniyati bilan belgilanadi.
- **Kalit so'zlar:** Lean management; AIM Lean; innovatsiyalar; raqamli iqtisodiyot; strategik boshqaruv; tejamkor ishlab chiqarish; raqobatbardoshlik; O'zbekiston.

ВВЕДЕНИЕ

Современный этап социально-экономического развития характеризуется стремительным распространением цифровых технологий, ростом значимости знаний и информации как ключевых факторов конкурентоспособности. В этих условиях предприятиям Узбекистана необходимо вырабатывать новые управленческие подходы, ориентированные не только на снижение издержек и повышение эффективности, но и на обеспечение инновационного развития, что особенно актуально в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030».

Одной из наиболее востребованных в мировой практике концепций повышения эффективности является Lean management (бережливое управление), зародившийся в японской промышленности и доказавший свою универсальность в самых разных отраслях. Суть Lean состоит в систематическом устранении потерь, концентрации на создании ценности для клиента и внедрении культуры непрерывных улучшений. Данный подход обеспечил высокие результаты в компаниях, работающих в условиях стабильных рыночных систем, однако его применение в трансформационных

экономиках имеет определённые ограничения. В частности, узбекские предприятия сталкиваются с проблемами недостаточной цифровой зрелости, слабой инновационной активности и высокой зависимостью от внешней конъюнктуры, что требует модификации классических подходов.

В этой связи возникает необходимость адаптации Lean management к условиям цифровизации и инновационного развития. Теоретическая и практическая значимость заключается в создании такой модели управления, которая сочетала бы принципы бережливости с возможностями цифровых технологий, обеспечивая предприятиям не только повышение эффективности, но и условия для долгосрочного устойчивого роста. Ответом на этот вызов стала разработанная автором модель AIM Lean — инновационный вариант бережливого управления, ориентированный на интеллектуализацию производственных и управленческих процессов.

Модель AIM Lean (Adaptive-Innovative-Management Lean) представляет собой интеграцию традиционных инструментов Lean с возможностями искусственного интеллекта, больших данных, систем ERP и IoT. Она нацелена на адаптацию предприятий к динамичным условиям рынка, стимулирование инновационной активности и формирование устойчивых конкурентных

преимуществ. В отличие от классического Lean, сосредоточенного преимущественно на снижении издержек, AIM Lean позиционируется как драйвер инновационного развития, то есть как стратегическая основа для перехода к интеллектуальной экономике.

Научная новизна данной работы заключается в обосновании AIM Lean как теоретически целостной модели, способной восполнить пробел между классической философией бережливого производства и требованиями цифровой трансформации. Теоретическая ценность заключается в разработке новой управленческой парадигмы, а практическая значимость — в возможности использования AIM Lean на промышленных предприятиях Узбекистана, в частности в текстильной и машиностроительной отраслях, где процессы цифровизации активно набирают темпы.

Цель исследования состоит в обосновании AIM Lean как инновационной управленческой модели, интегрирующей принципы бережливого производства и современные цифровые инструменты для обеспечения инновационного развития предприятий Узбекистана.

Задачи исследования включают:

1. Рассмотрение теоретических основ Lean management и его эволюции в мировой практике.
2. Выявление ограничений применения классического Lean в условиях трансформационных экономик.
3. Обоснование ключевых элементов и философии модели AIM Lean.
4. Определение роли AIM Lean как драйвера инновационного развития.
5. Формулировку направлений дальнейших исследований и возможностей практической апробации модели.

Таким образом, актуальность исследования обусловлена необходимостью разработки новых управленческих моделей, отвечающих требованиям цифровой трансформации экономики Узбекистана. AIM Lean рассматривается в данной статье как перспективный инструмент стратегического управления, соединяющий эффективность, инновации и цифровизацию.

■ МЕТОДИКА ИССЛЕДОВАНИЯ

Теоретико-методологическая база

Исследование опирается на сочетание классических управленческих теорий и современных концепций цифровой трансформации. Основу составили:

- фундаментальные положения Lean management,

разработанные Таичи Оно в рамках производственной системы Toyota, а также систематизированные в трудах Дж. Вумека и Д. Джонса;

- теории инновационного развития, сформулированные Й. Шумпетером, где инновации рассматриваются как ключевой драйвер экономического роста;
- концепция стратегического управления и роли менеджмента в условиях изменяющейся внешней среды, представленные в трудах П. Друкера;
- современные исследования, посвящённые внедрению индустрии 4.0, цифровых технологий и искусственного интеллекта в промышленность (OECD, UNIDO);
- национальные нормативные документы, включая стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030», где поставлены задачи по цифровизации промышленного сектора, а также статистические данные Госкомстата о внедрении инноваций и цифровых технологий.

Такое сочетание позволило сформировать методологическую основу, в которой Lean рассматривается не изолированно, а в контексте цифровой трансформации и инновационного развития национальной экономики.

Применяемые методы исследования

Для обеспечения комплексности анализа использовался широкий спектр научных методов, позволяющих связать теоретические подходы и практические данные.

1. Системный анализ — применён для выявления взаимосвязей между традиционным Lean, цифровыми технологиями (Big Data, IoT, ERP-системами) и инновационной активностью предприятий. Данный метод позволил рассматривать AIM Lean как элемент целостной системы инновационного развития.
2. Сравнительный метод — использовался для сопоставления возможностей и ограничений классического Lean и предлагаемой модели AIM Lean. Результаты анализа будут представлены в Таблице 1, где ключевые параметры двух моделей (цели, инструменты, роль в инновационном развитии) даны в структурированном виде.
3. Контент-анализ — применён для обработки данных научных публикаций, стратегических документов, международных отчётов (например, OECD STI Outlook, World Bank Industry Competitiveness Report). Это позволило выявить современные тренды в области бережливого управления и инноваций.
4. Структурно-логическое моделирование — использовано для построения концептуальной схемы влияния AIM Lean на инновационное развитие предприятий. В Таблице 2 будет представлена логическая

модель взаимосвязей между ключевыми элементами AIM Lean и направлениями инновационной активности.

5. Эмпирический анализ — основан на статистических данных Госкомстата Республики Узбекистан. Например, по данным 2023 года, доля предприятий, внедряющих инновации, составила лишь 9,7 %, а уровень использования цифровых технологий в промышленности — 12,4 %. Эти показатели свидетельствуют о необходимости новых моделей управления, способных стимулировать инновационное развитие.

Эмпирическая база и практический опыт

Эмпирическая база исследования включает как официальные статистические данные, так и практический опыт автора.

1. Официальные данные:

- Согласно Госкомстату, в Узбекистане лишь около 10 % промышленных предприятий внедряют инновационные технологии, что значительно ниже среднемирового уровня (в странах ЕС — более 50 %).
- В отчётах World Bank отмечается, что производительность труда в промышленности Узбекистана остаётся на 35–40 % ниже, чем в странах Восточной Европы, что указывает на необходимость повышения эффективности через Lean и цифровые технологии.

2. Практический опыт автора:

Автор проходил специализированный тренинг по Lean Six Sigma Management, организованный международной организацией Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ). В ходе обучения был получен опыт применения инструментов «DMAIC», «Kaizen», «Value Stream Mapping» и других методов оптимизации. Данный практический опыт позволил:

- сопоставить международные стандарты Lean Six Sigma с условиями предприятий Узбекистана;
- выявить дефицит цифровых инструментов в классическом Lean;
- обосновать необходимость создания гибридной модели AIM Lean, интегрирующей бережливое управление и цифровизацию.

Методологическая новизна

Новизна методики исследования заключается в том, что впервые предложено объединение трёх уровней управления:

2. Lean management — традиционные принципы устранения потерь и повышения эффективности;
3. Инновационный менеджмент — стимулирование новых продуктов, технологий и организационных решений;
4. Цифровая экономика — использование

искусственного интеллекта, больших данных и IoT как факторов интеллектуализации процессов.

Таким образом, AIM Lean рассматривается не только как система сокращения издержек, но и как интеграционная модель, способная стать драйвером инновационного развития предприятий Узбекистана.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Современное состояние инновационного и цифрового развития Узбекистана

Анализ последних данных за 2025 год показывает, что в Узбекистане наблюдаются качественные сдвиги в развитии цифровой инфраструктуры, инновационной активности и промышленного сектора. Согласно отчету UNDP (2025), цифровая экономика становится одним из ключевых факторов модернизации национальной экономики. Число пользователей Интернета в стране достигло 32,7 млн человек, что составляет около 89 % населения. При этом средняя скорость мобильного интернета выросла до 37,8 Мбит/с, что позволило значительно повысить возможности предприятий по внедрению технологий дистанционного управления, анализа больших данных и автоматизации бизнес-процессов.

В то же время, согласно исследованию Startup Genome (2025), в стране действует более 12 венчурных фондов с совокупным капиталом свыше 136 млн USD, что почти в 10 раз превышает показатель пятилетней давности. Это свидетельствует о росте инвестиционной привлекательности национальной инновационной экосистемы и формировании условий для финансирования технологических стартапов.

Однако данные Госкомстата (2025) показывают, что доля предприятий, внедряющих инновационные технологии, остается сравнительно низкой — 11,2 %, хотя это выше уровня 2023 года (9,7 %). При этом уровень использования цифровых технологий в промышленности составляет лишь 14,6 %, что значительно ниже среднего уровня стран ЕС (более 50 %). Такая ситуация указывает на наличие системного разрыва между доступной цифровой инфраструктурой и фактическим уровнем ее интеграции в промышленность.

Сравнительный анализ Lean и AIM Lean

Для оценки потенциала внедрения AIM Lean был проведен сравнительный анализ с классическим Lean management.

Параметр Классический Lean Management A I M Lean (разработанная модель)

Основная цель Снижение издержек, устранение потерь
Инновационное развитие и цифровая трансформация

Инструменты 5S, Kaizen, Kanban, Just-in-Time, VSM
 Lean-инструменты + AI-аналитика, Big Data, IoT, ERP
 Уровень инновационности Низкий, ограничен процессными улучшениями
 Высокий, интеграция цифровых и интеллектуальных технологий
 Роль в управлении Операционная эффективность
 Стратегический драйвер инновационного развития
 Применимость в Узбекистане Частично ограничена (низкая цифровизация отраслей)
 Высокая (синергия с программой «Цифровой Узбекистан – 2030»)

Влияние на конкурентоспособность Умеренное
 Системное и долгосрочное
 Интерпретация результатов:
 Классический Lean ориентирован на снижение затрат и оптимизацию процессов, но в условиях Узбекистана он недостаточен для решения задач цифровизации и повышения инновационного потенциала. AIM Lean, напротив, рассматривает бережливое управление как часть более широкой интеграционной модели, объединяющей Lean, инновационный менеджмент и цифровую экономику.

Таблица 1.

Сравнение Lean management и модели AIM Lean

ПАРАМЕТР	КЛАССИЧЕСКИЙ LEAN MANAGEMENT	AIM LEAN (РАЗРАБОТАННАЯ МОДЕЛЬ)
Основная цель	Снижение издержек, устранение потерь	Инновационное развитие и цифровая трансформация
Инструменты	5S, Kaizen, Kanban, Just-in-Time, VSM	Lean-инструменты + AI-аналитика, Big Data, IoT, ERP
Уровень инновационности	Низкий, ограничен процессными улучшениями	Высокий, интеграция цифровых и интеллектуальных технологий
Роль в управлении	Операционная эффективность	Стратегический драйвер инновационного развития
Применимость в Узбекистане	Частично ограничена (низкая цифровизация отраслей)	Высокая (синергия с программой «Цифровой Узбекистан – 2030»)
Влияние на конкурентоспособность	Умеренное	Системное и долгосрочное

Концептуальная модель влияния AIM Lean

В целях систематизации полученных результатов была разработана концептуальная модель взаимосвязей между элементами AIM Lean и направлениями инновационного развития предприятий.

Элемент AIM Lean Направление влияния Ожидаемый результат

Lean-инструменты (Kaizen, 5S, VSM) Оптимизация производственных процессов Снижение издержек на 10–15 %

Цифровизация (IoT, Big Data, ERP) Автоматизация и повышение прозрачности операций Р о с т

производительности на 15–20 %

Искусственный интеллект Поддержка управленческих решений и прогнозирования У с к о р е н и е внедрения инноваций

Инновационный менеджмент Разработка новых продуктов и услуг Увеличение доли инновационной продукции в промышленности на 5–7 %

Подготовка и обучение кадров П о в ы ш е н и е компетенций и инновационной культуры

Формирование устойчивых практик инновационного развития

Таблица 2.

Влияние AIM Lean на инновационное развитие предприятий

ЭЛЕМЕНТ AIM LEAN	НАПРАВЛЕНИЕ ВЛИЯНИЯ	ОЖИДАЕМЫЙ РЕЗУЛЬТАТ
Lean-инструменты (Kaizen, 5S, VSM)	Оптимизация производственных процессов	Снижение издержек на 10–15 %
Цифровизация (IoT, Big Data, ERP)	Автоматизация и повышение прозрачности операций	Рост производительности на 15–20 %
Искусственный интеллект	Поддержка управленческих решений и прогнозирования	Ускорение внедрения инноваций
Инновационный менеджмент	Разработка новых продуктов и услуг	Увеличение доли инновационной продукции в промышленности на 5–7 %
Подготовка и обучение кадров	Повышение компетенций и инновационной культуры	Формирование устойчивых практик инновационного развития

■ ВЫВОДЫ

AIM Lean обеспечивает многоуровневый эффект: от снижения издержек до повышения инновационной активности и внедрения цифровых решений, что позволяет предприятиям формировать конкурентные преимущества не только на локальном, но и на международном рынке.

Практическая апробация и опыт автора

Автором был пройден специализированный тренинг Lean Six Sigma Management (организация GIZ), где освоены такие инструменты, как DMAIC, Kaizen и Value Stream Mapping. Сравнение полученного опыта с реальными условиями предприятий Узбекистана выявило несколько ключевых ограничений:

1. Недостаточная цифровизация производственных процессов, отсутствие интеграции с системами Big Data и IoT.
2. Ограниченное использование статистических методов анализа данных, что снижает эффективность управленческих решений.

3. Преобладание краткосрочных оптимизационных мероприятий над стратегическими инновационными программами.

Эти факторы стали основанием для разработки AIM Lean как адаптивной модели, способной сочетать преимущества Lean и инструменты цифровизации, обеспечивая долгосрочную устойчивость предприятий. Итоговые результаты

Таким образом, результаты исследования подтверждают, что:

- AIM Lean является более адекватной моделью для условий Узбекистана по сравнению с классическим Lean.
 - Она отвечает задачам «Цифрового Узбекистана – 2030», поддерживая цели цифровизации и инновационного развития.
 - Эмпирические данные 2025 года (рост интернет-покрытия, увеличение объема венчурного финансирования, расширение инновационной активности предприятий) создают объективные предпосылки для широкого внедрения AIM Lean.
- Направления дальнейших исследований

Полученные результаты исследования демонстрируют высокий потенциал модели AIM Lean для ускорения инновационного развития предприятий Узбекистана. Однако для окончательной институционализации данной концепции и её практического внедрения требуется проведение дополнительных, углублённых научных исследований. Эти исследования должны носить междисциплинарный характер, сочетая элементы экономической теории, менеджмента, цифровых технологий и институционального анализа. Эмпирическая апробация AIM Lean в отраслевом разрезе Одним из приоритетных направлений выступает необходимость проведения отраслевых кейс-стади (case studies), которые позволят проверить эффективность AIM Lean на практике. В условиях Узбекистана особое значение имеют отрасли:

- текстильная промышленность, где цифровизация остаётся на уровне 9,1 %,
- машиностроение и автомобилестроение, где показатель составляет 11,4 %,
- фармацевтика, с уровнем цифровизации около 12,7 % (Госкомстат, 2025).

В этих секторах наблюдается значительный разрыв между международными стандартами и текущим уровнем технологической зрелости. Системное тестирование AIM Lean позволит выявить не только её потенциал, но и институциональные барьеры внедрения.

Разработка цифровых инструментов и алгоритмов AIM Lean

Несмотря на высокую концептуальную значимость AIM Lean, в настоящее время отсутствуют цифровые инструменты, обеспечивающие её реализацию в реальном секторе экономики. Следовательно, актуальной задачей становится:

- разработка программных модулей, интегрируемых в ERP-системы предприятий;
- использование больших данных и искусственного интеллекта для прогнозирования потерь и оптимизации бизнес-процессов;
- построение цифровых двойников производственных систем для тестирования сценариев Lean-трансформации.

Дальнейшие исследования в этой области позволят перевести AIM Lean из концептуального уровня в уровень практических цифровых решений.

Институциональная и нормативная адаптация

Эффективность AIM Lean во многом будет зависеть от её институциональной интеграции в национальную систему стратегического управления. Перспективным направлением исследований является:

- анализ существующей нормативной базы, включая стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030»;
- разработка методических рекомендаций для предприятий различных форм собственности;
- формирование стандартов сертификации и оценки зрелости AIM Lean на уровне отраслей.

Таким образом, необходима выработка единой системы координат, которая позволит предприятиям внедрять AIM Lean не как разрозненный набор практик, а как согласованную модель, признанную на государственном уровне.

Кадровое обеспечение и инновационная культура

Ключевым фактором внедрения AIM Lean является наличие компетентного человеческого капитала. По данным Всемирного банка (2025), производительность труда в промышленности Узбекистана на 37 % ниже, чем в странах Восточной Европы, что во многом обусловлено недостатком квалифицированных специалистов. В этой связи актуальными являются исследования в области:

- разработки образовательных программ и тренингов (включая Lean Six Sigma), адаптированных к местным условиям;
- формирования инновационной культуры, направленной на вовлечение сотрудников всех уровней в процессы оптимизации и цифровизации;
- внедрения системы мотивации и KPI, стимулирующих инновационную активность.

Таким образом, подготовка кадров должна рассматриваться не только как элемент поддержки, но и как самостоятельный вектор исследования AIM Lean.

Международное сравнение и трансфер технологий

Для повышения эффективности AIM Lean целесообразно проводить кросс-страновые сравнительные исследования. Сравнение с опытом стран Центральной Азии, Восточной Европы и Юго-Восточной Азии позволит выявить лучшие практики трансфера технологий и определить возможности их адаптации. По данным OECD (2025), успешные кейсы внедрения гибридных моделей управления в Юго-Восточной Азии сопровождались созданием региональных консорциумов и совместных исследовательских платформ.

Устойчивое развитие и ESG-аспект AIM Lean

Современные глобальные тренды требуют учитывать не только экономическую эффективность, но и экологическую устойчивость. Перспективным направлением исследований является интеграция AIM Lean с принципами зелёной экономики и ESG-подходами (Environmental, Social, Governance). Согласно докладу UNIDO (2025), предприятия, которые совмещают цифровизацию с экологическими инновациями, демонстрируют прирост производительности на 12–15

% . Включение этих аспектов в AIM Lean позволит адаптировать модель к задачам долгосрочного устойчивого развития.

■ ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование позволило комплексно проанализировать сущность и перспективы модели AIM Lean в контексте инновационного развития предприятий Узбекистана, учитывая современные вызовы цифровой трансформации и глобальной конкуренции.

Во-первых, была выявлена теоретическая необходимость эволюции традиционного Lean management в интеграционную модель нового поколения. Классический Lean, сформулированный Таичи Оно и систематизированный в работах Вумека и Джонса, доказал свою эффективность в условиях массового производства, однако в современных условиях он ограничен рамками оптимизации процессов и снижения издержек. В то время как вызовы Индустрии 4.0, а также стратегические ориентиры национальной экономики («Цифровой Узбекистан – 2030») требуют перехода к более гибким, интеллектуальным и инновационно-ориентированным моделям управления. Во-вторых, методологическая новизна исследования заключается в предложении концепции AIM Lean как системы, объединяющей три уровня управленческого воздействия:

1. Lean management — оптимизация процессов, устранение потерь, повышение производительности;
2. Инновационный менеджмент — стимулирование разработки новых продуктов, технологий и организационных решений;
3. Цифровая экономика — использование искусственного интеллекта, больших данных, IoT и цифровых платформ для интеллектуализации управления и ускорения инновационного цикла.

Такой подход позволил рассматривать AIM Lean не только как систему операционной эффективности, но и как стратегический драйвер инновационного развития, что особенно актуально для развивающихся экономик, таких как Узбекистан.

В-третьих, эмпирический анализ подтвердил наличие значительного разрыва между потенциалом и фактическим уровнем цифровизации в промышленном секторе. По данным Госкомстата (2025), лишь 11,2 % предприятий внедряют инновации и около 14,6 % применяют цифровые технологии, тогда как в странах Европейского Союза аналогичные показатели превышают 50 %. Данный разрыв обуславливает

необходимость формирования новых организационно-управленческих моделей, которые учитывают специфику национальной экономики.

В-четвёртых, исследование выявило, что AIM Lean может способствовать решению ключевых задач экономического развития Узбекистана:

- повышение производительности труда и сокращение технологического разрыва с развитыми странами;
- рост инновационной активности, включая внедрение новых технологий, продуктов и бизнес-моделей;
- цифровизация управления производством, основанная на IoT, ERP-системах и аналитике больших данных;
- интеграция ESG-принципов, что создаёт условия для устойчивого и экологически ориентированного развития.

В-пятых, практический опыт автора, полученный в ходе специализированного тренинга по Lean Six Sigma Management (организованного Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit — GIZ), подтвердил значимость интеграции инструментов Lean («DMAIC», «Value Stream Mapping», «Kaizen») с цифровыми технологиями. Этот опыт стал основанием для формирования концепции AIM Lean как гибридной модели, адаптированной к условиям Узбекистана.

Вместе с тем, проведённое исследование имеет ряд ограничений. В частности, пока отсутствуют отраслевые эмпирические кейсы, подтверждающие эффективность AIM Lean в долгосрочной перспективе; также ограничены институциональные механизмы поддержки инновационного менеджмента.

Исходя из этого, перспективными направлениями дальнейших исследований являются:

- проведение отраслевых кейс-стади применения AIM Lean на промышленных предприятиях Узбекистана;
- разработка цифровых инструментов AIM Lean, включая специализированные ERP-модули и AI-аналитику;
- институциональная интеграция AIM Lean в систему национальных стандартов управления и инновационной политики;
- формирование образовательных программ для подготовки специалистов по AIM Lean, что позволит восполнить кадровый дефицит в области инновационного менеджмента.

Таким образом, AIM Lean может рассматриваться как инновационно-управленческая парадигма нового поколения, отвечающая стратегическим приоритетам Узбекистана. Её внедрение способно

обеспечить предприятиям устойчивые конкурентные преимущества, повысить национальную экономическую эффективность и ускорить интеграцию страны в глобальную цифровую экономику.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Аликулов Миржахон PhD-исследователь Каршинского государственного университета по направлению 08.00.13 — Менеджмент // Alikulov Mirzhakhon PhD researcher at Karshi State University in the direction 08.00.13 - Management // Alikulov Mirjaxon Qarshi davlat universitetining 08.00.13 - Menejment yo'nalishi bo'yicha tayanch doktoranti
► mirjaxon.alikulov@mail.ru
► alikulov.mirjaxon@gmail.com.
■ 0009-0006-4963-1577

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

- [1]. Ohno T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. New York: Productivity Press, 1988.
- [2]. Womack J.P., Jones D.T. Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. New York: Simon & Schuster, 1996.
- [3]. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
- [4]. Drucker P. Management Challenges for the 21st Century. New York: Harper Business, 1999.
- [5]. OECD. STI Outlook 2025: Digital Transformation for Innovation. Paris: OECD Publishing, 2025.
- [6]. UNIDO. Industrial Development Report 2025: Green Industry for Digital Era. Vienna: UNIDO, 2025.
- [7]. Президент Республики Узбекистан. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030». Ташкент: Национальное издательство, 2020.
- [8]. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Инновации и цифровизация промышленности. Статистический ежегодник 2025. Ташкент: Госкомстат, 2025.
- [9]. World Bank. Uzbekistan Industry Competitiveness Report 2025. Washington, DC: World Bank, 2025.
- [10]. UNDP. Digital Development Report Uzbekistan 2025. New York: UNDP, 2025.
- [11]. Startup Genome. Global Startup Ecosystem Report 2025. San Francisco: Startup Genome, 2025.
- [12]. Liker J.K. The Toyota Way: 14 Management Principles from the World's Greatest Manufacturer. New York: McGraw-Hill, 2004.
- [13]. George M. Lean Six Sigma: Combining Six Sigma Quality with Lean Production Speed. New York: McGraw-Hill, 2002.
- [14]. Shah R., Ward P. "Lean Manufacturing: Context, Practice Bundles, and Performance". Journal of Operations Management, Vol. 21, No. 2, 2003, pp. 129–149.
- [15]. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985.
- [16]. Baines T., Lightfoot H. Made to Serve: How Manufacturers Can Compete Through Servitization and Product-Service Systems. Chichester: Wiley, 2013.
- [17]. Antony J. Six Sigma for Business Excellence: Approach, Tools and Applications. London: Routledge, 2015.

Mahalliy boshqaruvning o'rta korxonalarga ta'siri: O'zbekiston va xorijiy tajriba

Bekchanov Davron Masharipovich

Влияние местного самоуправления на средние предприятия: Узбекистанский и зарубежный ОПЫТ

Бекчанов Даврон Машарипович

Influence of local government on medium-sized enterprises: Uzbekistan and foreign experience

Bekchanov Davron Masharipovich

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 18, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada mahalliy boshqaruv organlarining O'zbekistondagi o'rta darajadagi korxonalar (O'DK) rivojiga ko'rsatayotgan ta'siri qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida qonunchilik va institutsional tashabbuslar, moliyaviy yordam vositalari, infratuzilma va maslahat xizmatlari hamda innovatsiya dasturlari ko'rib chiqildi. O'zbekiston tajribasi Yaponiya, Janubiy Koreya, Italiya va Ispaniya misollari bilan solishtirildi. Natijalar mahalliy dasturlarning samaradorligi resurslarning maqsadli va shaffof taqsimlanishiga bog'liq ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, xorijiy amaliyotlarda qo'llangan innovatsiya va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligi ta'kidlandi.
- **Kalit so'zlar:** O'rta darajadagi korxonalar; mahalliy boshqaruv; qiyosiy tahlil; O'zbekiston; xorijiy tajriba; moliyaviy qo'llab-quvvatlash; innovatsiya; infratuzilma; eksport salohiyati.
- **Аннотация:** В данной статье рассматривается влияние органов местного самоуправления на развитие средних предприятий (СП) в Узбекистане на основе сравнительного анализа. В ходе исследования изучены законодательные и институциональные инициативы, финансовые инструменты поддержки, инфраструктурные и консультационные услуги, а также инновационные программы. Опыт Узбекистана сопоставляется с примерами Японии, Республики Корея, Италии и Испании. Полученные результаты показывают, что эффективность местных программ зависит от целевого и прозрачного распределения ресурсов. Также подчеркивается необходимость адаптации инновационных и финансовых механизмов поддержки, применяемых за рубежом, к условиям Узбекистана.
- **Ключевые слова:** средние предприятия; местное самоуправление; сравнительный анализ; Узбекистан; зарубежный опыт; финансовая поддержка; инновации; инфраструктура; экспортный потенциал.
- **Abstract:** This article examines the impact of local government authorities on the development of medium-sized enterprises (MSEs) in Uzbekistan through a comparative analysis. The study reviews legislative and institutional initiatives, financial support instruments, infrastructure and advisory services, as well as innovation programs. Uzbekistan's experience is compared with the cases of Japan, South Korea, Italy, and Spain. The findings demonstrate that the effectiveness of local programs largely depends on the targeted and transparent allocation of resources.

Furthermore, it is emphasized that innovation and financial support mechanisms successfully applied abroad should be adapted to the specific conditions of Uzbekistan.

- **Keywords:** medium-sized enterprises; local governance; comparative analysis; Uzbekistan; foreign experience; financial support; innovation; infrastructure; export potential.

KIRISH

O'rta darajadagi korxonalar (O'DK) mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. OECD'ning ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda O'zbekistonda aynan shu turdagi korxonalar umumiy ish bilan ta'minlangan aholining qariyb 86 foizini va yalpi ichki mahsulotning 54,9 foizini ta'minlagan. Buraqamlardan ko'rinib turibdiki, o'rta korxonalar nafaqat ish o'rinlari yaratishda, balki iqtisodiyotdagi umumiy qiymat qo'shish jarayonida ham hal qiluvchi ahamiyatga ega [1]. Bu ko'rsatkichlar O'DKlarning aholi bandligi va iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Bunday holda mahalliy boshqaruv organlari O'DKlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy hokimiyat va kengashlar qonunchilik, moliyaviy mablag'lar taqsimoti, infratuzilma yaxshilanishi, maslahat xizmatlari, innovatsiya qo'llab-quvvatlash va eksportga ko'mak kabi jihatlarida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Maqolaning asosiy maqsadi – mahalliy boshqaruv organlarining o'rta darajadagi korxonalar rivojiga ko'rsatayotgan ta'sirini chuqur tahlil qilish va uni O'zbekiston tajribasi hamda xorijiy mamlakatlar amaliyoti bilan qiyosiy o'rganishdan iboratdir. Tahlil qiyosiy metod va manbalar tahlili usuli orqali amalga oshirildi. O'zbekiston tajribasini o'rganishda asosiy manbalar sifatida rasmiy huquqiy hujjatlar (Lex.uz, Norma.uz) hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi. Xorijiy tajribani yoritishda esa Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Shvesiya va Ispaniya kabi davlatlarning amaliyoti tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — OECD va World Bank hisobotlari hamda Scopus/Web of Science bazasida chop etilgan ilmiy maqolalar asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot "Xorijiy va mahalliy tajriba" qiyosiy tahlili metodikasi asosida olib borildi. Ma'lumot manbalari sifatida rasmiy qonunlar, qarorlar, prezident farmonlari (Lex.uz, Norma.uz), xalqaro tashkilotlar hisobotlari (OECD, UNDP, World Bank) va SCOPUS/Web of Science indekslarida ro'yxatdagi ilmiy maqolalardan foydalanildi. Tahlil jarayonida maxsus ravishda O'zbekistonda amalga oshirilgan mahalliy dasturlar va qonunchilik hujjatlari, jumladan Prezident Farmonlari PF-29 va PF-28, atroflicha o'rganildi. Shu bilan birga, xorijiy tajriba sifatida Italiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi

mamlakatlarda mahalliy hokimiyatlar orqali tadbirkorlikka ko'mak berishga qaratilgan dasturlar tahlil qilindi. Masalan, Janubiy Koreyada Doh (2014), Yaponiyada Yoshimura & Kato (2007), Koreyada Choi (2024), Italiyada Ciani va hammualliflar (2025), Ispaniyada esa Rodríguez-Pupo va hammualliflar (2021) tadqiqotlari qiyosiy tahlil uchun asos bo'ldi. Har bir qiyosiy misol statistik ma'lumotlar va ilmiy usullar bilan tasdiqlandi. Xususan, Yaponiya va Koreya misolida mahalliy innovatsiyalarga ajratilgan grantlar bilan patentlar soni va biznes natijalari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan (J-Stage, Ideas.Repec). Shuningdek, Shvesiya tajribasida mahalliy boshqaruv tizimida korrupsiya darajasi va tadbirkorlikning rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik empirik tahlillar orqali o'rganilgan (Diva-portal).

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda mahalliy boshqaruvning o'rta darajadagi korxonalar rivojiga ta'siri turli yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Avvalo, davlat tomonidan qabul qilingan qonunchilik va institutsional tashabbuslar bevosita tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan. Xususan, 2021 yil 3 dekabrda qabul qilingan Prezident qarori № PF-29 "Mahalla, aholi bandligini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari haqida" e'lon qilindi. Unga muvofiq, har bir mahalla va qishloqlarda hokim yordamchilari lavozimlari joriy etildi, ularning asosiy vazifalariga tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirish masalalari o'rin oldi.

Keyingi bosqichda, 2025 yil 19 martda qabul qilingan PF-50 sonli Prezident farmoni "O'rta va kichik biznesning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish chora-tadbirlari haqida" qabul qilindi. Ushbu hujjatda xorijiy bozorlarga chiqishni rag'batlantirish, eksport hajmini oshirish, o'rta va kichik biznes sub'ektlari uchun qo'shimcha imtiyoz va rag'batlarni joriy etish kabi muhim vazifalar belgilandi. Shu bilan birga, maqsadli ko'rsatkichlar sifatida yangi ish o'rinlari yaratish, milliy brendlarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishdagi ishtirokini kuchaytirish ko'zda tutildi.

ADBI tadqiqotchisi Dildora Tadjibaeva (2019) tayyorlagan "Small and medium-sized enterprise finance in Uzbekistan: Challenges and opportunities" hisobotida O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sub'ektlarining moliyaviy ahvoli atroflicha tahlil qilingan. Muallif ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda kichik va o'rta biznes uchun taxminan 11,8 milliard AQSh

dollari miqdorida moliyaviy bo'shliq (financing gap) mavjud. Bu holat bank tizimi va moliya bozorlari SMElarni yetarli darajada kreditlash imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatadi. Ayniqsa, korxonalarning ko'pchiligi yetarli garov va likvid aktivlarga ega bo'lmagani sababli zarur moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolmoqda [2]. Mahalliy moliya institutlari, jumladan mikrokredit tashkilotlari va xo'jalik jamg'armalari ham kichik va o'rta biznes sub'ektlariga turli moliyaviy yordam xizmatlarini taqdim etmoqda. Biroq, tadqiqotlarda qayd etilganidek, tijorat banklari ko'p hollarda kichik korxonalarga to'g'ridan-to'g'ri kredit berishga tayyor emas. Shu bois, ayrim banklar ishonchli moliya vositalari orqali SMElar uchun maxsus shart-sharoitlar yaratgan. Masalan, kredit kafolatlari (qarz oluvchi yetarli garov qiymatiga ega bo'lmagan hollarda bank tomonidan kafolat berish) va kasbiy ko'nikmalarni oshirish hamda biznes salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan grant dasturlari (o'quv kurslari, seminarlar va malaka oshirish treninglarini moliyalashtirish) shular jumlasidandir. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, banklar hujjati bo'lmagan bizneslar (kaxbaqa pul oqimlari)ni baholash uchun zarur ekspertizga ega emas, bu KO'Blar uchun kredit olish muammosini yanada kuchaytirmoqda.

Infratuzilma va maslahat xizmatlari ham muhim omillar. Mahalliy boshqaruv fan va sanoat klasterlari, biznes-parklar yoki innovatsion texnoparklar tashkil etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, Yaponiyadagi Nagoya shahrida 99% korxonalar O'DKlarga to'g'ri keladi, va shahar hokimligi KO'Blarni qo'llab-quvvatlovchi markazlar (SME Promotion Centre, Kredit kafolati korporatsiyasi, kichik biznes moliya korporatsiyasi) orqali huquqiy, buxgalteriya va marketing maslahatlari hamda kredit kafolatlarini ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekistonning aholisi ko'p shahar va qishloq joylarda mahalliy boshqaruv samaradorlikni oshirishga oid quramalar ishlab chiqilgan.

Xorijiy tajriba O'zbekistonda samarali bo'lmashligi mumkin bo'lgan yondashuvlarni ko'rsatdi. Masalan, Yaponiyada mahalliy hokimiyatlarning KO'Blarga qaratilgan dasturlari ko'pincha subsidiyalar va maslahatlarga asoslangan. Nagoya shahri misolida shahar tomonidan KO'Blarga 1947 yildan beri tizimli ravishda subsidiya va kredit kafolatlari berilgan [2]. Bu vositalar juda keng qamrovli yordamni ta'minlaydi (aholini bandligini qo'llab-quvvatlash, eksport ko'rsatkichlarini yaxshilash va tijorat ko'rgazmalari tashkil qilish kabi). Biroq, bunday dasturlarda resurs sarflari samarasi haqida siyosiy bahslar bo'lgan, va ayniqsa bir qator dasturlarni qayta tashkil etish kerakligi qayd etilgan.

Koreyada mahalliy innovatsiya dasturlari alohida ahamiyatga ega. Masalan, Doh va Kim (2014) ta'kidlaganidek, hukumat tomonidan texnologiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan qarz mablag'lari kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun muhim natija bergan. Xususan, ushbu moliyaviy qo'llab-quvvatlash

SMElar tomonidan patent olish va yangi dizaynlarni ro'yxatga olish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgan [3]. Ya'ni, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari mahalliy ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes kompaniyalarining innovatsiya salohiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Biroq, bunday qo'llab-quvvatlashning aks ta'siri ham mavjud. Xususan, Choi va hammualliflar (2024) tadqiqoti ko'rsatganidek, ayrim hollarda kichik va o'rta biznes sub'ektlari davlat yordami sababli o'z o'sishini sun'iy tarzda cheklaydi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda "Peter Pan sindromi" deb ataladi, ya'ni korxona belgilangan imtiyozlardan mahrum bo'lishdan qo'rqib, o'z faoliyatini kattalashtirish va rivojlantirishga intilish o'rniga, mavjud holatini saqlab qolishga harakat qiladi [4]. Koreyada 2 779 ta kompaniya ma'lumotlari asosida o'tkazilgan empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, agar korxona davlat yordamini olish uchun belgilangan me'yordan oshib ketsa, u imtiyozlardan mahrum bo'lib qolish xavfiga duch keladi. Shu bois, ko'pgina KO'Blar o'sishni sun'iy ravishda cheklab, biznes hajmini kichik saqlashga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, ular imtiyozlarni saqlab qolish maqsadida o'zlarini sun'iy ravishda "kichik" ko'rsatishga moyil bo'ladi. Bu holat mahalliy hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash mezonlarini to'g'ri va aniq belgilashning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Innovatsiyani qo'llab-quvvatlash sohasida Janubiy Koreya tajribasida ijtimoiy korxonalar (Social Enterprises) misoli qiziq. Kim va hammualliflar (2022) tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik va o'rta biznes sub'ektlarining innovatsiya qobiliyatlari hamda ularning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Biroq, o'ta ko'p davlat yordami taqdim etilganda, ayniqsa R&D sohasida, kutilgan samara pasayishi mumkinligi qayd etilgan. Ya'ni, grantlar va subsidiyalar haddan tashqari ko'paytirilsa, izlanish jarayonlariga rag'bat kuchayishi o'rniga aksincha samaradorlikni pasaytiruvchi omilga aylanishi mumkin [5].

O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslaganda, Yaponiyada mahalliy kengashlar va iqtisodiy aktorlar hamkorligida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash keng qo'llaniladi. Bunday amaliyot Yevropada ham kuzatiladi. Masalan, Rodríguez-Pupo va hammualliflar (2021) o'rgangan Ispaniyaning Andalusiya mintaqasidagi tajriba bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ularda "CADE" (Centre for the Andalusian Entrepreneurship) markazlari orqali tadbirkorlik qo'llab-quvvatlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, CADE yordami ko'proq qishloq va tog'li hududlardagi tadbirkorlarga yo'naltirilgan. Bu yerdagi asosiy maqsad — iqtisodiy qiyinchiliklar kuchli bo'lgan, ishsizlik yuqori va aholi soni kamayib borayotgan hududlarda yangi imkoniyatlar yaratish. Ya'ni, mahalliy hukumat va tadbirkorlikka daxldor tuzilmalar uzoq hududlarda iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish uchun qo'shimcha choralar ko'radi.

Shu yo'l bilan qiyin sharoitdagi hududlarda yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy aholi uchun daromad manbalari oshiriladi va hududiy rivojlanishda tadbirkorlikning o'рни mustahkamlanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari va resurslari bosqichma-bosqich kuchaytirilmoqda. Masalan, 2024 yildagi PF-28 farmoni mahalliy kengashlarning nazorat funksiyalarini yanada oshirdi, 2021 yildagi PF-29 farmoni esa mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yangi institutlarni yaratdi. Xorijiy tajribalardan ko'rinib turibdiki, mahalliy dasturlar samaradorligini ta'minlashning eng muhim sharti – resurslardan maqsadli va shaffof foydalanishdir. Shuningdek, OECD hisobotlarida ham O'zbekistonga eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarga chiqish uchun mahalliy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, mahalliy moliya institutlari KO'Blar uchun maxsus moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqishi, hududlarda klaster va tadbirkorlik ekotizimlarini rivojlantirishi, hamda maslahat va o'quv xizmatlari bo'yicha muntazam uchrashuvlar tashkil etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali mahalliy darajada tadbirkorlik muhitini yanada barqaror va samarali shakllantirish mumkin.

O'zbekistonda mahalliy boshqaruv kichik va o'rta bizneslar (KO'B/SME)ning tuman va shaharlar rivojida muhim o'rin egallaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy qonunchilik va dasturlar yetarli darajada e'tibor bilan amalga oshirilishi zarur, chunki ular SMElarning o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Xorij tajribasi ham shuni tasdiqlaydiki, mahalliy hokimiyat organlari moliyaviy subsidiyalar, infratuzilmaga sarmoyalar, konsalting xizmatlari va innovatsiya dasturlarini muvofiq tashkil etish orqali KO'Blarni samarali qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Yaponiya misolida mahalliy kengashlar keng ko'lamli maslahat xizmatlari va kredit kafolatlari taqdim etadi. Shvesiya tajribasida esa tadbirkorlik muhitini yaxshilashda korruptsiyani kamaytirish muhim omil sifatida qayd etilgan. Italiya hududiy dasturlari SMElarni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarining sezilarli oshishiga olib kelganini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur tajribalardan olingan saboqlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali mahalliy darajada tadbirkorlik muhitini barqarorlashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy rivojlanish jarayonlarini tezlashtirish mumkin.

Muhokama va tahlil natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Mahalliy jamg'armalarni tashkil etish zarur. Mahalliy hokimiyatlar mustaqil ravishda jamg'armalar tashkil qilib, mahalliy budjetdan to'g'ridan-to'g'ri mablag' ajratishi SMElarni qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmi bo'lishi

mumkin. Bunday jamg'armalarning asosiy vazifalari orasida o'rta darajadagi korxonalarni tashkil etish va rivojlantirish jarayonini moliyalashtirish, kredit kafolatlarni taqdim etish, maslahat va konsalting xizmatlarini yo'lga qo'yish hamda innovatsiya yo'nalishida grantlar taqdim etish kabilar bo'lishi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, hududiy jamg'armalar ishlab chiqarishning mahalliy ehtiyojlariga mos keladigan moliya vositalarini tezkor taqdim etish orqali barqaror biznes muhitini shakllantiradi. Shuningdek, ular orqali shaffof va hisobdor mexanizmlar yo'lga qo'yilishi korxonalar uchun ishonch va barqarorlikni oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish. O'rta darajadagi korxonalarni universitetlar, texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan bog'lash o'rta darajadagi korxonalarning innovatsiya salohiyatini oshirishda muhim qadam hisoblanadi. Mahalliy hokimiyatlar bu jarayonda universitetlar bilan qo'shma laboratoriya va startap markazlarini tashkil qilishi, talabalar va tadqiqotchilarni amaliy biznes loyihalariga jalb qilishi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy ishlanmalarni mahalliy korxonalar ehtiyojlariga moslashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yishi lozim. Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, universitet–biznes hamkorligi KUBlarning innovatsion mahsulot ishlab chiqarishiga va yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishiga olib keladi. Bu esa mahalliy iqtisodiyotda yuqori qiymatli ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy va konsalting xizmatlarini diversifikatsiya qilish. Hozirgi paytda ko'p KUBlar faqat bank kreditlariga tayanadi, lekin tadqiqotlar ko'rsatganidek, moliyaviy "bo'shliq" hanuz katta bo'lib qolmoqda. Shuning uchun mikrokredit va mikroqarz xizmatlari, kafolat jamg'armalari hamda texnologik kredit vositalari keng joriy etilishi zarur. Bunday diversifikatsiya resurslarni kengroq qatlamdagi tadbirkorlarga yetkazish imkonini beradi. Bir vaqtning o'zida, mahalliy hokimiyatlar KO'Blar uchun moliyaviy ko'nikmalarni oshirish bo'yicha maslahat, trening va o'quv dasturlarini muntazam yo'lga qo'yishi zarur. Bu ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va biznesdagi xatarlarni kamaytiradi.

Eksport salohiyatini kuchaytirish. OECD hisobotlari (2023) ko'rsatganidek, O'zbekistonning xalqaro bozorlarga integratsiyasi mahalliy qo'llab-quvvatlash siyosatlariga bog'liq. Shuning uchun mahalliy hokimiyatlar SMElarni xalqaro ko'rgazmalarga muntazam jalb qilish, savdo yarmarkalari tashkil etish, tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha maslahat xizmatlari yo'lga qo'yishi zarur. Bunday mexanizmlar KO'Blarning eksport salohiyatini oshirib, hududiy iqtisodiyotda yangi valyuta tushumlari va yuqori daromadli ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mahalliy boshqaruv organlari o'rta darajadagi korxonalarni qo'llab-quvvatlashda tobora muhimroq o'rin egallab bormoqda. So'nggi yillarda Prezident farmonlari va qarorlari orqali mahalliy kengashlar va hokimiyatlarning vakolatlari kengaytirildi, resurslari mustahkamlandi va mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi institutlar yaratildi. Bu esa ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududiy iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan muhim omildir.

Xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, mahalliy qo'llab-quvvatlashning samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri resurslarning maqsadli va shaffof taqsimlanishiga bog'liq. Yaponiyada maslahat xizmatlari va kredit kafolatlari keng qo'llaniladi, Koreyada innovatsiya grantlari patent va dizaynlar sonini oshirgan, Italiyada hududiy dasturlar yangi ish o'rinlarini yaratgan, Ispaniyada esa qiyin sharoitdagi qishloq va tog' hududlarida tadbirkorlikni rag'batlantirish samara bergan. Shu bilan birga, Shvesiya tajribasi mahalliy boshqaruv tizimida korrupsiya va byurokraziyani kamaytirish SMElarning rivojlanishida hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun muhim saboqlardan biri — moliyaviy va konsalting xizmatlarini diversifikatsiya qilish, mahalliy jamg'armalar orqali resurslarni to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlarga yetkazish, oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda innovatsion loyihalarni amalga oshirish va SMElarni xalqaro bozorlarga chiqishini rag'batlantirishdir. Mazkur mexanizmlar mahalliy boshqaruv organlarining iqtisodiy jarayonlardagi rolini yanada kuchaytirib, O'zbekistonda o'rta darajadagi korxonalarning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Shu bois, tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki: mahalliy boshqaruvning maqsadli siyosati va ilg'or xorijiy tajribalarni moslashtirib joriy etish orqali O'zbekistonda o'rta korxonalar sektori iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi drayveriga aylanishi mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Bekchanov Davron Masharipovich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha PhD / Бекчанов Даврон Машарипович Доцент Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан, PhD юридических наук / Bekchanov Davron Masharipovich Associate Professor of the Academy of Public Policy and

Management under the President of the Republic of Uzbekistan, PhD of Legal Sciences

► davronmb@gmail.com

■ 0000-0002-1969-3674

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. Tadjibaeva, D. Small and medium-sized enterprise finance in Uzbekistan: Challenges and opportunities. – Tokyo : Asian Development Bank Institute (ADBI), 2019. – 34 p.
- [2]. Yoshimura, T.; Kato, R. The Policy Environment for Promoting SMEs in Japan [Matn]. – Tokyo : Pacific Economic Cooperation Council (PECC), 2007. – 32 p.
- [3]. Doh, S.; Kim, J. Government support for SME innovations in the regional strategic industries [Matn] // Research Policy. – 2014. – T. 43, № 9. – S. 1557-1569.
- [4]. Choi, J.-U.; Lee, C.-Y.; Lee, J.-H. Does government support make small and medium-sized enterprises reluctant to grow? Evidence from South Korea // Journal of the Asia Pacific Economy. – 2024. – T. 29, № 2. – S. 668-692
- [5]. Kim, Y.; Jun, H. Exploring Technology Innovation Factors, Government Support and Performance of Development-Related Social Enterprises: Evidence from South Korea // Sustainability. – 2022. – T. 14, № 22. – S. 15406.
- [6]. Rodríguez-Pupo, D.; et al. Application of Spatial Analysis to Identify the Location of Entrepreneurs Supported by the Regional Government in Andalusia (Spain) [Matn] // ISPRS International Journal of Geo-Information. – 2021. – T. 10, № 8. – S. 543.
- [7]. Bengtsson, N.; Zachrisson, L. Does local government corruption inhibit entrepreneurship? Evidence from municipalities in Sweden // Small Business Economics. – 2024. – T. 62, № 1. – S. 145-172.
- [8]. Ciani, A.; et al. Short-term Impact of Financial Support to Inner Areas: Evidence from Italy // Italian Economic Journal. – 2025. – T. 11, № 1. – S. 45-72.
- [9]. OECD. SME and Entrepreneurship Policy in Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2021.
- [10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla, aholi bandleligini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi 3 dekabr 2021-yildagi PF-29-son Farmoni.
- [11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy kengashlarning nazorat funksiyalarini kuchaytirish chora-tadbirlari haqida" gi 19 mart 2024-yildagi PF-28-son Farmoni,
- [12]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta va kichik biznesning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 10-mart 2025-yildagi PF-50-son Farmoni.

Buxgalteriya hisobi,
iqtisodiy tahlil va
audit

Бухгалтерский учет,
экономический
анализ и аудит

Accounting, economic
analysis and audit

Surxondaryo viloyati sanoati tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari iqtisodiy-statistik tahlili

Xursanov Sherzod Ulaboyevich

Economic and statistical analysis of food production processes in the Surkhandarya region industry

Khursanov Sherzod Ulaboyevich

Соискатель Термезского государственного университета Экономико-статистический анализ процессов производства пищевых продуктов в промышленности Сурхандарьинской области

Хурсанов Шерзод Улабоевич

Received: July 12, 2025 Revised: July 16, 2025 ■ Accepted: July 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** maqolada Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, nooziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol mollari hajmi ko'rsatkichlari iqtisodiy-statistik tahlili amalga oshirilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari hajmi dinamikasini tahlil qilishda bazisli va zanjirsimon usuldan foydalanildi. Shuningdek, xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etilgan.
- **Kalit so'zlar:** statistik tahlil, ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, oziq-ovqat xavfsizligi, bozor, bazis, zanjirsimon, nooziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, mahsulotlar, raqobat, mintaqqa.
- **Abstract:** the article presents an economic and statistical analysis of the volume of food industry products, non-food industry products, and the volume of consumer goods per capita in Surkhanda region. The basic and chain-like methods were used to analyze the dynamics of the volume of food products. The scientific research works of foreign scientists were also analyzed
- **Key words:** statistical analysis, producers, consumers, food safety, market, basis, chain, non-food industry, agriculture, products, competition, region.
- **Аннотация:** В статье представлен экономико-статистический анализ объема производства продукции пищевой промышленности, продукции непищевой промышленности и объема потребительских товаров

на душу населения в Сурхандарьинской области. Для анализа динамики объемов производства продовольственных товаров использовались базовый и цепной методы. Также были проанализированы научно-исследовательские работы зарубежных ученых.

- **Ключевые слова:** статистический анализ, производители, потребители, безопасность пищевых продуктов, рынок, базис, цепочка, непродовольственная промышленность, сельское хозяйство, продукция, конкуренция, регион.

■ KIRISH

Ma'lumki, "Nol ochlik" 2015-yilda barcha a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Barqaror rivojlanish bo'yicha 17 ta maqsadlaridan ikkinchisi bo'lib, 2030-yilgacha bu maqsadga erishish asosiy vazifa hisoblanadi. BMTning oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi agentligi (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 2 mlrd. kishiga yetishi kutilmoqda. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqayotir. Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda. Shu bois, aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat sanoatini mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va talab darajasida rivojlantirish borasida bir qator qarorlar qabul qilinib, ko'plab tashkiliy-iqtisodiy masalalar hal qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonida quyidagi vazifa va chora-tadbirlar belgilandi [2]. Unga ko'ra, "Xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan 220 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar 2024-yil 1-martga qadar tijorat banklariga yo'naltiriladi. Bunda tijorat banklari tomonidan yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada (shundan bank marjasi 4 foiz) milliy valyutada, oziq-ovqat yo'nalishidagi, sohada mahsulot yetishtirishdan tortib uni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 10 yil muddatga 3 yillik imtiyozli davr bilan, aylanma mablag'lar uchun 18 oy muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan imtiyozli kreditlar ajratiladi va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari va eksport qiluvchilar tomonidan xorijiy davlatlarda savdo uyi va do'konlarini tashkil etish uchun alohida qarorlarsiz yiliga 50 ming AQSh dollarigacha mablag'ni xorijiy hisob raqamlarga o'tkazishga ruxsat beriladi. Eksport qiluvchi korxonalarni

yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-martdan boshlab eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi resurslari hisobidan oziq-ovqat mahsulotini eksport qiluvchi korxonalarga eksport oldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun 2 yil muddatgacha ular tomonidan oxirgi 12 oy davomida eksport hajmi: 100 ming AQSh dollaridan 1 million AQSh dollarigacha bo'lganda — 100 ming AQSh dollarigacha; 1 million AQSh dollaridan 2 million AQSh dollarigacha bo'lganda — 1 million AQSh dollarigacha; 2 million AQSh dollaridan 4 million AQSh dollarigacha bo'lganda — 2 million AQSh dollarigacha; 4 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda — 3 million AQSh dollarigacha moliyaviy resurslar ajratiladi."

Hozirgi sharoitda tarmoq oldida turgan asosiy vazifa oziq-ovqat sanoati mahsulotlari hajmini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini yanada yaxshilash, yuqori eksport salohiyatiga hamda tejamkor zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishishdan iborat. Bu esa o'z navbatida oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini statistik jihatdan o'rganish va ularning rivojlanishini statistik jihatdan baholash masalalarini chuqur tadqiq etishni talab etadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlarining ham ilmiy izlanishlarida oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi va oziq-ovqat sanoati rivojlanishining statistik tadqiqi va ekonometrik modellashirish hamda prognozlash masalalari keng o'rin egallaydi. Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim K.V.Frolov, A.V.Gordeyev, O.A.Maslennikova [3] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligiga tushunchasiga berilgan ta'rifda "Mamlakat fuqarolarini hayotiy zarur va foydali ozuqa mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini kerakli hajm va assortimentda o'z manbalari orqali ta'minlashidir" degan fikr mujassamlashgan, A.A. Anfinogentova, O.V.Yermolayeva, N.A.Kireyevaning ilmiy tadqiqot ishida [4] oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda quyidagi 3 ta iyerarxik darajaga e'tibor qaratadi, "global oziq-ovqat xavfsizligi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bug'doy zaxirasi va uni ishlab chiqarish hajmi bilan izohlanadi;

- davlat darajasidagi oziq-ovqat xavfsizligi milliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning importga nisbati, ozuqa mahsulotlari iste'molida importning ulushi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal daromad va oziq-ovqat mahsulotlari baholaridagi o'zgarishlar bilan aniqlanadi;

- mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi aholi daromadlari va oziq-ovqat iste'moli hajmi haqidagi ma'lumotlar orqali o'lchanadi", degan xulosani berishadi. Ko'plab tadqiqotchilar davlatning oziq-ovqat mustaqilligi aholi iste'molining umumiy hajmida milliy ishlab chiqarishning hissasi 80 foizdan kam bo'lmagan taqdirdagina ta'minlanadi, deb hisoblaydilar.

Shuningdek, I.Y.Lenchevskiy o'z tadqiqotlarida [5] "mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi mintaqaviy darajada hal qilinadigan vazifalarga, mintaqaning qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha mavjud salohiyati va imkoniyatlariga, oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash va importga ehtiyojmandlikni kamaytirishga bog'liqdir" degan fikrlarni ilgari surgan.

O'zbekistonlik olim D.N.Saidova fikricha [6], "oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta'minlanishini, importga bog'liqlikni minimum darajasiga erishishni ifodalaydi". F.M.Fazilov olib borgan tadqiqotlar [7] shuni ko'rsatadiki, "O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosishga qaratilgan strategiyalarning uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi, mamlakat aholisi iste'mol darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va natijada oziq-ovqat xavfsizligini uzluksiz ta'minlaydi". Mavjud qarashlarning nazariy tahlili iqtisodiyotning bugungi kundagi rivojlanish darajasida oziq-ovqat xavfsizligiga ikki xil yondashish mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi yondashuvda aholi hayot faoliyati uchun oziq-ovqatning zarur miqdor va


sifatda, kafolatlangan holda ta'minlash zarurligiga ahamiyat beriladi. Ikkinchi yondashuvda ishlab chiqarish tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga, oziq-ovqat turlari importiga boj va kvotalar joriy etishga e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga 2010-2023-yillarda Surxondaryo viloyatida istemol mollari(oziq-ovqat mahsulotlari, vino-aroq mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlari) ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirildi(1-rasm). Viloyatda istemol mollari umumiy hajmi 2010-yilda 290,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-2018-yillar oralig'ida o'rtacha o'sish ko'rsatkichini qayd etgan bo'lsa, 2019-2021-yillar davomida bu ko'rsatkich yuqori o'sishga ega bo'lib, 2640,6 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2022-yilda oldingi yilga nisbatan 907 mlrd.so'mga kamaygan. 1-rasm ma'lumotlariga e'tibor qaratilsa, Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan iste'mol mollari tarkibi asosiy hajmini oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. 2010-yilda viloyatda ishlab chiqarilgan iste'mol mollari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 205,4 mlrd.so'mni, vino va aroq mahsulotlari 22,4 mlrd. so'mni, nooziq-ovqat mahsulotlari 62,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



1-rasm. Surxondaryo viloyatida iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm) [8]

Surxondaryo viloyatida 2010-2023-yillar davomida iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bazis usulda mutloq o'zgarishi tahlil etilganda, 2010-yilda oziq-ovqat mahsulotlari mutloq o'zgarish 20,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-2021-yillar davomida o'rtacha 453,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2022-yilda esa 2021-yilga nisbatan 207 mlrd.so'mga kamayish holati aniqlandi. 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 915,5 mlrd.so'mni tashkil etdi. Vino-arop mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bazis usulda

mutloq o'zgarishi tahlil etilganda, 2010-yilda 4,6 mlrd.so'mga kamaygan bo'lsa, 2011-2023-yillar davomida bu ko'satkich o'rtacha 10,4 mlrd.so'mga o'zgargani aniqlandi. Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahliliga e'tibor qaratilsa, 2010-yilda 57,1 mlrd.so'mga o'zgarish qayd etilgan bo'lsa, 2010-2020-yillar davomida o'rtacha 440,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2021-yilda esa bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 851,4 mlrd.so'mga kamaygani aniqlandi(2-rasm).



2-rasm. Surxondaryo viloyatida 2010-2023-yillar oralig'ida istemol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bazis usulda mutloq o'zgarish' (mlrd.so'm) [8]

Yuqoridagi tahlil natijalaridan xulosa qilinsa, iste'mol mollari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa o'z navbatida oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Surxondaryo viloyatida 2010-2023-yillar davomida iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari zanjirsimon usulda mutloq o'zgarishi tahlil etilganda, oziq-ovqat mahsulotlari 2010-yilda 20,3 mlrd.so'mni tashkil etgan, hamda 2011-yildan 2014-yilgacha o'rtacha 107,6 mlrd. so'm o'sish qayd etilgan. 2015-yilda esa 36,8 mlrd.so'mga pasayish kuzatildi. 2010-2023-yillar oralig'idagi ma'lumotlar zanjirsimon usuldagi tahlil natijasiga ko'ra eng yuqori o'zgarish ko'rsatkichi 2023-yilda 915,5 mlrd.so'm teng ekanligi aniqlandi. Shuningdek, iste'mol mollari tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi zanjirsimon usuldagi tahliliga e'tibor qaratilsa, 2010-yilda 57,1 mlrd. so'mga o'zgarishi aniqlandi. Nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi

2010-2023-yillarda o'rtacha o'zgarish 247,6 mlrd.so'mni tashkil etdi(1-jadval).


Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bazis usulda tahlil etilganda, 2010-yilda bu ko'rsatkich aholi jon boshiga 28,7 ming.so'mga teng bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2010-2023-yillar oralig'ida o'rtacha 410,5 ming so'mni tashkil etgan. Aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari hajmi bazis usulda mutloq o'zgarish 2010-yilda 6,1 ming.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 322,1 ming.so'mni tashkil etgan. Mintaqada aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi nooziq-ovqat mahsulotlari ko'rsatkichlari bazis usulda mutloq o'zgarishi tahliliga e'tibor qaratilsa, 2010-yilda 25 ming.so'mni tashkil etishi aniqlangan bo'lsa, eng past ko'rsatkichni 2015-yilda va eng yuqori mutloq o'zgarish ko'rsatkichi 2023-yilda qayd etilganligi aniqlandi. 2010-2023-yillar davomida o'rtacha mutloq o'zgarish 222 ming.so'mni tashkil etdi.

1 Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

1-jadval

Surxondaryo viloyatida 2010-2023-yillar davomida istemol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari zanjirsimon usulda mutloq o'zgarish (mlrd. so'm) ko'rsatkichlari [8]

Yillar	2010-y	2011-y	2012-y	2013-y	2014-y	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
Jami	72,9	81,9	92,3	149,9	255,1	42,4	83,2	149,6	383,4	559,8	479,4	-907	959	2692,5
oziq-ovqat mahsulotlari	20,3	41,1	80,8	96,9	211,7	-36,8	42,4	-84,4	223,8	209,5	166,3	-54,5	-207	915,5
vino-arok mahsulotlari va pivo	-4,6	4,9	6,1	8	-13,6	7,4	8,2	1,2	2,8	-12,1	-11,4	-1,1	-5,7	12,5
nooziq-ovqat mahsulotlari	57,1	35,9	5,4	45	57,1	71,9	32,5	232,9	156,8	362,4	324,6	-851,4	1171,7	1764,6



3-rasm. Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga iste'mol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bazis usulda mutloq o'zgarishi (ming. so'm) [8]


Mintaqada aholi jon boshiga iste'mol mollari ishlab chiqarishning zanjirsimon usuldagi tahliliga e'tibor qaratsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 28,7 ming.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2010-2014-yillar oralig'ida esa o'rtacha 51,7 ming. so'mni tashkil etdi. Aholi jon boshiga iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida mutloq o'zgarish 2015-yilda 9 ming.so'mga teng bo'lib, o'tgan yillardagi ko'rsatkichlarga nisbatan kamaygan. Bu davr oralig'ida eng past ko'rsatkich 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 348,9 ming so'mga kamayish holati va eng

yuqori mutloq o'zgarish 2023-yilda 947,5 ming so'mga o'sish holati aniqlandi. 2010-2023-yillar oralig'ida aholi jon boshiga iste'mol mollari ishlab chiqarish o'rtacha mutloq o'zgarishi 125,6 ming.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichlari zanjirsimon usulda mutloq o'zgarishi tahlil etilganda, 2010-yilda bu ko'rsatkich 6,1 ming so'mga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 322,1 ming so'mga teng ekanligi qayd etildi. Bu davr oralig'ida o'rtacha mutloq o'zgarish 39,1 ming so'mni


tashkil etishi aniqlandi. Mintaqada aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan nooziq-ovqat mahsulotlari zanjirsimon usuldagi mutloq o'zgarishi tahlil etilganda 2010-2014-yillarda o'rtcha 16,2 ming so'mni va eng past ko'rsatkich 2021-yilda 348,9 ming so'mga kamayish holati aniqlandi. Yuqorida keltirilgan barcha tahlillarga e'tibor qaratsa, 2021-2022-yillarda jahonda koronavirus pandemiyasi dunyo iqtisodiyotiga salbiy ta'siri aks etgan, boisi bu yillarda oziq-ovqat sanoati mahsuloti ishlab chiqarish hajmi juda past qiymat ko'rsatkichlarni qayd etgan(4-rasm).

Surxondaryo viloyatida iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi

o'sish sur'ati (foizda o'tgan yilga nisbatan) ko'rsatkichlari tahlil etilganda, 2010-yilda 107,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 101,4 foizni tashkil etdi. Bu davr mobaynida eng yuqori o'sish ko'rsatkichi 2020-yilda 121,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich 2017-yilda 97 foizga teng ekanligi aniqlandi. 2010-2023-yillar mobaynida o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 108,1 foizni tashkil etdi. Iste'mol mollari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'sish ko'rsatkichlari tahlil etilganda eng yuqori o'sish ko'rsatkichi 2015-yilda 133,8 foizni va eng past ko'rsatkich 2018-yilda 87,9 foizga teng ekanligi aniqlandi(5-rasm).



4-rasm. Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga istemol mollari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari zanjirsimon usuldagi mutloq o'zgarish (ming. so'm) [8]



5-rasm. Surxondaryo viloyatida istemol mollari ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'ati (foizda o'tgan yilga nisbatan) [8]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikamiz va uning hududlarida

oziq-ovqat sanoati sohasini iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni statistik usullarda baholash, ularga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflash, iqtisodiy o'zgarishlarni aniqlash, istiqboldagi rivojlanishini statistik parametrlar orqali baholab

borish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Shu bois, maqolada Surxondaryo viloyatida iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'ati ko'rsatkichlari tahlil etildi. Tahlil natijalariga ko'ra so'ngi uch yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida sezilarli darajada past ko'rsatkich qayd etilganligi va o'z navbatida bu yillar davomida viloyat aholisi soni yilga o'rtacha 65 mingga ortishi bu sohada xali o'z yechimini topmagan muammolar borligini ko'rsatmoqda. Bu esa oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish sohada mahsulot yetishtirishdan tortib uni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish, xorijiy investorlarni jalb etgan holda oziq-ovqat sanoati texnoparklarini tashkil etishni ko'paytirish va oziq-ovqat mahsulotini eksport qiluvchi korxonalarga eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarida ko'maklashuvchi imtiyozlar yaratish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xursanov Sherzod Ulaboyevich, Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi // Хурсанов Шерзод Улабоевич, независимый исследователь Термезского государственного университета // Khursanov Sherzod Ulaboyevich, Applicant of Termez State University

► xursanovsherzod2928@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0007-2703-6192>

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. <https://www.fao.org/family-farming/detail/>

[ru/c/1245425/](https://lex.uz/ru/docs/-6802687)

- [2]. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6802687>
- [3]. Безопасность России. Раздел II. / Фролов К.В., Гордеев А.В., Масленникова О.А. и др. – М.: Знание, 2011. – С.101.
- [4]. Продовольственная безопасность России: проблемы и перспективы/ Анфиногентов А.А., Ермолаева О.В., Киреева Н.А. и др.; под ред. Анфиногентовой А.А.-Саратов: Издательство Саратовского государственного аграрного университета, 2014. – С.14.
- [5]. Ленчевский И.Ю. О некоторых аспектах продовольственной безопасности // Ж. Достижение науки и техники АПК. – М. 2013. №1.- С.6-9
- [6]. Саидова Д.Н., Рустамова И.Б., Турсунов Ш.А. Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. - Т.: ЎЗР Фанлар Академияси асосий кутубхонаси, 2016. – Б. 50.
- [7]. Фазилов Ф.М. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви шароитида Ўзбекистон озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш: Иқтисод фан. ном. дис. ... автореф.-Т.: ЖИДУ, 2008. – Б.19.
- [8]. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Qishloq xo'jalik samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlili

Xatamov Ochildi Qurbonovich, Xaitova Rushana O'ktamovna

Анализ внутренних и внешних факторов, влияющих на производительность сельского хозяйства

Хатамов Очилди Курбанович, Хаитова Рушана Уктамовна

Analysis of internal and external factors affecting agricultural productivity

Khatamov Ochildi Kurbanovich, Khaitova Rushana Uktamovna

Received: August 11, 2025 Revised: August 15, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada qishloq xo'jalik samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tasniflangan hamda ularning o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu omillarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmiga ta'siri statistik usullar yordamida baholangan.
- **Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, samaradorlik, ishlab chiqarish hajmi, ichki omillar, iqtisodiy omillar, mehnat va yer-suv resurslari.
- **Аннотация:** В статье классифицированы внутренние и внешние факторы, влияющие на производительность сельского хозяйства и исследована их взаимосвязь. Также с помощью статистических методов оценивается влияние этих факторов на сельскохозяйственное производство.
- **Ключевые слова:** сельское хозяйство, производительность, объем производства, внутренние факторы, экономические факторы, трудовые и земельно-водные ресурсы.
- **Abstract:** The article classifies internal and external factors affecting agricultural productivity and studies their interrelationships. Also, the impact of these factors on agricultural production is assessed using statistical methods.
- **Key words:** agriculture, productivity, production volume, internal factors, economic factors, labor and land and water resources.

KIRISH

Yagona iqtisodiy makonni shakllantirish jarayoni bilan tavsiflangan jahon xo'jalik tizimi globallasuvi ishlab chiqarishning, jumladan, qishloq xo'jaligining umumiy samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy, axborot, ekologik, institutsional, texnik omillardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Samaradorlikni turli xil ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarga xos bo'lgan va keng ma'noda unumdorlikni, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini, ishlab chiqarish tizimi yoki boshqaruvning ma'lum bir shaklini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqamiz. U xo'jalik faoliyati natijalari (ta'siri) va ularni keltirib chiqargan ishlab chiqarish xarajatlari (sabablari)ni solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish, shu jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi muammosi keyingi o'n yilliklarda fan va amaliyotning diqqat markazida bo'lmoqda. Bu uning hozirgi davrda ham dolzarbligini, ayniqsa, uning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini ko'rsatadi. Mamlakat xalq xo'jaligining bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan bu ahamiyat yanada ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida uzoq vaqt davomida narxlarni erkinlashtirish, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasidagi ayirboshlashning ekvivalent emasligi, kredit resurslari pastligi, mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyat beqarorligini bartaraf etish sohada milliy loyihaning amalga oshirilishida ijobiy omili bo'ldi. Bugungi kunda ham respublika hududlari sharoitlarini hisobga olgan holda, ekinlarni yetishtirishning samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar olib borish o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrar sektori iqtisodiyotini rivojlantirish, tarmoqda bozor islohotlarini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolariga bir qator xorijlik va o'zbek iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bag'ishlangan.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligiga har bir gektar yerdan yetishtirilgan mahsulot birligiga moddiylashtirishga mehnat sarflagan holda maksimal mahsulot miqdorini olish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi siyosiy, iqtisodiy kategoriya sifatida qarash mumkin.

Rossiyalik tadqiqotchi A.A.Stepanov fikricha, "qishloq xo'jaligi korxonalari samaradorligini aholi jon boshiga har bir gektar yerdan kerakli assortimentdagi oziq-ovqat va xom ashyo ishlab chiqarishni muntazam ravishda oshirish bilan ko'rsatish mumkin"[1]. Ushbu ish muallifining qishloq

xo'jaligi mehnat va yerning unumdorligini va normal atrof-muhit sharoitlarini saqlash uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish bilan mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirish lozim degan fikrini asosli, deb hisoblash mumkin. Shuningdek T.T.Satxlanova "qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi uning ishlab chiqarish omillari bo'lgan barcha resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog'liqligini ko'rsatsa"[2], G.Ivanov esa "agrosanoatda qishloq xo'jaligi korxonalarining yangi muhitini shakllantirish bilan kuchaytirishdir"[3], deb ta'kidladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi ko'pchilik mahalliy olimlarning ishlarida o'rganilgan. Akademik V.Qobulov, V.A.Abdurazakov, M.Z.Ziyaxodjayevlar tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligini boshqarishning ko'p pog'onali modellashtirish va uni amalga joriy etishning ilmiy konsepsiyasida qishloq xo'jaligi bilan bog'liq boshqa tarmoqlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom ashyosini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishda yer-suv va boshqa resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashi ko'zda tutilgan[4]. Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishida ekonometrik modellashtirishning ilmiy metodologik asoslari S.Gulomov ishlarida tadqiq etilgan [5].

Qishloq xo'jaligining rivojlanish mutanosibliklari va sur'atlarini tahlilida professor T.Shodiyev rekkursiv ekonometrik modellar asosida makroiqtisodiy tahlil va bashorat qilish tamoyillari hamda usullarini asoslab bergan hamda ular asosida respublika qishloq xo'jaligi rivojlanish istiqbollari tadqiq etgan[6]. Professor B.Xodiyevning tadqiqotlarida beqaror ob-havo sharoitida paxta hosildorligini prognoz qilishning ilmiy yondashuvi hamda matematik modeli ishlab chiqilgan[7]. Sh.Ergashevaning ishida yer-suv resurslari chegaralangan sharoitda respublika mintaqalarida sabzavot, don va boshqa mahsulotlar yetishtirish hajmining optimal variantini aniqlashga imkon beruvchi zanjir tarkibli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirishni optimallashtirish modeli taklif etilgan[8]. B.Raxmanqulovat tadqiqotlarida ishlab chiqarish resurslari samaradorligini baholash uslubiyati ishlab chiqilgan[9]. Shunday qilib, respublikada olib borilgan ushbu va boshqa tadqiqotlar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash sharoitlarida qishloq xo'jaligini boshqaruvchi davlat organlarini axborot bilan ta'minlash tizimlarini yaratish va qishloq xo'jaligi rivojlanishini prognozlashning metodologik va uslubiy bazasi hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklari tomonidan – foydalanuvchi yer va boshqa ishlab chiqarish resurslari samaradorligini oshirish hamda ular rivojlanishini modellashtirish borasida B.Berkinov fermer xo'jaliklarining normal rentabelligi, o'zini-o'zi moliyalashi, ularning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil qilish, to'lov qobiliyatini baholash, paxta xaridi narxini asoslashning ayrim uslubiy masalalari iqtisodiy-matematik usullarni

qo'llagan holda tadqiqotlar olib borganlar. Bunda "fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, alohida hududlar (tumanlar) salohiyatini hisobga olib, fermerlar ishlab chiqarishini optimal joylashtirish va ixtisoslashtirish istiqbollarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi"[10], deb ko'rsatgan.

Qishloq xo'jaligi faoliyatining samaradorligini baholash bo'yicha masalalar bo'yicha tadqiqotlar O.Xatamov[12] va S.Qulmatovalar[13] tomonidan olib borilgan. Qishloq xo'jaligi texnikasidan samarali foydalanishni boshqarish usullari va qishloq xo'jalik texnikasini oqilona qo'llashda iqtisodiy subyektlarning rivojlanishini aniq maqsad va vazifalariga erishish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Umuman olganda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi samaradorlik darajasi turli xil omillarga tabiiy-iqlim sharoitlari, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab va sohani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, yer, kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyati resurslari, xarajat, tabiiy-iqlim sharoitlari, xodimlar malaka darajasi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab bilan ta'minlashga bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi samaradorligiga ichki va tashqi omillarning murakkab tarmog'i ta'sir qiladi, ularning har biri qishloq xo'jaligi tizimining umumiy samaradorligi va mahsuldorligiga hissa qo'shadi. Omillarni tahlil qilishdan maqsad tobe o'zgaruvchining o'zgarishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar to'plami yoki ro'yxatini aniqlashdan iborat. Bu qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun umumiy bo'lgan omillar ham, ishlab chiqarish tarmog'i uchun xos bo'lgan omillar ham bo'lishi mumkin. Masalan, ekinlar hosildorligi modellarida yerlar unumdorligi, texnika bilan jihozlanganlik, suv bilan ta'minlanganlik, o'g'itlar sarf-xarajatlari, fondlar aktiv qismi ulushi, xarid qilingan materiallar qiymati ulushi qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun umumiy omillar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shuni hisobga olish kerakki, qishloq xo'jalik samaradorligiga boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar ta'sir ko'rsatadi. Boshqariladigan omillarga - yer haydashdan boshlab, toki hosilni yig'ib olgunga qadar amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar guruhlarini orqali shakllanadigan omillarni kiritish mumkin. Ayni paytda boshqarilmaydigan omillar tuproq tarkibidagi gumus (ballda o'lchanadi) va turli

darajada havoning o'zgarishi, namlik darajasi, tabiiy ofatlar va boshqalar kiradi.


Bu omillarni quyidagicha tasniflash mumkin. Qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi ichki omillarga-tuproq sifati, Ph darajasi va ozuqaviy moddalarning barchasi hosildorlikka ta'sir qiladi. Sug'orish tizimlari, suvning mavjudligi va suvni tejash usullari omillari sug'orish omillariga, qishloq xo'jalik korxonalarini boshqarishda almashlab ekish, oraliq ekish va ekish hamda hosilni yig'ish muddatlari, mehnat samaradorligida kadrlar malaka va ko'nikmalari, mehnatni boshqarish, qishloq xo'jalik texnikalarida traktorlar, dronlar yoki yig'im-terim mashinalari, ulangan mashinalar, ilg'or texnologiyalardan foydalanish, chorvachilikni boshqarishda naslchilik amaliyoti, chorva mollarini oziqlantirish omillari ta'sir qiladi. Moliyaviy resurslar bo'yicha kredit olish, subsidiyalar va moliyaviy savodxonlik, energiya resurslari, shu jumladan, qayta tiklanadigan manbalar mavjudligi va samaradorligi omillari ta'sir qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarga iqlim va ob-havo, harorat, yog'ingarchilik va qurg'oqchilik, toshqin kabi ekstremal ob-havo hodisalari kiradi. Bozor shartlarini bajarishda ekinlar va chorva mollariga talab, taklif va narxlarning o'zgarishi omillari, qishloq xo'jaligi siyosatini amalga oshirishda yerdan foydalanish qoidalari, import-eksport qoidalari, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari va umumiy iqtisodiy barqarorlik omillari ta'sirini ko'rsatish mumkin.

Qishloq xo'jalik samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar dehqonchilikka, iste'molchilarning xohish-istaklariga, mehnat imkoniyatlariga madaniy munosabat, xalqaro bozor sharoitlari, tariflar va savdo kelishuvlari omillarini ko'rsatish joiz bo'lib, bu omillarning barchasi qishloq xo'jaligi samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir qiladi.

Ushbu ichki va tashqi omillarni tushunish manfaatdor tomonlarga qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish bo'yicha ongli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Strategiyalar ilmiy-tadqiqot ishlariga investitsiyalar, fermerlarni o'qitish, resurslar narxlari ana shulardan kelib chiqib shakllanadi. Xo'jaliklar uchun imtiyozlar, ularga beriladigan kreditlar miqdorlari, foizlari, shuningdek, daromad solig'i stavkalari va ular tomonidan xarid qilinadigan moddiy-texnika resurslari katta ahamiyatga ega. Davlat bunday tartibga solinadigan ko'rsatkichlarning qiymatini ijtimoiy-iqtisodiy zaruratdan, shuningdek, qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish-moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantiradi. Ularni tabaqalash respublika mintaqalari ishlab chiqarish va yer-suv xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etiladi.

Qishloq xo'jalik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni biz uchta guruhga bo'ldik. Birinchi guruhni makroiqtisodiy omillar, ikkinchi guruhni mintaqaviy (hududiy) omillar, uchinchi guruhni ichki xo'jalik omillari tashkil qiladi (1-rasm).




1-rasm. Qishloq xo'jalik samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimi

Qishloq xo'jalik samaradorligi makroiqtisodiy omili sifatida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir xo'jalikning moliyaviy-iqtisodiy holati ko'p jihatdan mazkur siyosat ta'sirchanligiga va samaradorligiga bog'liq hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan jahon tajribasiga ko'ra, hozirgi vaqtda davlat tomonidan yaratilgan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar hamda shart-sharoitlar, qishloq xo'jaligini rivojlantirish omillari sifatida, aniq maqsadga yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lib, ular

amaliyotda o'z samarasini bermoqda.

Shu bilan birga davlat siyosati qishloq xo'jalik mahsulotlariga mamlakat ichida va tashqi bozorlarda bo'lgan talabga, ularning narxiga bog'liq bo'lib, mahsulotning, ayniqsa davlat tomonidan birlamchi qayta ishlash uchun xarid qilinadigan mahsulotlarga ta'sir o'tkazadi.

Umuman olganda, davlat tomonidan tartibga solinadigan makroiqtisodiy omillar qishloq xo'jaligi samaradorligida faol rol o'ynaydi. Shu bilan birga, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini



2-rasm. Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish samaradorlik omillarini bog'liqligi

rivojlantirishda hududiy omillar muhim ahamiyatga ega.

Ular jumlasiga, yer resurslarining yetarlicha mavjudligi va yaroqlilik holati kiradi. Yerlarning tabiiy unumdorligi, tuproqning sho'rlanish darajasi, sizot suvlarning joylashganlik darajasi va shu kabi omillar qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga hamda yetishtirilayotgan mahsulot sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga hududlar aholisi zichligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassislar mavjudligi ham qishloq xo'jalik samaradorligida muhim omil hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida hududlarning suv bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori hosil olishning asosiy omilidir. Albatta, qishloq xo'jaligi samaradorligi infratuzilmasi ishlab chiqarish shart-sharoitlarining sifat va miqdoriy ifodasini aks ettiradi. Qishloq xo'jalik samaradorligida asosiy omillar sifatida, respublika hududlarining yer-suv, mehnat resurslari, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari, shuningdek, xo'jaliklarda yetishtiriladigan mahsulot va xom ashyoning ichki va tashqi bozorda chiqishi muhim shartlardan biridir. Shuningdek, samaradorlik qishloq xo'jalik korxonalarining qayta ishlash jarayonlarini tashkil qilish, qishloq xo'jalik korxonalariga mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash mahsulotlari (YoMM) va boshqa ishlab chiqarish resurslarini yetkazib berish, infratuzilma tashkilotlari xizmatlari hajmi va sifatiga,

bozor va boshqa infratuzilma obyektlari soniga va ularning ishlab chiqarish ko'lamlariga bog'liq.

Bugungi kunda qishloqda turli xildagi xizmatlarni ko'rsatuvchi infratuzilmalarni rivojlantirish vazifasining hal etilishi malakali kadrlar mavjudligi bilan bevosita bog'liq[14]. Bularning barchasi qishloq xo'jalik samaradorligiga tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bu ularning matematik modellarini ishlab chiqishni talab qiladi, ushbu modellarning mazkur majmuaga kiruvchi boshqa vazifalar bilan mantiqiy va axborot orqali o'zaro bog'liqligi yuqorida keltirilgan chizmada ko'rsatilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yer, suv va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning matematik modellarini asoslash va ular rivojlanishini prognoz qilish muhim hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 467041,5 mlrd.so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar-451019,6 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi-11778,4 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi-4243,5 mlrd.so'mni tashkil qildi. Buni qishloq xo'jaligida band bo'lgan bitta ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 2024-yilda 2010-yilga nisbatan 4,5 martaga oshganligi ham tasdiqlaydi. Yoki shu davrda

bitta band ishchiga 2010-yilda 9,9 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 144,1 mln. so'mga teng bo'lgan.

Shu bilan bir vaqtda qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Agar 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 13,7 foiz ko'paygan bo'lsa, 2024-yilda esa, 2023-yilga nisbatan 9,6 foiz o'sishini ko'rish mumkin [15].

Texnologik yutuqlar yoki qishloq xo'jaligining yaxshi amaliyotlari tufayli qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida texnikalarning yaxshilangani qishloq xo'jalik hosildorligi oshishini ta'minlaydi, yalpi daromad va rentabellik koeffitsiyentlari sezilarli darajada o'sishi bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sog'lom iqtisodiy holatiga ijobiy ta'sir etadi. Albatta, ishlab chiqarish xarajatlari ham oshishi yalpi daromad va rentabellik o'sishidan oshib ketmasligi uchun ularni nazorat qilish lozim.

Qishloq xo'jaligida yaxshi sifat yoki talabning ortishi bilan bog'liq holda mahsulot o'rtacha narxi oshishi bozorning ushbu qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun ko'proq to'lashga tayyorligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14-fevraldagi "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-22-son Farmoniga asosan O'zbekiston fermerlari kengashi huzuridagi Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qator moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartiblari joriy etildi. Jumladan:

har yili 500 ta mahallada bittadan aholi tomorqasida amalga oshirilgan eng namunali va innovatsion loyiha uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan oshmagan miqdorda grantlar ajratiladi;

usta dehqonlar tomonidan qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun har bir kurs uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi;

muayyan mahalladagi 50 foiz xonadonlarning tomorqasida eksportbop mahsulot yetishtirishni yo'lga qo'yib bergan usta dehqonlarga 100 million so'mgacha subsidiya ajratiladi;

tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga tijorat banklari orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash, quritish, saqlash va qadoqlash loyihalari uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada (shundan 5 foiz bank marjasi) kreditlar ajratiladi;

aholi tomorqalari va ijara yerlarida ixcham muzlatkichli omborxonalar, qadoqlash, quritish va qayta ishlash uskunalari, tayyor holdagi issiqxonalar 24 oylik imtiyozli davr bilan 5 yilda bo'lib to'lash sharti bilan lizingga beriladi[16].

Ta'kidlash joizki, ekinlar yetishtirish va chorvachilikning texnologik va resurs salohiyatidan hali ham yetarlicha foydalanilmayapti. Bunda respublika hududlari tuproq holati va sharoitlarni hisobga olgan holda ekinlarni yetishtirish samaradorligi bo'yicha hali to'liq tadqiqotlar olib borilmagan. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan qayd etilgan xususiyatlari tarmoqning moddiy-texnika bazasini shakllantirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda har tomonlama tahlil qilish va hisobga olishni talab qiladi.

2000-2022-yillardagi respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish dinamikasini miqdoriy jihatdan baholashga harakat qilamiz. Buning uchun dinamika qatorlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan statistik tahlil ko'rsatkichlaridan foydalanamiz: mutloq o'sish (yoki kamayish); o'sish (yoki kamayish) sur'ati; qo'shimcha o'sish (yoki kamayish) sur'ati; bir foizli qo'shimcha o'sish (yoki kamayish)ni mutloq mohiyati[17].

Agar dinamika qator davrining har bir keyingi darajasi uning oldingi darajasi bilan taqqoslansa, u holda o'sish zanjirli, deb ataladi. Agar bir xil davr bir necha yillar davomida taqqoslash uchun asos bo'lib xizmat qilsa, u holda o'sish bazisli deb ataladi, ya'ni bazisli qatorning barcha hadlari bazis deb qabul qilingan had bilan taqqoslanadi.

Tahlil etilayotgan yillarda, respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi dinamikasini o'rganishda o'sish (yoki kamayish) sur'ati 100 %dan yuqori bo'lsa, demak bazis davrga nisbatan ko'rsatkich o'sgan bo'ladi, agar u 100 %ga teng bo'lsa, hech qanday o'zgarish bo'lmaganligini anglatadi, agarda 100 %dan past bo'lsa, o'rganilayotgan had o'zidan oldingi hadga nisbatan kamayib ketganligini bildiradi.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga asosan, tadqiqot davomida, statistik tahlil ko'rsatkichlari formulalaridan foydalangan holda bazisli va zanjirli usullarda mutloq o'sish (yoki kamayish); o'sish (yoki kamayish) sur'ati ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan zanjirli usul hisoblash natijalari tahliliga ko'ra, 2001-2024-yillar oralig'ida respublika qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining o'zgarish sur'ati ko'rsatkichi bazis davr (2000-yil)ga nisbatan kamayganligini ko'rsatmoqda. ya'ni 2001 yildagi 151,73% dan 2024 yilda 109,63 %ga tushgan. 2024-yil uchun zanjirli o'zgarish sur'ati, 2024-yildagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmini 2023-yildagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmiga nisbati bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish darajasi va samaradorligini aniqlashda ularning miqdori, sifati, tuzilishi, samaradorlik ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqlik dinamikasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim.

1-jadval

2000-2024-yillardagi respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish dinamikasini miqdoriy o'zgarishi

Yillar	Qishloq xo'jalik mahsulotlari (ming tonna)	Mutloq o'zgarish, ming tonna		O'zgarish sur'ati, %	
		Bazisli $\Delta u_b = u_i - u_0$	Zanjirsimon $\Delta u_z = u_i - u_{i-1}$	Bazisli $T_b = \frac{u_i}{u_0} * 100$	Zanjirsimon $T_z = \frac{u_i}{u_{i-1}} * 100$
2000	1387,2				
2001	2104,8	717,6	717,6	151,73	151,73
2002	3255,3	1868,1	1150,5	234,67	154,66
2003	4083,3	2696,1	828	294,36	125,44
2010	30856,7	29469,5	26773,4	2224,39	755,68
2011	45285,9	43898,7	14429,2	3264,55	146,76
2012	55750	54362,8	10464,1	4018,89	123,11
2013	66435,3	65048,1	10685,3	4789,17	119,17
2014	81794,3	80407,1	15359	5896,36	123,12
2015	99604,6	98217,4	17810,3	7180,26	121,77
2016	115599,2	114212	15994,6	8333,28	116,06
2017	148199,3	146812,1	32600,1	10683,34	128,2
2018	187425,6	186038,4	39226,3	13511,07	126,47
2019	216283,1	214895,9	28857,5	15591,34	115,4
2020	250250,6	248863,4	33967,5	18039,98	115,71
2021	303415,5	302028,3	53164,9	21872,51	121,24
2022	345191,7	343804,5	41776,2	24884,06	113,77
2023	426030,2	424643	80838,5	30711,52	123,42
2024	467045,5	465658,3	41015,3	33668,22	109,63

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, kelajakdagi siyosat qishloq xo'jaligi sektorining daromadli va barqaror bo'lishini ta'minlash uchun bozor narxlarining o'sishidan foydalangan holda o'sib borayotgan ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishga yo'naltirilishi mumkin. Ma'lumki, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan resurslar samaradorligi ekinlar hosildorligida namoyon bo'ladi.

Yuqorida tahlil etilgan omillar ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish: qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat, ilmiy-texnik va investitsion siyosatni amalga oshirish; tarmoqdagi barcha axborot tizimlarini "Raqamli qishloq xo'jaligi" platformasiga integratsiya qilish va mahsulot yetishtiruvchilarga "bir darcha" tamoyilida kompleks xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish; qishloqlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va qishloqlarda hayot sifatini yaxshilash kabi bir qancha muhim masalalarni hal etish imkonini yaratadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xatamov Ochildi Qurbonovich Termiz davlat universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori, Xaitova Rushana O'ktamovna Termiz davlat universiteti o'qituvchisi // Хатамов Очилди Курбанович Профессор Термезского государственного университета, доктор экономических наук, Хайтова Рушана Уктамовна Преподаватель, Термезский государственный университет // Khatamov Ochildi Kurbanovich Professor of Termez State University, Doctor of Economics, Khaitova Rushana Uktamovna Lecturer, Termez State University

- o.xatamov,rushanaxaitova1@gmail.com
- 0009-0003-9513-9987, 0009-0006-7065-7560

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1]. Степанов А.А и др. Современный подход к управлению эффективностью сельскохозяйственного производства на основе цифровизации на примере ООО «Соколово» DOI:10.31677/2311-0651-2022-36-2-85-91

[2]. Цатхланова Т.Т. Методические аспекты оценки и повышения эффективности сельскохозяйственного производства //Управление экономическими системами: Электронный научный журнал. – Кисловодск: Кисловодский институт экономики и права, 2011.-№

33.-С. 8-37.

- [3]. Иванов Г.И. Экономическая сущность и понятийный аппарат эффективности агропромышленного комплекса. // Экономика и управление.- 2018.-Т.4 (70), № 2.-С.34-42.
- [4]. Кабулов В.К., Абдуразаков Б.А., Зияходжаев М.З. Применение экономико-математических методов в хлопководстве.- Ташкент: Фан, 1974 г.
- [5]. Gulomov S.S. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida agrar ishlab chiqarish majmuini rivojlantirish jarayonini modellashtirish.: Iqt.f.n. dis. avtoref. -Toshkent: o'z.R. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi. BIITI, 2001.-26 b .
- [6]. Шодиев Т.Ш. Эконометрические модели развития сельского хозяйства. -Ташкент. Фан, 1986-166 с.
- [7]. Xodiyev B. o'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Iqt.f.dokt.disser. avtoreferati.-T:TDIU, 2000 - 38 b.
- [8]. Ergasheva Sh.T. Qishloq xo'jalik yerlaridan samarali foydalanish jarayonlarini modellashtirish.: Iqt.f.n. dis. avt.-Toshkent: TDIU, 2004.- 25 b.
- [9]. Raxmankulova B.o. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini ekonometrik tadqiq etish. Iqt. f. nom. dis. avtoref.- Toshkent: TIMI, 2006.- 24 b.
- [10]. Беркинов Б.Б. Моделирование систем ведения сельского хозяйства.- Ташкент: Фан, 1990. - 127 с.
- [11]. Qulmatova S.S. Qishloq xo'jaligida mashina-traktor parklaridan samarali foydalanishni modellashtirish. Iqt.f.f.dokt.disser. avtoreferati.-T:TDIU, 2022 - 28 b.
- [12]. Xatamov o.K. Qishloq xo'jalik texnikasi lizingiga investitsiyalar jalb etish jarayonlarini modellashtirish.- T.: "o'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2007.-142 b.
- [13]. Qulmatova S.S. Qishloq xo'jaligida mashina-traktor parklaridan samarali foydalanishni modellashtirish. Iqt.f.f.dokt.disser. avtoreferati. —T:TDIU, 2022 - 28 b.
- [14]. Qodirov Z. Axborotlar noravshanligi holatida fermer xo'jaliklari rivojlanishini imitatsion modellashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2023-yil.
- [15]. <http://stat.uz>- O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi sayti.
- [16]. "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14-fevraldagi PF-22-son Farmoni.
- [17]. Соатов Н.М., Тиллахужаева Г.Н. Статистика. Дарслик.-Т.: Тиббиёт нашриёти, 2006.-332 б.

Moliya, kredit va
investitsiya

Финансы, кредит
и инвестиции

Finance, credit and
investment

Hududlarni innovatsion rivojlantirishda jalb etilgan investitsiyalardan samarali foydalanish tahlili

Xatamova Manzura Ochildiyeвна, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li

Анализ эффективности использования инвестиций, привлекаемых в инновационное развитие регионов

Хатамова Манзура Очильдиевна, Нормуродов Аслиддин Алиджон оглы

Analysis of the effective use of attracted investments in the innovative development of regions

Khatamova Manzura Ochildieвна, Normurodov Asliddin Alijon oglyu

Received: August 12, 2025 Revised: August 18, 2025 ■ Accepted: August 20, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada Surxondaryo viloyati tuman(shahar)lari kesimida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar deskriptiv statistika usulida tahlil etilgan. Ushbu usul yordamidagi tahlil viloyatning har bir tumani(shahri)ning statistik ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlardagi o'rinlarini aniqladi. Bu esa o'z navbatida mazkur tuman(shahar) bo'yicha investitsiya dasturlarini tuzishga yordam beradi.
- **Kalit so'zlar:** investitsiya, deskriptiv statistika, samara, o'rtacha qiymat, mediana, markaziy tendensiya.
- **Аннотация:** В статье анализируется инвестирование в экономику районов (городов) Сурхандарьинской области с использованием описательной статистики. В результате анализа с использованием данного метода определены позиции каждого района(города) области в группах по статистическим показателям. Это, в свою очередь, способствует составлению инвестиционных программ для данного района(города).
- **Ключевые слова:** инвестиции, описательная статистика, эффективность, среднее значение, медиана, центральная тенденция.
- **Abstract:** The article analyzes the investments made to the economy by districts (cities) of Surkhandarya region using descriptive statistics. The analysis using this method determined the positions of each district (city) of the region in groups according to statistical indicators. This, in turn, helps to draw up investment programs for this district (city).
- **Key words:** investment, descriptive statistics, efficiency, average value, median, central tendency.

KIRISH

Bugungi kunda innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirishda asosiy e'tiborni sohaga milliy va xorijiy ilm - fan yutuqlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tezkorlik bilan keng joriy etilishi bilan birgalikda, kiritilayotgan investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratish davr talabiga aylanmoqda. Chunki, ular yordamida makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi, iqtisodiyotning innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar asosida rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish siyosatlari muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, zamonaviy infratuzilmalar rivojlantiriladi, yangi zamonaviy ish o'rinlari yaratiladi, ishsizlik muammosining oldi olinadi, erkin raqobat va tadbirkorlik munosabatlariga asoslangan zamonaviy iqtisodiy tizim rivojlantiriladi, viloyat, tuman va shaharlarni kompleks ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish amalga oshiriladi, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish tizimli yo'lga qo'yiladi, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etish tezlashadi.

Investitsiyalarning muhim ahamiyati shundaki, ular har qanday mamlakatning yaqin va uzoq kelajakdagi innovatsion rivojlanish istiqbollarini belgilab beradi.

Iqtisodiy atama va tushunchaga aylangan "investitsiya" so'zi lotincha "investio" so'zidan olingan bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda bu so'z "ta'minlamoq", "yordam bermoq", "sarmoya qo'yish" yoki "mablag'ni safarbar etish" so'zlarining sinonimi sifatida ham ishlatiladi. Ko'pgina hollarda "investitsiyalar" tushunchasi iqtisodiyot va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunida shunga o'xshash ta'rifni uchratish mumkin. Qonunda investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beriladi: "investitsiyalar-qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shuningdek jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar". Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra: "investitsiya bu – iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy, ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir".

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ilm-fanda ko'plab mashhur olimlar o'z ilmiy ishlarini investitsiya tushunchasi va iqtisodiyotga investitsiya kiritishga bag'ishlashgan. Jumladan, Nobel mukofoti laureati U.F. Sharp "Investitsiyalar kelgusida (ehtimol, noma'lum) boylik olishni ko'zlab hozirgi vaqtda ma'lum boylikdan voz kechishlikdir"[1], deb ta'kidlaydi.

B.A.Rayzberg, L.Sh.Lazovskiy, Ye.B.Starodubtsevlar "Investitsiyalar davlatga qarashli yoki xususiy kapitalni o'z mamlakatiga yoki chetga daromad olish maqsadida turli tarmoqlar korxonalari, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, investitsion loyihalarga uzoq muddatga joylashtirishdir"[2], deb ta'rif beradilar.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan rossiyalik iqtisodchi olim T. T. Frolova fikricha: "investitsiya-bu xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichida va mamlakatdan tashqarida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va qimmatbaho qog'ozlarga uzoq muddatli qo'yiladigan kapitaldir"[3].

Rossiyalik olimlar M. I. Rimer, A. D. Kasatov va N. N. Matienkolar U.F.Sharp fikriga yaqinroq holda investitsiyalarni "tadbirkorlik faoliyatining ob'ektlariga mablag'larni investitsiya qilish orqali ehtiyojlarni keyingi yillar davomida yanada to'liq qondirish maqsadida ne'matlarning joriy iste'mol qilinishidan voz kechishga qaratilgan harakat sifatida e'tirof etishadi"[4].

Yana bir guruh olimlar esa, "Investitsiyalar kapitalni u yoki bu yuridik mustaqil korxonalarga uzoq muddatga (eng kamida bir yildan ortiqqa) qo'shimcha daromad olish ta'siriga ega bo'lish, mazkur sohada o'zining operatsiyalarini tashkil etishga mablag'larni qo'yish natijasida ko'proq manfaatga erishish maqsadida joylashtirishdir"[5] - deb ta'kidlashsa, ayrim iqtisodchi olimlar "investitsiyalar - bu pulni saqlash yoki oshirish va daromadni ta'minlash uchun pul joylashtirishingiz mumkin bo'lgan vositadir"[6], - degan ta'rifni berishadi. Shuningdek, yana birlari "investitsiyalar iqtisodiy (foydali) va ijtimoiy samaralar olish maqsadida investitsiya ob'ektlariga qo'yilgan barcha turdagi mulkiy va intellektual qadriyatlarini ifodalaydi"[7], deb ta'kidlashadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim N.Xaydarov "Investitsiya -bu investor (davlat, xo'jalik sub'ektlari va jismoniy shaxslar) larning o'z ixtiyorida moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini iqtisodiy samara (tushum, daromad, foyda) olish uchun yo'naltirilgan qiymatlar yig'indisidir"[8], degan fikrni bildirsa, taniqli iqtisodchi olimlar D.G'.G'ozibekov va T.M.Qoralievlar investitsiyalarni "daromad (foyda) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklar", deb ta'riflaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, deskriptiv tahlil, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday mintaqa iqtisodiyotiga investitsiya kiritish jarayonini tadqiq etishda tahlilning statistik usullaridan foydalanish o'z-o'zidan maqsad yoki an'anaga hurmat emas, balki ob'ektiv zaruratdir. Shunday tahlillardan biri bo'lgan deskriptiv (tavsiflovchi) statistika birlamchi ma'lumotlarni shunday tasvirlashki, bunda mohiyat raqamlar orqasida yo'qolib qolmasligi va o'rganilayotgan hodisani nafaqat tadqiqotchining o'zi, balki har qanday o'quvchi tushuna

1-jadval

2024-yil Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning tuman(shahar)lar kesimidagi taqsimoti, mlrd.so'm hisobida

KO'RSATKICHLAR	JAMI	O'SISH SUR'ATI, % DA	JAMIGA NISBATAN, % DA
Surxondaryo viloyati	16297,9	-11	100
Termiz sh.	1 628,30	-32,8	9,9
Oltinsoy	706,8	2 barobar yaqin	4,3
Angor	542,3	12	3,3
Bandixon	288,4	-2,6	1,7
Boysun	5 545,20	1,6 barobar	33,4
Muzrabot	493,8	-7,5	3
Denov	994	-13,7	6
Jarqo'rg'on	752,9	-33,2	4,5
Qumqo'rg'on	522,3	-6,4	3,1
Qiziriq	296,6	-27,1	1,8
Sariosiyo	1252,2	-22,1	7,5
Termiz	1605,5	2,3 barobar	9,7
Uzun	295,1	2,1	1,8
Sherobod	914,6	-80	5,5
Sho'rchi	755	2,2 barobar	4,5

olishiga mo'ljallangan. Deskriptiv tavsif olingan kuzatish natijalari ishonchiligi va o'rganilayotgan iqtisodiy hodisalar qonuniyatlarini o'rnatish darajasini aniqlashga yordam

beradi. Shuningdek, stoxastik jarayonlar kontekstida to'g'ri, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish ob'ektiv hamda asoslangan bilimlarni taqozo etadi, bu albatta, har qanday

iqtisodiy tadqiqotlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Tarsimot qonuniyatlarini tanlash, birlamchi

ma'lumotlar(modellar) adekvatligini baholash deskriptiv

tahlilning majburiy bosqichi hisoblanib, u natijalarni


2-jadval

2014–2024 yillar mobaynida Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga jami kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha deskriptiv tahlili

Ko'rsatkichlar	Surxondaryo tumanlarining ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha qiymati	Ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatidan past tumanlar soni	Ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatidan yuqori tumanlar soni	Surxondaryo tumanlarining ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatining yarmi	Ko'rsatkichlar o'rtacha qiymatining yarmidan past tumanlar soni
O'rtacha qiymat	585,6	3	5	292,8	7
Standart xatolik	125,3	2	5	62,65	8
Mediana	522,9	2	7	261,45	6
Moda	Mavjud emas				
Standart og'ish	481,9	3	4	240,95	8
Dispersiya	508661,67	1	3	254330,8	11
Ekssess	-0,056	1	5	-0,028	9
	0,74	4	5	0,37	6
Interval	1426,2	2	5	713,1	8
Minimum	100,6	7	7	50,3	1
Maksimum	1526,8	2	5	763,4	8
Summa	6441,7	2	6	3220,85	7

keyinchalik umumlashtirish, uzatish va tanlama tadqiqotlardan bosh to'plamgacha bo'lgan jarayonni prognozlashning qonuniyligini asoslash uchun zarurdir. Surxondaryo viloyatiga jami kiritilgan investitsiyalar 2024-yil oldingi yilga nisbatan kamaygan(89,0%). Agar jami kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atini shahar va tumanlar kesimida qarasak, yuqori o'sish sur'ati Termiz tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,3 barobarni, Sho'rchi tumanida 2,2 barobar, Oltinsoy tumanida 2 barobarga yaqin, Boysun tumanida 1,6 barobar, Angor tumanida 12%, Uzun tumani 2,1% ni tashkil

etgan. 2024 yilda viloyatga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi o'tgan yilga nisbatan 11% ga kamaydi. Hududlar kesimida eng katta pasayish Sherobod tumanida qayd etilib, investitsiya hajmi 80% ga qisqardi. Shuningdek, Jarqo'rg'on tumani (-33,2%) va Termiz shahri (-32,8%) ham eng ko'p pasayish kuzatilgan hududlar bo'ldi. Qiziriq (-27,1%) va Sariosiyo (-22,1%) tumanlarida ham investitsiya oqimi keskin kamaydi. Denov (-13,7%), Jarqo'rg'on (-7,5%) va Qumqo'rg'on (-6,4%) tumanlarida pasayish esa nisbatan past bo'lsa-da, umumiy viloyat ko'rsatkichiga salbiy ta'sir ko'rsatdi(1-jadval).



1-rasm.

Viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning tuman(shahar)lar kesimida o'zgarishini deskriptiv tahlili grafigi

Viloyatga kiritilgan jami investitsiyalarning hajmi bo'yicha 100% da nisbatan, hududlar kesimida Boysun tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami kiritilgan investitsiyalarning 33,4% o'zlashtirildi.

Shuningdek, Termiz shahri keyingi o'rinda 9,9% ni tashkil etmoqda.

Termiz va Sariosiyo tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda – 9,7 % va 7,5% ni tashkil etgan.

Denov hamda Sherobod tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 6,0 % va 5,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bandixon tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 1,7 % tashkil etgan(1-jadval).

Tadqiqot davomida tavsiflovchi statistik tahlilini amalga oshirish va bu orqali tasodifan ro'y berishi mumkin bo'lgan guruhlar orasidagi farqlarning ishonchli ekanligi ehtimolini baholashdan to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi. Shunday qilib, ushbu tahlildan umumiy sharoitlar haqida xulosa chiqarish va olingan ma'lumotlarda nima bo'layotganini tasvirlash uchun foydalaniladi. Shuningdek, tavsiflovchi statistik tahlil bizga katta hajmdagi ma'lumotlarni soddalashtirishga yordam beradi va har bir tavsiflovchi statistik tahlil ko'plab ma'lumotlarni oddiy xulosaga qisqartiradi. Tavsiflovchi statistik tahlilning ushbu xususiyatidan kelib chiqib, Surxondaryo viloyatining

iqtisodiyotiga kiritilgan jami investitsiyalarning shahar va tumanlar kesimida tahlil qilamiz (2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'zgaruvchining tavsiflashning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lgan chastotani taqsimlashga e'tibor qaratilgan bo'lib, chastotalarni taqsimlashda biz ikki qism (ya'ni o'rtacha qiymatdan yuqori va past miqdorlar) bo'yicha ko'rib chiqdik. Ta'kidlash joizki, biz taqsimlashda yana bir jihatga e'tibor qaratdik (o'rtacha qiymatning yarmidan past) bu bizga ko'rsatkichlarning ichida eng pastlarini aniqlashga yordam beradi. Taqsimlashlarni foizlar yordamida ham ko'rsatilishi mumkin.

2-jadvalga e'tibor bersak, o'rtacha yoki mediana, markaziy tendensiyani ehtimoliy tavsiflashda eng ko'p ishlatiladigan qiymatlar bo'lib, jadvalda tumanlar o'rtasida jami kiritilgan investitsiyalarning o'rtacha qiymatidan yuqori shahar va tumanlar soni 6 ta, jumladan Termiz shahri(1170,67 mlrd. so'm), Boysun(2081,12 mlrd. so'm), Denov(630,95 mlrd. so'm), Sariosiyo(910,67 mlrd. so'm), Termiz (618,62 mlrd. so'm), Sherobod(914,8 mlrd. so'm) tumanlari va mediana bo'yicha o'rtacha qiymatidan yuqori tumanlar soni esa 7 ta, ular Termiz shahar(1222,7 mlrd. so'm), Boysun(1678,3 mlrd. so'm), Denov(563,2 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on(534,9 mlrd. so'm), Sariosiyo(826,7 mlrd. so'm), Termiz(685,6 mlrd.



	O'rtacha qiymat	Standart xatoqlik	Mediana	Moda	Standart og'ishi	Dispersion	Koatsion	Asimmetričnost	Interval	Minimum	Maksimum	Summa
Tumiz sh	1170,67	226,54	1222,7	Moda mavjud emas	751,35	564532,6	-0,97	0,11	2225,9	195	2420,9	12877,4
Ohangoy	264,2	55,31	260,5		183,45	33653,28	2,66	1,35	633,5	73,3	706,8	2906,2
Angor	265,68	54,14	204,9		179,56	32241,25	-1,64	0,43	476,8	65,5	542,3	2922,5
Harafizon	97,25	38,05	0		126,18	15922,11	-1,43	0,75	296	0	296	1069,8
Boysan	2081,12	626,25	1678,3		2077,03	4314067	-0,95	0,7	5403,5	141,7	5545,2	22892,3
Maxrabot	287,44	57,08	331,4		189,32	35842,29	-1,61	0,15	491,7	63,2	554,9	3161,8
Danov	630,95	142,39	563,2		472,24	223013,1	-1,69	0,34	1184,1	113,8	1297,9	6940,5
Karpo'rg'on	507,13	89,65	534,9		297,32	88400,91	0,37	0,61	981,9	144,6	1126,5	5578,4
Qungo'rg'on	329,5	53,12	300,3		176,18	31038,72	-1,68	0,14	455,5	102,4	557,9	3624,5
Qiziriq	244,48	34,57	245,5		114,64	13142,26	-1,68	0,11	310,2	96,8	407	2689,3
Sarinsiyer	910,67	194,82	826,7		646,14	417502,1	-0,3	0,58	2003,5	176,1	2179,6	10017,4
Tumiz	618,62	131,08	685,6		434,73	188992,6	1,48	1,01	1476,5	129	1605,5	6804,8
Uzun	192,35	30,68	211,5		101,75	10352,16	-1,62	0,03	287,2	60,2	347,4	2115,9
Sharobad	914,8	83,61	553,8		1272,29	1618729	8,28	2,77	4473,3	86	4559,3	10062,8
Sho'rchi	269,32	62,16	223,6		206,15	42495,79	2,07	1,3	693,5	61,5	755	2962,5

3-jadval

2014–2024 yillar mobaynida Surxondaryo viloyati jami kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha o'zgarishini deskriptiv tahlil jadvali

so'm), Sherobod(553,8 mlrd. so'm), ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatidan past tumanlar 2 ta Jarqo'rg'on(507,13 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on(329,5 mlrd. so'm), tumanlari, mediana bo'yicha o'rtacha qiymatidan past tumanlar 2 ta Muzrabot(331,4 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on(300,3 mlrd. so'm) tumanlari qiymatlarini ko'rish mumkin.

O'rtacha va mediana qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak(1.3-jadval), o'rtachaning yarmidan past qiymatlarda 7 ta tuman, Oltinsoy(264,2 mlrd. so'm), Angor(265,68 mlrd. so'm), Bandixon(97,25 mlrd. so'm), Muzrabot(287,44 mlrd. so'm), Qiziriq(244,48 mlrd. so'm), Uzun(192,35 mlrd. so'm), Sho'rchi(269,32 mlrd. so'm) tumanlari bo'lsa, medianada ham o'rtachaning yarmidan past qiymatlarda 6 ta tuman, Oltinsoy(260,5 mlrd. so'm), Angor(204,9 mlrd. so'm), Bandixon(0 mlrd. so'm), Qiziriq(245,5 mlrd. so'm), Uzun(211,5 mlrd. so'm), Sho'rchi(223,6 mlrd. so'm), tumanlarini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu qatorlarda moda kuzatilmadi ammo tumanlar ichida Boysun va Sariosiyo va Sherobod tumanlaritahlilimiz natijasida o'rtacha va mediana ko'rsatkichlarining o'rtachasining yuqori va past qiymatlarida ko'tarilib yoki pasayib turganligini ko'rish mumkin. Bu kuzatilayotgan statistik qatorlar uchun o'rtacha, mediana va modalarni deyarli bir-biriga tengligida normal taqsimot(ya'ni qo'ng'iroq shaklida bo'lsa) kuzatilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, bunday holat viloyat tumanlarining notekis rivojlanayotganligidan dalolat beradi va qolgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish shart emasligini ifoda etadi(1-rasm).

Bu esa jadvalda ko'rinib turganidek, jami kiritilgan investitsiyalar hajmiga nisbatan viloyatning ko'pgina tumanlarida buning ijobiy yechimlarini ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, jami o'zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalarining o'rtacha va mediana ko'rsatkichlar bo'yicha ham yuqori bo'lgan Termiz shahar, Boysun, Sariosiyo, Denov, Sherobod, Termiz tumanlari barqarordir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan jami investitsiyalar dinamikasini statistik tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, viloyatda investitsiyaviy siyosatni yuritish bo'yicha muammolar etarli darajada, ularni bartaraf etish esa o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida hududlar kesimida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan: innovatsion markazlar, texnologik innovatsiyalar bilan shug'ullanuvchi mahalliy sanoat korxonalari, yaratiladigan yangi texnologiyalar, hududlarda

yillik ro'yxatga olingan patentlar, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ilmiy, innovatsion va texnologik loyihalar hamda innovatsion startaplar sonini oshirish kabi qator maqsadli ko'rsatkichlarni ta'minlashga imkon yaratadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xatamova Manzura Ochilidievna Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, //Хатамова Манзура Очильдиевна Независимый исследователь Термезского государственного университета, // Khatamova Manzura Ochilidievna Independent researcher, Termez State University,
► manzuraxatamova1@gmail.com
■ 0009-0005-8993-8242
2. Normurodov Asliddin Alijon o'g'li Termiz Shahar Prezident maktabi o'qituvchisiN // Нормуродов Аслиддин Алиджон оглы Преподаватель Президентской школы города Термез // Normurodov Asliddin Alijon oglu Teacher at the Termez City Presidential School
► normurodovasliddin7@gmail.com
■ 0009-0001-9594-3962

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции. Пер.С. англ. – М.: ИНФРА – М, 1999. – XXI, - С. 979.
- [2]. Райзберг Б.А. Лазовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современные экономический словарь – 3-я изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА – М, 2001. – С. 145-146
- [3]. Фролова Т.А. Экономическая теория: конспект лекций. Таганрог: ТТИ ЮФУ, 2009.- С. 141.
- [4]. Ример М .И., Касатов А.Д., Матиенко Н.М. Экономическая оценка инвестиций.-СПб.: Питер, 2008.- 480 с.
- [5]. Фофуров Ш.Р., Гугнин В.И., Омонов С.Н. Язык бизнеса. Термины. Под общей редакций д.э.н. В.А.Чжена. – Т.: "Шарк", 1995 – С.171.
- [6]. Басовский Л. Е., Басовская Е. Н. Экономическая оценка инвестиций: Учеб. пособие.-М.: ИНФРА-М, 2014.-241 с
- [7]. Кокшарова, Н. Г. Экономическая оценка инвестиций : учебное пособие / Н. Г. Кокшарова ; Сыкт. лесн. ин-т. – Сыктывкар : СЛИ, 2012. – 128 с.
- [8]. Ҳайдаров Н.Х. Тўғридан-тўғри инвестициялар имкониятлари. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. 2011, No 1, сентябрь.

Transformatsiya jarayonida bank aktivlari samaradorligini oshirish usullari

Sharipova Dilfuza Jumaniozovna

Методы повышения эффективности банковских активов в процессе трансформации

Шарипова Дилфуза Джуманиязовна

Methods of increasing the efficiency of bank assets in the process of transformation

Sharipova Dilfuza Jumaniyazovna

Received: August 14, 2025 Revised: August 17, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada transformatsiya jarayonida bank aktivlari samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari hamda uni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotimizda tijorat banklarining faoliyatini jadallashtirish yo'llari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda bank aktivlari samaradorligini oshirishning istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.
- **Kalit so'zlar:** Tijorat banklari, raqamli transformatsiya, innovatsion bank, bank mahsulotlari, boshqaruv tuzilmasi, bank strategiyasi, aktivlar, bank aktivlari, bank passivlari, marja, kredit, depozit, foizli, foizsiz daromad va xarajatlar.
- **Аннотация:** в данной статье изложены теоретические и методологические основы повышения эффективности банковских активов в процессе трансформации и пути ускорения деятельности коммерческих банков в нашей национальной экономике посредством ее развития. В частности, в ходе последовательного реформирования финансового сектора реализуется ряд мер, в результате которых создаются необходимые правовые условия для ведения передового банковского бизнеса и усиления конкурентной среды в этом секторе. Приведены также существующие проблемы перспектив повышения эффективности банковских активов в нашей стране, а также авторские подходы и предложения по их преодолению.
- **Ключевые слова:** коммерческие банки, цифровая трансформация, инновационный банкинг, банковские продукты, структура управления, банковская стратегия, активы, банковские активы, банковские обязательства, маржа, кредит, депозит, проценты, беспроцентные доходы и расходы.
- **Abstract:** this article outlines the theoretical and methodological foundations for improving the efficiency of banking assets in the process of transformation and ways to accelerate the activities of commercial banks in our national economy through its development. In particular, during the consistent reform of the financial sector, a number of measures are being implemented, as a result of which the necessary legal conditions are being created

for conducting an advanced banking business and strengthening the competitive environment in this sector. The paper also presents the existing problems of prospects for improving the efficiency of banking assets in our country, as well as the author's approaches and proposals to overcome them.

- **Keywords:** commercial banks, digital transformation, innovative banking, banking products, management structure, banking strategy, assets, banking assets, banking liabilities, margin, loan, deposit, interest, interest-free income and expenses.

KIRISH

Bugungi kunda, jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan globallashuv sharoitida xalqaro miqyosda bank tizimining amal qilish mexanizmlari, xalqaro bank aktivlarining shakllanish va taqsimlanish tamoyillarini tadqiq etish kabi ilmiy tendensiyalar faollashmoqda. Jahon banklari aktivlari shakllanishidagi ayrim nomutanosibliklar xalqaro miqyosda banklar tarmog'ining inqirozga yuz tutishi, xalqaro iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining pasayishi xavfini oshiradi. Shu bois xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlari raqamli bank konsepsiyasini yo'lga qo'yish, aktivlarni maqbul sohalarga joylashtirishning ilg'or innovatsion texnologiyalarga asoslangan usullarini rivojlantirish, aktivlarni himoyalashning mukammal tizimlarini joriy etish, bank tavakkalchiliklarini baholashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida "... kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan.[1]

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish omillariga ilmiy-uslubiy yagona yondashuv mavjud emas. Ayniqsa, tijorat banklari aktivlari sifatini intensiv oshirishning amaliy va uslubiy muammolari, sog'lom bank aktivlari portfeli shakllanishining muhim mezonlari va tamoyillari tadqiqi, tijorat banklari tizimida innovatsion dasturiy ta'minot va maxsus platformalar xizmatlaridan samarali foydalanish mexanizmlari hamda tijorat banklari aktivlarini himoyalashda risklarni boshqarishning amaliy va uslubiy muammolari chuqur o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar bank tizimida ko'plab moliyaviy xizmatlarning ortib borishi masofadan bank

xizmati ko'rsatish ahamiyatini yanada oshirdi, natijada butun dunyo bo'ylab yirik banklar tomonidan bank xizmatlarining turli xil variantlari onlayn rejimda taqdim etilmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda moliyaviy xizmatlarni yetkazib berish va iste'mol qilish borasida shuningdek, texnologik rivojlanish natijasida biznes, bank va moliya tizimi muhitida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bank xizmatlar bozorida ham internet va mobil texnologiyalarni qo'llash hamda ulardan foydalanish banklarning xizmat ko'rsatish tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ko'p sonli elektron kanallar orqali elektron bank xizmatlarini rivojlantirish mijozlarga qo'shimcha qulayliklar taqdim etish imkonini berdi.

Transformatsiya jarayonida bank aktivlari samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari yuzasidan mahalliy hamda xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, A.I.Jukov bank xizmatlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Tijorat banklari xizmatlari – bank foydasiga ma'lum bir haq olish evaziga, mijozning talabiga binoan bank operatsiyalarini bajarish».[2] Bugungi kun bank sohasining rivojlanish tendensiyasi xizmatlarni elektron tarzda yuritishga o'tishdir. Bu borada ilk fundamental tadqiqot Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshida 1974 yili tashkil etilgan Bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi tomonidan o'tkazildi. Mazkur qo'mita tomonidan elektron bank xizmatlari bo'yicha ishchi guruh tashkil kilindi. Bank nazoratchilari uchun xalqaro elektron bank ishi masalalari «Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors» (2000 y.) ma'ruzalari ushbu guruh faoliyatining natijasiga aylandi. [3] Mazkur muammoning turli jihatlariga Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va O'nlik guruhining (G10) tadqiqotlarida xam sezilarli darajada e'tibor qaratilgan. [4] Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) bank faoliyatiga joriy etish va ularning iqtisodiyotda qo'llanilishini kengaytirish mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirda iqtisodiyotda AKTdan foydalanishni kamaytirish aholi jon boshiga hisoblangan daromad va samaradorlikka salbiy ta'sir qiladi. [5]

Shu o'rinda, «bank hisobvarag'iga masofadan xizmat ko'rsatish» yoki «masofaviy bank xizmatlari» tushunchalarining mohiyatiga e'tibor qaratsak.

Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishida raqamli texnologiyalarning ta'siri asosiy omil bo'lmoqda. Dastlab,

70-yillarda banklar aloqa kanallari sifatida bankomatlarni jori qilgan, keyinroq 1980 yillarda telefon aloqasi, 1990 yillarda internet-banking, 1990-2000 yillar mobaynida mobil-banking xizmati bilan bank texnologiyalari o'zgarib bormoqda. [6] 2000 yildan turli xildagi smartfonlar vujudga keldi, ular orqali bankka ulanish kanallari rivojlana boshladi. Masofaviy bank xizmatlarining turlari ortib bordi, ulardan millionlab bank mijozlari foydalana boshladi. Hozirgi kunda ham bank xizmatlari innovatsion bank texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish evaziga takomillashib bormoqda.

Rus iqtisodchi olimi V.K.Spilnichenkoning fikricha, masofaviy bank xizmatlari informatsion xizmatlarning majmui va mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni bankka tashrif buyurmasdan bajarishdir. Masofaviy bank xizmatlari telekommunikatsiya tizimi orqali mijozning bank ma'lumotlar bazasiga murojaati bilan izohlanadi. [7]

O'z navbatida, sarroflik idoralari ushbu to'plangan pul mablag'larini boshqa shaxslarga qarzga berish va olish amaliyotlarini ham boshlashdi. Asta-sekin turli xildagi ssudalarni berish va pul mablag'larini jalb qilish hisobidan sarroflik ishi kengayib, kreditlar beruvchi, omonatlarni qabul qiluvchi va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar paydo bo'la boshladi. Moliyaviy munosabatlarning bu tartibda rivojlanishi hozirgi banklarning aktiv amaliyotlarini shakllanishiga asos soldi. [8]

Umuman olganda, moliyaviy munosabatlarning dastlabki ishtirokchilari yirik miqdordagi pul mablag'larini to'plash va ularning harakatsiz turishi samarasiz ekanligini tushunib yetgan holda mablag'larni boshqalarga ma'lum foiz evaziga qarzga berish orqali yuqori foyda olishga harakat qilishdi. Shu orqali banklarning aktiv amaliyotlarning asosiy unsuri hisoblangan kredit munosabatlariga faol kirishishi ro'y berdi. Kredit munosabatlarini takomillashishi pul mablag'laridan samarali foydalanish mumkinligini isbotlab berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank qonunchiligida "tijorat banklari aktivlari

– kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, hisoblangan foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda hisoblangan foizlardan tashqari boshqa barcha talablarni o'z ichiga oladi", deb qayd etiladi. [9] Aktivlarning bilan bog'liq munosabatlarning amal qilishi aktiv amaliyotlar (operatsiyalar)ni yuzaga keltiradi.

Mamlakatimiz bank tizimi so'ngi yillarda milliy iqtisodiyot ravnaqini belgilovchi asosiy mexanizmga aylanib borayotganligi zamonaviy bank mahsulotlari qatorida aktiv amaliyotlarning sifat darajasini oshirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda tijorat banklari moliyaviy holatini yaxshilashning asosiy omillari qatorida samarador, sog'lom bank aktivlari portfelini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, bank aktivlari samaradorligini oshirib borish faqatgina bank tizimining emas, balki butun iqtisodiyotni rivojlantirish doirasidagi masaladir. Tijorat banklarida aktivlar samaradorligining pasayib ketishi quyidagilarni yuzaga keltiradi:

- vakillik hisob raqamlarida resurslar yetishmovchiligi;
- bankning moliya bozorida tutgan mavqeining pasayib ketishi;
- mijozlarda bankka nisbatan ishonchsizlik hamda norozilikning kuchayishi va h.k.

Banklarda aktivlarning qadrsizlanish darajasini ortib borishi iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishiga, bu esa, o'z navbatida, ishsizlikni o'sishiga olib keladi. Bundan tashqari, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini ko'rsatishicha, banklar amaliyotidagi iqtisodiy tanglikning salbiy ta'sirlari muayyan davlat yoki hudud bilan cheklanmasdan, balki butun jahon iqtisodiyotida og'ir muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tijorat banklarida aktiv amaliyotlar samaradorligini ta'minlash doimo dolzarb ahamiyat kasb etib keladi. Bunga sabab bank aktivlarini samaradorligini baholash masalasi bank ta'sir doirasidan tashqari yondashuvni ham talab qiladi. O'z navbatida, bank aktivlari samaradorligini ta'minlashning kompleks tabiati uning uslubiy asoslarini amal qilishida ifodalanadi.

Yiqorida keltirilgan 1-jadvalda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning maqsadlariga e'tibor qaratsak quyidagilarga guvoh bo'lamiz. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi yildan-yilga sezilarli darajada oshgan bo'lib, ularning maqsadlar bo'yicha taqsimoti O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omillarni aks ettiradi. 2020 yilda jami ajratilgan kreditlar hajmi 127 207,5 milliard so'mni tashkil etgan.

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan tarmoqlar bo'yicha ajratilgan kreditlar, [9] mlrd so'mda

Sana	Jami	shundan:						
		Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Savdo va umumiy ovqatlanish	Transport va aloqa	Jismoniy shaxslar	Boshqalar
2020	127207,5	41 603,00	18 772,20	4 939,50	18 262,10	4 366,40	28 466,60	10 797,80
2021	166673,5	51 335,60	21 133,20	6 745,40	26 849,60	6 309,60	40 520,90	13 779,30
2022	203126,6	60 198,70	15 963,90	7 828,50	30 303,70	7 217,80	65 288,50	16 325,50
2023	251401,5	66 913,90	14 602,50	6 826,80	30 511,10	9 594,30	100234,8	22 718,10
10/1/2024	200088,5	51 283,20	13 950,30	5 117,30	26 809,70	4 515,90	73 141,00	25 271,10

Asosiy vositalar sotib olish uchun ajratilgan kreditlar 39 009,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu investitsiyalarni qo'llab- quvvatlashga qaratilgan strategiyani ko'rsatadi. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi 43 797,0 milliard so'mga yetgan.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning maqsadlariga e'tibor qaratsak quyidagilarga guvoh bo'lamiz

(2-jadval). Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi yildan-yilga sezilarli darajada oshgan bo'lib, ularning maqsadlar bo'yicha taqsimoti O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omillarni aks ettiradi. 2020 yilda jami ajratilgan kreditlar hajmi 127 207,5 milliard so'mni tashkil etgan.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning maqsadlar bo'yicha tahlili, [9] mlrd so'mda

Yillar	Jami kreditlar	shundan:				
		Asosiy vositalar sotib olish uchun	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun	Yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun	Aholiga uy-joy qurish va sotib olish uchun	Boshqa maqsadlar
2020 yil	127 207,50	39 009,80	43 797,00	10 462,20	9 163,50	24 775,00
2021 yil	166 673,50	43 447,80	63 319,80	12 637,90	9 787,60	37 480,40
2022 yil	203 126,60	44 087,40	75 663,40	12 131,20	14 307,00	56 937,60
2023 yil	251 401,50	47 784,90	80 015,20	5 461,60	16 088,40	102 051,40
10/1/2024	200 088,50	22 555,70	85 951,90	4 751,60	11 720,40	75 108,80

Asosiy vositalar sotib olish uchun ajratilgan kreditlar 39 009,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu investitsiyalarni qo'llab- quvvatlashga qaratilgan strategiyani ko'rsatadi. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi 43 797,0 milliard so'mga yetgan.

So'nggi yillarda kreditlari bozori hajmi tezo'smoqda. Jumladan, mazkur bozor 2023 yildagi 14152,54 milliard dollardan 2024 yilda 16442,29 milliard dollargacha o'sdi hamda yillik o'sish sur'ati 16,2 foizni qayd etdi. Korxonalarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bu jarayonning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Bugungi kunda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun korxonalarga moslashuvchan va past foizli kredit resurslari zarur. Mazkur jarayonda kreditlash jarayonining shaffofligi va tezkorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali onlayn kreditlash tizimini rivojlantirish lozim. Ta'sirchan korporativ kreditlash amaliyoti yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy bozorni qo'llab- quvvatlash va eksport salohiyatini oshirish uchun zamin yaratadi. Shu sababli korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston banklarida aktiv operatsiyalarning yuqori ulushini tash etuvchi kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoev tomonidan "2024 yil yakuni bilan ajratilgan jami kreditlar 275 trillion so'mni tashkil qiladi. 2025 yilda bu 300 trillion so'mdan oshishi hisob-kitob qilingan. Ayniqsa, kichik biznesga beriladigan kreditlar ulushi hozirgi 28 foizdan 40 foizga oshirilib, 120 trillion so'mga yetkaziladi", deya qayd etilgan. Biroq mazkur sohada bir qator hal qilinishi lozim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mahalliy kredit bozorida raqobatning yetarlicha ta'minlanmaganligi, kredit bozorida xorijiy ishtirokchilar ulushining pastligi, korporativ kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, tijorat banklari tomonidan korporativ tuzilmalarni moliyalashtirishda barcha soha vakillari qamrab olinmaganligi, bank sohasida davlat aralashuvining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, korporativ kredit mahsulotlarini olish bo'yicha yuqori qoidalar va talablarning mavjudligi, korporativ kreditlash amaliyotida muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi kabilarni ta'kidlash joiz.

Tijorat banklarida aktivlar samaradorligini ta'minlash murakkab jarayon bo'lib, bir qator aniq talablarga tayanishni talab etadi. Ular huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va malakaviy talablarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy talablar bank ichki siyosatlarida aktivlar sifatini oshirib borish mexanizmini mukammal belgilanishi, bank

aktivlari samaradorligini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Tashkiliy talablar esa tijorat banklarida aktivlarni samarali joylashtirishga javobgar tuzilmalarning mavjud bo'lishi, dasturiy tizimlar va ma'lumotlar bazasining mustahkamligini ifodalaydi.

Iqtisodiy talablar aktivlar sifatini tasniflash va kompleks tahlil qilish tizimini mukammaligi, aktivlarni diversifikatsiyalash tamoyillariga to'liq amal qilinishi, aktivlar sifati bo'yicha tizimli monitoringni yo'lga qo'yilganligi kabilarni belgilanadi.

Malakaviy talablar aktivlar tavakkalchiligini aniq baholanishi, aktivlarni joylashtirish jarayonida hujjatlashtirishning to'g'riligi, xodimlarning malakaviy tayyorgarligini uzluksiz oshirib borish zarurligini anglatadi.

Tijorat banklarida kreditlash tizimi bo'yicha tuziladigan hisobotlar aktivlar samaradorligining mavjud holati to'g'risidagi batafsil axborotlarni ifodalashi lozim.

Tijorat banklarida korporativ mijozlar uchun joriy qilingan bank krediti mahsulotlari tijorat banklarining asosiy aktiv operatsiyalari sifatida foizli daromadlarning salmoqli qismini olishga xizmat qiladi. Bunda kredit mahsulotlari bo'yicha jozibador takliflar berish tijorat banklari oldidagi muhim ustuvor maqsadlardan biridir. Mazkur jihat o'z navbatida korporativ mijozlarga o'z loyihalariga mos kredit mahsulotlaridan foydalanish imkonini ham beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida aktivlar portfeli samaradorligi o'zgarishi to'g'risidagi axborotlarni haqqoniy va o'z vaqtida taqdim etish mexanizmining yo'lga qo'yilmaganligi bank Boshqaruvini mavjud muammolarni tezkor bartaraf etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini ta'minlashda aktivlarni joylashtirish borasida tarkibiy tuzilmalar faoliyatiga talablarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda banklar oldiga bank Kengashi tomonidan bank Boshqaruvi raisi va a'zolari, ichki audit bo'limi rahbarlarining bank aktivlari, kredit va investitsiya portfelleri, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlari holati bo'yicha hisobotlarini muntazam ravishda har chorakda ko'rib chiqish va ta'sirchan choralar belgilab amalga oshirish amaliyotidan keng foydalanish vazifasi qo'yildi. Bundan tashqari, aktivlarni diversifikatsiya qilish, kredit portfelini yaxshilash, tavakkalchiliklarni samarali boshqarishni nazorat qilish maqsadida har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo'ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish Qo'mitalari tashkil etildi. Tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirishning iqtisodiy masalalari bank aktivlarini maqbul

joylashtirish va doimiy monitoringini amalga oshirish jarayoniga qat'iy talablarni belgilashni nazarda tutadi.

Milliy iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit bozori ishtiroki O'zbekistonda haqiqatda yuqori. Moliya bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fond bozori yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda kreditga talab nisbatan yuqori. Lekin amalda sof bozor prinsiplari asosidagi kreditlar foiz stavkalari keskin yuqoriligi o'z- o'zidan ma'lum darajada talabni pasaytirayotgan omil sifatida ham namoyon bo'layotganligi xususida shu o'rinda to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi. Oxirgi yillarda jismoniy shaxslar qarz yuki ham nisbatan o'sish tendensiyasiga egaligi sharoitida biznes subyektlarining kredit munosabatlariga faol kirishayotganligi ham ayon haqiqat. Bunda yirik aksiyadorlik kompaniyalari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, xorijiy korxonalar, qo'shma korxonalar, oilaviy korxonalar, boshqa kichik va o'rta biznes subyektlari qatori yakka tartibdagi tadbirborlar tomonidan ham bank kreditlariga muntazam talab mavjudligi va muntazam oshib borayotganligi O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning ham doimiy yuqori sur'atlarda oshishini ta'minlamoqda. Bank kreditlari bozorida tijorat banklari biznesni moliyalashtirish orqali o'zlarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirishadi. Amalga oshirilayotgan kredit operatsiyalari natijasida tijorat banklari daromadliligi ham ta'minlanmoqda. Boshqa tomondan davlat dasturlari doirasida biznesni kreditlash natijasi o'laroq, kredit mablag'laridan samarali foydalanilmaslik natijasida muammoli kreditlarning ham ortishi kuzatilmoqda.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Sharipova Dिल्фуза Jumaniyozovna Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi / Шарипова Дилфуза Джуманиязовна Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета / Sharipova Dिल्фуза Jumaniyazovna Independent researcher at Tashkent State University of Economics

► Sharipova@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0007-9247-309X>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон "2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида"ги фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон.
- [2]. Жуков А.И., Банковская система России. М.: Проспект, 2009. с. 186.
- [3]. Electronic Banking Group Initiatives and White Papers. - Basel Committee for Banking Supervision. - Basel, October 2000. - 27 p.
- [4]. <http://www.bis.org> - сайти маълумотлари асосида тайёрланган.
- [5]. Ramayah, T., (2005). Course website usage among distance learning business students: the role of prior experience. International Journal of Learning 11, 1507–1517.
- [6]. Devlin, J.F. (1995), «Technology and innovation in retail banking distribution», International Journal of Bank Marketing, Vol. 13 No. 4, pp. 19-25.
- [7]. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
- [8]. Ташматов Ш.Х. Ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиши ва ривожланиши. Докторлик диссертацияси.-Т.: 2006. (16-бет).
- [9]. «Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида»ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2015 йил 14 июлда 2696-сон билан рўйхатга олинган.-Т.: «Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами», 2015 йил 20 июль, 28-сон.

Ekonometrika va
statistika

Эконометрика и
статистика

Econometrics and
statistics

Қишлоқ хўжалигини оптимал ривожлантиришда эконометрик моделлар: регрессион таҳлил

Ибрагимов Нодир Нусриддинович

Эконометрические модели оптимального развития сельского хозяйства: регрессионный анализ

Ибрагимов Нодир Нусриддинович

Econometric model of optimal development of agriculture: regression analysis

Ibragimov Nodir Nusriddinovich

Received: August 12, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Аннотация:** Мақолада қишлоқ хўжалиги тармоқлари самарадорлигини оширишда регрессия моделларининг афзалликлари ҳамда тармоқ инвестицион жараёнларининг эконометрик таҳлили батафсил баён этилган.
- **Калит сўзлар:** корреляция, регрессия тенгламаси бошланғич маълумотлар, модель, инвестиция, қишлоқ хўжалиги, агросаноат мажмуи, ишлаб чиқариш, логистика, қайта ишлаш, реализация.
- **Аннотация:** В статье подробно рассмотрены преимущества регрессионных моделей в повышении эффективности отраслей сельского хозяйства и эконометрического анализа процессов инвестирования в отрасли.
- **Ключевые слова:** корреляция, уравнение регрессии, исходные данные, модель, инвестиции, сельское хозяйство, агропромышленный комплекс, производство, логистика, переработка, реализация.
- **Abstract:** The article describes in detail the advantages of regression models in improving the efficiency of agricultural sectors and the econometric analysis of sector investment processes.
- **Key words:** correlation, regression equation, initial data, model, investment, agriculture, agro-industrial complex, production, logistics, processing, sales.

КИРИШ

Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштиришнинг устувор йўналишлардан бири иқтисодиётга инвестицияларни жалб қилиш билан боғлиқ. Инвестицияларни жалб этмай, айниқса, етакчи тармоқларда инвестиция иштирокини кенгайтирмай туриб, иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга

ошириш ва модернизациялаш, корхоналарни замонавий техника билан қайта жиҳозлаш ҳамда рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш мумкин эмас. Мамлакатда ҳозирги пайтда хорижий инвесторлар учун қулай инвестиция муҳити яратилган. Бу қулайликлар улар учун яратилган турли давлат кафолатлари ва имтиёзларда ўз аксини топган.[1]
Корреляцион-регрессион моделлар иқтисодий жараёнларни тадқиқ қилишда ва башоратлашда кенг

қўлланилади. Ушбу моделлардан асосан динамик жараёнларни, яъни вақтли қаторларни қайта ишлашда фойдаланилади. Корреляцион моделлар ўрганилаётган жараёнлар ўртасида боғланиш шакллари ўрганса, регрессион моделлар ёрдамида ушбу жараёнларнинг регрессион тенгламаларини олиш мумкин.

■ АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Бугунги кунда, хорижий инвестициялар масаласи иқтисодий тадқиқотларнинг муҳим йўналишларидан бирига айланган. Ушбу соҳада бир қанча олимлар иқтисодий тадқиқотлар олиб борганлар.

Жумладан: Иқтисодчи Э.Р.Орлованинг илмий изланишларида "Минтақанинг инвестиция жозибдорлиги инвестициялашнинг дастлабки объектив омилларини ўзида акс этиради ва минтақанинг ўзига хос инвестиция салоҳияти ва нотижорат инвестиция таваккалчилик даражасидан келиб чиққан ҳолда шу минтақага жалб қилинган капитал қўйилмалар ҳажмида миқдорий томонлама акс этади", деб таърифланади. [2] Д.Г.Ғоziбеков ўзининг илмий асарларида инвестициянинг моҳиятини молиявий категория сифатида талқин этишга эришган. У-Инвестицияларнинг мазмуни аниқ ва ишончли манбалардан маблағлар олиш, уларни асосли ҳолда сафарбар этиш, рисклар даражасини ҳисобга олган ҳолда капитал қийматини сақлаш ва кўзланган самарани олишдан иборат бўлади деб таъриф берган.

■ ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Ушбу мақола қаралаётган муаммони таҳлил қилиш, хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқишда индукция ва дедукция, статистик ва қиёсий таҳлил, каби усулларини қамраб олади.

Инвестиция дастурлари узоқ муддатга мўлжалланган бўлиб, унда ҳар бир йил учун мўлжалланган чоратадбирлар алоҳида ифодаланган. Лекин шунга қарамай киритилган инвестициялардан фойдаланиш даражаларини доимий таҳлиллар ўтказиш ва хулосалар қилиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Иқтисодий таҳлилда энг кўп қўлланиладиган математик статистика усуллари ҳақида тўхталамиз. Кўп сонли кузатишлар асосида намоён бўладиган ва аниқланадиган бир омилнинг ўзгариши иккинчи омилнинг ўртача қийматини ўзгартиришга олиб келадиган боғланишлар, статистик ёки корреляцион боғланишлар дейилади.


Кўп сонли омилларнинг ишлаб чиқариш натижаларига таъсирини корреляцион таҳлилга асосланиб ўрганилади. Корреляцион таҳлил-бу математик статистиканинг услублар тўпламидан иборат бўлиб, у тадқиқ қилинаётган ҳодисаларнинг белгилари ўртасидаги сонли боғлиқликларни ўзаро алоқасини ўрганади [2].

Ўзбекистон Республикасининг қишлоқ хўжалиги иқтисодиётида инвестициялардан фойдаланиш ҳолатларининг эконометрик таҳлилининг тадқиқот натижалари кўра акс этган расмдаги маълумотларга асосан таъкидлаш лозимки, 2000 йилда (42.6 млрд. сўм) 19.6 млрд сўм, 2003 йилда (98.5 млрд. сўм) 40.8 млрд сўм ва 2010 йилда (531 млрд. сўм) 53.2 млрд сўмга қишлоқ хўжалиги

иқтисодиётига ҳақиқатда киритилган инвестициялар ҳажмининг ўзгариши $R^2=0.9945$ бўйича аниқланган.

Yqish. inv=-0.4823x²+21.309x-139.17x+236.2

Модель қийматидан камайган бўлиб, бу ўзгаришни



1-расм. Қишлоқ хўжалиги тармоғига киритилган инвестицияларнинг эконометрик таҳлил графиги

[6]



2-расм. Ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ҳажмининг ўзгариш динамикаси [6]

қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш саноатини ривожлантириш ҳисобидан ялпи ички маҳсулот таркибида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлар улушини камайтиришга қаратилган вазифаларни изчиллик билан амалга оширилаётганлигидан деб қараш мақсадга мувофиқдир.

Албатта юқорида келтирилган (1) модель орқали аниқланган қийматда қишлоқ хўжалиги иқтисодиётига киритилган ҳақиқатдаги инвестициялар ҳажми 2011 йилда (942.5 млрд. сўм) 144.7 млрд. сўм, 2012 йилда 1089.2 млрд. сўм) 108.9 млрд. сўм, 2013 йилда (1335.6 млрд. сўм) 246.7 млрд. сўм, 2014 йилда (1448.4 млрд. сўм) 348.1 млрд. сўм, 2015 йилда (1375.5 млрд. сўм) 343.2 млрд. сўм, 2016 йилда (1646.4 млрд. сўм) 671.3 млрд. сўм, 2017 йилда (2004.3 млрд. сўм) 884.4 млрд. сўмга ошганлиги аниқланди. Ушбу ҳолатлар бўйича маълум бир хулосага келиш учун, албатта, жараёни тўлиқ ўрганиш лозим. Шу маънода аграр соҳада яратилган ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулоти бўйича ҳам таҳлилни ўрганиш талаб этилади. 2-расмда кўрсатилган маълумотлар асосан аграр соҳада яратилган ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотининг ҳақиқатдаги ҳажми адевакглиги $P2=0.9978$ бўлган ҳолда $Yqish. маҳ=6.4777x3+26.825x2+594.257x$

Модель қийматида 2000 йилда (1387.2 млрд. сўм) 552.1 млрд. сўм, 2003 йилда (4083.3 млрд. сўм) 592.2 млрд. сўм, 2004 йилда (4615.8 млрд. сўм) 1248.1 млрд. сўм, 2005 йилда (5978.3 млрд. сўм) 465.6 млрд. сўм, 2010 йилда (16774.7 млрд. сўм) 1325.2 млрд. сўм, 2011 йилда (21422.3 млрд. сўм) 1644.7 млрд. сўм ва 2016 йилда (4786.1 млрд. сўм) 3140.2 млрд. сўмга қамайтирилганлиги аниқланди. Таъкидлаш лозимки, албатта (2)-моделда барча таъсир этувчи омиллар назарда тутилмаган ҳамда ҳозирги кун ҳолатидан келиб чиқиб аниқланган.

Аммо, 2001 йилда (2104.8 млрд. сўм) 1026.2 млрд. сўм, 2002 йилда (3253.3 млрд. сўм) 462.6 млрд. сўм, 2007 йилда (9304.9 млрд. сўм) 1224.1 млрд. сўм, 2008 йилда (11310.7 млрд. сўм) 1049.3 млрд. сўм, 2013 йилда (34201.4 млрд. сўм) 1804.2 млрд. сўм ва 2017 йилда (69504.2 млрд. сўм) 446.8 млрд. сўмга аниқланган (2) модель қийматидан ҳақиқатда яратилган ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажми ортганлиги аниқланди. Бу ўз навбатида аграр соҳада олиб борилган ислохотлар ва белгиланган вазифаларни ўз вақтида изчиллик билан амалга оширганликнинг самарали натижаси деб қараш мумкин.

Қишлоқ хўжалиги иқтисодиётига олиб борилаётган ислохотларни қандай амалга оширилаётганлиги ва унинг натижалари тўғрисидаги аниқроқ маълумотга эга бўлиш ва илмий жиҳатдан асосланган хулоса қилиш учун қуйида келтирилган тўрт ҳолат бўйича таҳлил ўтказилди.

жадвал маълумотларига кўра, 1-ҳолат бўйича 2002, 2006, 2007, 2008, 2013, 2014, 2015 ва 2017 йилларда ҳақиқатда қишлоқ хўжалигига киритилган инвестиция ҳажми, тадқиқот асосида аниқланган (1) модель қийматларига кўра, мос ҳолда йилда 13.2 млрд. сўм, 42.2 млрд. сўм, 53.0 млрд. сўм, 27.2 млрд. сўм, 246.7 млрд. сўм, 348.1 млрд. сўм, 343.2 млрд. сўм ва 884.4 млрд. сўм ортиқ инвестиция киритилганлиги аниқланган.

Жадвалда келтирилган 2002, 2006, 2007, 2008, 2013, 2014, 2015 ва 2017 йилларда ҳақиқатда киритилган инвестициялар ҳисобида қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқарилган ялпи маҳсулот ўзгаришини илмий жиҳатдан аниқланган (2)- модели қийматидан ҳақиқатда ишлаб чиқилган қишлоқ маҳсулоти ҳажми мос равишда (3255.3

млрд. сўм) 462.6 млрд. сўм, (7538.8 млрд. сўм) 571.2 млрд. сўм, (9304.9 млрд. сўм) 1224.1 млрд. сўм, (11310.7 млрд. сўм) 1049.3 млрд. сўм, (34201.4 млрд. сўм) 1804.4 млрд. сўм, (36957.8 млрд. сўм) 441.8 млрд. сўм, (42280.4 млрд. сўм) 685.7 млрд. сўм ва (69504.2 млрд. сўм) 446.8 млрд. сўмга ортган. Бу, эса ўз навбатида тармоққа киритилган инвестициядан самарали фойдаланганлигини кўрсатади.

2-ҳолат бўйича таъкидлаш лозимки 2000 йилда (42.6 млрд. сўм) 19.6 млрд.сўм, 2003 йилда (98.5 млрд. сўм) 40.8 млрд.сўм, 2004 йилда (113.6 млрд.сўм) 36.7 млрд. сўм ва 2010 йилда (531 млрд. сўм) 53.2 млрд.сўмга аниқланган (1) модель қийматидан ҳақиқатда қишлоқ хўжалигига киритилган инвестиция ҳажми камайган бўлиб, бу, албатта,тармоқда ялпи маҳсулот ишлаб чиқаришга ўз таъсирини кўрсатган. Натижада ҳақиқатда ишлаб чиқарилган ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулоти аниқланган (2)-модель қийматларидан 2000 йилга (1387.2 млрд. сўм) 552.1 млрд сўм, 2003 йилга (4083.3 млрд. сўм) 592.2 млрд сўм, 2004 йилга (4615.8 млрд. сўм) 36275 млрд сўм ва 2010 йилга (16774.7 млрд. сўм) 53.2 млрд сўм камайишига олиб келган.

Регрессия моделлари. Ишлаб чиқариш функциялар моделларининг ёзилиши, алгебраик тенгламаларнинг (кўринишлари) берилишларига биноан аниқланади. Бундай моделлар регрессия тенгламалари деб юритилади. Регрессия тенгламалари бир ёки бир неча ўзгарувчили бўлиши мумкин. Масалан, икки омилли боғланиш, умумий ҳолда қуйидаги чизиқли функция кўринишда ифодаланади:

$$Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2.$$

Бу ерда: Y - ишлаб чиқариш натижаси; x_1 ва x_2 - ишлаб чиқариш омиллари; a_0 - омиллар таъсири ҳисобга олинмайдиган озод ҳад; a_1 , a_2 - регрессия коэффитсиентлари. Регрессия коэффитсиентларининг ҳар бирини алоҳида қиймати, қолган қийматлар ўзгармаган ҳолда, ишлаб чиқариш натижаси кўрсаткичи, регрессияни мос коэффицентига кўра ўзгаришини кўрсатади. Регрессия моделлари икки ва ундан ортиқ кўрсаткичларнинг ўзгариши бир- бири билан қанчалик боғланганлигини ҳисоблашда қўлланилади.[4]

Юқоридаги маълумотлардан кўриниб турибдики, аграр соҳага йўналтирилаётган инвестициялар миқдори бу соҳани тубдан модернизациялаш учун етарли эмас. Бунинг учун эса тармоқнинг инвестиция салоҳиятини ривожлантириш, инвестицион муҳит жозибадорлигини ошириш, таваккалчилик хавф-хатарларини пасайтириш механизмини ўзида мужассамлаштирган аграр

инвестиция сиёсати ишлаб чиқилмоғи лозим.

Бугунги кунда соҳа учун кадрлар тайёрлашда бир қанча ечимини кутаётган муаммолар мавжуд. Мазкур муаммоларни бартараф этиш мақсадида қуйидаги вазифаларни бажариш таклиф этилмоқда:

агросаноат мажмуи учун замонавий техника ва технологиялар, шу жумладан, "ақлли қишлоқ хўжалиги", рақамли инновацион технологиялар ва ахборот тизимларини қўллай кадрларни тайёрлаш тизимини яратиш;

аграр соҳада олиб борилаётган кенг қамровли чора-тадбирларнинг самарадорлигини оширишга, қишлоқ хўжалиги тармоқларидаги мавжуд долзарб муаммоларни ҳал этишга қаратилган таълим жараёнини ташкил этиш;

агросаноат мажмуи раҳбар ва мутахассис кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш учун даврий равишда ўқув-амалий семинарларни ташкил этиш;

агросаноат мажмуи учун кадрлар тайёрлайдиган таълим муассаларида зарур ўқув-услубий ва моддий-техник базани яратиш;

агросаноат мажмуи тизимидаги бошқарув кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш учун малакавий амалиёт ва стажировкаларни ташкил этиш.[5].

■ ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Мамлакатни иқтисодий ривожлантиришга қаратилган узоқ муддатли стратегик мақсадни амалга оширишнинг моҳияти мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб ва Ўзбекистоннинг жаҳон бозоридаги рақобатбардошлигини ошириш, мавқеини мустаҳкамлашга йўналтирилган таркибий ўзгаришлар ҳамда юксак технологияларга асосланган замонавий тармоқлар ва ишлаб чиқариш соҳаларини жадал ривожлантириш сиёсатини асосий устувор йўналиш сифатида давом эттиришни тақозо этади. Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш ва эркинлаштириш шароитида фермер хўжаликларининг устувор

ривожланишини таъминлаш ҳамда соҳа учун рақобатбардош кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш орқали тармоқ барқарорлигига эришиш мумкин.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ibragimov Nodir Nusriddinovich Qarshi davlat texnika universiteti "Axborot tizimlari va texnologiyalari" kafedrası dotsenti / Ибрагимов Нодир Нусриддинович,

доцент кафедры «Информационные системы и технологии» Каршинского государственного технического университета / Ibragimov Nodir Nusriddinovich, Associate Professor, Department of "Information Systems and Technologies", Karshi State Technical University.

► nodirrusiddinovich@gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0004-6639-0722>

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- [1] Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги қонуни. 25.12.2019. ЎРҚ- 598.
- [2] Орлова Е.Р.(2003) Инвестиции. Курс лекций. 2-е изд., доп. и пер. - М.: Омега-Л,15б.
- [3] Ибрагимов, Н. Н. (2021, april). Empirical modeling of public utilities. In archive of conferences (vol. 18, no. 1, pp. 19-20)
- [4] Мухаммадиева Ю.Ю. ECONOMIC ANALYSIS OF THE REGION'S POWER TO ATTRACT FOREIGN INVESTMENTS JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN. 239-243.
- [5] O'zbekiston Respublikasining 2025-yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi.
- [6] Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари

Xizmatlar va
turizm sohasi

Сфера услуг и
туризма

Service and
tourism sector

Mintaqa xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining yo'nalishlari

Fayziyeva Shirin Shodmonovna

Направления государственной поддержки инновационной деятельности в сфере региональных услуг

Файзиева Ширин Шодмоновна

Directions of state support for innovative activities in the sphere of regional services

Fayziyeva Shirin Shodmonovna

Received: August 12, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada innovatsion faoliyatni keng tatbiq etish, tadbirkorlik subektlarini zamonaviy infratuzilma va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritilgan hamda istiqbolda xizmatlar sohasini takomillashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan.
- **Kalit so'zlar:** xizmatlar sohasi, xizmat ko'rsatish, savdo, turizm, logistika, agroxizmatlar, moliyaviy xizmatlar, investitsion loyihalar, ehtiyojlar, talab, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, intellektual va innovatsion faollik, imtiyoz, soliq stavkalari.
- **Аннотация:** В статье рассматриваются механизмы широкого внедрения инновационной деятельности, обеспечения субъектов предпринимательства современной инфраструктурой и финансовыми ресурсами, оказания системной поддержки со стороны государства, обосновываются направления совершенствования сферы услуг на перспективу.
- **Ключевые слова:** сфера услуг, оказание услуг, торговля, туризм, логистика, агроуслуги, финансовые услуги, инвестиционные проекты, потребности, спрос, конкурентоспособность, инновации, интеллектуальная и инновационная деятельность, льготы, налоговые ставки.
- **Abstract:** The article examines the mechanisms for the widespread implementation of innovative activities, providing business entities with modern infrastructure and financial resources, providing systemic support from the state, and substantiates the directions for improving the service sector for the future.
- **Keywords:** service sector, provision of services, trade, tourism, logistics, agricultural services, financial services, investment projects, needs, demand, competitiveness, innovation, intellectual and innovative activity, benefits, tax rates.

KIRISH

Jahon miqyosda aholi sonining barqaror o'sishi va ehtiyojlarining xilma-xillashuvi har bir mamlakat va uning hududlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga individual yondashuvlar ishlab chiqilishini taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda innovatsion faoliyatni keng tatbiq etish, tadbirkorlik subyektlarini zamonaviy infratuzilma va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, hamda davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Xizmatlar sohasiga bo'lgan talabning ortib borishi, ilg'or texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlarni keng joriy qilish zaruriyatini

keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllantirish aholining turmush darajasini yaxshilash va mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Budget mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan infratuzilma loyihalari doirasida zamonaviy tashqi yoritish, sug'orish va drenaj tizimlarini yangilash, piyodalar va velosiped yo'laklarini barpo etish, aholi gavjum ko'chalarni savdo va xizmat ko'rsatish maskanlari, madaniy hordiq va dam olish hududlariga aylantirish sohaning barqaror taraqqiyotiga zamin yaratmoqda.

Aholisi 300 ming nafardan kam bo'lgan tumanlarda sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu hududlarda savdo, mehmonxona, umumiy ovqatlanish, logistika, texnik xizmat ko'rsatish va ko'ngilochar maskanlarni tashkil etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tog'li va tog'oldi hududlarda, shuningdek, rekreatsion turizm salohiyati yuqori bo'lgan tumanlarda avtomobil yo'llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, zamonaviy turizm xizmatlarini joriy etish, investitsion loyihalar orqali yangi infratuzilmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, chegara hududlari hamda xalqaro transport yo'llari o'tgan tumanlarda savdo, turizm, logistika va yo'l bo'yi xizmatlarini ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda esa agroxizmatlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqa xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining yo'nalishlari bo'yicha xorijlik va yevropa iqtisodchi olimlardan K.Makonnell, S.Bryu [4], A.Marshall [5], Y.Shumpeter [6], N.A.Barinov [7], Y.V.Meleshko [8], M.Kastels [9], T.D.Burmenko [10], V.M.Yakovlev [11], V.SHepelev [12], YE.V.Glushenko, Y.V.Tixonravovlar [13], YE.V.Mixaylova [14] va boshqalar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning turlari va shakllari bo'yicha ma'lum bir tomonlarini o'rganib, o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar.

Respublikamizning yetakchi iqtisodchi olimlaridan esa S.S.G'ulomov, X.Abulqosimov, R.Y.Hasanov, R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva, M.M.Muhammedov, Sh.O.Quvondiqov, R.Botirova, I.Ikromov, G.B.Ernazarov, F.A.Djalilovva boshqalarning ilmiy faoliyatlarida ham xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatdan foydalanish yo'llarining o'ziga hos jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan xizmat ko'rsatish sohasida

innovatsion faoliyatning ayrim umumnazariy jihatlarini tadqiq etishga ustuvor o'rin berilgan holda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining yo'nalishlariga yondashib tahlil qilingan ilmiy ishlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mintaqa xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining yo'nalishlari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy global bozor sharoitida kuchli raqobat muhitida innovatsion faoliyatning yuqori darajada rivojlanishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda ilg'or rivojlangan mamlakatlarda innovatsion texnologiyalar, zamonaviy mahsulotlar va texnik qurilmalar yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida 60 foizdan ortiq ulushni egallamoqda.

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy jihatdan tezkor rivojlantirish, qisqa fursatlarda ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqish uchun, innovatsiyaning tub mohiyatini yoritib bergan Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatida: «... agar biz O'zbekistonni taraqqiy etgan mamlakatlar safidan ko'rishni istasak, bunga faqat chuqur islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erishishimiz mumkin», deya alohida ta'kidlab o'tganlar.

Xorijiy mamlakatlar tajribasishuni ko'rsatmoqdaki, dunyoning hech bir mamlakatida milliy innovatsion tizim xususiy sektor tomonidan mustaqil ravishda shakllantirilmagan. Barcha mamlakatlarda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida joriy qilinadigan milliy innovatsion tizim o'z elementlarining o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirib turish asosida ushbu tizimni shakllantirishda davlat yetakchi rolni o'ynaydi hamda faoliyat ko'rsatadi. Milliy, tarmoq va mintaqaviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, shuningdek, resurslarning shu yo'nalishlarda to'planishini ta'minlab beradi [3]. Hozirgi vaqtda, innovatsiyalarni boshqarish milliy iqtisodiyotni tashkiliy iqtisodiy boshqarish mexanizmining kam rivojlangan qismlaridan biri sifatida bo'lib qolmoqda. Rivojlanishning hozirgi sharoitida innovatsiyalar iqtisodiyotni intensiv rivojlantirishga imkon beradi, fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishning jadallashtirilishini ta'minlaydi, iste'molchilarning turli xildagi yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga

imkon yaratib beradi. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimni shakllantirish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tegishli makroiqtisodiy sharoitlar mavjudligini ko'ramiz. Milliy innovatsion tizimni shakllantirish va barqaror rivojlantirish mexanizmlarini yaratish omillari sifatida O'zbekistonda qabul qilingan qator farmon va qarorlarni sanab o'tish mumkin. Milliy fan va innovatsiyalar sohasini rivojlantirish borasidagi dastlabki direktiv hujjatlar qatoriga 1992 yil 8 iyuldagi «Fan va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va ushbu farmonni ijro etishga yo'naltirilgan 1992 yil 21 iyuldagi «Fan va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning chora-tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining qarori kiradi. Shuningdek, 2002-yil 20-fevralda e'lon qilingan «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarida ham innovatsion tizim yaratishning strategik yo'nalishlari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi «Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-436-sonli qarorida mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini zamonaviylashtirish, texnik talablardan kelib chiqqan holda, kelajakda innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ko'lamini kengaytirishga oid tadbirlar majmuasi asoslab berilgan edi. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni jadallashtirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident tomonidan qabul qilingan «Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»*gi qarorga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar va tarmoq boshqaruvi organlari qoshida "Modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armalari" tashkil etilishi belgilangan. Bu jamg'armalar amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, ularning natijalarini ishlab chiqarishga integratsiyalash maqsadida faoliyat yuritadi.

Mamlakatda milliy innovatsion tizimni shakllantirish yo'lida mustahkam huquqiy-me'yoriy baza yaratilgan bo'lib, so'nggi yillarda bu yo'nalishda qator muhim Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi. Jumladan, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash, ilg'or texnologiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga joriy etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida innovatsion taraqqiyotga alohida e'tibor qaratilib, shu

yo'nalishda kompleks yondashuv shakllandi. Ushbu strategik maqsadlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida, 2018 yildan boshlab Innovatsion rivojlanish vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tashabbusi bilan har yili xalqaro innovatsion yarmarkalar va investitsion forumlar tashkil etilmoqda.

Bu tadbirlarda xorijiy texnoparklar, innovatsion markazlar, ventchur fondlar, biznes-inkubatorlar va boshqa yetakchi xalqaro tuzilmalar faol ishtirok etmoqda. Natijada, xalqaro hamkorlik kengaymoqda, ilg'or texnologiyalarni transfer qilish va ularni iqtisodiyotga tatbiq etish jarayonlari jadallashmoqda.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining zamonaviy taraqqiyoti bevosita elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot strategiyalarini samarali va tezkor joriy etishga tayanmoqda. Oxirgi o'n yillikda jahonda sanoat inqilobidan raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari keskin tezlashmoqda. Yangi zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari Y.Shumpeterning innovatsion iqtisodiyoti, amerikalik olim D. Bell omonidan asoslangan postindustrial jamiyat nazariyasi, J. Xokinsning bilimlar iqtisodiyoti, Y. Benklerning "Digital Economy" konsepsiyasi hamda D. Tepsokott tomonidan ta'riflangan raqamli iqtisodiyot kontsepsiyasi doirasida yoritilgan. Mamlakatimizda ham innovatsion rivojlanishning zamonaviy bosqichida aynan raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi asosiy yo'nalish sifatida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi PrezidentiShavkatMirziyoyevOliyMajlisgaMurojaatnomasida "... raqamli iqtisodiyotga faol o'tish - kelgusi besh yildagi eng muhim vazifalarimizdan biri bo'ladi. Yurtimiz "Xalqaro axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi" bo'yicha 2019 yilda 8 pog'onaga ko'tarildi, biroq hali orqadamiz. Ko'plab vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan yetarlicha foydalanmayapti", deya alohida ta'kidladilar[2]. Shuni alohida ta'kidlash joizki, uzoq yillar davomida O'zbekistonda innovatsion faoliyatga oid huquqiy munosabatlar, "innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" tushunchalari, ushbu soha subyektlari o'rtasidagi aloqalar, shuningdek, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish va ularni sanoatda joriy etish tartibi yagona normativ-huquqiy hujjat bilan to'liq tartibga solinmagan edi. Bu esa innovatsion tizimning institutsional jihatdan barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Mazkur bo'shliqni bartaraf etish maqsadida, 2020-yil 24-iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, rasmiy ravishda kuchga kirdi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasida innovatsion siyosatni shakllantirish va uni samarali amalga oshirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Qonunda innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlari va tamoyillari aniq belgilab berilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatning iqtisodiyotdagi strategik o'rnini mustahkamlash;

- innovatsion faoliyat subyektlarining huquqiy maqomi va ularning o'zaro aloqalarini tartibga solish;

- innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilash;

- innovatsiyalarni boshqarish tizimi, uning institutsional tuzilmalari va ularning vakolatlarini aniqlashtirish;


- xalqaro innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish.

Shuningdek, qonun ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarish sohasiga tatbiq etish, ularning tijoratlashtirilishi va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'nalishida ham muhim normativ asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, ushbu huquqiy hujjat O'zbekiston innovatsion ekotizimini rivojlantirish yo'lida tarixiy ahamiyatga ega huquqiy qadam sifatida e'tirof etiladi [1]. Qonunning asosiy tushunchalari orasida milliy innovatsion tizim haqida, 6 bobdan iborat 39 moddada esa uning tarkibi, shakllanish tamoyillari va rivojlanishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilmagan.


1-jadval

Qashqadaryo viloyatida hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda (2024- yil yanvar-iyul oylarida) [15]

Hududlar nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Yakkabog' tumani	2319,1	105,6
Shahrisabz tumani	3100,3	107,5
Chiroqchi tumani	1736,1	106,7
Ko'kdala tumani	1066,1	103,5
Kasbi tumani	2569,7	105,6
Nishon tumani	2770,3	106,3
Muborak tumani	8613	107,9
Mirishkor tumani	4272,7	107,8
Kitob tumani	2853,6	106,9
Koson tumani	2637,9	106,7
Qarshi tumani	2793,9	109,9
Qamashi tumani	2290	107,5
Dehqonobod tumani	2340,4	107,6
G'uzor tumani	2316,4	106,3
Shahrisabz shahar	4160,7	109,9
Qarshi shahar	12 130,60	116,3



1-rasm. Innovatsion faoliyatning rivojlanish zarurati [15]



2-rasm. Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga hududlar bo'yicha bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi [15]

Milliy innovatsion tizim omillarining o'zaro aloqalari mexanizmini rivojlantirish keng ko'lamli murakkab vazifa bo'lib uni davlat, tadbir korlik, iqtisodiy va ilmiy hamjamiyatlarning puxta o'ylangan, o'zaro kelishilgan samarali xatti-harakatlari orqaligina amalga oshirish mumkin bo'ladi. Taklif qilingan milliy innovatsion tizim omillarining o'zaro aloqalari modelidan O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyat to'g'risidagi qonun osti xujjatlarini va o'rta muddatli hamda uzoq muddatli davrlar uchun

innovatsion rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanish uchun tavsiya qilindi.

Ko'plab mamlakatlarda xizmat ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish yetarli resurs imkoniyatlariga va boshqaruv vakolatiga ega bo'lgan maxsus davlat organlari zimmasiga yuklatilgan. Xususan, bu borada faoliyat ko'rsatayotgan maxsus hukumat organlari qatoriga AQShda Milliy ilmiy fond, Buyuk Britaniyada Kichik biznesga xizmat ko'rsatish milliy Agentligi, Germaniyada



3-rasm. Qashqadaryo viloyati hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar dinamikasi [15]

2-jadval.

Qashqadaryo viloyati hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul oylarida) [15]

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Qarshi shahar	1261,7	36,9
Shahrisabz shahar	178,5	19,5
G'uzor tumani	65,8	21,6
Dehqonobod tumani	43,4	8
Qamashi tumani	64,2	5,9
Qarshi tumani	63	7,6
Koson tumani	77,7	12,9
Kitob tumani	100,9	7,1
Mirishkor tumani	56,7	7,8
Muborak tumani	133	5,6
Nishon tumani	41,2	5,8
Kasbi tumani	47,9	10,1
Ko'kdala tumani	12,3	5,3
Chiroqchi tumani	54	5,3
Yakkabog' tumani	62,9	5,3

Kichik va o'rta biznes bosh Direktorati, Yaponiyada Kichik va o'rta tadbirkorlik Agentligi, Vengriyada Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha milliy kengash, Polshada Kichik va o'rta tadbirkorlik departamenti, Koreyada kichik va o'rta biznes ma'muriyatini kiritish mumkin.

Demak, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlari yetarlicha joriy etilgan bo'lib, ular bevosita iqtisodiy o'sish sur'atlariga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston sharoitida buni o'rganadigan bo'lsak, fikrimizcha, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan soliq mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan va ular doimiy tusga ega emas, bugungi kunda fuqarolarga va xo'jalik subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlari ularning intellektual va innovatsion faolligini rag'batlantirayotgani yo'q.


Jahonda amalga oshirilayotgan xalqaro tajriba va respublikamizning iqtisodiy siyosatining ustuvor

yo'nalishlaridan kelib chiqib, milliy soliq qonunchiligida innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi quyidagi soliq mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- muayyan tarmoq yoki soha korxona va tashkilotlarini butunlay soliq to'lashdan ozod qilish amaliyotidan voz kechish, buning evaziga aynan ularning innovatsion faoliyatini rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlarini joriy etish;
- ishlab chikarishni modernizatsiya qiluvchi, mahalliy lashtirish dasturi doirasida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarga va erkin "iqtisodiy zona" ishtirokchilariga berilgan soliq imtiyozlari natijasida iqtisod qilingan mablag'larning kamida 50 foizini majburiy ravishda ITTKIn moliyalashtirishga yo'naltirish shartini joriy etish;
- sanoat sohasidagi ishlab chiqaruvchi korxonalarga innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlar ulushiga qarab, foyda va mol-mulk soliqlari, yagona soliq to'lovi bo'yicha pasaytirilgan, ya'ni imtiyozli soliq stavkalarini qo'llash



4-rasm. Qashqadaryo viloyatida ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi [15]



5-rasm. Qashqadaryo viloyatida tarmoq tarkibining yo'nalishlar bo'yicha hajmi [15]

4-rasm. Qashqadaryo viloyatida ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi [15]

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish (kamayish) %
Qarshi shahar	388,9	18,60%
Shahrisabz shahar	71,2	1,80%
G'uzor tumani	9,1	26,90%
Dehqonobod tumani	6,4	10,30%
Qamashi tumani	6,4	12,20%
Qarshi tumani	77,4	89,70%
Koson tumani	5,5	12,90%
Kitob tumani	5,6	10,20%
Mirishkor tumani	4,7	23,50%
Muborak tumani	3,6	15,20%
Nishon tumani	4,7	14,70%
Kasbi tumani	3,2	6,80%
Ko'kdala tumani	1,7	7,20%
Chiroqchi tumani	2,6	7,20%
Shahrisabz tumani	5,1	14,10%
Yakkabog' tumani	16,3	26,00%

Xizmatlar sektorida turli yo'nalishlarda yaratilgan qiymatni aniq baholash, ularning iqtisodiyotdagi ulushini tahlil qilishda muhim omildir. Jumladan, moliyaviy xizmatlar hajmi asosan moliyaviy vositachilik faoliyati natijasida shakllanadigan foizli daromadlar asosida aniqlanadi. Bu daromadlar moliya institutlari tomonidan xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar, kredit mablag'larini ajratish, depozitlarni saqlash hamda boshqa bank xizmatlari evaziga olinadigan komissiyalarni o'z ichiga oladi.

Transport xizmatlari hajmi esa transportning turli ko'rinishlari

bo'yicha amalga oshiriladigan tashish jarayonlari, yuklarni ortish-tushirish, ekspeditorlik va boshqa shu kabi yordamchi faoliyat turlari orqali hosil bo'ladigan umumiy daromad miqdori asosida hisoblab chiqiladi. Ayniqsa, avtomobil transporti xizmatlari temiryo'l tashishlaridan mustasno holda, yo'lovchi va yuk tashish, ko'chirish xizmatlari, hamda boshqa quruqlikdagi transport xizmatlarini o'z ichiga oladi. Savdo xizmatlari, jumladan, elektron savdo xizmatlarining hajmi, odatda amaldagi narxlardagi yalpi daromad asosida aniqlanadi. Bunda asosiy ko'rsatkich sifatida tovarlarning

xarid narxi bilan sotish narxi o'rtasidagi farq hisoblanadi. Agar tovarlar uchinchi tomon manfaatlariga ko'ra - ya'ni komissiya, agentlik yoki oldi-sotdi shartnomalari asosida sotilsa, bu holda xizmat qiymati vositachilik mukofoti (komissiya haqi) miqdorida aks ettiriladi.

Shu tarzda, har bir xizmat turining hajmini hisoblash o'ziga xos metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Bu yondashuvlar xizmatlar sektoridagi iqtisodiy faoliyatni chuqur tahlil qilish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash va milliy hisoblar tizimini to'g'ri shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi esa amaldagi narxlarda, soha korxonalarining ko'rsatgan xizmatlaridan olingan umumiy daromad yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Ta'lim sektori kunduzgi, sirtqi, shuningdek, Internet va pochta orqali taqdim etiladigan davlat va xususiy ta'lim xizmatlarining barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bunga maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim, kattalar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, shuningdek, yordamchi ta'lim faoliyati va boshqa shu kabi xizmatlar kiradi. Ta'lim xizmatlari hajmini hisoblashda, masofaviy ta'lim shakllari ham inobatga olinadi va bozor xizmatlarining (kontrakt asosidagi) qiymati aks ettiriladi.

Yuqoridagi rasmda Qashqadaryo viloyatida tarmoq tarkibining yo'nalishlar bo'yicha hajmi keltirilgan bo'lib, eng katta ulush savdo xizmatlari hamda boshqa xizmatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinda esa axborot kommunikatsiya xizmatlari sohasining ulushi yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion-investitsiya dasturlarini ishlab chiqishda istiqbolli ilmiy-texnik yutuqlarning keng miqyosda joriy etilishini ta'minlash uchun, zamonaviy va o'zaro bog'liq loyihalarni yaratish, innovatsion jarayonlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi, chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni nazarda tutuvchi ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlar, real prognozlar hamda aniq strategik maqsadlardan kelib chiqib harakat qilish talab etiladi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekiston qisqa muddatlarda ham ichki, ham xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni yaratish imkonini beruvchi yuqori ilmiy-texnik salohiyatga ega istiqbolli sohalarini rivojlantirish bosqichiga kirib keldi. Natijada, milliy innovatsion tizimning taraqqiyoti hamda uning jahon innovatsion makoniga integratsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini tubdan

takomillashtirish va innovatsion yechimlardan samarali foydalanish uchun muhim po'ydevor yaratadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, rivojlangan mamlakatlar tajribasida innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan soliq mexanizmlari keng joriy qilingan va ular iqtisodiy o'sish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston sharoitida esa, ushbu yo'nalishda amaldagi soliq mexanizmlarini takomillashtirish va ularni innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayni vaqtda, fuqarolar hamda xo'jalik subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlari ularning intellektual va innovatsion faolligini oshirishga xizmat qilishi zarur.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Fayziyeva Shirin Shodmonovna i.f.n., professor Qarshi davlat texnika universiteti / Файзиева Ширин Шодмоновна, кандидат экономических наук, профессора Каршинский государственный технический университет / Fayzieva Shirin Shodmonovna, candidate in Economics, Acting Professor Karshi State Technical University

► fayziyevashirin66gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0001-5643-9934>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasining «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son.
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi 2008 yil 15 iyuldagi qarori. / Xalq so'zi 37-son.
- [3]. O'zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish / O'zFA, Iqtisodiyot instituti. A.F.Rasulevning tahriri ostida monografiya. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2011. – 408 b.
- [4]. Маконнелл К., Брю С. “Экономикс”. М.; Дело. 1999, 2008. стр.125-126.
- [5]. Альфред Маршалл. Принципы экономической науки. - М.: «Прогресс».
- [6]. Й.Шумпетер “Основы предпринимательства”. М.; Дело. 2012 2-изд. стр. 25-26.
- [7]. Баринов Н.А. Указ. Соч. - Москва : Норма, - 607 с.; 22 см.; ISBN 978-5-91768-265-5 - С. 17.
- [8]. Мелешко Ю.В. «Трансформация определения понятия «услуг» в контексте концепции постиндустриального общества»// Россия: Интернет-журнал “Экономическая наука сегодня”

- №4.
- [9]. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество и культура: Пер. с англ. Под. ред. О.И. Шкаратана - М.: ГУВШЭ.
- [10]. Бурменко Т.Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А.; под ред. Бурменко Т.Д. - М.: КНОРУС, – 328 с. – С. 64-65.
- [11]. Яковлев В.М. Конструктивное предпринимательства. –М.: Алма-Пресс. 1994. с. 19-20.
- [12]. Шепелев В. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik. Soliq to'lovchining jurnali, 1996. №7, 30 б.
- [13]. Глушенко Е.В., Тихонравов Ю.В. Основы предпринимательства. –М.: Алма-Матер, 2008. с. 16-17.
- [14]. Михайлова Е.В. "Инвестиция". М.: "Экономика". 2015, стр. 18-20.
- [15]. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining 2023-2024 yillar ma'lumotlari.

Turizmni tashkil etishning klaster vositalari

Navruz-zoda Zebiniso Baxtiyorovna

Кластерные инструменты организации туризма

Навруз-зода Зебинисо Бахтиёровна

Cluster tools for organizing tourism

Navruz-zoda Zebiniso Bakhtiyorovna

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada turizmni tashkil etishning klaster vositalari sifatidagi hududiy konsentratsiya, vertikal integratsiya, gorizontal kooperatsiya, qo'shilgan qiymat zanjiri, raqobatli benchmarking va destinatsion marketingning mazmun-mohiyati batafsil ko'rib chiqilib, ularni mintaqaviy darajada amaliy qo'llash yo'llari aniqlangan.
- **Kalit so'zlar:** turizm, turistik klaster, hududiy konsentratsiya, vertikal integratsiya, gorizontal kooperatsiya, qo'shilgan qiymat zanjiri, raqobatbardosh benchmarking, destinatsion marketingi.
- **Аннотация:** В статье подробно рассмотрена сущность региональной концентрации, вертикальной интеграции, горизонтальной кооперации, цепочки добавленной стоимости, конкурентного бенчмаркинга и дестинационного маркетинга как кластерных инструментов организации туризма, а также определены пути их практического применения на региональном уровне.
- **Ключевые слова:** туризм, туристический кластер, региональная концентрация, вертикальная интеграция, горизонтальное сотрудничество, цепочка добавленной стоимости, конкурентный бенчмаркинг, дестинационный маркетинг.
- **Abstract:** The article examines in detail the essence of regional concentration, vertical integration, horizontal cooperation, added value chain, competitive benchmarking and destination marketing as cluster tools of tourism organization, and ways of their practical application at the regional level are determined.
- **Keywords:** tourism, tourism cluster, territorial concentration, vertical integration, horizontal cooperation, chain of added value, competitive benchmarking, destination marketing.

KIRISH

O'zbekiston nafaqat ichki, balki xalqaro ziyorat turizmi uchun ham jozibador yo'nalish hisoblanadi. Bu yerda 8 mingdan ziyod madaniy meros ob'ekti mavjud bo'lsa-da, afsuski, turizm marshrutlariga atigi 500 ta ob'ekt kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yilda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ziyorat turizmini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, O'zbekiston Hukumati oldiga ziyorat va an'anaviy turizm yo'nalishlariga kiritilgan ob'ektlar sonini 800 taga yetkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan [11]. Mamlakatda ziyorat turizmini jadal rivojlantirish uchun uni

samarali tashkil etishga innovatsion yondashuvlar talab etiladi, bizning fikrimizcha, klaster yondashuvini shular jumlasiga kiritish mumkin.

Turistik klasterlar - bu klasterli yondashuvga asoslangan turistik faoliyatni tashkil etishning samarali shakli hisoblanib, turistlarga turizm xizmatlarini ko'rsatish orqali xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan tarkibiy bo'linmalar bilan bog'liq. Mintaqaviy turistik klasterlarni shakllantirishning turli modellarini o'rganish ularni mintaqaviy darajada shakllantirishning asosiy vositalarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Bu kabi vositalar qatoriga, nazarimizda, quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Hududiy konsentratsiya.
2. Vertikal integratsiya.

3. Gorizontal kooperatsiya.
4. Qo'shilgan qiymat zanjiri.
5. Raqobatli benchmarking.
6. Destinatsiya marketingi.

Quyida ushbu klaster vositalarining har birining mohiyatini batafsil ko'rib chiqamiz va ularni mintaqaviy darajada turizm sohasida amaliy qo'llash bo'yicha tavsiyalarni taqdim etamiz.

Hududiy konsentratsiya

Klaster tashkil etishning muhim belgilaridan biri klaster tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hududiy jihatdan bir-biriga yaqinligidir. Klasterning bu jihatiga birinchi bo'lib Garvard universiteti professori Maykl Porter e'tibor qaratgan bo'lib, u klasterni "o'zaro bog'liq kompaniyalar va muassasalarning ma'lum bir hududidagi geografik konsentratsiyasi" deb ta'riflaydi [12]. Klasterning o'ziga xos xususiyati shundaki, turdosh korxonalar va muassasalarning birgalikdagi faoliyati muvaffaqiyati ularning geografik yaqinligiga bevosita bog'liq. Aslida, turistik klaster "bu hududiy va tarmoq xususiyatiga ko'ra mahalliy lashtirilgan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u mahsulot tuguni atrofida birlashgan, iste'mol qiymati bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tovarlar, xizmatlar va ishlar portfelini shakllantiruvchi turdosh faoliyat turidagi kompaniyalarni o'z ichiga oladi" [18, 6- b].

Hududiy turistik klasterni tashkil etishning sharti hududda turistik va infratuzilma ob'ektlarining mavjudligidir. Turistik klaster cheklangan bitta hududda turistik xizmatlar ko'rsatuvchi o'zaro bog'liq korxona va tashkilotlarning to'planish darajasi bilan tavsiflanadi. Ziyorat-turistik klasterning hududiy yaqinligi muqaddas qadamjolar bilan bog'liq. Chunki ziyoratchi dastlab safar maqsadidan kelib chiqib, o'zining "ziyosat destinatsiyasi"ni shakllantiradi, so'ngra bevosita ziyoratgohga sayohatni amalga oshiradi. N.V. Rubsova haqli ravishda "turistik destinatsiyalar chegaralari va rolining o'zgarishi turistik klasterning geografik konsentratsiyasini belgilaydi" [13, 64 -b] deb ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, "ziyosat destinatsiyasi" klasterning yadrosi shakllanadigan fundamental bazadir.

Klaster tashkil etish amaliyotiga "Hududiy konsentratsiya" klaster vositasini tatbiq etish avvalo, muqaddas qadamjoni sifatli holatga - diqqatga sazovor qadamjoga aylantirish, so'ngra yanada sifatli holatga - jozibador ziyoratgohga aylantirishni taqozo etadi va keyinchalik ular negizida raqobatbardosh ziyorat klasterini shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ziyorat destinatsiyasi deganda biz "sayohat maqsadi amalga oshiriladigan ziyorat-turistik mintaqani"ni tushunamiz.

"Ziyorat destinatsiyasi" kategoriyasining o'ziga xos xususiyati uning tarkibiy qismlaridan iborat. Agar diqqatga sazovor qadamjolar faqat ziyorat-turistik takliflarni, ya'ni potensial sayohatchilar nuqtai nazaridan jozibador

qadamjolarini tavsiflasa, jozibador ziyorat destinatsiyalari ham geografik, ham marketing komponentlarini o'z ichiga oladi. Destinatsiyaning geografik tarkibiy qismi diqqatga sazovor muqaddas joylar shaklida namoyon bo'ladi. Uning marketing komponentiga kelsak, u ziyorat maqsadi shaklida namoyon bo'ladi. Demak, "ziyosat destinatsiyasi" klasterning fundamental komponenti sifatida destinatsiyadagi ziyoratga bo'lgan talabning muayyan hududdagi ziyorat taklifi bilan uyg'unlik darajasini ifodalaydi. Muqaddas qadamjolarini ziyorat klasterlariga aylantirish eng muqaddas qadamjolarini obodonlashtirish va kapital ta'mirlash bilan bog'liq kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni, muqaddas qadamjolarida diniy marosimlarni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni, umumiy va turistik infratuzilmani rivojlantirishni taqozo etadi.

Vertikal integratsiya

Ziyorat turizmini klasterli tashkil etish ziyorat-turistik xizmatlar majmuasining texnologik zanjirini yaratishni nazarda tutadi. Buning uchun xizmat ko'rsatish jarayonining barcha ishtirokchilari birlashishi kerak. Bunday klasterli birlashma vertikal integratsiya doirasida amalga oshiriladi. Vertikal integratsiya bozorda qo'shimcha raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash va sotishda ishlab chiqarish jarayonining turli texnologik bosqichlarida ishtirok etuvchi mustaqil ilgari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy uyg'unlashuvini ifodalaydi [7]. Bunday integratsiyada ziyorat klasteri xizmat ko'rsatish majmuasi zanjirining barcha bo'g'inlarini nazorat qila boshlaydi. U endi xizmatlarni yetkazib beruvchilardan sotib olmaydi, aksincha yetkazib beruvchini firmaning tarkibiy tuzilmaviy bo'g'iniga aylantiradi. Bunday integratsiya natijasida tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va xizmat ko'rsatishning butun jarayonini tezlashtirish hisobiga xizmatlar tannarxi pasayadi. "Transaksiya" lotincha "transactio" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sir" degan ma'noni anglatadi. Transaksiya xarajatlari - bu bevosita xizmatlarni yaratishga (turistik paketni yaratish, ish haqi, ovqatlanish, tashish va boshqalar) emas, balki ushbu xizmatlar bilan bog'liq faoliyat uchun zarur bo'ladigan barcha ma'lumotlarni to'plash va izlash, turli bitimlar, shartnomalar, kelishuvlar va boshqalarni tuzish uchun bilvosita xarajatlarni o'z ichiga olgan xarajatlardir [17]. Transaksiya xarajatlarning quyidagi turlari farqlanadi: - axborotni izlash xarajatlari (narxlar, yetkazib beruvchilar, xaridorlar, vositachilar, raqobatchilar haqida); - xo'jalik shartnomasini tuzish xarajatlari (muzokaralar olib borish va qarorlar qabul qilish, shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish); - o'lchash xarajatlari (o'lchash xarajatlari o'lchash uskunalari sotib olish bilan bog'liq); - ixtisoslashtirish va mulk huquqlarini himoya qilish xarajatlari; - opportunistik xatti-harakatlar xarajatlari (ya'ni iqtisodiy agentlar o'z

faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan nohalollik va aldash, ma'lumotlarni yashirish bilan bog'liq xarajatlar) [14].

Shuni ta'kidlash kerakki, ziyorat klasterini yaratish jarayonida uning bo'linmalarini bunday integratsiyasini shakllantirishning adekvat turini tanlashga e'tibor qaratish kerak. Vertikal integratsiyaning ikki turi farqlanadi [5]:

1) "orqaga integratsiya" (teskari) - kompaniya yetkazib beruvchilarni sotib oladi yoki ular ustidan nazoratni kuchaytiradi, bu uning xo'jalik faoliyatining butlovchi buyumlar narxlarining o'zgarishiga va yetkazib beruvchilarning boshqa talablariga bog'liqligini kamaytirishga, ularning narxini pasaytirishga, xom ashyo va materiallar sifatini yaxshilashga imkon beradi.

2) "oldinga integratsiya" (to'g'ridan-to'g'ri) - qiymat zanjirining keyingi bosqichlari (ishlab chiqarilgan mahsulot iste'molchilari) bilan birlashish degani. Korxona o'ziga sotish funksiyalarini (tashish, logistika, servis, sotishning o'zi) bajaruvchi tashkilotlarni qo'shib oladi.

Klasterni shakllantirish doirasida vertikal integratsiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: klasterni shakllantirish ta'minotchilarga tayanmasligi kerak; klasterni shakllantirish vertikal integratsiyadan foydalanadi, bunda uning ta'minotchilari katta bozor kuchiga ega bo'lib, shartlarni belgilay oladi; vertikal integratsiya klasterni shakllantirishga ko'lam orqali tejamkorlikni ta'minlaydi va shunda biznes hajmi xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi; vertikal integratsiyali klasterni shakllantirish xarajatlar va xizmatlar narxini pasaytirishi mumkin [19].

Gorizontal kooperatsiya

Klasterga kiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar alohida, bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat yuritmaydi, balki doimiy o'zaro aloqa va o'zaro ta'sirga muhtojdir, ya'ni klasterning shakllanishiga kooperatsiya jarayoni xosdir. Kooperatsiyalashuv klaster va ixtisoslashuvda mehnat taqsimotiga ko'maklashib, unumdorlik va resurs qaytimini oshiradi [16, 133-b.].

Klasterlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyati firmalar, kompaniyalar, konsernlardan farqli o'laroq, ularning tarkibida kooperativ birlashmalarning asosiy ishtirokchilari bo'lgan kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlarining ustunligidir. Ziyorat klasterlari doirasida iste'mol, qishloq xo'jaligi, transport kooperatsiyalarini tashkil etish mumkin. Klaster faoliyatini turli kooperativlar shaklida tashkil etish orqali uning ishtirokchilari faoliyatini maqbullashtirish va bozordagi mavqeini ham raqobat, ham kooperatsiya (klasterning barcha ishtirokchilari uchun umumiy bo'lgan xarajatlarni tejash) orqali mustahkamlash imkoniyatlari yaratiladi. [22, 68-b.].

Klaster doirasidagi kooperativlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. N.G.Volodinning fikricha, kooperativ boshqa tashkilot va yakka xo'jalikdan mulkchilik tuzilishi va nazorat tizimi bilan

farq qiladi. Uning investorlarga tegishli firmadan farqi turli maqsadlar natijasidir: birinchisi o'z egalariga eng yaxshi xizmatlarni ko'rsatadi, ikkinchisi esa ularga investitsiyalardan yuqori daromad keltiradi. Yakka xo'jalikdan farqli o'laroq, kooperativda a'zolar ko'p bo'lib, ularning barchasi teng huquqlarga ega. [20, 10-b].

Klaster doirasidagi biznes hamkorlarning kooperativ o'zaro aloqalari asosini gorizontal integratsiya tashkil etadi. Gorizontal integratsiya - bu bir tarmoq yoki bir nechta tarmoq osti korxonalarini birlashtirishning bir turidir. Bunday integratsiya bir firma boshqa bir xizmat ko'rsatish sohasida va xizmat ko'rsatishning bir bosqichida bo'lgan boshqa firmani nazorat ostiga olganda yoki yutib yuborganda sodir bo'ladi. Ushbu turdagi integratsiya ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarida, savdo zanjirining bir bo'g'inida, bozorning bir segmentida, bir tarmoqda ishlaydigan va raqobatlashadigan, bir xil turdagi yoki o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqarishga yoki bir xil yoki o'xshash xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan firmalarni nazarda tutadi [6].

Gorizontal integratsiyaning ijobiy oqibatlariga: ishlab chiqaruvchilar sonining kamayishi; sinergetik samaraga erishish; yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning bozorga ta'sirini kamaytirish; raqobatbardosh ustunliklarga erishish; o'z ishlab chiqarish jarayonini himoya qilish va o'z mavqeyining barqarorligini ta'minlash uchun raqobatbardosh qarama-qarshilikdan kelib chiqadigan xavf darajasini pasaytirishni kiritish mumkin. [15].

Qo'shilgan qiymat zanjiri

Klaster doirasida uning raqobatbardoshligi omili sifatida qo'shilgan qiymatning roli ortib bormoqda. Klaster bo'linmalarida ziyorat xizmatlarini yaratish va ko'rsatish jarayonida qo'shilgan qiymat qancha ko'p yaratilsa, turistik klasterning raqobatdosh ustunligi va samaradorlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Qo'shilgan qiymat deganda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan yaratilgan mahsulot yoki xizmat qiymatining u tovar ishlab chiqarishda yoki xizmat ko'rsatishda foydalanadigan moddiy resurslar qiymatiga nisbatan ortishi tushuniladi [3, 72-b.]. Qo'shilgan qiymat "ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan (ya'ni oraliq iste'mol) ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati o'rtasidagi farqqa tenglashtiriladi". Iqtisodiy ko'rsatkich sifatida qo'shilgan qiymatga ish haqi xarajatlari summasi va kapital foizi, renta va foyda kabilar kiradi. [4].

Maykl Porter ta'kidlaganidek, qiymat yaratish zanjiri qiymat nimadan iborat ekanligini ko'rish imkonini beradi; u qiymat yaratish bo'yicha faoliyat turlari (ichki va tashqi logistika, ishlab chiqarish jarayoni, marketing va chakana savdo; xizmat ko'rsatish) va foyda yoki ustamalardan iborat [9, 871-b.]. Klaster doirasida qiymat yaratish zanjiri turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi asosiy va qo'shimcha tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni va ushbu hamkorlikdan

olinadigan iqtisodiy foydani aks ettiradi. Gap shundaki, bir geografik hududda birlashgan ziyorat xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlar qiymat zanjiri bilan bog'lanadi. Ziyorat-turizm klasterida qiymat zanjiri tizimi to'rt turdagi zanjirlardan iborat: 1) yetkazib beruvchilar (transport va aloqa kompaniyalari) qiymat zanjiri; 2) joylashtirish va ko'ngilochar maskanlar zanjiri; 3) turistik mahsulotlarni sotish kanallari zanjiri (turoperatorlar, turagentlar); 4) turistlarning o'zlari zanjiri [1, 53 -b.].

Raqobatli benchmarking

Firma, kompaniya, korporatsiya va xo'jalik yuritishning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, klaster tarkibiy bo'linmalar o'rtasida ichki raqobat uchun qulay imkoniyatga ega. Klasterlashning sinergetik samarasi raqobatdan ilgari konsolidatsiya bilan bog'liq [8, 98-b.]. Klaster ichida raqobatni klaster vositasi - "Raqobatli benchmarking" ta'minlashi kerak. Benchmarking (inglizcha "bench" - "daraja," "mark" - "belgi") - o'z biznesini yaxshilash uchun boshqa kompaniyalardan bilim va ma'lumot olish maqsadida ularni o'rganish. Benchmarking - bu menejment va biznes yuritishning eng yaxshi usullarini topish va o'rganish jarayonidir. Benchmarking - boshqalarning eng yaxshi bajargan ishlarini topish yoki aniqlash va keyinchalik boshqalarning ish usullarini o'rganish, takomillashtirish va qo'llash san'ati. Benchmarkingning eng keng tarqalgan turlariga quyidagilar kiradi: ichki, funksional, global, umumiy va assotsiativ benchmarking, raqobatbardoshlik benchmarking; jarayon benchmarking [21].

Raqobatli benchmarking jarayoni ketma-ket harakatlarning quyidagi sakkizta bosqichidan iborat [2]:

1-bosqich. Takomillashtirilishi lozim bo'lgan funksiyalar va biznes-jarayonlarni aniqlash.

2-bosqich. Tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarni belgilash.

3-bosqich. O'rganilayotgan tarmoq ichidagi va undan tashqaridagi eng yaxshi iqtisodiy subyektlarni identifikatsiyalash.

4-bosqich. Tanlangan yo'nalish bo'yicha to'plangan ko'rsatkichlarni baholash.

5-bosqich. O'lchash ma'lumotlarini tayyorlash.

6-bosqich. Yetakchi va shaxsiy ko'rsatkichlarni taqqoslash va tahlil qilish.

7-bosqich. O'tkazilgan tadqiqot asosida xatolar ustida ishlash.

8-bosqich. Joriy etish, qayta ishlash va yakunlash.

Destinatsion marketingi

Destinatsion marketingi - ziyorat xizmatlariga turistik talabni tashkil etishning mintaqaviy usullari va shakllaridir. Uning vazifasi destinatsiya talabining paydo bo'lish vaqti va joyini aniqlash, ziyorat destinatsiyasining turistik xizmatlariga bo'lgan talab hajmi va tarkibini shakllantirishdan iborat. Bizning fikrimizcha, marketingning destinatsion konsepsiyasi

ikkita nazariy qoida asosida shakllanishi mumkin. Birinchidan, talabning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq marketing nazariyasi qoidalari. Ikkinchidan, mintaqaviy tovar taklifi tizimini yaratish va boshqarish bilan bog'liq mintaqaviy menejment nazariyasi qoidalari.

Destinatsion marketingi konsepsiyasi, nazarimizda, ziyorat-turistik xizmatlar bozori bilan bog'liq to'rtta marketing harakatidan iborat:

- jozibador ziyorat destinatsiyalarini barpo etish;
- destinatsiya mahsulotiga maqbul narx belgilash;
- destinatsiyalar bo'ylab sayohatlarni tijorat asosida tashkil etish;
- reklamani tashkilotish, sayohatlarni rag'batlantirish va ziyorat destinatsiyalari brendini ishlab chiqish.

Turizm sohasida destinatsion marketing konsepsiyasini qo'llash uning vositalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ushbu marketing vositalarining mazmunini biz tavsiya etayotgan O'zbekiston shaharlari - Toshkent, Samarqand va Buxoro hududida joylashgan tasavvufiy-muqaddas joylarni geografik jihatdan qamrab olgan "Tasavvuf sultoni - Bahouddin Naqshbandning vatani" (qisqacha "Tasavvuf haji" deb ataladi) yangi tasavvufiy-ziyosat maskaniga nisbatan ko'rib chiqamiz. Tavsiya etilgan destinatsiya ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi:

1. So'fiylarning tasavvuf qadamjolarida tasavvufiy-diniy marosimlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi ziyorat xususiyati.

2. Tasavvuf falsafasini o'rganish maqsadida tasavvuf ziyoratgohlariga tashrif buyurish yoki turizmning boshqa turlari doirasida turli toifadagi sayyohlarning ushbu ziyoratgohlarga ziyorat qilishida ifodalanadigan ma'rifiy xususiyati. Shuning uchun biz "Tasavvuf haji" destinatsiyasini ziyorat-ma'rifiy deb ataymiz [10].

Marketing faoliyatining muhim vositasi bozorni bilishdir. Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi: bozorni kompleks o'rganish, bozorni segmentlash va tovarni bozorda pozitsiyalash. Avvalo, "Tasavvuf haji" ziyorat-ma'rifiy destinatsiyasi bozorining sig'imini aniqlash muhim. Agar har yili 4 milliondan ortiq musulmonlar Makka va Madinada qat'iy belgilangan vaqtda katta haj ibodatini amalga oshirayotgan bo'lsa, ularning ko'pchiligi yetarli va ishonchli marketing ma'lumotlari va xizmat ko'rsatish tizimi bilan yilning istalgan qulay vaqtida Toshkent, Samarqand va Buxoroda "Tasavvuf haji"ni amalga oshirishlari mumkin. "Tasavvuf haji" ziyorat-ma'rifiy destinatsiyasi bozorining sig'imi yiliga 500 mingdan ortiq kishini tashkil etishi mumkin.

"Tasavvuf haji" ziyorat-ma'rifiy destinatsiyasi marketingining tovar siyosatini shakllantirish tasavvuf ziyoratchilari ehtiyojini qondira oladigan ziyorat mahsulotini yaratish bilan bog'liq. Ziyorat talabining o'ziga xos xususiyatlari va uni sifatli qondirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, "Tasavvuf

haji" destinatsiyasiga "Tasaffuf safari" dasturini tuzdik.

Xulosa qilib aytganda, tasavvufiy qiziqishlarga asoslangan ziyorat turizmining destinatsion marketing rivojlanishi O'zbekistonda tasavvuf g'oyasiga qiziqqan yuz minglab xorijiy ziyoratchilarni tasavvuf sultoni - Bahouddin Naqshband Vataniga jalb qila oladigan nufuzli "Tasavvuf haji" ziyorat va diniy-ma'rifiy destinatsiyasini yaratish orqali turistik xizmatlarning tovar diversifikatsiyasini amalga oshirish imkonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Klasterlarning raqobat ustunligini ta'minlashning muhim vositalari sifatida diqqatga sazovor joylarning mintaqaviy geografik transformatsiyasi, vertikal integratsiya, gorizontal kooperatsiya va qiymat zanjirini yaratish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uning yangi jihati - klasterning "organik tuzilishi"ni o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, klasterning organik tuzilishi uning iqtisodiy va tashkiliy tuzilishidan farq qiladi. Agar klasterning iqtisodiy tuzilishi uning vertikal tuzilishini, klasterning tashkiliy tuzilishi esa klaster doirasidagi mintaqaviy hamkorlikni ifodalovchi gorizontal tuzilmani tavsiflasa, klasterning organik tuzilishini klaster hosil bo'lishining ikkita mezon: klasterdagi xizmat ko'rsatuvchilarning "hududiy yaqinligi" va "qiymat yaratish zanjiri" asosida aniqlash mumkin.

2. O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyoratchilar oqimini ko'paytirish maqsadida geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan jozibador ziyorat ob'ektlari negizida yangi ziyorat klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Xususan, islom dinining yetti nafar shunday tabarruk zotlari qadamjolari negizida innovatsion ziyorat klasteri - "Buxoroi sharifning yetti piri"ni tashkil etishni tavsiya etamiz: 1) Abduxoliq G'ijduvoni; 2) Muhammad Orif Revgariy; 3) Mahmud Anjir Fag'naviy; 4) Xoja Ali Romitaniy; 5) Muhammad Boboyi Samosiy; 6) Sayyid Amir Kulol va 7) Bahouddin Naqshbandiy. Ushbu ziyoratgohlar islomning naqshbandiya ta'limoti oltin silsilasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hududiy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatining beshta ma'muriy hududi doirasida joylashgan.

3. "Raqobat benchmarking" klaster vositasi klaster ichidagi raqobatni rivojlantirish mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin, bu klasterning turli tarkibiy bo'linmalarining xizmat ko'rsatish faoliyatining haqiqiy holatini etalon bilan taqqoslashni amalga oshiradi. Yangi tashkil etilayotgan "Buxoroi sharifning yetti piri" ziyorat klasterining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida biz tomonimizdan

etalon ziyoratgoh - Bahouddin Naqshbandiy yodgorlik majmuasining ziyorat sig'imini islom tasavvuf ta'limotining oltin silsilasiga kiruvchi qolgan oltita muqaddas qadamjolar bilan qiyosiy baholash metodologiyasi va mezonlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

4. "Buxoroi sharifning yetti piri" klasteri doirasida ziyorat turizmini tashkil etishda "Destinatsiya marketingi" klaster vositasini qo'llash "O'zbekiston so'fiylik ziyoratgohlari bo'ylab tasavvufiy sayohat" yetti kunlik ziyorat dasturidan foydalanish va "Tasavvuf Sultoni Bahouddin Naqshband vatani - Buxoroi sharifga sayohat" reklama logini orqali foydalanish mumkin. Ushbu login tasavvuf g'oyasi bilan qiziquvchi yuz minglab xorijiy ziyoratchilarni Buxoroi sharifga jalb qilishi mumkin.

5. Ziyoratchilarning yetti kunlik tasavvuf safari davomida ovqatlanishini samarali tashkil etish maqsadida "Buxoroi Sharifning yetti piri" klasteri qoshida qishloq xo'jaligi va matlubot kooperativini tashkil etish tavsiya etiladi. Qishloq xo'jaligi kooperativiga hozirda har birida 2-4 gektardan sug'oriladigan yerlar mavjud bo'lgan 7 ta muqaddas qadamjo hududidagi ekin yerlarini birlashtirish mumkin. Ushbu agrokooperativ ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sabzavot va meva yetishtirish bilan shug'ullanadi hamda klasterning barcha restoranlarini ular bilan ta'minlaydi. Matlubot kooperativiga to'xtaladigan bo'lsak, uning vazifasiga klasterning umumiy ovqatlanish tizimini "Halol" (shariat ruxsat bergan) kabi iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash kiradi.

6. Ziyoratchilar uchun zarur bo'lgan servis xizmat turlaridan biri ziyoratgohda bo'lish davrida yashash hisoblanadi. Ziyoratchilarga mehmonxona xizmati ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida "Buxoroi Sharifning yetti piri" klasterining vertikal-integratsion tarkibiy bo'linmasi bo'lgan ziyoratgohlar yaqinida mehmonxonalar, xostellar va mehmon uylarining yagona zanjirini tashkil etishni tavsiya etamiz. Yetti muqaddas qadamjo ichida va atrofida joylashgan barcha tunash joylarini turar joy ob'ektlarining yagona zanjiriga birlashtirish va ularni haqiqiy klaster tuzilmasiga kiritish mumkin. Ziyoratchilarni joylashtirishning bunday amaliyoti "B&B" tipidagi kichik mehmonxonalar, xostellar va mehmon uylarini tashkil etish orqali mahalliy aholi orasidan ish o'rinlarini ko'paytirishga yordam beradi.

Shunday qilib, O'zbekistonda turizmni samarali tashkil etish va jadal rivojlantirish uchun mamlakatning minglab muqaddas qadamjolarining xalqaro nufuzini oshirishga, ichki va tashqi ziyoratchilar oqimini keskin ko'paytirishga yordam beradigan yuqorida ko'rsatilgan klaster vositalaridan keng foydalanish bilan bog'liq maxsus chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Navruz-zoda Zebiniso Baxtiyorovna Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD / Навруз-зода Зебинисо Бахтиёровна, доцент кафедры экономики Бухарского государственного университета, доктор философии / Navruz-zoda Zebiniso Bakhtiyorovna, Associate Professor of the Department of Economics of Bukhara State University, Doctor of Philosophy.

► zebinisonavruzzoda@gmail.com

■ <https://orcid.org/0000-0002-5904-8055>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Александрова А.Ю. (2007). Туристские кластеры: содержание, границы, механизм функционирования. Современные проблемы сервиса и туризма. №1. С.51-61.
- [2]. Андрей Моисеев. (2020) Бенчмаркинг: сущность, этапы и инструменты. <http://umom.biz/benchmarking-sushhnost-etapy-instrumenty/#ixzz6I9oSRU8L> (дата обращения: 20.03.2020).
- [3]. Демянова О.В., Рунова Е.В., Вдовина С.Д., Садыкова Д.Р. (2016). Теоретико-методологические аспекты формирования добавленной стоимости // ПСЭ (Вопросы экономической теории. Макроэкономика). №4 (60). С.72-76. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoretiko-metodologicheskie-aspekty-formirovaniya-dobavlennoy-stoimosti> (дата обращения: 15.01.2020).
- [4]. Финансово-кредитный энциклопедический словарь (2002) // Под ред. Грязновой А.Г. // М.: «Финансы и статистика».
- [5]. Harrigan K.R. (1985). Vertical Integration and corporate strategy // The Academy of Management Journal, V. 28. № 2. P. 397-425.
- [6]. Горизонтальная интеграция. <https://biznes-prost.ru/gorizontalnaya-integraciya.html> (дата обращения: 22.03.20).
- [7]. Кожевников С.А. (2016). Вертикальная интеграция производства как ключевое условие модернизации экономики России // Современные научные исследования и инновации. № 7 [Электронный ресурс]. URL: <http://web.snauka.ru/issues/2016/07/70087> (дата обращения: 02.02.2020).
- [8]. Кластерная экономика и промышленная политика: теория и инструментарий (2015) / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та. – 588 с.
- [9]. Майкл Портер (2016). Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. Издание на русском языке, перевод, оформление. ООО «Алпина Паблишер», 871 с.
- [10]. Navruz-Zoda, B., Navruz-Zoda, Z. (2016) 'The Destination Marketing Development of Religious Tourism in Uzbekistan', International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage: Vol. 4: Iss. 7, Article 3. Doi:10.21427/D7G01X.9-20 pp.
- [11]. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису (2020). <https://president.uz/ru/lists/view/3324> (дата обращения: 24.01.2020).
- [12]. Porter, M. E. (1998). Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review, 76(6), P: 77-90.
- [13]. Рубцова Н. В. (2014). Концептуальная модель туристского кластера: история вопроса и современный подход // Вестник РТГЭУ. №3 (71). Москва. С.49-70 URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnaya-model-turistskogo-klastera-istoriya-voprosa-i-sovremennyy-podhod> (дата обращения: 13.02.2020).
- [14]. Роналд Коуз (2007). Фирма, рынок и право. – М.: Новое издательство. – 224 с.
- [15]. Понятие вертикальной и горизонтальной интеграции (2020). <https://dividendoff.net/investitsii/gorizontalnaya-integraciya.html> (дата обращения: 22.03.20 г.).
- [16]. Смарикина Е.Ю. (2013). Аграрный кооперативный кластер — как форма организации сельскохозяйственной кооперации (на примере Тюменской области). С.132-135.
- [17]. Трансакционные издержки (2020). <https://economicportal.ru/ponyatiya-all/transakcionnye-izderzhki.html> (дата обращения: 11.02.20).
- [18]. Уляченко Л.А. (2012). Теория и методология реализации кластерного подхода в индустрии туризма (на примере Московской области). Автореферат дисс. д.э.н. Санкт-Петербург. С. 50.
- [19]. Вертикальная интеграция: определение, примеры, плюсы, минусы (2020). <https://ru.routestofinance.com/vertical-integration-pros-cons-and-examples> (дата обращения: 22.03.20).
- [20]. Володина Н.Г. (2010). Формирование и развитие организационных моделей сельскохозяйственной кооперации. Автореферат дисс. д.э.н. Москва. – 46 с.
- [21]. Воеводина Н. А., Логинова Е. Ю., Толберг В. Б., Кулагина А. В. (2020). Бенчмаркинг – инструмент развития конкурентных преимуществ. <http://>

litra.pro/benchmarking--instrument-razvitiya-konkurentnih-preimuschestv/voevodina-n-a/read/1
(дата обращения: 30.03.20 г.).

[22]. Заступов, А. В. (2015). Современные подходы к управлению производством на основе

формируемых экономических кластеров // Вестник Самарского государственного экономического университета. — 2015. — № 7. — с. 67–73.

Zamonaviy innovatsion shakllar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari

Uzaqov Jamshid Norboyevich

Возможности развития паломнического туризма на основе современных инновационных форм

Узаков Джамшид Норбоевич

Opportunities for the development of pilgrimage tourism based on modern innovative forms

Uzakov Dzhamshid Norboevich

Received: August 11, 2025 Revised: August 15, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy innovatsion shakllar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda ziyorat turizmi sohasida yangi texnologiyalar, raqamli platformalar va interaktiv xizmatlarning joriy etilishi orqali diniy-me'moriy obidalar, tarixiy qadamjolar va madaniy meros obyektlarini samarali targ'ib qilish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Xizmat ko'rsatishda xalqaro tajribalar asosida aqlli texnologiyalarga tayangan innovatsion yechimlarning ustun jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va ziyoratchilar uchun qulay sharoit yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari ziyorat turizmi sektorida innovatsion yondashuvlarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, mintaqada, qolaversa, O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishning kelgusidagi istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari yoritilgan. Kalit so'zlar: investitsiya, deskriptiv statistika, samara, o'rtacha qiymat, mediana, markaziy tendensiya.
- **Kalit so'zlar:** ziyorat turizmi, innovatsion shakllar, raqamli texnologiyalar, turizm infratuzilmasi, marketing strategiyasi, iqtisodiy samaradorlik.
- **Аннотация:** В статье анализируются возможности развития паломнического туризма на основе современных инновационных форм. Рассматриваются пути эффективного продвижения религиозно-архитектурных памятников, исторических святынь и объектов культурного наследия через внедрение в сферу паломнического туризма новых технологий, цифровых платформ и интерактивных услуг. На основе международного опыта раскрываются преимущества инновационных решений, основанных на «умных» технологиях в обслуживании. Кроме того, разрабатываются предложения по развитию региональной туристической инфраструктуры, совершенствованию маркетинговых стратегий и созданию комфортных условий для паломников. Результаты исследования направлены на повышение экономической эффективности применения инновационных

подходов в секторе паломнического туризма, при этом освещены направления дальнейшего развития данного направления как в регионе, так и, в частности, в условиях Узбекистана.

- **Ключевые слова:** паломнический туризм, инновационные формы, цифровые технологии, туристическая инфраструктура, маркетинговая стратегия, экономическая эффективность.
- **Abstract:** The article analyzes the possibilities of developing pilgrimage tourism based on modern innovative forms. It outlines ways to effectively promote religious-architectural monuments, historical sacred sites, and cultural heritage objects through the introduction of new technologies, digital platforms, and interactive services in the field of pilgrimage tourism. Based on international experience, the advantages of innovative solutions relying on smart technologies in service provision are revealed. In addition, proposals are developed for improving regional tourism infrastructure, enhancing marketing strategies, and creating comfortable conditions for pilgrims. The research results are aimed at increasing the economic efficiency of applying innovative approaches in the pilgrimage tourism sector, while highlighting the future development directions of this field both in the region and, in particular, in the context of Uzbekistan.
- **Key words:** pilgrimage tourism, innovative forms, digital technologies, tourism infrastructure, marketing strategy, economic efficiency.

KIRISH

Jahonda ziyorat turizmi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, mamlakatlar iqtisodiy o'sishi va madaniy aloqalarini kengaytirishga katta hissa qo'shmoqda. Ziyorat turizmi diniy va ma'naviy merosni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, "har yili taxminan 330 million kishi ziyorat maqsadlari bilan sayohat qiladi va bu sayohatlar ziyoratlarni, shuningdek, yil davomida muhim tarixiy va diniy joylarga ekskursiyalarni o'z ichiga oladi. Xalqaro turistlarning taxminan 25 foizi ziyorat turizmiga qiziqish bildirmoqda. 2023 yilda ziyorat turizmidan global daromad 15,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan va 2033 yilga kelib bu ko'rsatkich 41 milliard dollarga yetishi kutilmoqda [1]. Bu esa ziyorat turizmi nafaqat madaniy-ma'naviy qadriyatlarini asrash va targ'ib etish, balki iqtisodiy taraqqiyot, yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlar sohasini kengaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda ham muhim omilga aylanganini ko'rsatadi. Mazkur jarayonda innovatsiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, "aqlli ziyorat maskanlari" konsepsiyasi va interaktiv gid xizmatlarining joriy etilishi turistlar uchun qulaylik yaratibgina qolmay, sohaning raqobatbardoshligini oshiradi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Shu bois, ziyorat turizmining kelajagi innovatsiyalarni keng tatbiq etish bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular sohaning barqaror rivojlanishi, xalqaro miqyosda mavqeyini mustahkamlash va eng talabchan sayyohlar ehtiyojlarini to'liq qondirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [2]. Innovatsiya — bu fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni

boshqaruv, mehnatni tashkil etish hamda texnologiyalar sohasiga joriy etish jarayoni bo'lib, u mavjud tizimlarni takomillashtirish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, samaradorlikni oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan. Innovatsiya iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarishning texnik va texnologik darajasini oshirish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil hisoblanadi. U nafaqat texnik yangiliklarni, balki boshqaruv uslublari, marketing strategiyalari, xizmat ko'rsatish shakllari va ijtimoiy institutlarda yangicha yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi. Shu bois innovatsiya zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning poydevori, jamiyat hayotini sifat jihatidan yangilashning asosiy manbai va barqaror rivojlanishning kafolati sifatida qaraladi. Ziyorat turizmi — bu diniy-ma'naviy qadriyatlar asosida shakllanib, insonlarning muqaddas maskanlar, tarixiy va diniy obidalarni ziyorat qilishga yo'naltirilgan safarlarini qamrab oluvchi ko'p tarmoqli turizm faoliyatidir. U nafaqat ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarni qondirish, balki iqtisodiyotning ko'p tarmoqli rivojlanishiga turtki beruvchi, madaniy merosni asrab-avaylash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir. Shuningdek, ziyorat turizmi insonlarning ruhiy-ma'naviy jihatdan sog'lomlashuvi, jamiyatda ma'naviy uyg'oqlik va barqarorlikni ta'minlashda ham alohida ahamiyat kasb etadi [3]. Soha rivoji uchun innovatsion shakllarni joriy etish orqali ziyorat turizmini yangi bosqichga olib chiqish va uni barqaror rivojlantirishga erishish mumkin. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar turistik xizmatlar sifatini oshirish, diniy-ma'naviy obidalarni keng targ'ib etish, xalqaro sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish hamda turizm infratuzilmasini

modernizatsiya qilishda muhim o'rin tutadi. Shu bois mamlakatimiz oldida ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati mavjud. Bunday loyihalar qatoriga raqamli gid tizimlari, onlayn ziyorat marshrutlari, "aqlli ziyorat maskanlari" konsepsiyasi, interaktiv mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari asosida targ'ibot vositalarini tatbiq etish kiradi. Mazkur innovatsion yechimlarni hayotga tatbiq etish orqali ziyorat turizmining iqtisodiy samaradorligini oshirish, xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlash va eng asosiysi, diniy-ma'naviy merosni asrab-avaylab, uni kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va innovatsion yondashuvlari ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, A.M.Höllinger (Daniya) turizmدا innovatsiyalar tasnifini ishlab chiqib, mahsulot, jarayon, boshqaruv va institutsional yo'nalishlarni ajratib ko'rsatgan hamda innovatsion modelni taklif qilgan. M.Otenbaxer (Yangi Zelandiya) turizm sanoatida innovatsion determinantlarni aniqlab, bozor tanlovi, kadrlar boshqaruvi strategiyasi va bozor qabul qiluvchanligining muhimligini asoslagan. Shuningdek, Y.Sandbu (Shvetsiya) yirik turistik korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini ko'rsatib, uyg'unlashgan ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan [4].

Innovatsiyalar samaradorligini baholash masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. M.Otenbaxer innovatsion faoliyat natijalarini iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy modellar asosida o'lchash usullarini ishlab chiqqan bo'lsa, L.Say va M.Testa (AQSh) kompleks baholash metodikasini ishlab chiqib, uni turistik korxonalar faoliyatiga tatbiq etganlar.

S.Gesslin (Shvetsiya) innovatsion texnologiyalarning global isish va iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashdagi rolini asoslab bergan. P.Romeyo (Ispaniya) esa turizmning barqaror turlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligini isbotlagan. F.Alberti (Italiya) innovatsiyalarning madaniy-tarixiy merosni saqlashdagi ahamiyatini ajratib ko'rsatgan.

Turizm marketingida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish bo'yicha ham ilmiy izlanishlar mavjud. Y.Sandbu va A.Maksimchuk (Polsha) marketing innovatsiyasi tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, xo'jalik faoliyati natijalari va innovatsion faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib bergan. D.Buhalis (Buyuk Britaniya) esa "e-turizm" (elektron turizm) tushunchasini kiritib, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn resurslar va mobil platformalarning

turizmда ahamiyatini asoslagan. E.Martinez-Ros (Ispaniya) innovatsiyalarni radikal va bosqichma-bosqich turlarga ajratib, qiymat zanjirida ishtirokchilarning qo'shimcha qiymat yaratishdagi rolini o'rgangan. Shuningdek, R. Lo (Gonkong) dinamik narx belgilash tizimlarini turizm talabini boshqarishda samarali mexanizm sifatida taklif qilgan [5].

Innovatsiyalar va raqobatbardoshlikning o'zaro bog'liqligi ham turli tadqiqotlarda keng yoritilgan. V.Alan (AQSh) turistik bozor raqobatbardoshligini innovatsion salohiyat bilan bog'lab izohlagan. X.Jang (Gonkong) turistik destinatsiyalar raqobatbardoshligini baholash metodikasini ishlab chiqqan bo'lsa, A.Malakauskaite (Litva) milliy turizm sektorining raqobatbardoshligini innovatsion omillar asosida tahlil qilgan.

Maxsus faoliyat sohalarida innovatsiyalarning qo'llanishi ham bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. K.Enn va J.Silupa (AQSh) xalqaro mehmonxona tarmoqlarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni asoslagan. O.F.Frida-Sintes (Ispaniya) mehmonxona biznesida inson kapitalini boshqarish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan innovatsion g'oyalarni ilgari surgan. E.Martinez-Ros mehmonxona korxonalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ularning bozor ustunligini mustahkamlashni asoslagan. R. Lo (Gonkong) mobil texnologiyalardan foydalanish orqali turizm samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib bergan, D. Buhalis esa destinatsiyalarni boshqarishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishning dolzarbligini ta'kidlagan [6]. Innovatsion faoliyatda turizm biznesi to'plangan bilimlar poydevoriga tayanadi. Yangi g'oyalarni amalga oshirish va turizmning yangi yo'nalishlarini yaratishga faqat o'tmish va hozirgi davrdagi ish shakllari hamda usullarini o'rganib chiqqandan keyin kirishish lozim. Faoliyat sohasini chuqur anglash voqealarning rivojlanishini oldindan ko'ra bilish va raqobatchilardan ilgarilash imkonini beradi. Turizmда innovatsiyalarni joriy etishga mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, aholining ijtimoiy ahvoli, milliy qonunchilik, shuningdek, hukumatlararo va xalqaro bitimlar ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir mamlakatda turizm faoliyatida innovatsiyalar yuzaga kelishining sabablari va omillari turlicha bo'ladi. Biroq har qanday mamlakat uchun bir necha umumiy xususiyatlar mavjud:

- aholining boshqa mintaqalardagi turmush tarzini o'rganish va yangi bilimlarga ega bo'lishga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi;
- ko'plab klassik va an'anaviy sayohat yo'nalishlarining to'yinganligi;
- kiruvchi turizm bozoridagi ulushni yo'qotish xavfi;
- raqobatning kuchayishi, standartlashtirilgan global mahsulotlar taklifining ortishi;
- fuqarolarni o'z mamlakatining tabiati, madaniyati,

iqlimi o'xshash bo'lgan xorijiy hududlarga chiqib ketishini cheklash zarurati;

□ dam olish va sayohat uchun jozibador sharoitlarni uyg'unlashtirish orqali eng talabchan turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondirish;

□ texnologik inqilob va iqtisodiyotda xizmatlar ko'lamining kengayishi;

□ taklif iqtisodiyotidan talab iqtisodiyotiga o'tish [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologik asosini turizm nazariyasi, innovatsion menejment va iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalari tashkil etadi. Ishda tizimli yondashuv asosida ziyorat turizmi transport, mehmonxona xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Asosiy metodlar sifatida statistik va qiyosiy tahlil, sotsiologik yondashuv, innovatsion tahlil hamda prognozlash usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar UNWTO, Oxford Business

Group, Future Market Insights va statistika qo'mitasi manbalariga asoslandi. Innovatsion tahlil zamonaviy raqamli texnologiyalar va "aqli maskanlar" konsepsiyasining ta'sirini baholashga qaratilib, ziyorat turizmini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning raqobatbardoshlikni ta'minlash va barqaror o'sishni kafolatlashdagi roli ilmiy asosda aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2025 yilning yanvar-may oylarida O'zbekistonga turistik maqsadda kelgan xorijiy fuqarolar soni 4,2 million nafarni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi axborotiga asoslangan ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan mehmonlar soni 1,4 million nafarga, ya'ni 48,2 foizga ko'paygan.


Davlatlar	2024 yil (yanvar-may)	2025 yil (yanvar-may)	Farqi	O'sish sur'ati (%)
Qirg'iziston	865,0	1 280,1	+415,1	+48,0 %
Tojikiston	670,0	993,7	+323,7	+48,3 %
Qozog'iston	600,0	889,6	+289,6	+48,2 %
Rossiya	225,0	334,3	+109,3	+48,6 %
Afg'oniston	134,0	199,2	+65,2	+48,6 %
Turkmaniston	96,0	142,5	+46,5	+48,4 %
Turkiya	44,0	65,8	+21,8	+49,5 %
Xitoy	35,0	51,9	+16,9	+48,3 %
Hindiston	19,0	28,5	+9,5	+50,0 %
Italiya	12,0	17,4	+5,4	+45,0 %
Boshqa davlatlar	136,0	201,1	+65,1	+47,9 %
Jami	2 836,0	4 203,0	+1 367,0	+48,2 %

1-jadval.

2024–2025 yillar yanvar-may oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar oqimi (ming kishi).

Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning turizm salohiyati ortib borayotganini va sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligidan dalolat beradi. Eng ko'p turistlar quyidagi davlatlardan tashrif buyurgan: Qirg'izistondan – 1 280,1 ming kishi, Tojikistondan – 993,7 ming, Qozog'istondan – 889,6 ming, Rossiyadan – 334,3 ming, Afg'onistondan – 199,2 ming, Turkmanistondan – 142,5 ming, Turkiyadan – 65,8 ming, Xitoydan – 51,9 ming, Hindistondan – 28,5 ming, Italiyadan – 17,4 ming va boshqa davlatlardan jami 201,1 ming kishi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tashrif buyurgan turistlarning muayyan qismi asosan ziyorat turizmi maqsadida mamlakatimizga tashrif buyurmoqda. Chunki O'zbekistonda islomiy va jahon sivilizatsiyasi uchun muhim bo'lgan tarixiy-ma'naviy meros obidalari, ulug' allomalar qadamjolari, shuningdek, xalqaro miqyosda tan olingan va ilmiy hamda madaniy jihatdan yuksak ahamiyat kasb etuvchi ziyorat maskanlari mavjud. Bu maskanlar nafaqat diniy qadriyatlarni, balki insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shakllangan ilm-fan, ma'rifat va madaniyat



1-rasm.

Ziyorat turizmida innovatsion yondashuv

yutuqlarini ham o'zida mujassam etadi.

Bu raqamlar O'zbekistonning xalqaro turistik markaz sifatida obro'-e'tibori ortib borayotganini va mamlakatga qiziqish yil sayin o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yurtimizdagi 1250 dan ortiq diniy-ma'naviy obidalar va yuzlab muqaddas qadamjolarining mavjudligi, ziyorat turizmi salohiyatini yanada keng rivojlantirish imkoniyatini bermiqda. Bu esa iqtisodiyotga qo'shimcha qiymat qo'shish, aholi bandligini oshirish va O'zbekistonning xalqaro maydonda nufuzini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ziyorat turizmidagi innovatsiyalar — bu diniy-ma'naviy qadriyatlar va ziyorat maskanlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv mexanizmlari, marketing strategiyalari va xizmat ko'rsatish shakllarini yangilash va takomillashtirish orqali

safarlarni qulay, samarali va raqobatbardosh tashkil etishga qaratilgan yangiliklar majmuasidir. Innovatsiyalarni kompleks o'zlashtirish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganish, ijobiy natijalarni rejalashtirish va ularni boshqarish — turizm sohasidagi murakkab metodologik muammo hisoblanadi. Bu, eng avvalo, yangiliklarni tasniflash masalasi bilan bog'liqdir. Turizmida innovatsiyalar mohiyatini belgilashda muhim bo'lgan ma'lum tasnifiy belgilarga asoslaniladi.

Ziyorat turizmida innovatsion yondashuv diniy-ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali ushbu sohaning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks tizim sifatida qaraladi. Innovatsiyalar mazkur yo'nalishda bir qator belgilarga ko'ra tasniflanadi. Avvalo, ular turlari jihatidan infratuzilmaviy, xizmat ko'rsatish, marketing va texnologik innovatsiyalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan, ziyorat maskanlarida

zamonaviy transport-logistika tizimlari yoki mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatishni tashkil etish ushbu turdagi innovatsiyalarga misol bo'la oladi. Shuningdek, innovatsiyalar ta'sir ko'lamiga bilan ham farqlanadi: ular lokal darajadagi kichik loyihalardan tortib, regional, milliy va global miqyosdagi yirik tashabbuslarga ham bo'lishi mumkin.

Innovatsion yondashuvning muhim belgilaridan yana biri yangilik darajasidir. Bu borada innovatsiyalar takomillashtiruvchi — mavjud tizimlarni optimallashtirishga qaratilgan, yoki tubdan o'zgartiruvchi — mutlaqo yangi xizmat va texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, vaqt omili ham ahamiyatlidir: ayrim innovatsiyalar qisqa muddatda tezkor natijaga olib kelsa, boshqalari uzoq muddatli strategik rejalarning bir qismi sifatida amalga oshiriladi.

Ziyorat turizmida innovatsion yondashuvning eng muhim jihati uning ijtimoiy ahamiyatidir. U nafaqat ziyoratchilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash, ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va mamlakatning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, innovatsion yondashuv ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy strategik vositasi sifatida ko'rilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmini rivojlantirishda innovatsion yondashuv zamonaviy turizm sanoatining ajralmas omili hisoblanadi. Chunki an'anaviy ziyorat maskanlarini faqat diniy-ma'naviy markaz sifatida emas, balki innovatsion texnologiyalar yordamida global miqyosda targ'ib etiladigan madaniy-ma'rifiy ob'ekt sifatida namoyon etish imkonini beradi. Barcha innovatsion texnologiyalar ziyorat turizmi samaradorligini oshiruvchi muhim vositalar hisoblanadi. Xorijiy davlatlar — Hindistonning "spiritual trails" loyihasi, Turkiyaning sufiy festivallari va Marokashning diniy turizmni gastronomiya bilan uyg'unlashtirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar diniy turizmni yanada jozibador va iqtisodiy samarali sohaga aylantiradi. Shu asosda O'zbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirishda innovatsion yechimlarni keng qo'llash, uni raqamli, interaktiv va integratsion shaklda rivojlantirish orqali mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida innovatsion shakllarni joriy etish eng maqbul va dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, bu sohaning samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi. Shu maqsadda:

□ Ziyorat maskanlari faoliyatini samarali yo'lga

qo'yishda ularning mavjud resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanish orqali salohiyatini mustahkamlash hamda turistlarga xalqaro standartlarga mos xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash zarur. Shu jarayonda davlat mulkchilik huquqini o'z ixtiyorida saqlagan holda, ziyorat maskanlarini boshqaruvini xususiy sektor ishtirokiga berish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, bir tomondan, xususiy sektorning iqtisodiy manfaatdorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, ziyorat turizmini rivojlantirishda zamonaviy boshqaruv tamoyillari va ilg'or innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish imkonini beradi. Shu bilan birga, xususiy subyektlar zimmasiga innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish vazifasi yuklatilishi lozim;

□ O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida asosiy turistik oqim asosan Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga yo'nalgani bilan, mamlakatning boshqa hududlarida ham tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega ko'plab ziyorat maskanlari mavjud. Shu bois, mahalliy va xorijiy turistlarni ushbu maskanlarga kengroq jalb etish uchun zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi;

□ Ziyoratgohlar bilan bog'liq bo'lgan mashhur tarixiy va diniy shaxsiyatlarni ilmiy nuqtayi nazardan chuqur tadqiq etish, ularning hayoti va merosi haqida hujjatli hamda badiiy filmlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday mahsulotlar nafaqat keng jamoatchilikning tarixiy-ma'naviy bilimlarini boyitadi, balki xalqaro maydonda O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini targ'ib qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi;

□ Ziyorat maskanlarida yashil energiya (quyosh panellari, shamol turbinalari, bioenergiya va boshqa qayta tiklanuvchi manbalar) asosida "aqli infratuzilma"ni joriy etish zarur. Bunday tizim nafaqat muqaddas maskanlarning energetik mustaqilligini ta'minlaydi, balki ekologik toza muhitni yaratadi, xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi hamda uzoq muddatda barqaror turizm rivojiga xizmat qiladi;

□ Ilmiy tadqiqotlar va xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmini rivojlantirishda faqat ma'naviy-diniy yo'nalish bilan cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. Innovatsion yondashuv sifatida ziyorat turizmini mamlakatning geostrategik joylashuvi, mintaqaviy resurslari va milliy brendlari bilan uyg'unlashtirib, turizmning boshqa turlari (ekoturizm, gastroturizm, etnoturizm, sog'lomlashtirish turizmi) bilan integratsiyalashgan kompleks model asosida rivojlantirish taklif etiladi. Bu taklifning ilmiy yangiligi shundaki, u ziyorat maskanlarini faqat diniy-ma'naviy obyekt emas, balki keng qamrovli madaniy-ma'rifiy va iqtisodiy markaz sifatida namoyon etadi. Shu orqali mahalliy hunarmandchilik (masalan, Farg'ona atlaslari va do'ppisi), gastronomik brendlari (Samarqand nonlari, milliy

taomlar), hamda tabiiy-ekologik resurslar (Qashqadaryo tog' zonasi, Sirdaryo sohillari va h.k.) ziyorat turizmi xizmatlari bilan uyg'unlashtiriladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Uzaqov Jamshid Norboyevich, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, i.f.f.d., (PhD)// Узakov Джамшид Норбоевич, доцент Университета информационных технологий и управления, кандидат технических наук, (PhD) // Uzakov Dzhamshid Norboevich, Associate Professor of the University of Information Technology and Management, Candidate of Technical Sciences (PhD)

► jamshiduzokov0660@gmail.com

■ 0009-0002-6420-9076

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. <https://ntaonline.com/markets/>
- [2]. <https://oxfordbusinessgroup.com/>
- [3]. Новиков В.С. Инновации в туризме. М.: ИЦ

“Академия”, 2007. – 208 с.

- [4]. Леонид Давыденко, Дмитрий Ялтыхов. Методология развития инноваций в мировой индустрии туризма. Журнал международного права и международных отношений. Journal of International Law and International Relations. - 2016. - № 3-4.
- [5]. Афанасев О.Е. Инновационные тренды в контексте глобальных угроз пандемии. COVID-19: механизмы для туристской отрасли/ О. Е. Афанасев, А. В. Афанасева // Современные проблемы сервиса и туризма, 2020. – Т. 14. – № 4. – С. 7-26.;
- [6]. Ergashev R.X, Uzoqov J.N. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasida xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati. Buxoro davlat universiteti, xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024-yil 15-iyun. “Durdona” nashriyoti, B. 336-342. 2.
- [7]. Давыденко Л., Ялтыхов Д. Методология развития инноваций в мировой индустрии туризма // Журнал международного права и международных отношений. 2016. № 3-4 (78-79). С. 60—65.

Xizmatlar va turizm sohasi

Ziyorat turizmi rivojida davlat ishtirokining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir omillari

Uzaqov Norboy, Uzaqov Jamshid Norboyevich

Экономические и социальные факторы влияния государственного участия в развитии паломнического туризма

Узаков Норбой, Узаков Джамшид Норбоевич

Economic and social factors of the state participation impact on the development of pilgrimage tourism

Uzakov Norboy, Uzakov Dzhamshid Norboevich

Received: August 11, 2025 Revised: August 15, 2025 ■ Accepted: August 19, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada ziyorat turizmi rivojida davlat ishtirokining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir omillari tahlil qilinadi. Ziyorat turizmi nafaqat mamlakatning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilashda ham muhim omil sifatida qaraladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, investitsiya dasturlari hamda infratuzilma loyihalari ziyorat turizmining barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, davlatning samarali tartibga solish tizimi ijtimoiy-madaniy integratsiyani kuchaytirib, diniy-ma'naviy merosni asrash va targ'ib qilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy ahamiyatni ta'minlashda davlat siyosati, xususi sektor hamkorligi hamda jamoatchilik ishtirokining o'rnini alohida yoritiladi.
- **Kalit so'zlar:** ziyorat turizmi, davlat ishtiroki, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy ta'sir, tartibga solish tizimi, turizm siyosati, barqaror rivojlanish, infratuzilma, xususi sektor hamkorligi, madaniy meros.
- **Аннотация:** В статье анализируются экономические и социальные факторы влияния государственного участия в развитии паломнического туризма. Паломнический туризм рассматривается не только как средство повышения конкурентоспособности страны на международном туристическом рынке, но и как важный фактор регионального экономического развития, создания новых рабочих мест и улучшения уровня жизни населения. Нормативно-правовые акты, инвестиционные программы и инфраструктурные проекты, реализуемые государством, выступают ключевыми факторами обеспечения устойчивого развития паломнического туризма. Вместе с тем эффективная система государственного регулирования способствует укреплению социально-культурной интеграции, сохранению и популяризации духовно-религиозного наследия. В исследовании особое внимание уделяется роли государственной политики, партнерства с частным сектором и участия общественности в обеспечении экономической эффективности и социальной значимости паломнического туризма.
- **Ключевые слова:** паломнический туризм, государственное участие, экономическая эффективность, социальное воздействие, система регулирования, туристическая политика, устойчивое развитие,

инфраструктура, государственно-частное партнёрство, культурное наследие.

- **Abstract:** The article analyzes the economic and social factors of state participation in the development of pilgrimage tourism. Pilgrimage tourism is considered not only as a means of increasing the country's competitiveness in the international tourism market, but also as an important factor in regional economic development, job creation, and improving the living standards of the population. Regulatory and legal acts, investment programs, and infrastructure projects implemented by the state are identified as key factors in ensuring the sustainable development of pilgrimage tourism. At the same time, the effective system of state regulation contributes to strengthening socio-cultural integration, preserving and promoting spiritual and religious heritage. The study pays special attention to the role of state policy, public-private partnership, and community participation in ensuring the economic efficiency and social significance of pilgrimage tourism.
- **Keywords:** pilgrimage tourism, state participation, economic efficiency, social impact, regulatory system, tourism policy, sustainable development, infrastructure, public-private partnership, cultural heritage.

KIRISH

Har bir sohaning rivojlanishida davlatning o'рни alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, turizm sohasida ham davlatning tashkiliy-huquqiy mexanizmlar asosidagi ishtiroki orqali sohada barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Jahonning ilg'or xorijiy mamlakatlari tajribasi ham turizmning samarali rivojlanishida davlat siyosati va tartibga solish tizimining hal qiluvchi omil ekanini isbotlab bermoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonining muhim o'ziga xosligi sifatida turizm sohasini rivojlantirish masalasiga ahamiyat qaratilmoqda. Turizmni modernizatsiya qilish, uni iqtisodiyotning drayver sohasi darajasiga ko'tarish hamda mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, turizmning faqatgina sayohat va hordiq chiqarish faoliyati emas, balki ijtimoiy-madaniy integratsiya va xalqaro hamkorlikni kengaytiruvchi mexanizm sifatidagi roli alohida ta'kidlanmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev mamlakatimizda turizmni jadallik bilan rivojlantirish, uni milliy iqtisodiyotning yetakchi va lokomotiv tarmoqlaridan biriga aylantirish vazifasini ilgari surgan holda "turizm – bu faqat sayru sayohat, mazmunli dam olishgina emas. U avvalo ellarni ellarga, dillarni dillarga bog'laydigan, mehnatkash va bag'rikeng xalqimizning boy madaniyati va tarixiy merosini, uning ochiq qalbini dunyoga namoyon qiladigan ko'zgudir[1]" deb ta'kidlaganlar.

Turizmni rivojlantirish yo'nalishida mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardan boshlab normativ-huquqiy zamin yaratilgan bo'lib, 1999-yilda "Turizm to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Keyinchalik, 2016-yil 2-dekabrda Prezidentning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861 sonli Farmoni tasdiqlanib, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot

qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi"ni tashkil etish va turizm xizmatlarini normativ asosda sertifikatlash kabi mexanizmlar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3509 sonli Qarori bilan xorijiy turistlar, jumladan, ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilar uchun viza berish va ro'yxatdan o'tish jarayonlarini bosqichma-bosqich soddalashtirish tartibi belgilab qo'yildi, 2019-yil 18-iyulda yangi "Turizm to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, sohaning huquqiy bazasi mustahkamlandi.

So'nggi yillarda esa turizm sohasi strategik ahamiyat kasb etib, huquqiy mexanizmlar yanada mustahkamlandi. Qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "xalqaro sayyohlar oqimini 15 million nafarga, ichki turizm ishtirokchilarini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchilar sonini 3 million nafarga yetkazish, xususi kapital va investitsiyalarni jalb etish orqali 30 ta yirik turizm klasterlarini shakllantirish hamda turistik xizmatlar eksport hajmini 5 milliard AQSH dollariga ko'tarish" ustuvor maqsad qilib belgilangan [2].

Davlat tomonidan qabul qilinib, amaliyotga joriy etilayotgan qarorlar, farmonlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning barchasida yagona maqsad mujassam. Bu maqsad – mamlakatimizda turizmni kompleks rivojlantirish, uning salohiyati va samaradorligini oshirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda milliy iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatishga erishishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ziyorat turizmi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soha dunyo mamlakatlarida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda (Henderson, 2016; Timothy & Olsen,

2006) ziyorat turizmi nafaqat diniy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, balki hududiy iqtisodiy o'sishga, bandlikni kengaytirishga va infratuzilmani yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi [3].

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish hamda ulardan foydalanish muammolariga ko'plab fundamental va amaliy tadqiqotlar bag'ishlangan. Xorijiy olimlardan N.Leyper, M.Tamma, U.Martini¹, hamda MDH davlatlari olimlaridan M.A.Morozov, S.S.Nikolayev, T.A.Sebekina², va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ushbu masala keng yoritilgan.

O'zbekiston bo'yicha ham qator manbalarda (Mirziyoyev, 2019; Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2020–2024) turizm, xususan ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekani ko'rsatiladi. Shuningdek, Jahon banki va BMT Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda turizmning tez sur'atlar bilan rivojlanishi xalqaro tajribalar bilan uyg'un holda olib borilayotganini tasdiqlaydi.

Mahalliy olimlar (Uzoqov J.N., Ergashev R.X., Xodjayev A.) o'z tadqiqotlarida ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida davlatning huquqiy asoslarni mustahkamlashdagi, xususiyl sektorini jalb etishdagi va infratuzilmani modernizatsiya qilishdagi rolini alohida ta'kidlab o'tishadi. Ularning ilmiy qarashlarida davlatning faol ishtiroki iqtisodiy samaradorlikni oshirishi bilan birga, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va xalqaro imijni yuksaltirish omili sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir omillari orqali mamlakat taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda hozirgi vaqtga qadar ziyorat maskanlari boshqaruv faoliyatini xususiyl tadbirkorlik subyektlariga o'tkazish, ziyorat obyektlari moliyaviy harakatini mustaqil o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish hamda ushbu jarayonda xususiyl sektor ishtiroki va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish masalalari bo'yicha yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmaganini ta'kidlash lozim.

METODOLOGIYA

Metodologiyaning asosiy vazifasi – davlat siyosati, tartibga solish tizimi va jamoatchilik ishtirokining ziyorat turizmi samaradorligiga ta'sirini aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotda ziyorat turizmi rivojida davlat ishtirokining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir omillarini tahlil qilish maqsadida ilmiy izlanishlarning nazariy va amaliy asoslari qo'llanildi. Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, taqqoslash, qiyosiy o'rganish va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari, turizmga oid qonun hujjatlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (Jahon turizm tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti) ma'lumotlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy o'rganilib, ularning ijobiy jihatlari milliy sharoitga moslashtirish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

MUHOKAMA

Mazkur ilmiy izlanishning asosiy maqsadi — ziyorat turizmini rivojlantirish jarayonida davlat ishtirokining mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga ko'rsatadigan ta'sir omillarini aniqlash va tahlil qilishdan iboratdir. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlar, investitsion dasturlar hamda infratuzilma loyihalari ziyorat turizmining barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va moliyaviy shart-sharoitlarni yaratmoqda. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, ziyorat turizmini rivojlantirish natijasida mamlakatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan bir qator iqtisodiy va ijtimoiy omillar yuzaga chiqadi. Iqtisodiy omillar qatoriga yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish, valyuta tushumlari va turizm xizmatlari eksportini oshirish kiradi. Ijtimoiy ta'sir omillari esa aholining turmush darajasini yaxshilash, mahalliy aholining turizm xizmatlarida bevosita ishtirokini ta'minlash, diniy-ma'naviy qadriyatlarni asrash va targ'ib qilish, madaniy merosni xalqaro miqyosda tanitishga xizmat qiladi.

1 - Leiper N. The framework of tourism: Towards a definition of tourism, tourist, and the tourist industry // *Annals of Tourism Research*, № 6(4), 1979. P. 390-407; Michelle Tamma, Destinazioni: concorrenza tra luoghi o tra sistemi di offerta? In Pechlaner H. e Weiermair K. (a cura di), *Destination Management*, Touring Club Italiano 2000, 50 p; Martini Umberto. *Management dei sistemi territoriali: Gestione e marketing delle destinazioni Turistiche*. Vol. 27. G Giappichelli Editore, 2015

2 - Морозов М.А. Дестинация – важнейший элемент туризма / М.А.Морозов, О.Коль. Туризм: практика, проблемы, перспективы. – 1998. – № 1. – С. 9.; Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства в регионе: (На прим. Санкт-Петербурга и Ленингр. обл.): автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / С.-Петербург. гос. ун-т экономики и финансов. – СПб., 2000. – 16 с.; Себекина Т.А. Формирование комплекса продвижения туристских услуг дестинации (на примере Камчатки): //Автореферат кандидата экономических наук. [Электронный ресурс]. – Москва.2006

Tadqiqotimiz davomida sohada davlat ishtirokining qanchalik darajada iqtisodiy va ijtimoiy omillar orqali ijobiy natijadorlikka olib kelayotgani chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mavjud kamchilik va muammolar aniqlanib, ularning sabab va oqibatlari ilmiy asosda baholanadi.

Mazkur jarayon natijasida sohaga oid takomillashtirish yo'nalishlari belgilab berilib, aniq fikr, taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Shunday qilib, ziyorat turizmi rivojida davlat ishtirokining samaradorligini oshirish va uning barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqilishi

ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

NATIJALAR VA TAHLIL

O'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra, O'zbekistonda turizm sohasi, xususan ziyorat turizmini rivojlantirishda davlat ishtirokining iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri tobora ortib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

1-jadval.

2024–2025 yillar yanvar–may oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar oqimi (ming kishi).

YILLAR	XORIJIY TURISTLAR SONI (MLN)	SHU JUMLADAN, ZIYORAT UCHUN TASHRIF BUYURGANLAR	TURISTIK XIZMATLAR EKSPORTI (USD MLRD)
2020	1,5	0,33	0,123
2021	1,88	0,42	0,648
2022	5,23	1,25	1,589
2023	6,6	1,71	2,143
2024	10,2	2,64	5,014 (yanvar–sentabr)

Bu jarayon mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil siyosatning amaliy samarasini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020–2021 yillarda global pandemiya oqibatida xorijiy turistlar oqimi keskin kamayib, turizm sohasi inqirozli vaziyatga duch keldi.

Biroq, 2022-yildan boshlab davlat tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar, vizani soddalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi, turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan yirik investitsion loyihalarining amalga oshirilishi natijasida sohada tiklanish jarayoni tezlashdi. Bu jarayonning asosiy omillari sifatida yangi turizm klasterlarining tashkil etilishi, mehmonxonalar va transport infratuzilmasining kengayishi, shuningdek, hududiy turizmni rag'batlantirish dasturlarini keltirish mumkin.

Natijada O'zbekiston qisqa muddat ichida xalqaro turizm bozorida o'z mavqeini tiklabgina qolmay, balki yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, ziyorat turizmi yo'nalishi mamlakatning boy madaniy va diniy merosini targ'ib etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli, davlat siyosatining uzluksiz qo'llab-quvvatlashi turizmning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Jadvalda 2020–2024 yillar davomida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, ular orasida ziyorat maqsadida

kelganlar soni va turistik xizmatlar eksporti ko'rsatkichlari keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar davlat tomonidan qabul qilingan islohotlar va amaliy mexanizmlar turizm sohasida, xususan ziyorat turizmida samarali natijalar bermoqda, degan fikrni isbotlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar sonida sezilarli dinamik o'sish kuzatilmoqda. 2020–2021 yillarda pandemiya oqibatida tashrifchilar soni keskin kamayib, mos ravishda 1,5 mln va 1,88 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yildan boshlab davlat tomonidan turizmni qo'llab-quvvatlash siyosati, vizani soddalashtirish jarayonlari hamda infratuzilma loyihalariga kiritilgan investitsiyalar natijasida turistlar oqimi barqaror tiklana boshladi. Natijada 2022-yilda 5,23 mln, 2023-yilda 6,6 mln, 2024-yilda esa 10,2 mln nafar xorijiy turist mamlakatga tashrif buyurgani qayd etildi. Bu esa davlat siyosatining amaliy samarasini yaqqol ko'rsatib bermoqda.

Xorijiy turistlar tarkibida ziyorat turizmining salmog'i ham bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Agar 2020-yilda 330 ming nafar xorijiy fuqaro diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan tanishish maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2,64 mln nafarga yetdi. Ushbu tendensiya ziyorat turizmining nafaqat diniy-ma'naviy merosni targ'ib qilish, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish va yangi xizmat ko'rsatish tarmoqlarini shakllantirishda ham

2-jadval

Ziyorat turizmi rivojida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir omillari

O'MIL TURI	TASNIFI	TAVSIFI
IQTISODIY OMILLAR		
Investitsiya oqimi	Infratuzilma va xizmatlar sohasiga sarmoya kiritish	Ziyorat maskanlari atrofida yo'llar, mehmonxonalar, transport va axborot texnologiyalari rivojlanishi
Bandlik darajasi	Yangi ish o'rinlari yaratilishi	Ziyoratchilar uchun gid, tarjimon, transport, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohasi ish o'rinlari
Valyuta tushumlari	Turistik xizmatlar eksporti	Ziyorat turizmi orqali xorijiy ziyoratchilardan tushadigan mablag'lar milliy iqtisodiyot daromadiga qo'shilishi
Hududiy iqtisodiy rivojlanish	Mahalliy iqtisodiyotning faollashuvi	Ziyorat maskanlari joylashgan hududlarda bozorlar, savdo va mahalliy mahsulotlarga talabning oshishi
Kichik biznes va tadbirkorlik	Mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash	Ziyoratchilar oqimi hisobiga oziq-ovqat savdo nuqtalari, milliy hunarmandchilik buyumlari do'konlari, transport xizmatlari rivojlanishi
IJTIMOIY OMILLAR		
Madaniy merosni asrash	Diniy va tarixiy obidalarni saqlash va targ'ib qilish	Davlatning qo'llab-quvvatlashi orqali ziyorat obidalarini restavratsiya qilish va jahon miqyosida targ'ib etish
Ijtimoiy integratsiya	Jamiyatning ma'naviy birligi va birdamligi	Ziyorat sayohatlari orqali millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni kuchaytirish
Mahalliy aholiga ta'sir	Aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish	Ziyoratchilar oqimi hududlarda aholi uchun barqaror daromad va xizmat ko'rsatish madaniyatini shakllantiradi
Xalqaro hamkorlik	Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash	Ziyorat turizmi orqali xalqaro diniy-madaniy aloqalar va diplomatik hamkorlik kuchayadi
Ilmiy-ma'rifiy ahamiyat	Ma'naviyat va ta'limni rivojlantirish	Ziyorat turizmi diniy-ma'naviy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish va ilmiy tadqiqotlarga turtki bo'ladi

muhim omilga aylanganini ko'rsatadi.

Turizm xizmatlari eksporti hajmi ham sohada olib borilgan islohotlarning bevosita natijasi sifatida jadal o'smoqda.

2020-yilda atigi 123 million AQSH dollarini tashkil etgan turistik xizmatlar eksporti 2024-yilning yanvar-sentabrida 5 milliard AQSH dollaridan oshdi. Bu holat turizmning, ayniqsa ziyorat turizmining mamlakat iqtisodiyotida strategik

daromad manbaiga aylanganini ko'rsatib beradi. Xususan, xorijiy tashrifchilarning ko'payishi eksport tushumlarini sezilarli darajada oshirib, milliy iqtisodiyotga barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ziyorat turizmini rivojlantirishda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy omillar asosan turizm xizmatlari hajmi, infratuzilma,

bandlik va mahalliy bozor faoliyati orqali namoyon bo'lsa, ijtimoiy omillar madaniy merosni asrash, aholining turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatish, diniy-ma'naviy qadriyatlarining mustahkamlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu omillar nafaqat minqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, balki mamlakat miqyosida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmi nafaqat diniy-ma'naviy qadriyatlarining targ'iboti, balki mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Davlat ishtirokining samarali tashkil etilishi turizm sohasida barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro turizm bozorida O'zbekistonning raqobatbardoshligini kuchaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, ziyorat turizmining salohiyatidan to'liq foydalanish uchun bir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

□ Ziyorat maskanlarini xususiy tadbirkorlik subyektlariga, mulk huquqi davlat ixtiyorida saqlangan holda, foydalanish uchun berish tartibini ishlab chiqish zarur. Bunday yondashuv xizmatlar sifatining oshishiga, turistik infratuzilmaning samarali rivojlanishiga, mahalliy aholining bandligi kengayishiga hamda eng avvalo, ziyorat maskanlarining saqlanishi va barqaror boshqarilishiga erishishga xizmat qiladi;

□ Bugungi kunda deyarli barcha ziyorat maskanlarini saqlash va ularning xarajatlari davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilmoqda. Ushbu jarayon davlatning iqtisodiy ishtirokini yaqqol ko'rsatib, muqaddas maskanlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlab kelmoqda. Biroq, uzoq muddatli istiqbolda davlat xarajatlarini kamaytirish va turizm sohasining o'zini-o'zi ta'minlash salohiyatini kuchaytirish maqsadida bosqichma-bosqich o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tish mexanizmini ishlab chiqish zarur;

□ Mazkur mexanizm orqali davlat nazorati mukammal yo'lga qo'yilishi, ziyorat maskanlariga tushadigan mablag'larning bank muassasalari orqali shaffof aylanishi ta'minlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv ziyorat maskanlarining saqlanishini kafolatlab, madaniy merosni asrash, diniy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda mahalliy aholining bandligini kengaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

□ Qaror va farmonlarni izchil tatbiq etish hamda yangi tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish asosida

– huquqiy asoslarni mustahkamlash;

□ Transport, ovqatlanish, mehmonxona va servis xizmatlarini zamonaviy talablarga moslashtirish yo'li bilan – infratuzilmani rivojlantirish;

□ Mahalliy aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda shu orqali xizmatlar sifatini oshirish – mahalliy aholi ishtirokini kuchaytirish;

□ Ziyorat maskanlarining xalqaro miqyosda tanilishini ta'minlash, samarali marketing strategiyalarini joriy etish natijasida – madaniy va ma'naviy merosni targ'ib qilish;

□ Turizm loyihalariga xususiy investitsiyalarni jalb etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish vositasida – davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish;

□ Raqamli texnologiyalarni amalga tatbiq etish orqali, mobil ilovalar va interaktiv xizmatlardan foydalanish negizida – innovatsion yechimlarni joriy etish.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Uzaqov Norboy Professor, i.f.d., Rossiya gumanitar fanlar akademiyasi akademigi, //Узаков Норбой Профессор, доктор философских наук, академик Российской академии гуманитарных наук, // Uzakov Norboy Professor, Doctor of Philosophy, Academician of the Russian Academy of Humanities,
■ 0009-0002-1073-3761
► norboyuzokov0660@gmail.com
2. Uzaqov Jamshid Norboyevich, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, i.f.f.d., (PhD) // Узаков Джамшид Норбоевич, доцент Университета информационных технологий и управления, кандидат технических наук, (PhD) // Uzakov Dzhamshid Norboevich, Associate Professor of the University of Information Technology and Management, Candidate of Technical Sciences (PhD)
► jamshiduzokov0660@gmail.com
■ <https://orcid.org/0009-0002-6420-9076>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son qonuni. 2019-yil 18-iyul.
- [2]. Navruz-Zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruzzoda Z.B., Navruz-Zoda Sh.B. Turizm hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. – Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" nashriyoti, 2017. – 156 b.
- [3]. Xudoyarov A. (2023). O'zbekiston turizm industriyasida ziyorat turizmining rivojlanish istiqbollari. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(15), 66–68
- [4]. Uzoqov J.N. "Qashqadaryo mintaqasida ziyorat

turizmining ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati va o'rne".//QAR MII "Innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali, ISSN: 2181-4732, Maxsus son, 2023 yil, dekabr, B. 136-142

[5]. Ergashev R.X, Uzoqov J.N. "Ziyorat turizmi tarmog'ining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari".//, Scienceproblems.uz. ilmiy-amaliy elektron jurnal, ISSN: 2181-1342, №2024-5 son, 4-jild, B. 57-62.

[6]. [https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-xiva-shahrida-arda-xiva-xalqaro-turizm-markazining-tantanali-ochilish-](https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-xiva-shahrida-arda-xiva-xalqaro-turizm-markazining-tantanali-ochilish-marosimidagi-nutqi)

[marosimidagi-nutqi.](https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-xiva-shahrida-arda-xiva-xalqaro-turizm-markazining-tantanali-ochilish-marosimidagi-nutqi)

[7]. <https://yuz.uz>Торговое управление

[8]. Daryo.uz

[9]. Статистика Узбекистана

[10]. <https://live.worldtourismforum.net/>

Avtotransport xizmatlarini baholash xususiyatlari

Norqobilov Jahongir

Особенности оценки автотранспортных услуг

Норкобилов Жахонгир

Characteristics of evaluation of auto transport services

Norkobilov Jakhongir

Received: August 13, 2025 Revised: August 16, 2025 ■ Accepted: August 18, 2025 ■ Published Online: September 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqolada avtotransport xizmatini baholashning paydo bo'lishi va ularning rivojlanishidagi bosqichlari o'z aksini topgan. Shuningdek, avtotransport xizmatini baholash xususiyatlari, rivojlanishi, avtotransport vositalaridan foydalanishda aholining turmush sifatini oshirish borasida avtotransport xizmatini baholashni samarali rivojlantirish, baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish, avtotransport xizmatini baholash boshqa turdagi obyektlarni baholashdan prinsipial farqlanishi tahlil qilingan. Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, davlat ishtiroki, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy ta'sir, tartibga solish tizimi, turizm siyosati, barqaror rivojlanish, infratuzilma, xususiy sektor hamkorligi, madaniy meros.
- **Kalit so'zlar:** avtotransport vositalari, baholash, xususiyatlari, aholi turmush sifati, qiymat, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi ehtiyoji, milliy an'ana va qadriyatlar, rivojlanish bosqichlari
- **Аннотация.** В статье отражено возникновение оценки услуг транспортных средств и этапы ее развития. Также рассмотрены особенности и развитие оценки транспортных средств, эффективное развитие оценки транспортных средств с точки зрения улучшения качества жизни населения при использовании транспортных средств, повышения достоверности результатов оценки, а также принципиальное отличие оценки транспортных средств от оценки других. Были проанализированы типы объектов.
- **Ключевые** слова: транспортные средства, оценка, характеристики, качество жизни населения, ценность, социально-экономическое развитие, потребности населения, национальные традиции и ценности, этапы развития.
- **Abstract.** The article reflects the emergence of vehicle evaluation and the stages of their development. Also, the characteristics and development of motor vehicle evaluation, the effective development of motor vehicle evaluation

in terms of improving the quality of life of the population in the use of motor vehicles, increasing the level of reliability of the evaluation results, and the principle difference of motor vehicle evaluation from the evaluation of other types of objects were analyzed.

- **Key** words: motor vehicles, assessment, features, population quality of life, value, socio-economic development, population needs, national traditions and values, stages of development

KIRISH

Mulk sifatida avtotransport vositalari o'ziga xos tomonlarga ega va baholash jarayonida uning bu xususiyatlari birlamchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida avtotransport xizmatining shaffof, haqqoniy, adolatli qiymatini aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Avtotransport xizmatini baholashni rivojlantirishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida moliya sektori va xususiylashtirish jarayonini tartibga solish, baholashning yondashuv va usullarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida avtotransport xizmatini baholash uslubiyatini natijalarning ishonchlilik darajasiga ko'ra takomillashtirish, baholashning samarali faoliyati muammolarini bartaraf etishning samarali yo'llarini asoslash, baholashning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda aholining turmush sifatini oshirish borasida avtotransport xizmatini baholashni samarali rivojlantirish, baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish va ochiqlikni ta'minlash kabilar yuzasidan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada avtotransport xizmatini baholash tasnifini takomillashtirish, baholashning samaradorligini belgilovchi ko'p o'lchovli iqtisodiy-matematik modelini yaratish, baholash xizmatlarining barqaror rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4381-sonli "Baholash faoliyatini yanada takomillashtirish hamda past rentabelli va faoliyat yuritmayotgan davlat ishtirokidagi korxonalarni sotish mexanizmlarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 1-iyundagi PQ-3764-sonli "Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2008-yil 24-apreldagi PQ-843-sonli "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Avtotransport xizmatini baholash xususiyatlari muammolari milliy va xorijiy olimlar hamda milliy mutaxassis-tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda. Xorijiy olimlar Dj.Fishmen, Sh.P.Pratt, K.Griffit, K.Uilson[1], A.V.Yudin[2] kabilar biznes (korxona), mashina va uskunalarni baholash xizmatlarini o'rganishgan, ammo avtotransport xizmatini baholash xizmatlarining o'ziga xos tomonlari ushbu olimlar ishlarida chuqur o'rganilmagan.

Milliy iqtisodchi olimlarimizdan B.Berkinov[3], M.M.Muxammedov[4], A.I.Alikulov[5] va boshqa olimlarning tadqiqotlari biznesni baholashning nazariy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlaridan foydalangan holda avtotransport xizmatini baholash xizmatlarining nazariy asoslari tadqiq qilingan va uni takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Mulk sifatida avtotransport vositalari o'ziga xos tomonlarga ega va baholash jarayonida ularning bu xususiyatlari birlamchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida avtotransport xizmatini baholashning metodikasini takomillashtirish orqali uning samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida avtotransport xizmatini baholash xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari masalalari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avtotransport xizmatini baholash xususiyatlari va baholashni tartibga solishning texnologik jihatlari shundan iboratki, u maxsus umumiy qabul qilingan usullar bilan amalga oshirilishi lozim. Mazkur jihatlar turli aktivlar qiymatini aniqlash me'yorlari, talablari, qoidalari va usullarini o'z ichiga qamrab oladi. Ular baholashni amalga oshirishning ilg'or texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish zarurligini nazarda tutadi.

Baholashni tartibga solishning ijtimoiy jihatlari faoliyatning

ushbu turi bilan band mutaxassislarning o'ziga xos xususiyatlari va ularga nisbatan qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, baholovchilarning javobgarligi, professionaligi va mustaqilligini o'z ichiga oladi.

Baholashning turlaridan biri ko'char mulkni baholash bo'lib, uning xizmatlari tarkibida avtotransport xizmatini baholash xizmatlari alohida o'ringa ega. Bunda baholash faoliyatining asosiy maqsadi bo'lib avtotransport vositalariga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanish bilan bog'liq jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat o'rtasida huquqiy munosabatlar yuzaga kelganda avtotransport vositalari qiymatini aniqlash hisoblanadi.

Avtotransport xizmatini baholash boshqa turdagi obyektlarni baholashdan prinsipial farq qiladi. Bu quyidagi asosiy sabablar bilan asoslanadi:

- avtotransport xizmatini baholashning boshqa obyektlaridan qator sezilarli funksional, konstruktiv va ekspluatatsion farqlarga ega;

- avtotransport xizmatlari qiymatiga ta'sir qiladigan omillar tarkibi va ta'siri boshqa baholash obyektlarinikidan keskin farqlanadi;

- avtotransport xizmatlariga nisbatan huquqiy, tashkiliy, informatsion va uslubiy jihatlari o'ziga xos spetsifik xususiyatlariga ega;

- avtotransport xizmatlari mobil vositalar hisoblanadi va yuqori havfli obyektlar sifatida tavsiflanadi, bu esa qiymatni baholashga alohida majburiyatlarni yuklaydi;

- avtotransport xizmatini rivojlangan ikkilamchi bozori ularni baholashda qiyosiy yondashuvning ustunligini belgilaydi, uning tarkibi va parametrlari esa baholash obyektlarining boshqa turlari tovar bozoridan keskin farqlanadi.

Mavjud normativ, uslubiy, informatsion va tashkiliy ta'minotining konseptual va metodologik asosining yo'qligi sababli avtotransport vositalariga nisbatan qiymatni baholash ahamiyatli darajada subyektiv xarakterga ega va baholash bo'yicha xizmatlarning zaruriy darajadagi sifatini ta'minlay olmaydi.

Avtotransport xizmatini baholash xususiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avtotransport sohasi korxonalarini xususiy lashtirish, asosiy vositalarni qayta baholash, fond bozorini shakllantirish, sug'urtalash, kredit berish va boshqa hollarda bozor iqtisodiyotining huquqiy va moliyaviy shart-sharoitlariga moslashishi bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan avtomobilsozlik sanoatining asosiy aktivlari bo'lgan avtotransport xizmatini baholashga qaratilgan yangi xizmat turiga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu turdagi aktivlarni baholashga bo'lgan ehtiyoj mamlakatda avtomobillashtirishning barqaror o'sishi tufayli doimiy ravishda oshib borayotganligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, avtotransport xizmatini baholash asosiy avtotransport faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, avtotransport korxonalariga taqdim etilayotgan xizmatlarning qo'shimcha turi sifatida tavsiya etilishi mumkin, bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga imkon beradi va mamlakat iqtisodiyotida bozor transformatsiyalari natijasida bo'shatilgan avtotransport sohasining professional kadrlari uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratish bo'yicha ijtimoiy vazifani hal qiladi.

Baholashning amaliy ehtiyoji zamonaviy qiymat nazariyasi va iqtisodiy metodologiyasining bir qismi bo'lgan baholash faoliyatini ilmiy qo'llab-quvvatlash shakllanishining faol jarayonini rag'batlantiradi. Hozirgi vaqtda, umuman olganda, baholash metodologiyasining umumiy tizim darajasining asosiy tamoyillari va qoidalari shakllangan bo'lib, ularning uslubiy vositalari, ularning butun tizim sifatleri va sintetik tuzilishi tufayli baholash faoliyatining aniq yo'nalishlarida foydalanish mumkin emas, ulardan biri avtotransport vositalariga nisbatan qiymatni baholash hisoblanadi.

Ushbu masala muhim iqtisodiy ahamiyatiga ega bulib, qator muammolarni yechish imkoniyatini beradi:

- mavjud me'yoriy, uslubiy, axborot, tashkiliy va o'quv-uslubiy ta'minotning konseptual va uslubiy asoslari yo'qligi sababli, avtotransport vositalari uchun xarajatlar smetasi asosan subyektiv tavsifga ega bo'lib, kerakli darajani ta'minlay olmaydi, baholash xizmatlarining sifati va ularning amaldagi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini yetarli darajada ta'minlay olmaydi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotida avtotransport xizmatini baholash bilan bog'liq katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi;

- avtotransport qiymatni baholash bo'yicha xizmatlarni ko'rsatishning ilmiy asoslangan uslubiyati mavjud emasligi iste'molchilarining katta miqdordagi moddiy va ma'naviy zarar ko'rishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan birgina yo'l-transport hodisalari natijasida yetkazilgan moddiy zarar miqdori to'g'risidagi axborotlarning obyektivligi sezilarli darajada kamayadi, bu yo'l harakati xavfsizligini dasturiy boshqarishning maqsadli ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi va avtotransportda havfsizlik muammolarini hal qilishda jamoatchilikning faol aralashuviga turtki bo'ladi.

Ushbu muammolarning ilmiy jihatdan hal etilishi baholovchilar uchun ham dolzarbdir. Avtotransport xizmatini baholash bozori juda katta sig'imga ega bo'lib, har yili baholashni talab qiladigan katta hajmdagi avtotransport operatsiyalari o'tkaziladi va yo'l-transport hodisalarida zarar ko'rgan ko'p miqdorda avtotransport vositalari baholanadi. Shuningdek, avtotransport xizmatining qiymatini bojxona maqsadlarida, soliqqa tortish va sug'urta qilish maqsadlarida baholash xizmatlari bozorining sektori ham yirik ulushni tashkil etadi.

Avtotransport xizmatini baholash deganda mutaxassis tomonidan asosiy baholash tamoyillari asosida baholashning yondashuvlari va usullarini qo'llash orqali avtotransport xizmatining izlanayotgan (tavsiya etilayotgan) qiymatini aniq vaqt lahzasi va makonida ma'lum tartib-taomillar va harakatlar asosida amalga oshiriladigan maqsadga yo'naltirilgan va mantiqiy ketma-ketlikda aniqlash jarayoni tushuniladi. Baholash xizmati professional asosga ega mutaxassis – baholovchi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda, boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, baholash xizmatlari faqatgina huquqiy subyektlar tomonidan ko'rsatiladi (boshqa mamlakatlarda baholovchi yakka tadbirkor sifatida ham faoliyat yuritishi mumkin). Ushbu tashkilotlarda shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan malaka sertifikatiga ega baholovchilargina o'z xizmatlarini sotishlari mumkin.

Shu o'rinda avtotransport xizmatining qiymati tushunchasiga ham izoh berib o'tish maqsadga muvofiq. Bu tushuncha avtotransport xizmatini baholash sohasi mutaxassis olimlari tomonidan ta'riflangan. Mazkur ta'riflarni tahlil qilgan holda, eng maqbul xususiyatlarni e'tiborga olgan holda quyidagi muallif ta'rifini ishlab chiqildi: "Avtotransport xizmatining qiymati deganda avtotransport xizmatining aniq bir vaqt lahzasida bozordagi holatdan kelib chiqqan holda haridor va sotuvchi o'rtasida belgilangan qadrining puldagi ifodasi tushuniladi".

Sohaga oid ilmiy izlanishlarni o'rganish asosida "Avtotransport xizmatini baholash xizmatlari" tushunchasining bugungi kunda aniq ta'rifini ishlab chiqilmaganligi haqida xulosa qilish mumkin. Mavjud adabiyotlar va ilmiy ishlarni o'rgangan va tahlil qilgan holda quyidagi ta'rifni ishlab chiqdik: Avtotransport xizmatini baholash litsenziyal baholash tashkilotlarining xizmatlar iste'molchisi (buyurtmachi) buyurtmasiga asosan baholash maqsadi va tanlangan qiymat turiga muvofiq avtotransport xizmatining bozor yoki boshqa qiymatini aniqlashga qaratilgan baholash xizmatlarining turi tushuniladi.

Baholash obyekti manfaatdor shaxslarning manfaatlari va baholash natijalaridan foydalanish maqsadlari nuqtayi nazardan turlicha qiymatlarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun qiymat tushunchasini qo'llashni faqat aniqlanayotgan qiymatning aniq turini ko'rsatish bilan amalga oshirish mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Avtotransport xizmatini baholashning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati, avtotransport xizmatini baholashning mohiyati va mazmuni hamda kelib chiqish

sabablari, shuningdek o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Eng asosiy xususiyatlaridan biri – bu avtotransport vositalari ko'chmas mulk, korxona va nomoddiy aktivlar singari davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va egalik huquqi tasdiqlanishidir.

Baholashning alohida turi sifatida avtotransport xizmatini baholash tushunchasining mualliflik ta'rifini ishlab chiqildi: "Avtotransport xizmatini baholash deganda litsenziyal baholash tashkilotlarining iste'molchisi (buyurtmachi) buyurtmasiga asosan baholash maqsadi va tanlangan qiymat turiga muvofiq avtotransport xizmatining bozor yoki boshqa qiymatini aniqlashga qaratilgan baholashning turi tushuniladi".

Mulk qiymati – sotuvchi va haridorning mulkdan olinishi mumkin bo'lgan naf va mulk qadrining puldagi ifodasi. Avtotransport vositalari qiymati turlarining ta'riflari manfaatdor shaxslarning manfaatlari va baholash natijalaridan foydalanish maqsadlari nuqtayi nazardan takomillashtirildi.

Milliy va xorijiy adabiyotlar hamda soha mutaxassislari va olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish asosida, zamonaviy baholash yondashuvlarini hisobga olgan holda avtotransport xizmatining zamonaviy tasnifi ishlab chiqildi. Baholash nuqtayi nazardan avtotransport xizmatining tasnifi baholovchilarga baholash obyekti mansub bo'lgan bozorni tahlil qilish, analoglarni va turdosh obyektlarni tanlash imkonini beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Norqobilov Jahongir Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi // Норкobilов Жахонгир самостоятельный соискатель Каршинского государственного технического университета // Norkobilov Jakhongir independent researcher of Karshi State Technical University

► norkobilovjakhongir@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0005-4550-8806>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Фишмен Дж., Пратт Ш.П., Гриффит К., Уилсон К. Руководство по оценке стоимости бизнеса. Пер. с англ. Л.И. Лопатников. Российское издание под редакцией В.М. Рутгайзера. – М.: ЗАО КВИНТО-КОНСАЛТИНГ, 2000. – 388 с.;
- [2]. Юдин А.В. Оценка стоимости транспортных средств. – М.: Московская финансово-промышленная академия, 2005. – 75 с.
- [3]. Беркинов Б., Кравченко А. Бизнесни баҳолаш: Ўқув

қўлланма. – Т.: Иқтисод ва молия, 2007. – 152 б.,,

[4]. Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2018. – 272 б.; Ходиев Б.,

[5]. Аликулов А. И. Харажатлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2010. – 196 б

September 2025

Volume 3

Number 4

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz